

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI» fakulteti  
«OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI» kafedrası

«Tasdiqlayman»

O'quv ishlari bo'yicha prorektor  
\_\_\_\_\_ Dots. Mutalov Sh.A.

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2015 y.

«Oziq-ovqat sanoati umumiy va maxsus jihozlari» fanidan

MA'RUZALAR MATNI

Toshkent - 2015

«Oziq-ovqat ishlab chiqarish korxonalari umumiy va maxsus jihozlari» fanidan ma'ruzalar matni V 5321000 – «Oziq-ovqat texnologiyasi» («Konservalangan oziq-ovqat, go'sht va sut mahsulotlari texnologiyasi») yo'nalishi bo'yicha ta'lim oladigan bakalavriatura talabalari uchun foydalanishga mo'ljallangan.

Ma'ruzalar matni ishchi o'quv rejasi asosida to'Plangan bo'lib, «Oziq-ovqat ishlab chiqarish korxonalari umumiy va maxsus jihozlari» fani «Oziq-ovqat xavfsizligi» bo'yicha ta'lim oluvchi bakalavriatura talabalari uchun IV kursning II semestrda o'qitiladi.

Tuzuvchi: Prof. Dodaev Q.O.  
(ma'ruzalar matni t.f.d. Dodaev Q.O., t.f.n. Choriev A.J., k.o'. Ismoilov T.A.tomonidan tayyorlangan materiallardan foydalangan holda tuzilgan)

Taqrizchi: OOMT kafedrasida dotsenti I Ixomjonov P.

Ushbu ma'ruza matni TKTI «OOX» kafedrasining majlisida ko'rib chiqildi va OOMT fakulteti ilmiy-uslubiy kengashiga tavsiya etildi.

Bayonnoma № \_\_\_\_\_ 2014 yil

TKTI «OOMT» fakulteti ilmiy-uslubiy kengashining majlisida tasdiqlangan.

Bayonnoma № \_\_\_\_\_ 2014 yil

## I - BO'LIM. KONSERVA KORXONALARI JIHOZLARI

### SHARTLI BELGI VA QISQARTIRILGAN IBORALAR RO'YXATI

T – maxsulot komPONENTI sarf me'yori; M – jihoz unumdorligi; S – sirop sarfi  
m – kontsentratsiya; x – komPONENT yo'qolishi; V – ma'lum miqdor xom ashyodan  
tayyor maxsulot chiqishi; N – soatdagi unumdorlik;  $\tau$  - tsikl vaqti; V – jihoz ishchi  
sig'imi; Q – issiqlik sig'imi; t – harorat; k – issiqlik tashish koeffitsienti; TIA –  
texnik-iqtisodiy asos; K/z – konserva zavodi; MSHB – ming shartli banka;  
MLNSHB – million shartli banka; YATM – yarim tayyor mahsulot; FIK – foydali  
ish koeffitsienti.

### KIRISH

Konserva sanoatining ishlab chiqarish quvvatini oshirish, assortiment xilini  
kengaytirish, meva-sabzavot mahsulotlarini sifatini yaxshilash ilmiy-texnik  
rivojlanishning o'sishi bilan bevosita bog'liq.

Meva-sabzavot konservalarini ishlab chiqarishdagi ilmiy-texnik  
rivojlanishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

- xom ashyoni yig'ib olishdagi texnikani va texnologiyasini mukammallashtirish;
- sanoat miqyosida qayta ishlash uchun xom ashyoni tashish va saqlash;
- yarimtayyor mahsulotlarni asePtik holda konservalash, saqlashning texnologiyasini va jixozlarini yaratish va tatbiq etish;
- meva-sabzavotlarni mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan liniyalarda komPleks ravishda qayta ishlash;
- tayyor mahsulotning sifatini yaxshilash va energiyani kam sarflash maqsadida davriy sterilizatsiyalash texnikalarini mukammallashtirish;
- modul tamoyili asosida yuqori darajada mexanizatsiyalashgan, avtomatlashtirilgan konservalar ishlab chiqaruvchi komPlekt liniyalarni yaratish va tatbiq etish.

Sanoat miqyosida qayta ishlash uchun yig'ishtirilgan xom ashyo ko'P  
vaqtda mexanizatsiyalashgan holda yig'iladi. Unda xom-ashyo tarkibida ko'P  
miqdorda turli xil aralashmalar (tuProq, kesak, qum, tosh va boshqalar) qo'shib  
ketadi, bunday mahsulotlarni qayta ishlash uchun yuvish jarayoni katta ahamiyatga  
ega. SHuning uchun yuvish mashinalarini suv va energiyani tejamaydigan qilib  
mukammallashtirish ham hozirgi kunning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ishlab  
chiqarishni mexanizatsiyalashni tezlashtirish uchun shisha taralarni yuvish  
jarayonini mexanizatsiyalash lozim. Bu jarayondagi mehnat sarflanishi kamaytirish  
maqsadida taralarga komPleks sanitar ishlov beruvchi uskunalar ishlab chiqarishi  
va tatbiq etishi rejalashtirilmoqda.

Umuman olganda konserva korxonalarini quvvatini ko'tarish va ish  
unumdorligini oshirishda qurilmalarning ahamiyati kattadir.

Konservalash sohasida ishlatiladigan qurilmalar va uskunalar moshinasozlik sanoati tomonidan ayrim-ayrim holda yoki uzluksiz ish jarayonini bajaruvchi liniyalar sifatida tayyorlaniladi.

Bugungi kunda konserva korxonalarida juda ko'p chet el liniyalaridan foydalanilmoqda. Ulardagi ishlab chiqarish jarayonlari shunday tashkil qilinganki, ularga kiritilgan xom ashyo jarayon oxirida qadoqlangan holdagi tayyor mahsulot o'rinishida qabul qilinadi. Masalan, Italiyaning va SHveytsariyaning «Tetra-Pak» liniyalari yoki Amerika va Avstraliyadan keltirilgan assePtik holda qadoqlovchi liniyalar.

SHunday qilib konserva sohasini mashina va qurilmalari qatori kundankunga ko'Paymoqda, eskirgan, hozirgi kunda ishlatish uchun noqulay bo'lgan katta quvvatli qurilmalar o'rnini yangi, zamonaviy, bugungi kunning talabiga javob beruvchi uskunalar egallamoqda.

1- ma'ruza

## Mavzu: FANNING MAZMUNI VA MAQSADI. QURILMALARNI SINFLASH

Matnlarni yoritish rejasi:

1. Konservalash jarayonida hizmat qiluvchi jihozlar haqida umumiy tushuncha.
2. Mahsulotlarni konservalashda ishlatiladigan qurilmalarni sinflash tamoyillari.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari isrofgarchilikdan va yetishtirilgan mahsulotni aholiga nes-nobut qilmasdan yetkazish va ularni yil davomida uzluksiz holda ta'minlash davlatimiz oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

Ma'lumki, qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan o'zliksiz ta'minlash xom-ashyoni qayta ishlash bilan bog'likdir. Qanday mahsulot bo'lishidan kat'iy nazar, xox u o'simlik mahsuloti bo'lsin, xox u hayvon mahsuloti bo'lsin, baribir ular tez buziluvchanlik xususiyatiga ega. SHuning uchun ularni ma'lum texnologik jarayonlardan o'tkazish yo'li bilan ozuqaviyo qiymati va sifatini saqlangan holda qayta ishlash lozim.

Qayta ishlash deganda ko'z oldimizga ma'lum qurilmalar, mashinalar yoki uskunalarni keltiramiz. Oziq-ovqat sanoatining xom-ashyoni qayta ishlash tarmoqlari ishidagi konserva ishlab chiqarish sohasi, qurilma va uskunalar eng ko'p muxtoj bo'lgan sohadir.

Konservalash korxonalarida qo'llaniladigan qurilma va uskunalar shu qadar xilma-xilki va ularning jarayonlarni bajarish doirasi shu qadar kengki, ularni oddiy so'z bilan ifodalash juda mushkul. Masalan, meva yoki sabzavotni maydalash jarayonini olaylik, butun mahsulotni maydalangan mahsulotga aylantirishda bir necha xil uskunalar foydalaniladi va bu uskunalarining vazifalari ham xar xil:

- volchok yordamida mayda bo'lakchalarga maydalaniladi;
- qirg'ich mashinalarida to'g'raladi (maqsadga muvofiq xar xil shakil ham berish mumkin);
- drobilkada ezib maydalanadi;

- ishqalash mashinasida mayinlashtiriladi;
- gomogenizatorida o'ta mayda zarrachalarga maydalanadi.

Keltirilganlardan ko'rinib turib, mahsulotni konservalash jarayonda qo'llaniladigan qurilma va uskunalarni soni ham qo'llash maqsadi ham juda ko'p ekan.

Konservalash sohasida ishlatiladigan qurilmalar va uskunalarning moshinasozlik sanoati tomonidan ayrim-ayrim holda yoki uzluksiz ish jarayonini bajaruvchi liniyalar sifatida tayyorlaniladi.

Bugungi kunda konservalash korxonalarida juda ko'p chet el liniyalaridan foydalanilmoqda. Ulardagi ishlab chiqarish jarayonlari shunday tashkil qilinganki, ularga kiritilgan xom-ashyo jarayon oxirida qadoqlangan holdagi tayyor mahsulot o'rinishida qabul qilinadi. Masalan, Italiyaning va SHveytsariyaning « Tetra-Pak » liniyalari yoki Amerika va Avstraliyadan keltirilgan assePtik holda qadoqlovchi liniyalar.

SHunday qilib konservalash sohasini moshina va qurilmalari qatori kundankunga ko'paymoqda, eskirgan, hozirgi kunda ishlatish uchun noqulay bo'lgan katta quvvatli qurilmalar o'rnini yangi, zamonaviy, bugungi kunning talabiga javob beruvchi uskunalarga egallamoqda.

Konservalash korxonalarida xamma ishlatiladigan qurilmalar, ularning texnologik jarayonni amalga oshirishdagi tutgan o'rnini va ishlatilishiga qarab 3 sinfga bo'linadi:

1. Asosiy texnologik qurilmalar - tayyor mahsulot ishlab chiqarishning texnologik jarayonida ishlatiladigan moshina va mexanizmlar kiradi va ular ishlab chiqarishning texnologik jarayonida bevosita ishtiroq etadi.

2. Yordamchi texnologik qurilmalar - bu guruhga kiruvchi moshinalar va uskunalarning asosiy texnologik jarayonda ishtiroq etmaydilar, lekin ularni amalga oshirish uchun yordam beradilar ( bunkerlar, qutichalar, dozatorlar va boshqalar).

3. Transport qurilmalari - bu sinfga kiruvchi moshina va uskunalarning texnologik qurilmalarni bir biriga bog'lovchi vazifasini bajaradi, hamda turli xil tashish, tushirish-kutarish va boshqa jarayonlarida ishtiroq etadi.

Xom ashyoni konservalashni amalga oshirish uchun turli xildagi texnologik qurilmalar ishlatiladi.

Konservalash korxonalarida texnologik jarayonlarni tashkil qilishda uskunalarining ish bajarish tavsifiga asoslanib, ularni 6 ta yo'nalishdagi guruhchalarga ajratiladi:

1. Xom ashyoni qabul qilishda, korxonada ichida tashishda xizmat qiluvchi qurilmalar (xom-ashyoni, yordamchi mahsulotlarni, yarimtayyor mahsulotlarni, tayyor mahsulotlarni, taralarni).

2. Xom ashyoni konservalashda, uni tayyorlab to bankalarga joylashgacha bo'lgan birlamchi ishlov berishda xizmat qiluvchi qurilmalar ( xom-ashyo va komponentlarga mexanik hamda issiqlik ishlov beruvchi vositalar)

3. Birlamchi ishlov berilgan yarimtayyor mahsulotlarni uzoq muddat davomida, buzilmasligini ta'minlash maqsadida germetik holda bankalarga joylashda va qadoqlashda xizmat qiluvchi qurilmalar ( to'ldiruvchi, qopqoqni yo'qlovchi, sterilizatsiyalovchi)

4. Konservlangan mahsulotlarni germetik berkitmasdan saqlash mumkin bo'lgan jarayonlarni amalga oshirishda hizmat qiluvchi qurilmalar.

5. Tayyor mahsulotni bezaklashda hizmat qiluvchi qurilmalar.

6. Texnologik jarayonlarni tartibga solish va ularni avtomatlashgan holda nazorat qilishda hizmat qiluvchi qurilmalar.

Hozirgi vaqtda bu qurilmalar alohida-alohida holda yoki texnologik liniyalarni komplekti holida keltiriladi.

#### MATNLARNI O'ZLASHTIRISHDAGI MUHIM TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

- asosiy texnologik qurilma; yordamchi texnologik qurilma;
- transport qurilmalar; uzatish; tashish;
- yuklar; jarayon va jihoz bog'likligi;
- uzluksiz texnologik jarayon.

#### MATNLARNI YORITISH SAVOLLARI:

1. Konserva sanoatining bugungi kundagi jihozlar bilan qurollanganligi haqida tushuncha.

2. Konservlash korxonalarini jihozlashning o'zga sohalardan farqi?

3. Konservlash korxonalarini qurilmalarini sinflarga bo'linishi.

4. Asosiy qurilmalar deganda nimani tushinasiz?

5. Yordamchi qurilmalar qatoriga nimalar kiradi?

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.YA. Dikis, A.N. Malskiy. Texnologicheskoe oborudovanie konservnyx zavodov. - M: Promizdat, 1961.

2. E.S. Gorenkov, B.L. Bibergal. Oborudovanie konservnogo Proizvodstva. - M.: Agropromizdat, 1989.

## Mavzu: KONSERVA KORXONALARIDA QO'LLANILADIGAN MEXANIK QURILMALAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Matnlarni yoritish rejasi:

1. Konservangan mahsulotlar ishlab chiqarishda mexanik qurilmalarni mohiyati.
2. Xom ashyoga birlamchi ishlov berishda qo'llaniladigan mexanik qurilmalar.
3. Xom ashyoga birlamchi ishlov berishda uning strukturasi o'zgartiruvchi mexanik qurilmalar.

Konserva sanoatining ishlab chiqarish quvvatini oshirish, assortiment xilini kengaytirish, meva-sabzavot mahsulotlarini sifatini yaxshilash ilmiy-texnik rivojlanishning o'sishi bilan bevosita bog'liq.

Meva-sabzavot konservalarini ishlab chiqarishdagi ilmiy-texnik rivojlanishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

- xom ashyoni yig'ib olishdagi texnikani va texnologiyasini mukammallashtirish;
- sanoat miqyosida qayta ishlash uchun xom-ashyoni tashish va saqlash;
- yarim tayyor mahsulotlarni aseptik holda konservalash va saqlashning texnologiyasini va jixozlarini yaratish va tatbiq etish;
- meva-sabzavotlarni mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan liniyalarda kompleks ravishda qayta ishlash;
- tayyor mahsulotning sifatini yaxshilash va energiyani kam sarflash maqsadida davriy sterilizatsiyalash texnikalarini mukammallashtirish;
- modul tamoyili asosida yuqori darajada mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan konservalar ishlab chiqaruvchi kompleks liniyalarni yaratish va tatbiq etish.

Sanoat miqyosida qayta ishlash uchun yig'ishtirilgan xom-ashyo ko'p vaqtda mexanizatsiyalashgan holda yig'iladi. Unda xom-ashyo tarkibida ko'p miqdorda turli xil aralashmalar (tuproq, kesak, qum, tosh va boshqalar) qo'shib ketadi, bunday mahsulotlarni qayta ishlash uchun yuvish jarayoni katta ahamiyatga ega. SHuning uchun yuvish mashinalarini suv va energiyani tejamaydigan qilib mukammallashtirish ham hozirgi kunning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashni tezlashish uchun shisha taralarni yuvish jarayonini mexanizatsiyalash lozim. Bu jarayondagi mehnat sarflanishi kamaytirish maqsadida taralarga kompleks sanitar ishlov beruvchi uskunalar ishlab chiqarishi va tatbiq etishi rejalashtirilmoqda.

Umuman olganda konserva korxonalarini quvvatini ko'tarish va ish unumdorligini oshirishda mexanik qurilmalarni ahamiyati kattadir.

Konservalash sanoatida qo'llaniladigan qurilmalarni sinflash yoki guruhlariga ajratishga turli xil olimlar turlicha yondoshishgan. Masalan, E.S. Gorenkov va V.L. Bibergal konserva korxonalarining qurilmalarini 2ta katta

bo'lakka bo'lib, birini - texnologik qurilmalar, ikkinchisini - umumkorxonalar qurilmalari deb farqlaydi.

Birinchi qismga - transport vositalari, xom-ashyoni tayyorlash va ishlov berish vositalari, mahsulotni joylovchi vositalar, tayyor mahsulotli taralarni sterilizatsiyalovchi va bezaklovchi vositalar, shisha taralarni yuvuchi mashinalar, meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi kompleks liniyalar kiritilgan.

Ikkinchi qismga - korxonani isitish va bug' berish qurilmalari, korxonani suv bilan ta'minlovchi qurilmalar, elektr qurilmalari, gazli qurilmalar, sovutgich uskunalari kiritilgan.

Olimlardan M.YA. Dikis va A.N Malskiylar esa konserva korxonalari qurilma va uskunalarini ikki katta qismga ajratadi - mexanik qurilmalar va issiqlik qurilmalari.

Talabalarga o'rgatishda, bizning fikrimizcha, M.YA.Dikis va A.N. Malskiylarning tanlagan yo'li bo'yicha borilsa anchagina qulay va fanni o'zlashtirish oson va tartibli bo'lib bilindi. SHuning uchun biz ham sohada ishlatiladigan qurilma va uskunalarini «Mexanik qurilmalar» va «Issiqlik qurilmalari» degan qismlar ko'rinishida tushuntirishga harakat qilamiz.

## MEXANIK QURILMALAR

YUqorida ko'rsatilganidek, qayta ishlashni tashkil qilishda mexanik qurilmalar katta ahamiyatga ega. Hozir biz mexanik qurilmalar haqida umumiy tushuncha berishga harakat qilamiz.

Agar biz mexanik qurilmalarni yaxlit olib ko'rsatsak, bu qurilmalar shuqadar xilma-xil jarayonlarda ishtirok etar ekanki, ularni ma'lum guruhlariga ajratmasdan turib, ko'rib chiish juda qiyin.

M.YA. Dikis mexanik qurilmalarni qayta ishlash jarayonlaridagi bajarish vazifasiga qarab quyidagi guruhchalarga bo'ladi:


- transport vositalari;
- xom-ashyoni , konserva taralarni yuvuvchi va mashina hamda apparatlarga sanitar ishlov beruvchi mashinalar;
- ovqat mahsulotlarini sifatini va konserva taralarini nazorat qiluvchi mashinalar;
- meva-sabzavotlarni saralovchi va navlarga ajratuvchi mashinalar;
- o'simlik xom-ashyosini maydalovchi mashinalar;
- o'simlik xom-ashyosini maydalab, tindirib va deaeratsiyalab beruvchi mashinalar;
- xom-ashyoni Po'stidan, danagidan, urug'idan va boshqa iste'mol qilinmaydigan qismlaridan ajratuvchi mashinalar;
- aralashtirib beruvchi mashina va uskunalar;
- konserva tarasiga suyuq, Pyuresimon va sochiluvchan mahsulotlarni joylovchi mashinalar;
- tunika va shisha bankalarni qoPqoq bilan germetik ravishda mahkamlovchi mashinalar;
- etiketkalovchi mashinalar.




Har bir guruh o'z navbatida turli maqsadda qo'llanuvchi mashinalarni qamragan. Bu mashinalar yana xom ashyo turiga va boshqa maqsadlarga qarab bo'linib ketadi. Masalan, biz oddiygina hisoblangan yuvish mashinalarni ko'rib chiqaylik, ya'ni faqat yuvish vazifasini bajaradi. SHu yuvish mashinalarining qanday farqlanishini sxema holatida ifodalaymiz (1-sxema).

Bu ko'rib chiqilgan sxema orqali shunday xulosa chiqaramiz: demak konserva korxonalarida qo'llaniladigan mashina va qurilmalar faqatgina ish bajarish maqsadi bo'yicha umumiylikka ega bo'lib, aslida esa ular, ham o'zining tarkibiy qismi va tuzilishi bo'yicha, amda xom-ashyoning xiliga arab bajaradigan vazifalari bo'yicha bir-biridan farq qilar ekan.

YUqoridagi ko'rilgan jarayondan farq qilib, mahsulotni strukturasi o'zgartirib, o'zgacha xom ashyo tusiga keltiruvchi jarayon – maydalashdir (2-sxema).





Keltirilgan 2-sxemadan ko'rinib turibdiki, haqiqatdan ham xom-ashyoni qayta ishlashda qo'llaniladigan mashina va uskunalarning nomlari bilan ularning tavsiya etilishi olinadigan mahsulotning va xom-ashyoning xiliga qarab farqlanar ekan.

#### MATNLARNI O'ZLASHTIRISHDAGI MUHIM TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

- mexanik qurilma; tashuvchi; yuvuvchi; - nazorat qiluvchi; saralovchi;  
- maydalovchi; tindirib beruvchi; - Po'stidan ajratuvchi; aralashtirilib  
beruvchi; - joylovchi; qadoqlovchi; etiketkalovchi.

#### MATNLARNI YORITISH SAVOLLARI:

1. Kaysi qurilmalar mexanik uskunalar guruhiga kiradi?
2. Maydalab sharbat olish jarayoniga qaysi qurilmalar kiradi?
3. M.YA. Dikis korxonaning qurilmalarni qaysi guruhlarga bo'ladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.YA. Dikis, A.N. Malskiy.  
Texnologicheskoe oborudovanie konservnyx zavodov. - M: Pro'epromizdat, 1961.
2. E.S. Gorenkov, B.L. Bibergal.  
Oborudovanie konservnogo Proizvodstva. - M.: AgroPromizdat, 1989.

## Mavzu: KONSERVA KORXONALARIDA QO'LLANILADIGAN ISSIQLIK QURILMALARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Matnlarni yoritish rejasi:

1. Konservalash sohasidagi issiqlik jarayonlari.
2. Blanshirlash va isituvchi uskunalari.
3. Qovurish uskunalari.
4. Bug'latuvchi uskunalari.
5. Sterilizatsiyalovchi uskunalari.
6. Qurituvchi, sovituvchi va muzlatuvchi uskunalari.

Xom-ashyoni qayta ishlash davomidagi ko'pchilik jarayonlar - sterilizatsiyalash, qovurish, bug'latish, blanshirlash, quritish va boshqalar mahsulotga issiqlik ta'sir qilish orqali amalga oshiriladi.

Xar qanday issiqlik ishlov berilganda mahsulotning harorati yoki uning agregat holati o'zgaradi va mahsulot bilan muhit orasida issiqlik almashinuvi yuzaga keladi, muhit bu jarayonda yo issiqlik beradi yoki issiqlikni qabul qiladi.

Issiqlik ishlov berishning maqsadiga asoslanib (namlikni qisman kamaytirish, mahsulotga ma'lum xid va maza berish uchun, mikroorganizmlarni hayotini to'xtatish uchun, keyingi jarayonlarni yengillatish uchun) ishlov berishning muddati mahsulotning va issiqlik o'tkazuvchining harorati, mahsulot yuzasidagi bosim va boshqa texnologik ko'rsatkichlar nazarda tutilgan holda mahsus texnologik tartib yaratiladi.

Mahsulotlarga ishlov berish borasida ketadigan issiqlik jarayonlari issiqlik berish va massa berish qonuniyati asosida amalga oshadi. SHu qonuniyatga asoslanib issiqlik uskunalari ishi o'rganiladi va yangi issiqlik uskunalari loyihalanadi, zarur bo'lgan issiqlik energiyasining miqdori aniqlanadi, material va issiqlik balanslari tuziladi.

Material va issiqlikning balansini tahlil qilish orqali jarayonni to'g'riligi, undagi kamayishlarning kattaligi, hamda ularni oldini olish yo'llari va usullarini aytib berish mumkin.

Ammo, mahsulotlarga issiqlik ishlov berishdagi hamma jarayonlar ham issiqlik beruvchi va massa beruvchi qonuniyatga bo'yn sinmaydi.

Bunday murakkab va statsionar bo'lmagan jarayonlarga quyidagilar kiradi: vannadagi suvda xar xil shaklga ega bo'lgan va bir xil bo'lmagan mahsulotni isitish yoki sovutish; uzluksiz o'zgaruvchan haroratda kontsentrlangan tomat mahsulotlari (Pasta) va Povidloni qaynatish; sabzavot yoki baliq qovurish jarayonidagi (mahsulotda namlik ajralgan sari yog'ning ham, mahsulotning ham harorati o'zgaradi) issiqlik almashinuvi.

Konservalash sanoatida issiqlik tashuvchi manbaa sifatida to'yingan suv bug'i, ayrim hollarda, qizdirilgan yog', havo va suv hizmat qiladi.

Asosiy issiqlik tashuvchi sifatida to'yingan bug'dan foydalanishning boisi shundaki, uni masofaga uzatish va miqdorini boshqarishni qulayligi, haroratni bosimni o'zgartirish orqali bir xilda ushlab turishni onsonligi, bezararligi, yashirin

holdagi katta issiqlik kondensatini tutganligi, o'tkazuvchi truba va uskunalar materialiga kam ziyon yetkazishi, yong'inga qarshiligi, qimmatini (narhini) yuqori bo'lmaganligi va nihoyat suv bug'ini ovqat mahsuloti bilan bevosita to'qnashgan holda ishlatish mumkin.

Issiqlik aPParatlaridan foydalanilganda masus formula yordamida issiqlik tashuvchining sarf qilinishi aniqlanadi.

YAna issiqlik jarayonida sarflanadigan issiqlik energiyasining miqdori ham hisoblanadi. Uni hisoblashda mahsulotni aPParatni, tarani, ishlab chiqarish jarayonini qizdirishga ketgan issiqlik miqdorini bilish kerak.

Aytilgan hisob-kitoblar faqat bu bilan to'htamaydi, balki yana ham murakkablashadi (yuzani qizishi; aPParatning issiqlik unumdorligi va h.). SHuning uchun ularni yuqorigi kurslarda ko'rib chiqamiz.

Ko'P hollarda texnologik jarayonlardagi issiqlik ishlov berishni zamonaviy usul- elektr ishlov berish bilan almashtiriladi, uni biz quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin.

Jadval

Elektr ishlov berish xili	elektromagnit to'lqinlarning chastotasi, Gts	Jarayonning nomi
Doimiy yoki Past chastotali toklar bilan	60	Bevosita qizdirish, mahsulot Pishirish (non yoPish), Pasterizatsiyalash, hayvon yog'ini eritish.
YUqori chastotali toklar bilan	$10^3-10^6$	Sterilizatsiyalash va Pasterizatsiyalash, qizdirish, quritish, donni qovurish, qaynatish, yoPish ( non v.b.), go'shtni muzdan tushirish.
Infraqizil nurlar bilan	$10^{12}-10^{14}$	Qizdirish, quritish, qaynatish, donni qovurish, konditer mahsulotlarini yoPish.
Ultrabinafsha nurlar bilan	$10^{15}-10^{17}$	Sterilizatsiyalash.
Rentgen nurlari bilan	$10^{17}-10^{19}$	Sterilizatsiyalash.
Gamma -nurlar bilan	$10^{20}$	Sterilizatsiyalash

Konservalash sanoatida mahsulotni konservalanga holatga keltirish uchun albatta issiq ishlov beriladi, issiqlik ishlov berilmasdan deyarli xech qanday (mikrobiologik usul qo'llashdan tashqari) konserva mahsuloti tayyorlab bo'lmaydi.

Tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun xom-ashyoga ta'sir etiladigan issiqlik ishlov berish turlari xar xil, xom-ashyo bug'da yoki qaynoq suvda ushlanadi ( blanshirlanadi), yog'da toblanadi, yog'da so'ltiladi, issiq muhitda quritiladi, namligi bug'latiladi va nihoyat Pasterizatsiya yoki sterilizatsiyalanadi.

Issiqlik ishlov berishning xiliga va maqsadiga qarab qo'llaniladigan qurilma va uskunalar ham har xil bo'ladi.

Xom-ashyoga issiq ishlov beruvchi qurilma va uskunalarni o'rganish birmuncha murakkab jarayonlarni o'z ichiga kamraganligi sababli mazkur fanning

bu qismini biz keyingi yuqori kursda batafsil tanishamiz. Xozir esa u haqda umumiy lashgan qisqagina tushunchani berish bilan chegaralanamiz.

## BLANSHIRLASH, BUG'DA TOBLASH VA QIZDIRISH USKUNALARI

Ko'pchilik meva va sabzavotlarni qayta ishlash jarayonida ularga birlamchi issiqlik ishlov berish zarurdir, birlamchi issiqlik ishlov berish qaynoq suvda, osh tuzining suvli eritmasida, ishqoriy yoki kislotali eritmada, suv bug'ida, ba'zan issiqlik beruvchi manb'a bilan bevosita to'qnashgan holda olib boriladi.

Birlamchi issiq ishlov ko'k no'hotga, sParjaga, karamga, qo'zoqli loviyaga, shPinatga, qalamPirga, tomatga, jo'xoriga, olmaga, nokga, behiga, olxo'riga, go'shtga va baliqqa qayta ishlash jarayonining birlamchi bosqichida o'tkaziladi.

Issiqlik ishlov berishning tayinlanishiga va issiqlikni mahsulotga berish usuliga qarab jarayonni blanshirlash, bug'da toblash yoki qizdirish deb ataladi.

YUqoridagi ishlov berish jarayonini amalga oshirishdan maqsad shuki, jarayon natijasida xom ashyoda qaytmas o'zgarishlar yuzaga keladi, bular o'z navbatida tayor mahsulotni ishlab chiqarishda katta ahamiyatga ega.

Blanshirlash, bug'lash yoki qizdirish orqali quyidagilarga erishiladi:

- fermentlar Parchalanishi natijasida xom ashyo rangi keyingi jarayonlarda o'zgarmaydi;

- xom ashyoning hajmi kamayib, egiluvchanligi oshadi;

- xom ashyo tarkibidagi havo chiqib, undagi vitaminlarni saqlanishi uzayadi;

- hujayradagi Plazma qabati o'zgarib, shira olish onsonlashadi;


- hujayra o'tkazuvchanligi oshadi, diffuziya jarayoniga sharoit tug'ilib, shakar va o'zga qo'shimchalarni hujayraga o'tilishi yaxshilanadi;

- xom ashyo yuzasidagi mikroorganizmlar o'ladi;

- mevalarni qobig'ini olish onsonlashadi.

Blanshirlovchi, bug'lovchi va qizdiruvchi uskunalarning xillari bir nechta bo'lib, ular ularining tuzilishi va ishlash Printsipi bilan farqlanadi. Ularning xillarini quyidagi 3-sxemada keltiramiz.


### БЛАНШИРЛАШ, БУҒ БИЛАН ИШЛОВ БЕРИШ ВА ҚИЗДИРУВЧИ УСКУНАЛАР



### QOVURISH USKUNALARI (Pechlar)

Sabzavotlardan gazak konservalar yoki balilarni turli xil konservalash uchun ularga yog'da ishlov beriladi (4-sxema).





Baqlajon, kabachki, sabzi, Piyoz, oq ildiz va bali kabi xom-ashyolar avval maydalanadi, so'ngra yog'da ishlov berilib olinadigan konserving xiliga qarab, mahsulot sovutiladi va bankalarga joylanadi, yoki qiyma bilan to'ldiriladi yoki aralastiriladi (ikra).

Xom-ashyoni qovurishdan maqsad:

- blanshirlashda yuz bergan o'zgarishlar amalga oshadi;
- mahsulotda yoqimli hid Paydo bo'ladi;
- mahsulotda yoqimli maza va rang hosil bo'ladi;

- suv bug'lanib o'rniga yog' so'rilishi hisobiga mahsulotning ozuaviy qiymati oshadi.

Qovurish uskunalari ham bir necha xildir.

### BUG'LATUVCHI USKUNALAR

Bug'latish - qaynatish jarayonida mahsulotdan suvni bug'latish - konservalash sanoatidagi keng taralgan jarayon bo'lib, uni tomat Pastasi, tomat Pyuresi, quyutirilgan meva sharbatlari, Povidla va jem olishda qo'llaniladi.

5-схема




Bug'latish natijasida mahsulotda xarxil o'zgarishlar yuzaga keladi:

- xom ashyoning fizik, kimyoviy xususiyatlari o'zgaradi;
- mahsulotning ozuqaviy qiymati oshadi;
- uzoq muddat saqlash imkoniyati tug'iladi;
- tashish uchun qo'llaylashadi;
- mahsulotning nisbiy og'irligi o'zgarib, qovushqoqligi oshadi;
- qaynash harorati ko'tariladi;
- issiqlik ta'sirida oqsil koagulyatsiyalanadi;
- Pektin moddasi Parchalanadi;
- qand karamellashadi

Bug'latuvchi uskunalarning ham xillari ko'p, ularni 5-sxemada keltiramiz.

### STERILIZATSIYALOVCHI USKUNALAR

Konservalangan mahsulotlarni uzoq vaqt saqlash uchun ularni turli usullar bilan sterilizatsiyalanadi. Sterilizatsiyalovchi manb'a sifatida issiqlik, yuqori chastotali toklar, nurli energiya, ionlanuvchi nurlar yoki ultratovushdan foydalaniladi.



Sterilizatsiyalashdan maqsad - germetik banka ichidagi mikroorganizmlarni o'ldirishdir.

Germetik berkitilgan bankaga issiqlik ta'sir ettirish ikki xil bo'ladi:

- Pasterizatsiyalash; sterilizatsiyalash.

Sterilizatsiya va Pasterizatsiya qilish apparatlarning turlari bir necha xil, ularni 6-sxemada keltiramiz.

Pasterizatsiya yoki sterilizatsiyaning olib borilishi vaqti, harorat darajasi:

- mahsulotning hajm birligidagi mikroorganizmlarning soniga;

- muhitning kislotaliligiga;

- konservaning kimyoviy tarkibiga;  
- issiqlikni banka ichiga kira olish sharoitiga qarab tanlanadi.  
Sterilizatsiya harorati va muddatini tanlash maxsus formula asosida aniqlanadi.

#### MATNLARNI O'ZLASHTIRISHDAGI MUHIM TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

blansirlovchi; bug'latuvchi; qovuruvchi; sterilizatsiyalovchi; isituvchi; harorat; bug'; sterilizatsiya muddati; qaynoq suv;

#### MATNLARNI YORITISH SAVOLLARI:

1. Konservlash sohasidagi qaysi issiqlik jarayonlarini bilasiz?
2. Blansirlovchi uskuna qanday vazifani bajaradi?
3. Blansirlashning maqsadi?
4. Qovuruvchi uskunalar qanday vazifasini bajaradi?
5. Bug'latuvchi uskunalarining vazifasi nimadan iborat?

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.YA. Dikis, A.N. Malskiy. *Texnologicheskoe oborudovanie konservnqx zavodov.* - M: Pio'ePromizdat, 1961.
2. E.S. Gorenkov, B.L. Bibergal. *Oborudovanie konservnogo Proizvodstva.* - M.: AgroPromizdat, 1989.

4 - ma'ruza

Mavzu: TRANSPORT VOSITALARI

Matnlarni yoritish rejasi:

1. TransPort vositalarning sinflanishi.
2. Xom-ashyoni yetkazuvchi transPort vositalari.
3. Xom-ashyoni texnologik uskunalarga uzatuvchi transPort vositalari.

Biz o'z ma'ruzamizni ohirgi sinfga kiruvchi qurilma va uskunalar bilan tanishishdan boshlaymiz. Ushbu qurilmalar sinflanishda ohirgi o'rinda tursa, ham konservalash korxonasi ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilinsa, eng avvalo, asosiy xizmat qiluvchi qurilmalar sifatida transPort vositalari bilan uchrashamiz.

Konserva zavodlarida ishlatiladigan transPort vositalari. Konserva zavodlarida bir necha ming tonna o'simlik va go'sht mahsulotlari qayta ishlanadi.

Bu xomashyolarni sanoat korxonalarida qayta ishlash uchun ko'P miqdorda yordamchi materiallarga (shakar, o'simlik yog'i, shisha idishlar, yoqilg'i va boshqalar) ixtiyoj tug'iladi. SHuning uchun konservalash korxonalarida ularni olib kelish va tushurish maqsadida transPort vositalarini mexanizatsiyalash katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Konserva zavodlari xomashyo va yordamchi materiallarni keltirish va tayyor mahsulotlarni jo'natish maqsadida temir yo'l, dengiz yo'li va avtomobil transPortlaridan foydalanadilar.

Turli xildagi yuklarni omborxonaga va xomashyo maydonlariga, texnologik tsexlarga olib kelish uchun, xamda tayyor mahsulotlarni tsexdan omborxonaga jo'natish uchun turli xildagi transPortlar ishlatiladi: transPorterlar, elevatorlar, nasoslar, ko'targichlar, vilkali ko'tarib beruvchi elektryuklamalar, avtomashinalar, turli xildagi aravacha va vagonchalar.

Konserva korxonalarida ishlatiladigan transPort vositalari texnologik qurilmalar bilan bevosita bog'lanib ketadi va ularni mexanizatsiyalashgan yoki yarim mexanizatsiyalashgan, avtomatlashtirilgan yoki yarim avtomatlashtirilgan uzluksiz liniyalarga aylantiriladi.

Konserva korxonalarining transPort vositalari ularni ko'rsatadigan xizmat vazifasiga qarab qo'yidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Haqiqiy tashish vazifasini bajaruvchi transPort vositalari.
2. Xom ashyoni texnologik uskunalarga uzatuvchi transPort vositalari.
3. Xom ashyoni va yarimtayyor mahsulotlarni texnologik jarayonlar orasida o'zati beruvchi transPort vositalari.
4. Tayyor holga keltirilgan mahsulotni bankalarga joylash uchun taralarni yetkazib beruvchi transPort vositalari.

Tashish vazifasini o'tovchi transPort vositalari.

Bu guruhdagi transPort vositalariga yukni uzoqdan keltiruvchi, korxonada ichida tashuvchi, tsexlararo yuklarni yekazib beruvchi va umuman olganda haqiqiy transPortlik vazifasini bajaruvchi vositalar kiradi.

SHu maqsadda qo'llaniladigan uyma holda meva-sabzavotlarni tashuvchi D4 KTO-53-12 markali transPort vositasi ( avtomobil) bilan tanishamiz.

Sabzavot tashuvchi avtomobilning tavsifi:

- |                                 |      |
|---------------------------------|------|
| 1. YUk ko'tarish qobiliyati, kg | 2500 |
|---------------------------------|------|

2. Unga o'rnatilgan kranning massasi, kg	500
3. Gabaritlari, mm	9575x2300x5000
4. Mashinaning massasi, kg	6000
yuk bilan, kg	7300


Bundan tashqari, maqsadga binoan qutilarda, tsisternada ( D4 KTL) suv bilan qo'shilgan holda sabzavotlarni (ko'k no'hot), tsisternaning o'zida tomat-PulPasini va meva Pyurelarni tashish mumkin.

Bu avtomobillarda sabzavot va mevalar gidravlik kranlar yordamida ortiladi va tushiriladi.

Konserva sanoatidagi transPort vositalaridan yuklash-tushirish ishlarini bajaruvchi mashinalar, ish jarayonini mexanizatsiyalashda katta axamiyatga ega bo'ldi, bu vositalar - avtotelejka va elektrotelejkalardir. Ushbu transPort vositalarini «izsiz» transPortlar deb ham ataladi. Ularga g'ildiraklar o'rnatilgan bo'lib, ular korxonada maydonida istalgan yo'nalishda xarakatlanadilar.

SHu vositalardan yana biri - yukni siqib oluvchi va ko'taruvchi mexanizmlar bo'lib, ular aniq maqsad asosidagi ishlarni bajaradilar va ularning ish samaradorligi yuqori hisoblanadi.

Konserva korxonalarida Poddonlaridan foydalanish yuzaga kelishi bilan ularni ko'tarish va tashish uchun qo'llaniladigan vilkali elektrlashgan tushiruvchilar (02-04) ham yuzaga keldi va ular ish jarayonini tashkil qilishda katta axamiyat qozondi (1-rasm).



1-rasm. Elektrokar EK-2.

Elektrlashgan tushiruvchi uskunaning harakat tezligi 4 xil bo'lib, 1,8-6,5 km/soatgacha yetib boradi. Unga balandligi 3m gacha bo'lgan yuklarni ortish mumkin. Uning yuk ortish tezligi 4,25 m/min. YUk kutaruvchi kolonkaning egilish burchagi:

- oldinga qarab -  $3^0$
- orqaga qarab -  $10^0$

Elektrlashgan ko'taruvchining kattaliklari:

Balandligi, mm	2000
Eni, mm	1000
Uzunligi, mm	2020

Uning tashqi aylanish  
radiusi, mm 2100

Akkumulyatorli batareya asosida ishlaydi.

Xom-ashyoni texnologik uskunalarga uzatuvchi transPort vositalari.

Bu guruhga konteyner, qutilarni ag'daruvchi uskunalar kiradi. Bu guruhning asosiy vakillaridan biri - konteynerag'daruvchi uskuna A9-KRD bilan tanishamiz.

*Texnik tavsifnomasi:*

Ishlab chiqarish quvvati, konteyner/soat	12
Elektr quvvati, kVt	2,2
Gabaritlari, mm:	1455x1930x1680
Og'irligi, kg	700

Ish tartibi

Konteynerag'daruvchi jixoz 4 ta g'ilirak bilan ta'minlangan bo'lib, ular yordamida bu jihoz tsex ichida ma'lum xarakterga keltiriladi: ikkita domkrat yordamida ish holatda mustahkamlashtiriladi, ishlash holatiga keltirilganda ag'daruvchi jihoz qo'yilgan 2 ta domkratga va 2 ta g'ildiragiga tayanib ish bajaradi. O'rnatilgan konteynerag'daruvchi jihozga vilkali elektrlashgan kutaruvchi uskuna yuk bilan to'ldirilgan konteynerlarni qo'yadi, konteynerlar ag'daruvchi jihoz moslamasiga mahkam o'rtnashadi va moslama yordamida konteyner ichidagi yukni ag'daradi, bo'shagan konteyner esa qaytadan vilkali uskuna yordamida Pastga tushiriladi. Ag'darilgan xom-ashyo keyingi texnologik jarayonga uzatiladi.

**MATNLARNI O'ZLASHTIRISHDAGI MUHIM TAYANCH SO'Z VA  
IBORALAR:**

TransPort vositalari; tashish; keltirish; uzatish; avtomobil; konteyner; qutilar; yuklar; ag'daruvchi.

**MATNLARNI YORITISH SAVOLLARI:**

1. TransPort qurilmalarning sinflanishi.
2. Xom ashyo tashishda ishlatiladigan transPort vositalari.
3. Ag'daruvchi uskunalarining asosiy vazifasi nimadan iborat.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M.YA. Dikis, A.N. Malskiy. Texnologicheskoe oborudovanie konservnqx zavodov. - M: Pio'ePromizdat, 1961.
2. E.S. Gorenkov, B.L. Bibergal. Oborudovanie konservnogo Proizvodstva. - M.: AgroPromizdat, 1989.

5 - ma'ruza

**Mavzu: TRANSPORT VOSITALARI**

**Matnlarni yoritish rejasi:**

1. Texnologik jarayon ichida qatnashuvchi transPort vositalari haqida tushuncha.
2. SHu guruh qurilmalarini sinflanishi.
3. Gorizontaal yo'nalishda ishlaydigan qurilmalarni ta'rifi.  
Texnologik jarayon ichida qatnashuvchi transPort vositalari.

Bu guruhga kiruvchi transPort vositalarini ishlash tamojyillari 3 xil bo'ladi:

- a) gorizantal yo'nalishda ishlaydigan qurilmalar;
- b) vertikal yo'nalishda ishlaydigan qurilmalar;
- v) qiya yo'nalishda ishlaydigan qurilmalari.


Avvalo gorizantal yo'nalishda ishlaydigan ayrim transPort vositalari bilan tanishamiz.

### LENTALI TRANSPORTER

Sochiluvchi yuklar, idishlar va tayyor mahsulotlarni uzunasiga uzatish uchun lentali transPorter ishlatiladi (2-rasm).

### TEXNIK TAVSIFNOMASI

Lentaning tezlik xarakati	0,1-1,5 m/s
Lentaning kengligi	300,400,500,600,800,1000.



2-rasm. Lentali transPorter.

1-karkas; 2 -tortuvchi uzatma; 3-tortuvchi baraban; 4-lenta; 5-Rolikli PodshiPniklar; 6-uzatmali baraban; 7-uzatma.

### LENTALI KONVEYERNING HISOB – KITOBI

1. Sochiluvchi yuklarni uo'zatuvcchi lentali transPorteraning unumdorligini hisoblash formulasi:

$$P = 0,04 b^2 V \rho,$$

b - lentaning kengligi (m); V - lentaning tezlik harakati (m/s);  $\rho$  - sochuvchi materiallarning zichligi ( $\text{kg/m}^3$ ).

2. Meva va sabzavotlarni uzatuvcchi lentali transPorteraning unumdorligini hisoblash formulasi:

$$P = b h V \rho \varphi$$

b- lentaning kengligi (m); h- material qatlamaning bo'yi (m); V- tezlik (m/s);  $\rho$ - sochuvchi materialning zichligi ( $\text{kg/m}^3$ );  $\varphi$  - lenta maydonini to'ldiruvchi koeffitsient ( 0,5 - 0,9 ).



3. YUqlarni donalab uzatish uchun lentali transPorterning unumdorligini hisoblash formulasi:

$$P \text{ sht.} = \left(\frac{V}{a}\right)k\varphi$$

$a$ - banka markazi orasidagi masofa,  $m$ ;  $k$ - lenta eni bo'ylab mahsulot qatorlari soni,  $k=1$ ;  $\varphi$  - bankalar bilan lentani to'ldirish koeffitsienti,  $V$ - tezlik (m/s).

### GIDRAVLIK TRANSPORTER


Konservalash sanoatida gidravlik transPorterlar ko'P vaqtda tomatlarni xom-ashyo maydonchasidan tomat tsexidagi yuvuchi moshinaga uzatishda ishlatiladi. Gidravlik transPorter ariq shaklini eslatib uni temirdan, g'ishdan yoki betondan yasaladi. Ular 4 burchag, 3-burchag, yarim doira va traPetsiya shaklida quriladi U xom-ashyo maydonchasining yuzasini balandligiga qarab xom-ashyo kiritiladigan tarafga yo nishablangan bo'ladi yoki unga kutarilgan holda bo'ladi. Nishablik balandligi transPorterning 1 Pog. m ga 8-12 mm ni tashkil qilish kerak. Gidravlik transPorterlarda ishni tug'ri tashkil qilish va undan to'g'ri foydalanish uchun tubining qiyalanish radiusi 2,5-3 metrdan kam bo'lmasligi kerak. Gidravlik transPorterlarga suv berilganda suv oqimining tezligi 2,0-2,5 m/sek dan kam bo'lmasligi kerak. GidrotransPorterning tubidagi dumoloqlashgan qismi yuvish moshinasidagi suv yuzasi balandligidan 200 mm balandlikda bo'lishi kerak. Gidravlik transPorter tubi bilan yuvish moshinasi orasidagi masofaga kanalizatsion lyuk o'rnatiladi (toshib chiqqan suvlarni oqib ketishi uchun) va usti setka bilan yoPiladi

Xom-ashyoni qabul qilingandan so'ng qayta ishlash tsexiga kiritshda ham foydalaniladi. Xom-ashyoni oqim buylab tezlik asosida oqib ketmasligini ta'minlash uchun transPorterning boshlang'ich qismiga 2 ta cho'michdan iborat qurilma o'rnatilgan bo'lib, ular gidrojelob ichida suvning tulqinli xarakatini yuzaga keltiradi va xom-ashyoni bir tekisda surilib borishi uchun yordam beradi.

Gidravlik transPorter ( gidrojelob ) bir vaqtning o'zida xom-ashyoni ham tashish, ham birlamchi yuvish hizmatini bajaradi.

*TransPorterning texnik tavsifnomasi xisoblash asosida ishlab chiqiladi.*

TransPorterning ko'rinishi 3 - rasmda ko'rsatilgan.



3 – rasm. Gidravlik transPortyor.

1-korPus; 2-qoPqoq; 3-taglik; 4-suv harakatini ta'minlovchi; 5-cho'mich; 6-val; 7-reduktor; 8-mufta; 9-elektrodvigatel; 10,11-shkivlar.

### ROLIKLI KONVEYERLAR


Rolikli konveyerlar ikki xil bo'ladi:

1. Uzatmalar bilan ishlaydigan transPorterlar.
2. Uzatmalarsiz ishlaydigan transPorterlar.

Uzatmalı transPorterlar meva va sabzavotlarni insPektsiya qilish uchun ko'llaniladi.

Uzatmalarsiz ishlaydigan transPorterlar yukni uzini og'irlik kuchi harakati bilan o'zatish uchun qo'llaniladi.

Ularni ko'Pincha rolgang deb ataladi. Qo'yida uning ko'rinishini keltiramiz (4-rasm).




4-rasm. Rolang.

1-tayanch; 2- korPus; 3-val; 4-o'q; 5-rolik.

Uzatish vaqtida yukni tashqi kuch ta'sirida itarish lozim.

Xom ashyoni bir joydan ikkinchi joyga tashish uchun rolikli konveyerlardan foydalaniladi (5-rasm).



5-rasm. A9-KT2-O tiPidagi rolikli konveyer.

1-tashish qismi; 2-bunker; 3-karkas; 4- cho'ntak; 5-uzatma; 6-dush moslamasi.

#### MATNLARNI O'ZLASHTIRISHDAGI MUHIM TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

- gorizontal yo'nalish; vertikal yo'nalish;
- qiya yo'nalish; lenta; rolik; suv;

#### MATNLARNI YORITISH SAVOLLARI:

1. Qanaka qurilmalar xom-ashyoni uzatish uchun ishlatiladi?
2. Lentali transPorterning vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
3. Hidravlik transPorterning vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
4. Rolikli transPorterlaning sinflanishi.

## Mavzu: TRANSPORT VOSITALARI

Matnlarni yoritish rejasi:

1. Vertikal yo'nalishda ishlaydigan transport vositalari.
2. Qiya yo'nalishda ishlaydigan transport vositalari.
3. Taralarni tashishda xizmat qiluvchi transport vositalari.

### ELEVATORLAR

Sabzavot-mevalarni yuqoriga va u jarayondan bu jarayonga uzatish uchun elevatorlar ishlatiladi. Konservlash sanoatida g'oz bo'yinli shakldagi elevator qo'llaniladi. Ularning tiplari A6 va A9.

Uning ko'rinishi quyidagicha (6-rasm).


«G'oz buyinli» shakldagi elevatorning ishlash tartibi

Xom ashyo bunkerga kelib tushadi. Biqinidagi to'skichlar yordamida xom ashyoni sochilib ketishini oldi olinadi. Xarakatga keltiruvchi qurilma elevatorni harakatga keltiradi. Bunda xom ashyo ko'tariladi, chayilib keyingi jarayonga o'tadi.

*Texnik tavsifnomasi.*

Ishlab chiqarish quvvati, tonna/soat:

sabzavotlar bo'yicha	9
meva bo'yicha	5,85
Elektrodvigatel quvvati, kVt	0,8



6-rasm. «G'oz buyinli» shakldagi elevator.


1 - tortish stantsiyasi; 2 – bunker; 3 - yoysimon qismi; 4 – cho'mich; 5 – to'siq; 6 – dush moslamasi; 7 - to'g'ri sektsiya; 8 - harakatga keltiruvchi qismi; 9 - tayanch qismi (stoyka). 10 - jelob.

Sabzavot-mevalarni uzatish uchun yana A9-KTB markali lentali elevator xam ishlatiladi. Bu uskuna korpusdan, o'tkazib beruvchi va tortuvchi qismdan, ko'taruvchi mexanizmdan va lentadan iborat. Elektrodvigatel magnitli Puskatel yordamida xarakatga keltiriladi.

## SIDIRUVCHI TRANSPORTER

Bu jihoz sochiladigan xom ashyolarni (tuz, shakar) va texnologik jarayondan chiqadigan chiqindilarni gorizontaal va nishabli holatda uzatib boradi.

Uning ko'rinishi quyidagicha (7-rasm).



7-rasm. Sidiruvchi transPortyor.

1 – stanina; 2- yuqorigi Plastinali aylanma transPortyor; 3-joylashtirish stoli; 4 - Pastki Plastinali aylanma transPortyor; 5- lentali transPortyor; 6 – elektrodvigatel; 7 – reduktor; 8 – vertikal val.

### Ishlash tartibi.


Tortuvchi zanjirga sidirmalar qotiriladi. Xarakatga keltiruvchi yulduzlar yordamida sidirma harakatlanib xom ashyoni sidirib boradi va keyingi jarayonga uzatadi.

*Texnik tavsifnomasi hisoblash asosida ishlab chiqiladi.*

## SHNEKLI TRANSPORTER

SHnekli transPorter sochiladigan xom ashyoni, texnologik jarayondagi chiqindilarni ko'chirib berish uchun ishlatiladi. SHnekli transPorter qoPlamada bo'lganligi tufayli, hohlagan qiyalikda o'rnatilib hom ashyo va chiqindi yo'qotilishi bo'lmaydi.

Uning ko'rinishi quyidagicha (8-rasm).



8-rasm. SHnekli transPortyor.

1-harakatga keltiruvchi qism; 2-qoPqoq; 3-shnek; 4-qoPlama; 5-oxirgi PodshiPnik; 6-oraliq PodshiPnik; 7-yuklovchi va tushiruvchi trubasimon uskuna.

*Texnik tavsifnomasi:*

SHnek diametri, mm	160
SHnek Parraklarining qadami, mm	125
Elektrodivigatel quvvati, kVt	0,8
Og'irligi, kg	35

#### NASOSLAR


Meva-sabzavot sharbatlarini, shakar qiyomini va turli meva- sabzavotlarni quyuglashtirilgan ilashilimli massalarini uzatish uchun A-2 SHN 7-K-18,5 shesternyali nasos ishlatiladi.

Nasoslarning tishlari birlashgan vaqtda vakuum hosil bo'lib suyuqlik so'rish trubasi orqali so'rilib, keyin esa siqilib xaydash trubasi orqali uzatiladi.

*Nasosning tavsifnomasi:*

Ishlab chiqarish quvvati, m <sup>3</sup> /soat	3100
So'rish shtutserining diametri, mm	62
Haydash trubasidagi diametri, mm	50
Gabaritlari, mm	1120x390x445
Nasosning quvvati, kVt	3
Nasosning massoviy og'irligi, kg	200

Tomat massalarini uzatish uchun hamda meva quyqalarini uzatish uchun A9-KNA va KNL-3 tiPidagi nasoslar ishlatiladi.



9-rasm. A9-KNA tiPidagi nasos:

1-kirish teshigi; 2-gaykalar; 3- Parrakli g'ildirak; 4-qoPqoq; 5-chiqish teshigi; 6- elektrodvigatel; 7-ushlagich; 8-qisqich halqa; 9-tayanch; 10-niPPel; 11- chegaralovchi; 12-rezina halqa; 13-oxirgi qismi.

Nasosning asosiy qismlari korPusdan, ishchi g'ildiragidan, Plastinadan tuzilgan.

Nasosning korPusiga kronshteyn biriktirilgan bo'lib, kronshteyn esa elektrodvigatelga maxkamlangan bo'ladi.

Bundan tashqari yoPishqoqligi kichik bo'lgan turli xildagi sharbatlarni uzatish uchun ikki yoqlama ishlaydigan Porshenli nasoslar ishlatiladi.(N-21 tiPli).

*N-21 nasosning tavsifnomasi:*


Ishlab chiqarish quvvati l/soat	5000-10000
Maksimal bosimi 20m Porshenning , Pa	76,5
So'ruvchi vag xaydash shtutserlarning diametri, mm	55
Elektrodvigatelning aylanish soni, ayl./min.	1420
Elektrdvigatel kuvvati, kVt	1,7
Gabaritlari, mm:	
uzunligi	1550
balandligi	930
kengligi	590
Og'irligi, kg	225

Taralarni yetkazib beruvchi transPort vositalari.

Bu guruxga Plastinkali transPorter kiradi.

### PLASTINKALI TRANSPORTER

Uning ishlatilishi quyidagicha: Bo'sh va to'ldirilgan idishlarni, hajmiy og'irlikdagi yuklarni uzatish uchun ishlatiladi (10-rasm).



10-rasm. TransPortyor uzatmasi quvvatini hisoblash uchun sxema.

*Texnik tavsifnomasi:*

Ishlab chiqarish quvvati, b/sek	100-200
Elektrodvigatel quvvati, kVt	0,6
Harakat tezligi, m/sek	0,28
Gabaritlari, mm	2580x510x360-1235

**MATNLARNI O'ZLASHTIRISHDAGI MUHIM TAYANCH SO'Z VA  
IBORALAR:**

- asosiy texnologik qurilma; yordamchi texnologik qurilma;
- transPort qurilmalar; o'zatishtish; tashish;
- yuklar; lenta; rolik; suv; jelob;
- gorizontaal yo'nalish; vertikal yo'nalish;
- qiya yo'nalish.

**MATNLARNI YORITISH SAVOLLARI:**

1. Konservlash korxonalarini uskunalarining sinflarga bo'linishi.
2. Elevatorlarning vazifasi, ko'rinishi va ishlash Printsipi.
3. Qaysi qurilma xom-ashyoni gorizontaal yo'nalishida uzatish uchun ishlatiladi?
4. Qaysi qurilma xom-ashyoni yuqoriga uzatish uchun ishlatiladi?
5. SHnekli transPorterining vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M.YA. Dikis, A.N. Malskiy.  
Texnologicheskoe oborudovanie konservnoy zavodov. - M: Pro'epromizdat, 1961.
2. E.S. Gorenkov, B.L. Bibergal.  
Oborudovanie konservnogo Proizvodstva. - M.: AgroPromizdat, 1989.

7 - ma'ruza

**Mavzu: USKUNA VA TARALARNI YUVUVCHI  
VOSITALAR**

**Matnlarni yoritish rejasi:**

1. YUVuvchi vositalarni sinflanishi.
2. Uskuna va taralarni yuvuvchi moshinalar.



### 3. YUvuvchi qurilmalarsiz yuvish usullari.

Xom ashyolardan tayyor mahsulotlarni olishda avval ular yuviladi, so'ngra ularni qabuldan ajratib, mayda bo'laklarga bo'lish uchun kesiladi va issiqlik ta'sirida qayta ishlanadi. Xomashyo va idishlar yuvishdan asosiy maqsad xar xil ifloslardan tozalashdir. Chunki ular mikroflora rivojlanishiga yo'l ochadi. Bu jarayonlarni olib borish uchun turli hildagi qurilmalar ishlatiladi.

Meva va sabzavotlarni hamda rezavor mevalarni tuProq qoldiqlarini, zaharli silikatlarini tozalash uchun ularni qayta ishlash jarayonida yuviladi. Ularning turlariga qarab turli xildagi yuvuvchi kurilmalar ishlatiladi.

YUvuvchi mashinalar ikki xil bo'ladi:

1. Meva va sabzavotlarni yuvuvchi mashinalar.
2. Idishlarni yuvuvchi mashinalar.

Idishlarni yuvuvchi mashinalar meva-sabzavotlarni yuvuvchi mashinalarga nisbatan konstruktiv, eksPluatatsiya jixatdan ancha murakkab bo'lib, bundan tashqari banka va butqlkalarini yuvayotgan vaqtda, banka va butqlkalar uzatuvchi vositalar yordamida tik holatda berilishi kerak, aksincha holatda berilmasa tunuka bankalar Pachoqlanishi, butqlkalar esa sinishi mumkin.


TSilindrsimon temir bankalarni yuvish uchun gravitatsion mashinalar ishlatiladi. Ishlab chiqarish quvvati - 120 banka/min, suvning harorati - 80-90<sup>0</sup> S . Gabaritlari : uzunligi - 2000mm, kengligi - 1270 mm, balandligi - 1375 mm.

Idishlarni yuvuvchi mashinalar konstruksiyasiga qarab zanjirli va zanjirsiz bo'ladi. Ular chiziqli ko'P yarusli, barabanli va aylanma xarakat qiluvchi yuvuvchi mashinalarga bo'linadi. Idishlarni yuvish uchun ishlab chiqarish quvvati katta bo'lgan chiziqli ko'P yarusli yuvuvchi mashinalar keng miqyosda ishlatiladi. Texnologik belgilanish bo'yicha yuvuvchi mashinalar butilka va banka yuvuvchi mashinalarga bo'linadi. Bankalar yuvuvchi mashinalar mayda bankalarni (0,2 dan 1 l gacha) va katta shisha idishlarni (3 dan 10 l gacha) yuvish uchun ishlatiladi. Bu jihozni ishlatganda mehnat unumdorligi 20 barobar oshadi, ishchilar kuchi kamayadi, yuvish sifati oshadi, idish sinishi kamayadi.

#### USKUNALAR YUVISH UCHUN VOSITALAR

Oziq-ovqat mashinalari va aPParatlarini sanitar tozalash 2 bosqichdan iborat. 1 - bosqich - mexanik yuvish. 2 - bosqich - biologik tozalash. Mexanik yuvishdan maqsad - iflosni yo'qotish. Biologik tozalashdan maqsad - mikroorganizmlarni yo'qotish.

Bu uskunaning umumiy ko'rinishi rasmda ko'rsatilgan (11-rasm).




11-rasm. Uskunani yuvish mashinasi.

1-ishqor eritmasi uchun idish; 2-bug'li ejektor; 3-egiluvchan quvur; 4-Purkagich.

### IDISH YUVISH JIHOZI

Bu SP-72 tiPidagi jihoz shisha idishlarni yuvish uchun ishlatiladi (12-rasm).



12-rasm. SP-72 tiPidagi idish yuvish jihozi.

1- kiritish transPorteri; 2- chiqarish transPortyori; 3 – korPus; 4 – quti; 5 – truba; 6 - valni tortish uchun yulduzcha; 7, 12, 13 – yo'naltirgichlar; nazorat uskunalari; 8 – etiketka yig'uvchi qism; 9 – trubalar; 10- lotok; 11 – banka olib ketuvchi; 14 – chiqarish mexanizmi; 15 – yuklash mexanizmi; 16 – akkumulyator.

#### Ishlash tartibi.

Idishlar 40-45<sup>0</sup>S suv yoki ishqor eritmasiga to'ldirilgan vannaga kelib tushadi. Birinchi vannadan ikkinchisiga utib borib, idishlardagi suv to'kiladi va bug' bilan 60-65<sup>0</sup>S qizdiriladi. Ikkinchi vannada 3% miqdorida 80-85<sup>0</sup>S qizdirilgan ishqor eritmasida yuviladi. Idishlar uskunaning yuqori qismiga ko'tariladi. Bu yerda ishqorli eritma yordamida 0,25 MPa bosimda shPritslanadi. So'ngra shu qismda 80-85<sup>0</sup>S issiq suv bilan shPritslanadi va bug'lanadi. Toza 85-90<sup>0</sup>S issitilgan

suv bilan shPritslanib 110-115<sup>0</sup>S bug' bilan sterilizatsiyalanadi va uskunadan chiqib ketadi.

#### MATNLARNI O'ZLASHTIRISHDAGI MUHIM TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

- yuvish; ifloslardan tozalash;
- ishqor eritmasi; shisha bankalar; shPritslash;
- bug'; harorat; zanjir.

#### MATNLARNI YORITISH SAVOLLARI:

1. YUvuvchi mashinalarning sinflanishi.
2. Uskuna yuvuvchi vositaning vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
3. SHisha bankalarni yuvuvchi moshinasining tuzilishi va ishlash tartibi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.YA. Dikis, A.N. Malskiy. Texnologicheskoe oborudovanie konservnqx zavodov. - M: Pio'ePromizdat, 1961.
2. E.S. Gorenkov, B.L. Bibergal. Oborudovanie konservnogo Proizvodstva. - M.: AgroPromizdat, 1989.
3. E.D. Sitnikov, V.A. Kachanov. Oborudovanie konservnqx zavodov. - M.: Legkaya i Pio'evaya Promqshlennost, 1981

8 - ma'ruza

#### Mavzu: XOM ASHYONI YUVUVCHI MASHINALAR

##### Matnlarni yoritish rejasi:

1. Xom ashyoni yuvuvchi mashinalarning sinflanishi.
2. Xom ashyo xiliga qarab yuvish mashinasini tanlash
3. YUvish jarayonini umumiy texnologik jarayondagi o'rnini belgilash.

Xom ashyolardan tayyor mahsulotlarni olishda avval ular yuviladi, so'ngra ularni qabuldan ajratib, mayda bo'laklarga bo'lish uchun kesiladi va issiqlik ta'sirida qayta ishlanadi. Xomashyo va idishlar yuvishdan asosiy maqsad xar xil ifloslardan tozalashdir. CHunki ular mikroflora rivojlanishiga yo'l ochadi. Bu jarayonlarni olib borish uchun turli hildagi qurilmalar ishlatiladi.

Meva va sabzavotlarni hamda rezavor mevalarni tuProq qoldiqlarini, zaharli silikatlarni tozalash uchun ularni qayta ishlash jarayonida yuviladi. Ularning turlariga qarab turli xildagi yuvuvchi kurilmalar ishlatiladi.

Berilayotgan suvning miqdori qancha ko'P bo'lsa, ular shuncha yaxshi yuviladi, ammo suvning sarfi 1 kg mahsulotga 1 litr oshishi kerak emas.

Konserva korxonasiga kelayotgan xomashyolar ikki kategoriyaga ajratiladi:

1 kategoriya. YUmshoq konsistentsiyali xomashyolar: o'rik, olcha, olxo'ri vag boshqalar.

2 kategoriya. Qattiq konsistentsiyali xomashyolar: bodring, kabachki, sabzi, kartoshka.


1 kategoriya xomashyolari yengil rejimda ishlaydigan mashinalarda yuviladi.

2 kategoriya xomashyolari qattiq rejimda ishlaydigan mashinalarda yuviladi.

### VENTILYATORLI YUVISH MASHINASI

Meva va sabzavotlarini yuvish uchun bu markadagi yuvish mashinalari ishlatiladi. Bu mashina texnologik qatorda yumshoq va kattik konsistentsiyadagi meva va sabzavotlarni yuvish uchun ishlatiladi. Bu mashina vannadan, transPorterdan, sochib beruvchi kurilmadan, xavo beruvchi teshikli trubadan, uzatuvchi kurilmadan, Po'lat karkasdan tuzilgan bo'ladi.

Mashinaning umumiy ko'rinishi 13-rasmda ko'rsatilgan.



13-rasm. Ventilyatorli yuvish mashinasi.

#### Ishlash tartibi.

Xom-ashyo qiyalangan Panjaraga kelib tushadi. SHu Payt nay va barboter orqali havo uzatiladi. Vannadagi suv «qaynab chiqadi» va bir biriga ishqalanadi. YUvilgan xom-ashyo chayilib chiqish yo'li orqali keyingi texnologik jarayonga uzatiladi.

Vannaning Pastki qismidan lyuk orqali iflosliklar chiqarib tashlanadi. KomPressor maydonchada joylashgan.

#### Texnik tavsifnomasi.

Ishlab chiqarish quvvati, m/s		3000
Suv harajati, m <sup>3</sup> /s	3	
Energiya quvvati, kVt:		
transPorter	1,1	
komPressor	3	
Gabaritlar, mm		3790x1130x1840
Og'irligi, kg		824

Ventilyatorli yuvuvchi mashinalarni ishlab chiqarish quvvati umumiy lentali transPorterlar uchun berilgan ishlab chiqari quvvatini aniqlash tenglamasi orqali topiladi.

$$Q = 3600 b h \varphi V j$$

b- lentaning kengligi, m

h- xomashyoning qatlamaning balandligi, m

$\varphi$ - lentani to'lish koeffitsienti,  $\varphi = 0,6 \div 0,7$


V- lentaning xarakat tezligi, m/s  $V = 0,12 - 0,16$  m/s

j- hajmiy og'irligi, kg/m<sup>3</sup>

### BARABANLI YUVISH MASHINASI

Bunday yuvuvchi mashina qattiq konsistentsiyali sabzavotlarni yuvish uchun ishlatiladi (olma, kartoshka, sabzi va boshqalar).

Barabanli yuvish mashinasining umumiy ko'rinishi 14-rasmda ko'rsatilgan.



14-rasm. A9-KM-2 tiPidagi barabanli yuvish mashinasi:

1-baraban; 2-stanina vannasi bilan; 3-uzatma; 4-lotok; 5-chayish moslamasi.


#### *Texnik tavsifnomasi.*

Ishlab chiqarish quvvati, kg/s	oat	3000
Suv xarajati, m <sup>3</sup> /s		2
Gabaritlari, mm		3415x1320x1620
Og'irligi, kg		718

#### Ishlash tartibi.

Xomashyo kiritiladigan latok orqali BYUMning birinchi qismiga solinadi, baraban ichida suv bor. Aylanish vaqtida ma'lum balandlikka kutariladi va suvga tushadi. Ular bir biriga ishqalanish va baraban devorlari bo'yicha uzatilish hisobiga xomashyoni iflos bo'lakchalari yuviladi. Iflosliklar vanna tagtga baraban chuqurligidan tushadi. Keyin xomashyo barabanning ikkinchi qismiga o'tadi va shu yerda ikkinchi marotaba yuviladi, so'ng'ra chayish uchun xomashyo barabanning uchinchi bo'limiga o'tadi va keyingi qayta ishlashga uzatiladi.

Bodringlar, kabachki va baqlajonlarni yuvish uchun OM markali yuvish mashinalaridan foydalaniladi (15-rasm).



15-rasm. OM markali yuvish mashinasi:

1-elektrodvigatel; 2-korpus; 3-Poddon; 4-baraban; 5-dushli kollektor; 6-konveyer.


Unumdorligi 3,5 t/soat; quvvati 1,1 kVt; suv sarfi 2 m<sup>3</sup>/soat; quvurdagi suvning ishchi bosimi 0,3 MPa; gabarit o'chamlari 3600x1200x1450 mm.

SHuningdek, qattiq konsistentsiyali xomashyolarni yuvish uchun cho'tkali vaa Parrakli yuvuvchi mashinalar xam ishlatiladi.

#### VIBRATSION YUVUVCHI MASHINA

Bunday yuvuvchi mashina kartoshkalarni yuvish uchun ishlatiladi.

Vibratsion yuvish mashinasining umumiy ko'rinishi 16-rasmda ko'rsatilgan.




16-rasm. MMKV tiPidagi vibratsion yuvish mashinasi

#### PARRAKLI YUVISH MASHINASI

Bu jihoz texnologik qatorda sabzavotlardan tayyorlanadigan gazakboP konservalarni ildizli mevalarni yuvish uchun ishlatiladi.

Uning umumiy ko'rinishi 17-rasmda ko'rsatilgan.



17-rasm. A9-KLA/1 tiPidagi Parrakli yuvish mashinasi:  
 1-stanina; 2-Parrakli val; 3-baraban; 4-uzatma; 5-Poddon; 6-bunker; 7-  
 birlamchi yuvish tuynugi; 8-asosiy yuvish tuynugi; 9-chayish tuynugi.

#### Ishlash tartibi.


Parrakli o'q zanjarli uzatuvchi yordamida xarakatga kelib, jihozning uch qismidan o'tadi. Bu xarakatda xom-ashyo surilib bir biriga ishqalanadi va shu hisobdan iflosliklardan tozalanadi. Asosiy qism ostida baraban joylashgan, Pastki qismi Perforatsiyalangan, buning yordamida qumlar, iflosliklar Pastki qismga tushadi.

#### Texnik tavsifnomasi.

Ishlab chiqarish quvvati, t/soat	3
Suv xarajati, m <sup>3</sup> /s	3
Energiya quvvati, kVt	3
Gabaritlari, mm:	4635x1060x1915
Og'irligi, kg	1100

#### T1-KUM-3 TIPIDAGI CHO'TKALI YUVISH MASHINASI

Bu yuvish mashinasi bodring, baqlajon, kabachkilar yuvish uchun ishlatiladi. Uning ko'rinishi 18- rasmda ko'rsatilgan.



18-rasm. T1-KUM-3 tiPidagi cho'tkali yuvish mashinasi:  
 1-vanna; 2-rama; 3-Poddon; 4-cho'tkali baraban; 5, 10-kollektorlar; 6-elevator; 7-uzatma; 8-transPortyor; 9-rolik; 11-reshyotka-tosh ushlagich.

#### Ishlash tartibi.

YUviladigan xom-ashyo tosh ajratuvchi qismga kelib tushadi. Bu yerda toshlar Pastki qismga, barglar, shoxlar, iflosliklar esa tePaga ko'tarilib ajratiladi.

Xom-ashyo bu qismdan o'tib xarakatsiz va xarakatli chetkalar orasidan o'tadi, iflosliklardan tozalanib yuvilgan xom-ashyo elevvator yordamida vannadan ko'tariladi va rolikli konveyerga uzatiladi, bu yerda yana bir bor chayilib nazoratdan o'tib keyingi jarayonga uzatiladi.

#### Texnik tavsifnomasi.


Ishlab chiqarish uvvati,kg/soat	3000-4000
Suv xarajati, m <sup>3</sup> /s	3
Energiya sarfi, kVt	2,2
Gabaritlari, mm:	4850x1300x1850
Og'irligi, kg	1725

#### T1-KUM-5 TIPIDAGI TEBRANMA YUVISH MASHINASI

Meva, rezavor meva va dukkakli mevalarni yuvish uchun hamda bug'lantirilgan xom-ashyoni sovutish uchun ishlatiladi.

Bu mashinaning umumiy ko'rinishi 19-rasmda ko'rsatilgan.





19-rasm. T1-KUM-5 tiPidagi yuvish mashinasi:  
1-vanna; 2-transPortyor; 3-lotok; 4-chayish moslamasi.

#### Ishlash tartibi.


Asosiy ish qismi - tebranuvchi rama va xarakatga keltiruvchi qism. Bu qism elakdan iborat bo'lib suvlarni oqib tushushiga to'liq yordam beradi.

#### Texnik tavsifnomasi.

Ishlab chiqarish quvvati, kg/soat	4000
Energiya , kVt/soat	0,75
Suv xarajati, m <sup>3</sup> /s	3
Gabaritlari, mm:	2000x682x1700
Og'irligi,kg	320

#### FLOTATSION YUVISH MASHINASI

Dukkakli xom-ashyoni yuvish uchun flotatsion yuvish mashinalari ishlatiladi (20-rasm). Mashinaga tushgan xom-ashyo yuviladi, shu bilan birga yengil va og'ir bo'lgan iflosliklardan ajratiladi.



20-rasm. Flotatsion yuvish mashinasi.  
1-bunker; 2-tarnov; 3-elak; 4- yig'gich; 5- dush; 6-ejektor; 7 -nasos; 8-truba.

### Ishlash tartibi.

Xomashyo bunker (1) orqali jihozga kelib tushadi va truba orqali kuchli oqimda suv uzatiladi, uning ta'sirida tarnovga (2) qarab xarakat qilib, qiyalangan trubaga tushib, ejektor hosil qilgan kuchli bosim ostida ishlab ketadi. Yengil ifloslangan suvning yuza qismidan ajratib olinadi. To'q zarrachalar Pastga qarab xarakat qilib, ejektor (6) yordamida yuqoriga ko'tarilib, truba (8) orqali chiqib, elakka (3) beriladi va keyin dushga (5) beriladi. Suv esa yig'gichga (4) berilib, keyin nasos (2) orqali trubaga beriladi.

### *Texnik tavsifnomasi.*

Mashinaning ishlab chiqarish kuvvati, kg/soat	4000
Elektrovigatel quvvati, kVt	4,8
Suvning sarfi, m <sup>3</sup> /s	3-4
Gabaritlari, mm:	
uzunligi - 3200,	
kengligi - 1400 ,	
balandligi - 1675 .	

### MATNLARNI O'ZLASHTIRISHDAGI MUHIM TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

- yuvish; suv; ifloslardan tozalash; tuProq;
- zaharli silikatlar; yumshoq konsistentsiya;
- qattiq konsistentsiya; yengil rejim;
- qattiq rejim; vanna; chetkalar; Parraklar.

### MATNLARNI YORITISH SAVOLLARI:

1. Xom ashyoni yuvish mashinalarining sinflanishi.
2. Ventilyatorli yuvish mashinasining vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi?
3. Barabanli yuvish mashinasining vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi?
4. Cho'tkali yuvish mashinasining vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi?
5. Parrakli yuvish mashinasining vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi?
6. Tebranuvchi yuvish mashinaning vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.YA. Dikis, A.N. Malskiy.  
Texnologicheskoe oborudovanie konservnqx zavodov. - M: Pio'ePromizdat, 1961.
2. E.S. Gorenkov, B.L. Bibergal.  
Oborudovanie konservnogo Proizvodstva. - M.: AgroPromizdat, 1989.
3. E.D. Sitnikov, V.A. Kachanov.  
Oborudovanie konservnqx zavodov. - M.: Legkaya i Pio'evaya Promqshlennost, 1981

9 - ma'ruza

## Mavzu: SABZAVOT -MEVALARNI NAVLASH VA SARA LASH MASHINALAR

Matnlarni yoritish rejasi:

1. Saralash mashinalari.
2. Navlarga ajratuvchi mashinalar.

Xo'l meva va sabzavotlarni bir xil shaklga, bir xil o'lchamdagi kattaliklarga ajratish mashinalar sifatida kalibrlash qurilmalari ishlatiladi.

Konserva zavodlarida navlarga ajratish mashinalari ho'l meva va sabzavotlarni sifat jixatidan ularning solishtirma og'irliklariga, Pishib yetilganiga va tashqi ko'rinishiga qarab navlarga ajratadi.

Navlarga ajratuvchi mashinalar jarayonlarda murakkab ishlarni xam bajarishi mumkin, lekin ularning tuzilish konstruksiyalari kalibrlash mashinalariga nisbatan saddoroqdir.


Konservalash sanoatida xom-ashyoni navlash jarayoni ikki xil xususiyatga asoslangan:

1. Qo'l kuchi vositasida mahsulotlarning solishtirma og'irligi bo'yicha.
2. Gidravlik usuli bilan.

### ROLIKLI NAZORAT QILUVCHI TRANSPORTER

Rolikli nazorat qiluvchi transporter meva-sabzavotlarni nazorat qilish hamda ularni chayish uchun mo'ljallangan.

Bu transporter 21-rasmda ko'rsatilgan.



21-rasm. T1-KT2V rolikli saralash konveyeri.

1 – mahsulot kiradigan lotok; 2 – rolikli tashuvchi; 3 – chiqindilar yig'iladigan idish; 4 – chiqindilarni tashib chiqaruvchi lentali qurilma; 5 – dush moslamasi; 6 - elektrouzatma; 7 – xom ashyo chiqadigan joy; 8 – chiqitlarni yig'uvchi idish.

Ishlash tartibi.

Qabul qilish bunkerini orqali meva-sabzavotlar transporter yo'liga tushadi. Transporter yo'lining xarakati davomida roliklar ham o'z o'qi atrofida aylanib boradi, uning natijasida undagi mahsulotlar ham aylanadi. Bu ularning yanada yaxshi nazorat qilishini ta'minlaydi.

Transporter uzunligi bo'ylab uning ikki tomonidan chiqindilarni olib tashlash uchun maxsus moslamalar (karmanq) joylashtirilgan.

Nazoratdan o'tkazilgan xom-ashyo, chayish moslamasi ostida chayilib, keyingi jarayonga uzatiladi.


*Texnik tavsifnomasi.*

Ishlab chiqarish quvvati ( tomatlar bo'yicha), t/soat	3
Elektrodvigatel quvvati, kVt	0,6
Suvning sarfi, m <sup>3</sup> /soat	3
TransPorter yo'lining harakat tezligi, m/s	0,12
TransPort yo'lining kengligi, mm	550
Gabarit o'lchamlari, mm: uzunligi - 4250, kengligi - 1212 , balandligi - 1700	
Og'irligi, kg	570

**FLOTATSION NAVLASH USKUNASI**

Flotatsiya yoki gidravlik usulda ishlaydigan navlarga ajratuvchi mashinalar ko'k no'xatlarni va sut jo'xori donlarini Pishib yetilgan jo'xori donlaridan ( kraxmali oshib ketgan, qaysiki mazasini yomonlashishiga olib keladigan donlar) ajratish uchun ishlatiladi.

Bu mashinaning ko'rinishi 22-rasmda ko'rsatilgan.



22-rasm. Flotatsion navlash mashinasi.

1 - voronka; 2 - Po'kak; 3 - eritma uchun idish; 4 - quvur; 5,7,12 – ventillar; 6 - Patrubka; 8 - nasos; 9 - yig'gich; 10 - ajratgich; 11 - elak; 13 - truba; 14 - lotok.

Quyida gidravlik flotatsiya navlarga ajratuvchi mashinaning ishlash Printsipi ko'ramiz: (solishtirma og'irligi bo'yicha).

Idishga (3) osh tuzining eritmasi quyiladi, eritmaning muvozanati Po'kak orqali rostlab turiladi. Bu eritmada mahsulotlarning bir qismi cho'kadi, bir qismi esa eritmaning yuzasida suzib yuradi.

Navlarga ajratuvni mahsulot voronka orqali konussimon idishga beriladi, cho'kkan donachalar nasos orqali berilayotgan oqimli tuz eritmasi bilan truba orkali elakka beriladi, elakda yuvilib yig'gichga truba orqali beriladi.

YUza qismidagi sutli jo'xori donlari suyuqlik bilan birga lotok orqali ajratuvchi qismiga tushadi, bu yerda suyuqlikli yig'gichga quyiladi vag yana nasos

orqali idishga (3) beriladi. Suyuqlikning ortiqcha qismi Patrubka orqali chiqarilib tashlanadi.

Konservalash uchun suyuqlikdan ajratilgan donlar keyingi texnologik jarayonga beriladi. Ventillar bu mashinaning normal ishlashini ta'minlaydi.

Kalibrlash mashinalarida bir xil o'lchamlarga ajratilayotgan meva va sabzavotlar og'irlik kuchi ta'sirida kalibrlash mashinalariga tushgan vaqtida, bu kuch ta'sirida shu daqiqada ularning shu turgan tayanch yuzasi yo'qoladi.


Kalibrlash qurilmalari meva va sabzavotlarning shakliga, fizik xususiyatlariga va uzatilishiga, teshiklarning shakliga qarab asosan uch guruhga bo'linadi:

1. CHiziqli.
2. Diskli.
3. Barabanli.

### BARABANLI SARALASH MASHINASI

Bu jihoz ko'k no'hot, gilos, olcha, kartoshkalarini katta-kichikga ajratish uchun ishlatiladi.

23-rasmda uning umumiy ko'rinishi ko'rsatilgan.



23-rasm. Barabanli saralash mashinasi.

1 – to'rsimon baraban; 2 – uzatmali mexanizm; 3 – rama; 4 – yig'uvchi bunker.

#### Ishlash tartibi.

Xom-ashyo xarakatda bulgan barabanga kiritiladi, spiral yordamida aylanib jixoz uzunasi bo'yicha uzatiladi. Barabanning birinchi qismida teshiklar orasidan maydalari tushib ketadi. Keyingi qismida o'rta o'lchamdagi xom-ashyo yig'uvchi bunkerga tushadi. Roliklar yordamida kadalib kolgan xom-ashyo tushiriladi. Barabanli saralash jihozi besh qismli teshikli barabandan iborat.

#### Texnik tavsifnomasi.

Ishlab chiqarish quvvati, kg/sek	0,417
Energiya quvvati, kVt	2,6
Gabaritlari, mm:	4000x800x1950

### CHIZIQLI KALIBRLASH MASHINALARI

CHiziqli kalibrlash mashinalarida meva va sabzavotlar boshqa mashinalardan farqli vintli va aylanma harakatlar qilmasdan faqat to'g'ri chiziq bo'ylab harakat qiladi.

Konserva zavodlarida trosli chiziqli kalibrlash mashinalari keng miqyosida ishlatiladi.

Ikkita harakatlanayotgan trosning orasida xomashyo harakat qiladi. Tros uzunligi bo'yicha kengayib boradi. Ikkita tros orasida tushgan xomashyo, tros bo'ylab harakat qiladi.

Meva va sabzavot oldiga qarab harakat qilgan vaqtida trosning SD kesimiga kelgan vaqtida AV kesimga nisbatan SD kesim katta bo'lganligiga uchun meva va sabzavot kattaligiga qarab og'irlik kuchi ta'siri ostida ajratib olinib, maxsus yig'gichlarda yig'iladi. Trosning harqanday kesimida ularning orasidagi masafa hardoim birxil bo'ladi. SHuning uchun berilayotgan meva va sabzavotlar shakli va o'lcham kattaligiga qarab ajratib olinadi. Ajratib olinayotgan meva va sabzavotlarning kattaligi trosning harqanday kesimida ular orasidagi masofa birxil bo'lganligi sababli shu kesimda ularning kattaligi uncha farq qilmaydi.

CHiziqli kalibrlash mashinalariga xuddi shuningdek qiya holda roliklar yordamida harakat qiluvchi birnecha juft konusli mashinalar ham konserva zavodlarida meva va sabzavotlarni bir xil kattaliklarini ajratib olish uchun ishlatiladi. Bu mashinalarda ham juft konuslarning orasidagi masofalar konuslarning balandligi bo'yicha o'zgarib boradi.

Ajratilayotgan meva va sabzavot juft konuslar orasida harakat qilib, ular orasida masofa kattalashganda, masofa xomashyoning o'ttam kattaligidan katta bo'lganligi uchun u og'irlik kuchi ta'siri ostida Pastga qarab tushib ketib, maxsus yig'gichda yig'iladi. Bu Printsip ishlaydigan mashinalarni ( KR-2) A.A. Kretin va N.S. Rqbin tavsiya qilganlar.


Meva va sabzavotlarni bir xil o'lchamdagi fraktsiyalarga ajratish uchun shnekli kalibrlash mashinalari ham ishlatiladi. Bular asosan olma, noklarni ajratish uchun ishlatiladi. Bu mashinalarning kalibrlash vazifaning asosiy qismi bo'lib chaP va o'ng tomonga harakat qiluvchi shneklar hisoblanadi. Bu shneklarning asosiy xususiyati shundaki o'ramlar qadami o'zgarmas bo'lib, xar bir keyingi o'ramning diametri kamayib boradi.

CHizikli saralash mashinalarga xamda universal saralash jihozi va bodringlarni uzunasi buylab saralash uchun jihozi kiradi.

#### A9 – KKB TIPIDAGI UNIVERSAL SARALASH MASHINASI

Bu jihoz meva va sabzavotlarni o'lchami bo'yicha ajratiladi.

Uning ko'rinishi 24-rasmda berilgan.



24-rasm. A9-KKB tiPidagi universal saralash mashinasi.

1 – stanina; 2 - saralash qismi; 3 - fraktsion transPorteri; 4 - chiqindilar uchun transPorter; 5 – elevator; 6 - elektrodvigatel.

#### Ishlash tartibi.


Xom-ashyo kirish yo'li orqali saralash qismga kiradi. Bu qism zanjirga o'rnatilgan roliklardan iborat bo'ladi. Zanjir xarakatda bo'lib, gorizontal to'siqni egib noter yordamida Pastka og'adi, shuning hisobida roliklarni orasidagi bo'shlik xarakat sayin o'zgaradi. Birinchi qismda bo'shlik eng kichik bo'ladi, keyingilarda kengayib boradi.

#### Texnik tavsifnomasi.

Ishlab chiqarish quvvati, kg/soat	3000
Elektroenergiya, kVt	2,2
Gabaritlari, mm:	4090x1895x1545

#### KNU-02 SARALASH MASHINASI

Bu jihoz bodringlarni uzunasiga saralash uchun ishlatiladi. Uning ko'rinishi 25-rasmda ko'rsatilgan.



25-rasm. KNU-02 saralash mashinasi.

1 - kiritish uchun transporter; 2 - kattalashgan xom-ashyoni ajratadigan qurilma; 3 – bodringlarni uzunligi bo'yicha saralash uchun qurilma.

#### Ishlash tartibi.

Bodring 5 juft Plastmassali zanjirlar yordamida uzatiladi, zanjir orasidagi bo'shlik xarakat paytida oshadi 13 mm dan 23 mm gacha. SHu vatda yig'uvchi qutiga kichik diametrdagi bodring ajratiladi. Yo'lga solish qismida bodring PerPendikulyar joylashib boshlov qismga yo'naltiriladi. Buning orasi teshik. Teshikning orasi zinali bo'lib kengayib boradi.

#### Texnik tavsifnomasi.

Ishlab chiqarish quvvati, kg/min	0,417
El.energiya, kVt	1,85
Gabaritlari, mm:	4650x1450x2100

### DISKLI SARALASH MASHINALARI

Bu kalibrlash mashinalarning chiziqli kalibrlash mashinalardan farqi shundakim bularda teshik aylana shaklida o'ralgan bo'ladi.

Diskli kalibrlash mashinalarida meva va sabzavotlarni 3-4 xil o'lchamda ajratib olishi mumkin.

#### Ishlash tartibi

Ishchi g'ildiragi valga o'rnatilgan bo'lib, unga spitsalar joylashtirilib, ular vtulkalarga kavsharlangan bo'ladi. G'ildiraklarning ikki tomoniga tashqi va ichki yoysimon Polosalar o'rnatilgan bo'ladi. Ular ushlagichlarga mahkamlangan. Ushlagichlar bolt orqali ugolniklarga shunday o'rnatiladiki, qaysiki g'ildirak bilan yoysimon Polosalar orasidan masofani xom-ashyo kattaligiga qarab rostlash



mumkin bo'lsin. G'ildirak bilan yoysimon Polosalar orasidagi oraliq masofani o'zgartirib avval kichik o'lchamdagi mevalar keyin katta o'lchamdagi mevalarni ajratib olish mumkin.

G'ildirak val yordamida tishli uzatgichlar yordamida elektrodvigatel vositasida aylanma harakatga keltiriladi.

Ugolniklar staninaga mahkamlanib kalibrlash mashinasining harakatlanmas qismlarini mahkam ushlab turadi.

Diskli kalibrlash mashinalarining ishlab chiqarish quvvati quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$G = 94,2 * D_{yp} * n * k * \frac{g}{d} \varphi \quad [ \text{kg/soat} ]$$

Bu yerda,

$D_{ur}$  - diskning o'rtacha diametri;

$n$  - diskning aylanishlar soni, ayl/min;

$k$  - saralash teshiklarining soni;

$g$  - bitta dona mevaning og'irligi, kg;

$d$  - mevaning o'rtacha diametri, m;

$\varphi$  - kalibrlash teshiklarining material bilan to'lalilik koeffitsienti.

#### MATNLARNI O'ZLASHTIRISHDAGI MUHIM TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

O'lcham kattaligi; saralash; tross; og'irlik kuch; masofa; konuslar; g'ildirak o'q; gidravlik usul; ko'l kuchi; flotatsiya; roliklar; baraban; tuz eritmasi.

#### MATNLARNI YORITISH SAVOLLARI:

1. Saralash mashinalarini sinflash.
2. Navlarga ajratuvchi mashinalarini sinflash.
3. Flotatsion mashinaning vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
4. Universal saralash mashinasining vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
5. Barabanli saralash mashinaning vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.YA. Dikis, A.N. Malskiy.

Texnologicheskoe oborudovanie konservnqx zavodov. - M: Pio'ePromizdat, 1961.

2. E.S. Gorenkov, B.L. Bibergal.

Oborudovanie konservnogo Proizvodstva. - M.: AgroPromizdat, 1989.

3. E.D. Sitnikov, V.A. Kachanov.

Oborudovanie konservnqx zavodov. - M.: Legkaya i Pio'evaya Promqshlennost, 1981.

10-ma'ruza


#### ISTE'MOL UCHUN YARAMAYDIGAN QISMLARDAN TOZALASH QURILMALARI

Matnlarni yoritish rejasi:

1. Mevalar bandini ajratuvchi mashinalar, ularning vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
2. Issiqlik ta'sirini beruvchi agregatlar, ularning vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.

Iste'mol uchun yaramaydigan yoki juda kam ozuqaviy qiymatga ega bo'lgan qismlarga Po'stlog'i, urug'i, bandi va boshqalar kiradi. Olcha, gilos, olxo'ri kabi mevalarning bandi M8-K3P mashinasi yordamida ajratiladi.


Mevalar bandini ajratuvchi mashinaning ishchi qismlariga rezina qobiq kiydirilgan o'qcha kiradi (26-rasm). Ikkita bir-biriga qarab harakatlanadigan o'qcha meva bandini qisib, uzib oladi. Bu mashinaning ishlab chiqarish unumdorligi 1,5-2 t/soat.



26-rasm. a) mevalar bandini jaratuvchi mashina; b) uning ishlash usuli: 1 – mahsulot kiradigan bunker; 2 – o'qlar; 3 – elektrodvigatel; 4 - telejka.

SHAftoli, nok, behi va olmalarni Po'stlog'idan ajratish uchun ba'zida kimyoviy usuldan ham foydalaniladi. Buning uchun mevalar 1-3% gacha kaustik soda eritmasida 1-2 daqiqa davomida ishlov beriladi. Eritma harorati 90-100<sup>0</sup>S. So'ngra mevalar toza suv bilan yuviladi va Po'stlog'idan tozalanadi.


Kartoshka, sabzi, lavlagi va boshqa ildimevalarni Po'stlog'idan tozalash A9-KLSH/30 tiPidagi agregatda amalga oshiriladi (27-rasm).



27-rasm. A9-KLSH/30 tiPidagi agregat:

1-uzaytirilgan konveyer; 2-avtoklavli kamera; 3-bug'li kommunikatsiya; 4,10-vintli konveyerlar; 5-suvli kommunikatsiya; 6-maydoncha; 7-siqilgan havo kommunikatsiyasi; 8-elektroqurilma; 9-stanina.


SHu bilan birgalikda kartoshkani Po'stlog'idan tozalash uchun uzluksiz ravishda ishlaydigan KNA-600M markali tozalash mashinasi ham mavjud (28-rasm.)



28-rasm. KNA-600M markali tozalash mashinasi sxemasi.

Mashina unumdorligi 0,167-0,222 kg/s; suv sarfi 0,002-0,0025 m<sup>3</sup>/kg; elektrodvigatel quvvati 3 kVt; gabarit o'lchamlari 1500x1140x1270 mm.


Kichik miqdordagi xom ashyolarni tozalash uchun 822-5 markali tozalash mashinasi ham ishlatiladi (29-rasm).



29-rasm. 822-5 markali tozalash mashinasi sxemasi.

Mashina unumdorligi 0,011-0,014 kg/s; yuklanadigan xom ashyo massasi 2-2,5 kg; gabarit o'lchamlari 400x312x410 mm.


Olma va noklarni Po'stlog'idan tozalash uchun UTM-1 markali tozalash mashinasidan foydalaniladi (30-rasm).



30-rasm. UTM-1 markali tozalash mashinasi sxemasi.


Mashina unumdorligi minutiga 48 dona meva; elektrodvigatel quvvati 1,6 kVt; gabarit o'lchamlari 2680x1510x1550 mm.

Meva va sabzavotlarni ishqoriy yo'l bilan tozalashda B4-MX markali mashina ishlatiladi (31-rasm).



31-rasm. B4-MX markali tozalash mashinasi sxemasi.

Piyozni tozalashda esa KPL-3 mashinasidan foydalaniladi (32-rasm).



32-rasm. KPL-3 markali tozalash mashinasi.

1- yuklash bunker; 2-barabanli dozator; 3-tozalash kamerasi; 4- eshik; 5- lyuk; 6-siqilgan havo uchun kollektor; 7-siqilgan havoni uzatish uchun tuynuk; 8- halqa; 9-xavo taqsimlovchi klaPan; 10-tozalash diski; 11-kulachoklar; 12-stanina; 13-elektrodvigatel; 14-tsilindrik tishli uzatma; 15- konussimon tishli uzatma; 16-zanjirli uzatma; 17-chervyakli uzatma; 18- konussimon tishli uzatma; 19-tsiklon; 20-yig'gich.

Mashina unumdorligi 0,139 kg/s; havo bosimi 0,6-0,7 MPa; tsikl davomiyligi 41 s; elektrodvigatel quvvati 30 kVt; gabarit o'lchamlari 2130x1040x1475 mm.

#### MATNLARNI O'ZLASHTIRISHDAGI MUHIM TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

Tozalash; kimyoviy; ishqoriy; bandi; Po'stloq.

#### MATNLARNI YORITISH SAVOLLARI:

1. KPL-3 markali tozalash mashinasining vazifasi va uning tuzilishi.
2. B6-MX markali tozalash mashinasining vazifasi va uning tuzilishi.
3. UTM-1 markali tozalash mashinasining vazifasi va uning tuzilishi.
4. 822-5 markali tozalash mashinasining vazifasi va uning tuzilishi.

11 - ma'ruza

Mavzu: O'SIMLIK MAHSULOTLARINI MAYDALASHDA ISHLATILADIGAN USKUNALAR

Matnlarni yoritish rejasi:

1. Ezuvchi mashinalarining xillari.
2. Kesish mashinalarining xillari.
3. YUPqa kilib maydalashda ishlatiladigan uskunalalar.

Meva va sabzavot mahsulotlarini birnecha bo'laklarga ajratish - tug'rash deyiladi. Agar maydalanayotgan meva va sabzavotlarning shakli va yuza qismi mahsus talablarga javob bermaydigan bo'lsa, bu xolda ular yanchib maydalanadi bu- maydalash jarayoni deyiladi.

Agar maydalanayotgan mahsulotning aniq shakli tekis yuzali bo'lishligi uchun u holda kesish usuli bilan Pichoq yordamida bo'laklarga ajratiladi. Maydalangan bo'lakchalarning o'lcham kattaligi 75-150 mk bo'lishi kerak.

Bu mashinalar sifatida gomogenizatorlar, dezintegratorlar vag artib tozalash mashinalari ishlatiladi.

### MAYDALASH MASHINALARI IKKI BARABANLI MAYDALAB EZISH MASHINASI

Ikki barabanli maydalab ezish mashinasi xo'l mevalarni, Pomidorlarni maydalash uchun ishlatiladi.

Bu mashinasining ko'rinishi 33-rasmda ko'rsatilgan.

33-rasm. Ikki barabanli ezish mashinasi.

1, 2-gorizantal o'q; 3-bronza yulduzchalar; 4-tishli g'ildirak; 5-shkiv; 6-mufta; 7-dasta (rukoyatka); 8 -bunker; 9- korPusning Pastki qismi.

Ishlash tartibi.

Bu qurilma ikkita gorizantal o'qda o'rnatilgan bir biriga qarama-qarshi tomonga aylanuvchi barabanlar va ularga o'rnatilgan Pichoqlardan iborat. Bir o'qdagi baraban juft kilib ikkinchi o'qdagi barabanga yonma-yon kilib o'rnatiladi. Ezish mashinasining Paski qismiga to'rlar o'rnatilgan bo'ladi. Aylanma harakatlanayotgan baraban Pichoqlari to'rlar orasidagi teshiklardan bemolol o'tadi. Boshqaruvchi o'q shkiv yordamida friktsion mufta bilan aylanma harakatlarga keltiriladi. O'qda o'rnatilgan tsilindrik g'ildirak tishlari ikkinchi o'qdagi g'ildirakning tishlari bilan tishlashgan bo'ladi. G'ildirakdagi tishlar soni turlicha, shu sababli bir va ikki o'qning aylanishlar soni har xil bo'ladi, shuningdek, mahsulotlarning bir vaqtning o'zida yorilib ezishga imkoniyat yaratiladi. Material uzluksiz bunkerdan berilib, kurilmaning Pastki qismidan ezilgan material olinadi.

*Texnik tavsifnomasi.*

Maydalash mashinasining ishlab chiqarish quvvati, t/soat 8


Uzatuvchi o'qning aylanish soni, ayl./min

250-350

### T1-KOS 15 MARKALI EZISH MASHINASI

Bu mashina tomatlarni ezib, urug'larni ajratish uchun ishlatiladi.

Uning ko'rinishi 34-rasmda ko'rsatilgan.



34-rasm. T1-KOS-15 markali ezish mashinasi.

1 – rama; 2 - ishqalash qurilmasi; 3 – seParator; 4 - ezish qismi; 5 – baraban; 6 - o'yma (Proyom).

#### Ishlash tartibi.

Xom-ashyo ezish qismidan tsilindsimon uzatuvchilar orasidan o'tib, barabanga tushib eziladi. Ezilgan yarimtayyor mahsulot seParatorga kelib tushadi. Uning ichida Pichoqlar o'rnatilgan o'q bulib yana bir bor eziladi. SeParatorda ezilgan massa ikki qismga ajratiladi. Urug' va sharbat Pastki qismga ajratiladi, u yerdan esa ishqalash qurilmasiga yuboriladi. Po'stlog'i va xom-ashyoning go'shti Pichoklar bilan maydalanib, elakli diskdan o'tib keyingi jarayonga uzatiladi.

#### Texnik tavsifnomasi.

Ishlab chiqarish quvvati, kg/soat	15000
Energiya, kVt	5,5
Bug' sarfi, kg/s	100
Gabaritlari, mm:	1850x1000x1500
Og'irligi, kg	750

#### A9-KIO MARKALI EZISH MASHINASI

Bu jixoz ishqalash xildagi bo'lib, olmani maydalab va maydalangan massasini tortib uzatib beradi.

#### Ishlash tartibi.

Bunker orqali tushgan olma qator Parraklari yordamida elakli barabanga urilib maydalanadi. Maydalangan massa baraban va korPus orasiga tushib, nasos yordamida keyingi jarayonga uzatiladi.


#### Texnik tavsifnomasi.

Ishlab chiqarish quvvati, kg/soat	3000
-----------------------------------	------

El.energiya, kVt	3
Nasosning energiya quvvati, kVt	1,5
Gabaritlari, mm:	1520x596x1242
Og'irligi,kg	640

### A9-KIS MARKALI EZISH MASHINASI

Bu uskuna olma, behi, nok, sabzi, lavlagi, qovoq ezish uchun ishlatiladi. Ezish mashinaning ko'rinishi 35 - rasmda ko'rsatilgan.



35-rasm. A9-KIS markali ezish mashinasi.

1 – korpus; 2 - ikki Pichoqli qurilma; 3 - harakatlanuvchi shnek; 4 - bunker.

Ishlash tartibi.

Rotorni xarakat kuchi yordamida xom-ashyo Pichoqlar qurilmasiga keladi va eziladi.


*Texnik tavsifnomasi.*

Ishlab chiqarish quvvati, kg/soat	6350
Energiya quvvati,kVt	7,5
Gabaritlari, mm:	925x630x920
Og'irligi,kg	315

### A9-KIF TIPIDAGI MAYDALAGICH

Tomatlarni bir vaqtning o'zida urug'idan ajratib olish va maydalash uchun bu maydalagichdan foydalaniladi (36-rasm).





36-rasm. A9-KIF tipidagi maydalagich:

1-ishqalash mashinasi; 2-stanina; 3-elektrodvigatel uchun maydoncha; 4-seParator; 5- tasmali uzatma; 6-elektrodvigatel.

Ishlab chiqarish quvvati, kg/soat

Energiya,  $kVt$

Bug' sarfi,  $kg/s$


Gabaritlari,  $mm$ :

Og'irligi,  $kg$

X X

### D2-7,5 TIPIDAGI MAYDALAGICH

Tomatlarni bir vaqtning o'zida urug'idan ajratib olish va maydalash uchun bu maydalagichdan foydalaniladi (37-rasm).



37-rasm. D2-7,5 tipidagi maydalagich:

1-kesish Pichog'i; 2-seParator; 3-ishqalash mashinasi; 4-stanina.

Ishlab chiqarish quvvati, kg/soat  
 Energiya, kVt  
 Bug' sarfi, kg/s  
 Gabaritlari, mm: X X  
 Og'irligi, kg

### 361 MARKALI EZISH USKUNASI

Bu uskuna olma ezish uchun ishlatiladi.

#### Ishlash tartibi.

Rotor o'qni oldi qismiga o'rnatilgan bo'lib, uch Parrakdan iborat. Xom-ashyo 15 qirrali Pichoqlar orasidan o'tadi, eziladi va keyingi jarayonga uzatiladi.


#### Texnik tavsifnomasi.

Ishlab chiqarish quvvati, t/soat 5-7  
 Elektr quvvati, kVt 13  
 Gabaritlari, mm: 1350x650x485  
 Og'irligi, kg 385

### DOIRASIMON PICHOQLI KESISH MASHINASI (MSH-10000)

Ishlatilishi: Karam, ildizli mevalar, bodring, bo'lg'or qalam Pir tug'rash uchun ishlatiladi.

Bu mashinaning ko'rinishi 38-rasmda ko'rsatilgan.



38-rasm. MSH-10 000 markali kesish mashinasining sxemasi

#### Ishlash tartibi.

Bunker orqali xom-ashyo jihozga kiritiladi. Pichoqli disk aylangan sari xom-ashyoni tug'rash qismiga kelib kadaladi. Xom-ashyo tagidan Pichoq o'tgan sari qavat-qavat kesilib orasidan chiqadi va lentali transPorterga tushadi.

#### Texnik tavsifnomasi.

Ishlab chiqarish quvvati, kg/soat 10000


Energiya quvvati,kVt

4

Gabaritlari,mm:

1600x1020x1500

SHu bilan birgalikda ildizmevalarni kesish uchun A9-KRV "RITM" markali mashina ham ishlatiladi (39-rasm)



39- rasm. A9-KRV "Ritm" tiPidagi kesish mashinasi:


1-stanina; 2-grebenka; 3-Pichoq; 4-oboyma; 5-baraban; 6-Parrak; 7-Pichoqli disk; 8-bunker; 9-Patrubok; 10-reduktor.

Unumdorligi 2000 kg/soatgacha; barabanning aylanish chastotasi  $17,6 \text{ s}^{-1}$ ; quvvati 1,5kVt; gabarit o'lchamlari 1080x1072x1380 mm.

Ishlash tartibi.

Bu uskunada sabzavotlar doirasimon shaklda kesiladi. Disk gorizontal xolatda o'rnatilgan. Diskda Pichoqlar joylangan, ularning lezviyasi do'ng bo'lib chiqib turadi, shu tufaylidisk va Pichoqlar orasida bo'shlik bo'ladi.Xom-ashyo kesilib bo'shlik orqali chiqish yo'liga tushadi.O'qni xarakati yordamida disk xarakatga tushadi.

Meva va sabzavotlarni kubik, bo'lakcha ko'rinishda kesish uchun A9-KIP mashinasi ishlatiladi (40-rasm).




40-rasm. A9-KIP markali kesish mashinasi.

1-baraban; 2-Parrak; 3-lotok; 4- rostlash mexanizmi; 5-Pichoq; 6- qo'zg'aluvchan deka; 7-Panel; 8-ferromagnit ushlagich; 9-bunker; 10-sterjen; 11-tayanch; 12-blok; 13-elektrodvigatel; 14-baraban; 15-stanina.

Unumdorligi 5000 kg/soatgacha; quvvati 2,2 kVt; gabarit o'lchamlari 1130x950x1200 mm.

Olmalarni kesish uchun RZ-KRA markadagi kesish mashinasidan foydalaniladi (41-rasm).




41-rasm. RZ-KRA markali kesish mashinasi.

1-bunker; 2-konveyer; 3,7-etaklovchi vallar; 4,14- yetaklanuvchi vallar; 5- elektroqurilma; 6,8,11-lotoklar; 9-uzatma; 10-tayanchlar; 12,13-karkaslar; 15,16-yulduzchalar; 17-Plita; 18-turtkich (tolkatel); 19-fiksator; 20-Pichoq.

Unumdorligi 200 kg/soat; quvvati 2,2 kVt; gabarit o'lchamlari 6050x1480x1800 mm.

Meva va sabzavotlarni kesish va ishqalash uchun 723-10M markali mashinadan foydalaniladi (42-rasm).




42-rasm. 723-10M markali kesish mashinasi.

1-stanina; 2-elektrovigatel (reduktor bilan); 3-ishqalash-kesish mashinasi.

Unumdorligi 0,167-0,195 kg/soat; quvvati 1,1 kVt; gabarit o'lchamlari 780x445x1000 mm.


Kabachki va baqlajonlarni aylana shaklida kesishda ham kesish mashinalarida foydalaniladi (43-rasm).



43-rasm. Kabachki va baqlajonlarni aylana shaklida kesadigan mashina.

1-idish; 2-zanjirli uzatma; 3-Pichoq; 4-aylanuvchan Pichoq; 5-shayba; 6-uloqtiruvchi.

Kartoshkani bo'laklarga kesish uchun ORM-1000K markali mashinadan foydalaniladi (44-rasm).



44-rasm. ORM-1000K kesish mashinasining sxemasi.

Unumdorligi 0,277 kg/soat; bo'laklarga qalinligi 20-25 mm; quvvati 1,1 kVt; gabarit o'lchamlari 755x725x1330 mm.

### NOZIK ( YUPQA) MAYDALAYDIGAN MASHINALAR

Mahsulotlarni mayda zarrachalarning kattaligi 250-300 mk bo'lguncha maydalash nozik maydalash deyiladi. YOsh bolalarning iste'mol qiladigan konservalarni tayyorlash uchun, meva va sabzavotlarning sharbatlarini olish uchun nozik maydalashga ehtiyoj tug'iladi. Bu jarayonlarni olib borish uchun 3 xil tipdagi mashinalar ishlatiladi: gomogenizatorlar, zarbali ishqaluvchi mashinalari.


#### GOMOGENIZATOR (A1-OGM)

Mahsulotlarning yaxshi hazm bo'lishi uchun zarrachalarning kattaligini yana ham mayda qilib berishga ishlatiladi.

Gomogenizator Pomidor soki olishda suyuqlik ichidagi mayda zarrachalarning kattaligi juda ham kichik bo'lishini ta'minlaydi. YOsh bolalar uchun mo'ljallangan har bir konserva mahsuloti gomogenizatsiya qilinadi.

Gomogenizator maydalangan yarimtayor mahsulotni yana bir mayillashtirib maydalash uchun ishlatiladi.

Uning umumiy ko'rinishi 45-rasmda ko'rsatilgan.



45-rasm. Gomogenizator.

1-gomogenizatsiyalash qismi; 2-Plunjer qismi; 3-korPus; 4-stanina; 5-vint; 6-Plita; 7-harakatga keltiruvchi mexanizm (krivoshiPno-shatunnqy mexanizm); 8-moylash qurilmasi; 9-elektrovdigatel; 10-tasmali uzatma; 11-sovutish qurilmasi.


Ishlash tartibi.

Plunjer yordamida suyuq massa kiritilib, tarelka bosadi. SHu vaqtda klaPan qaytarma bosimni uzlashtirib Prujina yordamida ochiladi. SHu Payt 0,05-2,5 mm teshik Paydo bo'lib, suyuq massasi kuchli tezlik bilan o'tib gomogenizatsiyalashtiriladi. Bu jarayon taqrorlanadi, so'ngra suyuqlik keyingi jarayonga uzatiladi.

*Texnik tavsifnomasi.*

Ishlab chiqarish quvvati, m <sup>3</sup> /soat	5
Energiya quvvati, kVt	40
Gabaritlari, mm:	1430x1110x1640
Og'irligi, kg	1710


Quyida OGB-M markali gomogenizatorning sxemasi berilgan (46-rasm).



46-rasm. OGB-M markali gomogenizator sxemasi.

## DISKLI GOMOGENIZATOR

Bu gomogenizator quyidagi ko'rinishda 47-rasmda ifodalangan.



47-rasm. Diskli gomogenizator.

1-stanina; 2-elektrodvigatel; 3-gomogenlashtiruvchi bo' yin; 4-mufta; 5-nasos; 6-nasos elektrodvigateli.

#### KD -1 TIPIDAGI ZARBALI MAYIN MAYDALASH MASHINALARI

Bu mashinalar olma, sabzilarni mayin maydalash uchun ishlatiladi. Maydalash quyidagi shartlarda olib boriladi:

a) O'qda rotorning tez aylanishi natijasida ( 6000 ayl./min)

b) elaksimon tsilindrda (teshiklarning diametri  $d=250$  mk), bu tsilindrda mayda zarrachalar markazdan qochma kuchlar ta'sirida eziladi.

Ta'sir qilayotgan markazdan qochma kuchning miqdori zarrachaning og'irligiga nisbatan 10000 marta katta bo'ladi.

Elaksimon tsilindrga ta'sir qilayotgan kuchning miqdori katta bo'lganligi uchun uning atrofini 15-20 mm li Po'lat trubalar bilan o'rash kerak bo'ladi.

Maydalanayotgan zarrachalarni qurilmadan yaxshi tushirib olish uchun rotor o'qni va elektrodvigatelni qiya holda joylashtiriladi.

Aylanayotgan zarrachalar aeratsiya bo'lmasligi uchun maydalovchi qurilma ichiga bug' beriladi.

#### *Texnik tavsifnomasi.*

Xo'l mahsulotlari uchun ishlab

chiqarish quvvati, kg/soat

3000

Gabaritlari, mm: uzunligi - 1400

kengligi - 1000

balandligi - 1400

Zarba bilan ishlaydigan mayin maydalovchi qurilmalarning nazariy qismi va hisoblash usullari yaxshi o'rganilmagan. SHuning uchun ularning aniq ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda hamda nozik maydalash uchun kerakli quvvatini bilish ancha qiyinchiliklar tug'diradi.

#### MATNLARNI O'ZLASHTIRISHDAGI MUHIM TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

- kesish; ezish; barabanlar; Pichoq;



- bo'lakchalar; yuPqa maydalash; disk.

#### MATNLARNI YORITISH SAVOLLARI:

5. Ezish mashinalarining xillari.
6. Ikki barabanli maydalash mashinasining vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
7. Gorizontal diskli kesish mashinasining vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
8. Gomogenizatorning vazifasi va ishlash tartibi.
9. Kesish mashinasidan chiqqan masulot maydalash mashinadan chiqqan mahsulotdan nimasi bilan farq qiladi.

12 - ma'ruza.

#### Mavzu: SHARBAT OLISHDA ISHLATILADIGAN USKUNALAR

##### Matnlarni yoritish rejasi:

1. Ishqalash mashinalari.
2. Presslarning xillari.
3. Tindirish uskunalari.

Ishqalovchi mashinalarda mahsulotlarni ikki fraktsiyaga ajratish mumkin. Ketma-ket joylashtirilgan mashinalarda mahsulotni uchta yoki undan ko'p fraktsiyaga ajratish lozim.

Ishqalovchi mashinalarining ishlash tartibi qayta ishlanayotgan xom-ashyoni elaksimon teshikli yuzaga qisib, suyuqlik fazasini teshiklardan o'tkazib, qattiq fazasi elaklarning ustki qismida qoldiriladi, keyin mashinadan chiqarib toshlanadi.

Ishqalovchi mashinasi aylanuvchi rotordan va xarakatlanmaydigan elaksimon tsilindrdan tuzilgan. Rotorda 2ta yoki 4 ta tig'lar (bich) o'rnatilgan bo'lib mahsulotni ushlab qolib ularni aylanma harakat qildiradi.


Xom-ashyoga markazdan qochma kuch ta'sir qiladi, ta'sir qilayotgan kuchning miqdori xom-ashyoning og'irligiga nisbatan 100 marta katta bo'ladi. Ishqalovchi mashinalarida bir vaqtning o'zida xom-ashyoni suyuq va qattiq fazaga ajralib, suyuq faza elakning teshiklaridan o'tib, keyingi ishlash jarayoniga jo'natiladi.

Ishqalovchi mashinalari tomat-Pasta ishlab chiqarish tsexlarida tomatlarni ustki Po'choqlarini va urug'larini ajratib, chiqindi sifatida chiqarib tashlanadi.

#### T1 - KP2U MARKALI ISHQALASH MASHINASI

Ishlatilishi: Danakli va urug'li xom-ashyoni ishqalash uchun ishlatiladi.

Ishqalovchi mashinaning umumiy ko'rinishi 48-rasmda ko'rsatilgan.



48-rasm. T1-KP2-U markali ishqalash mashinasi.


1-korpus; 2-elektrodvigatel; 3-tasmali uzatuvchi qismi; 4-Parraklarni yo'naltirish qismi; 5-kiritish bunker; 6-konus; 7-elakli baraban; 8-ishqalanmagan xom-ashyoning chiqish yo'li; 9-yig'uvchi bunker; 10-tig'.

*Texnik tavsifnomasi.*

Ishlab chiqarish quvvati, kg/soat	7000
Energiya quvvati, kVt	7,5
Gabaritlari, mm:	1770x770x1115
Og'irligi, kg	508

#### DANAKLI HO'L MEVALARNI ISHQALASH MASHINASI

Bu mashina o'rik, olcha, gilos, olxo'ri danaklarini ajratish uchun ishlatiladi. Uning ko'rinishi 49-rasmda keltirilgan.



49-rasm. Danakli mevalarni ishqalash mashinasi.


1-solinadigan lotok; 2-tsilindrsimon elak; 3-o'q; 4-tig'lar; 5-qabul bunkeri; 6-chiqindilarni chiqaradigan lotok; 7-qoPqoq.

Ishlash tartibi.

Bunkerga berilayotgan xom-ashyo tsilindrsimon elakning ichiga tushadi va markazdan qochma kuchlar ta'siri ostida elak devorlariga o'rib, teshiklar orqali quyqasi va sharbati qabul bunkerga tushadi. Markazdan qochma kuchlar o'q va tig'lar aylanishida sodir bo'ladi. Danaklar va Po'choqlar esa chiqindalar chiqadigan lotok orqali mashinadan chiqariladi.


### A9-KIG-14 MARKALI ISHQALASH MASHINASI

Bu mashina 50-rasmda ifodalangan.




50-rasm. A9-KIG-14 markali ishqalash mashinasi.


Quyida turli xil markadagi ishqalash mashinalarining sxemasi berilgan (51,52,53-rasmlar).



51-rasm. T1 - KP2T markali ishqalash mashinasining sxemasi.




52-rasm. KPU-M ishqalash mashinasining sxemasi.



53-rasm. KPD markali ishqalash mashinasining sxemasi.


TSENTRIFUGALAR  
 FVIL-701K-04 MARKALI TSENTRIFUGA  
 Bu tsentrifuga 54-rasmda ifodalangan.



54-rasm. FVII-701k-04 markali tsentrifuga.

### FGSH-401K-1 MARKALI TSENTRIFUGA

Bu tsentrifuga 55-rasmda ifodalangan.



55-rasm. FGSH-401K-1 markali tsentrifuga.

## PRESSLAR

Tashki bosim ta'sirida mahsulotlarni mexanik qisish - Presslash deyiladi, bu maqsadda ishlatiladigan mashinalar Presslar deyiladi.

Konservalash sanoatida Presslar olma, uzum, olxo'ri, sabzi sharbatlarini olish uchun ishlatiladi.

Ishlash tartibiga qarab Presslar davriy va uzluksizlarga bo'linadi.

Ishlash rejimiga qarab, ular 3 guruhlariga ajratiladi: 1. Hidravlik. 2. Pnevmatik. 3. Mexanik.


Uzluksiz ishlaydigan Presslarning ishchi organi shnek bo'lib, u xarakatlanmayotgan teshikli tsilindr ichida o'rnatilgan bo'ladi. SHnek Parraklarning qadami yoki diametrlari o'zgaruvchan bo'lishi mumkin.

## UZLUKSIZ ISHLAYDIGAN PRESSLAR

### VPND - 10 MARKALI PRESS

Ishlatilishi: Uzum sharbati olish uchun ishlatiladi.

Pressning umumiy ko'rinishi 56-rasmida ko'rsatilgan.



56-rasm. VPND-10 markali Press.


1-reduktor; 2-shnekli o'q; 3-kirish yo'li; 4-elakli tsilindr; 5-elakli baraban; 6-konus; 7-o'q tayanchi; 8-gidroreduktor; 9-vanna; 10-rama; 11-elektrodvigatel.

*Texnik tavsifnomasi.*

Ishlab chiqarish quvvati, t/soat	10
Energiya quvvati, kVt	10
Gabaritlari, mm	4270x920x1272
Og'irligi, kg	2770

### PND - 5 MARKALI PRESS

Bu Press sharbatni siqib chiqarishda foydalaniladi (57-rasm).



57-rasm. PND-5markali uzluksiz ishlaydigan Press.

1-rama; 2-elektrodvigatel; 3-mahsulot kiradigan bunker; 4-tashqi o'q; 5-birinchi shnek; 6-qovurg'ali tsilindr; 7-ikkinchi shnek; 8-ichki o'q; 9-qovurg'ali tsilindr; 10-konussimon tortqich (zatvor); 11-chiqaruvchi quvur.

#### Ishlash tartibi

Mahsulotni tashiydigan va Presslaydigan Perforatsiyalaydigan barabanga o'rnatilgan ikkita shnek Pressning asosiy ishchi organi hisoblanadi va bir-biriga qarama-qarshi harakatlanadi.

Barabanning oldingi ichki qismiga, holati gidroboshqargich tomonidan boshqariladigan konus qo'yilgan. Konus va baraban orasidagi oraliq o'zgarib turadi.


Barabanning ostki qismiga sharbatni yig'ish uchun vanna o'rnatilgan. Bu vanna to'siqlar bilan sharbatni ikki va uch fraktsiyaga ajratadigan qilib to'silgan. Mahsulot kiradigan bunker sharbatning o'zi oqib chiqishi uchun setka bilan jihozlangan.

Yanchilgan mahsulot bunkerga kelib tushadi va bu yerda birinchi fraktsiyaga ajraladi, bu fraktsiya bunker tagiga yig'ilib, nasos yordamida keyingi jarayonga uzatiladi. Yanchilgan mahsulot shneklar yordamida Presslovchi shnekka qarab harakatlanadi va bunda bir oz siqilib, ikkinchi fraktsiyadagi sharbat ajralib chiqadi. Qolgan qoldiq uchinchi zonaga, shnekning qadamlari kichrayadigan, o'qning diametri kengayadigan qismiga uzatiladi. Bu yerda bosim ortib, shu bosim ta'sirida uchinchi fraktsiyadagi sharbatlar ajralib chiqadi.

#### RZ-VPU va R3-VPTS -2 MARKALI PRESSLAR

Ishlatilishi: Olma sharbati olish uchun ishlatiladi.

Pressning umumiy ko'rinishi 58-rasmlarda ko'rsatilgan.



58-rasm. RZ-VPTS2 markali shnekli Press.

1,3-shneklar; 2,7-tsilindrlar; 4-qoPlama; 5-elakli tsilindr; 6-Presslovchi shnek; 8,10-elektrovdigatel; 9-ta'minlovchi (manba-Pitatel).

*Texnik tavsifnomasi.*

Ishlab chiqarish quvvati, t/soat


2-8

Gabaritlari, mm

6750x830x2700

Og'irligi, kg

3100




59-rasm. Rz-VPU markali Press.



## SH10-KPE MARKALI LENTALI PRESS

Bu Press meva mezasidan sharbatni ajratish (siqish) uchun mo'ljallangan (60-rasm).



60-rasm. SH10-KPE markali lentali Press.

1-tortish barabani; 2-tozalash va yuvish uchun mexanizm; 3-rama; 4-manba; 5-tasma; 6-yo'naltiruvchi; 7-egiluvchan baraban; 8-Presslovich transPortyor.

Unumdorligi 3-5 t/soat; lenta harakat tezligi 0,04-0,12 m/s; quvvati 28,4 kVt; gabarit o'lchamlari 6870x2985x2570 mm; massasi 15 170 kg.

## TINDIRISH QURILMALARI SEPARATOR - G9 KOV

Ishlatilishi: osma zarrachalardan sharbatlarni tozalash uchun ishlatiladi.

Ishlash tartibi.

Vertikal o'kda rotor o'rnatilgan bo'lib, elektrodvigatel yordamida xarakatga keladi. Rotor kojuxni ichida o'rnatilgan. Baraban dasta tarelkalardan iborat. SHarbat barabanning ichiga truba orqali kiritiladi va tarelklarning orasini to'ldiradi. Markazdan qochma kuch ta'sirida sharbat ikki qismiga bo'linadi: yengil va og'ir. Og'ir qismi barabanning devoriga otilib tushadi, yengil qismi tarelklarning orasidan o'tib yuqoriga ko'tariladi.


*Texnik tavsifnomasi.*

Ishlab chiqarish quvvati, m <sup>3</sup> /s	10
Energiya quvvati, kVt	13
Gabaritlari, mm	1500x1132x1650
Og'irligi, kg	1840

## FILTR-PRESS

Ishlatilishi: SHarbatlarni, siroPlarni filtrlash uchun ishlatiladi.

Filtr-Pressning ko'rinishi 61-rasmda keltirilgan.



61-rasm. Filtr-Press.

1-stanina; 2-elektrovigatel; 3-nasos; 4-sharbat keltirish yo'llari; 5-tayanch Plitasi; 6-traversa; 7-vint; 8-boshqaruvchi qismi; 9-band; 10-bostiruv Plitasi; 11-Plitalar; 12-metall sterjen.

#### Ishlash tartibi.

Xarakatdagi Plita va bostiruv Plita sterjenga tayanib bikin okuva Paydo bo'ladi. Oquva Plitalarni Pastki va tePadagi qismda joylashgan bo'lib, Plitalar qotirilganda u yoqdan bu yoqqa o'tadigan kanal Paydo bo'ladi. Plitalar orasida filtr-qog'oz joylashtiriladi. Kanaldagi filtrlanmagan sharbat oqib Plitalar orasiga tushadi va to'siqlar orasidan o'tib filtrlanadi.

#### Texnik tavsifnomasi.

Ishlab chiqarish quvvati, m <sup>3</sup> /soat	3
Energiya quvvati, kVt	4,0
Gabaritlari, mm	1700x780x1225
Og'irligi, kg	476

#### MATNLARNI O'ZLASHTIRISHDAGI MUHIM TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

- sharbat olish; qattiq qismi; suyuq qismi;
- baraban; teshiklarning diametri; o'q;
- tig'lar; siqish; shnek; markazdan qochma kuch;
- gidravlik qarshilik.

#### MATNLARNI YORITISH SAVOLLARI:


1. Ishqalash mashinasining vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
2. Presslarning sinflari.
3. Uzluksiz ishlaydigan Presslarning vazifasi va ishlash tartibi.
4. Markazdan qochma kuch ta'sirida qanday jarayon boradi va qanday uskuna ishlatiladi?

#### ISSIQLIK QURILMALARI

## Blanshirlash aPParatlari


Bu blanshirlash qurilmalari xom ashyoni blanshirlash uchun ishlatiladi. Ularning bir necha turlari mavjud.

BK markali blanshirlash qurilmasi ham bug'da ham suvda blanshirlash uchun qo'llaniladi (62-rasm). Bunda meva va sabzavotlar o'zining xususiyatlarini saqlab qoladi. Bu qurilma vanna va lentali transPortyordan iborat. lentali transPortyor 2ta zanjirdan tashkil topgan bo'lib, ularga sharnirli qilib cho'michlar qistiriladi. Qurilmaning unumdorligi 500-8000 kg/soatgacha; elektrovigatel quvvati 1,7 kVt; o'qning aylanish tezligi 140 rad/s.



62-rasm. BK markali cho'michli blanshirlash qurilmasi.


1-uzatma; 2-tunnel; 3-cho'michli transPortyor; 4-karkas; 5-bug' kiradigan quvur; 6-suv kiradigan quvur.



63-rasm. Skrebkali-lentali blanshirlash qurilmasi.

1-mahsulot kiradigan joy; 2-lentali transPortyor; 3-to'kuvchi quvur; 4-ochiluvchan qoPqoq; 5-mahsulot chiqadigan joy; 6-reduktor; 7-elektrovigatel; 8-vanna; 9-vannani cho'kmadan tozalash uchun eshik.


Meva va sabzavotlarni issiqlik ishlovi bilan berish jarayonlaridan biri Pishirishdir. Pishirish jarayoni Pishirish qozonlarida olib boriladi (64-rasm).



64-rasm. MZ-2S-244b markali Pishirish qozoni.

1-tayanch; 2-tsaPfa; 3-bug' qobig'i; 4-korPus; 5-aralashtirgich.

Jihozning ishlashi Pishirish kamerasidagi termometr, monovakuummetr, manometr va bug' kamerasining himoya qiluvchi klaPani yordamida nazorat qilinadi.




65-rasm. Pishirish qozoni.

## BUG'LATISH APPARATLARI

Bu apparatlar meva pyurelari, murabbo, djem, povidlo, quyultirilgan tomat mahsulotlari, quyultirilgan meva va sabzavot konsentratlari ishlab chiqarishda keng foydalaniladi.

Uning bir necha turlari mavjud.

MZS-320 markali bug'latish mashinasi tomat pyure va tomat pasta, turli xildagi souslar, povidlo, murabbo va rassollar tayyorlashda ishlatiladi (66-rasm).




66-rasm. MZS-320 markali bug'latish apparati.

1-ushlagich; 2-qopqoq; 3-aralashtirgich; 4-korpus; 5-elektrodvigatel; 6-reduktor.


Uning ishchi hajmi  $1000 \text{ dm}^3$ ; isitish yuzasining maydoni  $3,66 \text{ m}^2$ ; bug'ning ishchi bosimi  $0,4 \text{ MPa}$ ; aralashtirgich valining aylanish chastotasi  $57 \text{ min}^{-1}$ ; quvvati  $2,7 \text{ kVt}$ ; gabarit o'lchamlari  $1310 \times 1310 \times 3180 \text{ mm}$ .

SHu bilan birgalikda ikki, uch korpusli bug'latish apparatlari ham mavjud (67-rasm).




67-rasm. Past haroratli ikki korpusli bug'latish apparati.  
 1-sovutgich; 2-bug'latgich; 3-separator; 4-ammiakli bug'latkich; 5-kondensat uchun nasos; 6-qabul qiluvchi bak; 7-tsirkulyatsion nasos; 8-ammiak uchun idish; 9-kompressor; 10-boshqaruv Pulti.

### ISITISH APPARATLARI




68- rasm. Deaerator-Pasterizator DPU.  
 1 – vakuum Plyonkali deaerator; 2 –Plastinali Pasterizator; 3 – boyler; 4 – tenglashtiruvchi bak; 5- ushlagich; 6 – maydoncha; 7 – vakuum-nasos; 8 – sharbatni uzatish uchun nasos; 9 – Pasterizatsiya sektsiyasiga issiq suvni uzatish uchun nasos.

Sabzavotlarni qovurish jarayoni qovurish Pechlarida olib boriladi (69-rasm).




69-rasm. APMP-1 markali qovurish Pechi.

1-tashuvchi vosita; 2-uzatma; 3-vanna; 4-tortish vositasi; 5-elevator; 6-bak;  
7-nasos.yo



70-rasm. Uzluksiz ishlaydigan sabzavotlarni qovuradigan aPParat.

1-qovuruvchi sektsiyalar; 2-aralashtirgich; 3-o'q; 4-tarqatuvchi konus; 5-  
Purkagich; 6-tashuvchi vosita; 7-yog' idish; 8-elekr uzatma.




71-rasm. KPP-1 markali universal bug'li Plita.

1-korpus; 2-tortuvchi kiydirgich; 3-korpusni ko'taruvchi (ag'daruvchi) mexanizm; 4-armatura; 5-o'ng va chaP tayanchlar.

## STERILIZATORLAR

Konserva zavodlarida termosterilizatsiya jarayoni yuqori bosimda olib borish uchun ishlatiladigan qurilmalarda – sterilizatorlar va avtoklavlarda olib boriladi.

Uzluksiz ishlaydigan barabanli sterilizator (72-rasm) metall idshlarga qadoqlangan konserva mahsulotlarini 100 °C va undan yuqori haroratda sterillash uchun mo'ljallangan. U qizdirish, sterillash va sovutish bo'g'inlaridan tashkil topgan.



72-rasm. Barabanli sterilizator.



1-tsilindr shaklidagi korPus; 2-sPiralsimon yo'naltiruvchi; 3-baraban; 4-qabul qiluvchi qurilma; 5-zanjirli elevator; 6-tushirib beruvchi qurilma.

Bu sterilizator qo'zg'almas korPusdan (1), uning ichidagi o'qqa o'rnatilgan barabandan (3) iborat.

Atmosfera bosimi ostidagi bankalarni yuqori bosimli muhitga kiritish uchun mahsulot to'ldirilgan bankalar kiradigan (4) va chiqadigan (6) qismlari bor. Bankalar kirish joyiga zanjirli elevator (5) yordamida uzatiladi. Undan bankalar baraban ichiga tushadi. Barabanning aylanishi bilan bankalar sPiral shaklidagi yo'naltiruvchi (2) yordamida baraban oxiriga qarab harakatlanadi. Yo'naltiruvchining qadami bankaning balandligiga teng. Bunda bankalar baraban bilan birga, uning o'qi bo'ylab va o'z o'qi atrofida harakatlanadi. Qizdirgichda bankalar va uning ichidagi mahsulot 98 °S gacha, kirish joyidagi harorati 40-50 °S, chiqish joyidagi harorati 98 °S bo'lgan suvda qizdiriladi. Suv jihozning Pastki qismidan yuboriladigan bug' bilan qizdiriladi. Qizdirgichdan bankalar mustahkam yoPilgan klaPan yordamida sterillash bo'g'iniga uzatiladi va rotorning (baraban) aylanishi bilan jihozning oxiriga qarab harakatlanadi. Sterillangan mahsulotli bankalar tushiruvchi klaPan yordamida sovutish bo'g'iniga uzatiladi. Sterillash jarayonidagi bosimni avtomatik ravishda sterillash haroratiga mos holda boshqariladigan suv-bug'li muhitda olib boriladi. Sovutkichda rotor bilan harakatlanayotgan bankalar oqova suv bilan 30-40 °S haroratgacha sovutiladi. Bankalarning Pachoqlanishini oldini olish uchun sovutish Paytida havoda ortiqcha bosim hosil qilinadi. Bankalarni sovutkichdan chiqarib olish yuklash kabidek, mustahkam yoPilgan klaPanlar yordamida amalga oshiriladi.

Rotor buralib ketishining oldini olish uchun barabanning o'qi har ikkala tomondan ham aylanma harakatga keltiriladi. Rotorning aylanish tezligini o'zgartirish bilan sterillash muddati boshqariladi. Haroratni boshqaradigan bu qurilma bug' uzatiladigan ventilga ta'sir ko'rsatadigan, o'zi yozadigan, Pnevmatik harorat boshqarish asbobi bilan jihozlangan.


Qurilma ichidagi bosim to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi differentsial bosimni boshqarish asbobi yordamida boshqariladi.

Rotorli sterilizatorning kamchiligi faqat bir xil o'lchamdagi va metall idishlarga qadoqlangan mahsulotni sterillay olishi, harorat va bosimning keskin o'zgarishi ta'sirida bankalarning Pachaqlanishi va ishqalanishi ta'sirida bankalarning ko'ndalang choklaridagi qalay qoPlamasining yemirilishi hisoblanadi.

Uzluksiz ishlaydigan gidrostatik "Xinister" sterilizatori diametri 76-100 mm bo'lgan shisha va metall idishlarga qadoqlangan konserva mahsulotlarini sterillash uchun mo'ljallangan (73-rasm).

Bu sterilizator 14 ta minoradan tashkil toPgan bo'lib, har qaysisi ikkitadan kanalga ega. Bankalarni tashuvchi konveyer ketma-ket barcha kanallardan o'tadi va shundan so'ng minoralar ostidan chiqish joyiga qaytib keladi. Qizdirish jarayoni birinchi oltita minorada olib boriladi, keyingi ikkita minorada sterillash va undan keyingi oltita minorada esa sovutish jarayoni boradi. Konserva to'ldirilgan

bankalarni banka tashuvchiga solish va undan chiqarib olish maxsus moslama yordamida amalga oshiriladi.



73-rasm. „Xinister“ Pnevmo-gidrostatik sterilizator.

1-avtomatik yo'naltiruvchi qurilma; 2-suv kolonkasi; 3-konserva to'ldirilgan bankalar; 4-olib yuruvchi moslama; 5-transPortyor zanjiri; 6-yuqorigi maydon; 7-uzatma; 8-bosimni rostlagich; 9-issiqlikdan himoyalagich; 10-avtomatik chiqarib beruvchi qurilma; 11-zanjirning Pastki qismi.

Birinchi oltita minoraning bittasida va oxirgi oltita minoraning har qaysisida balandligi 4m bo'lgan suv ustuni bo'lib, u yordamida bu minoralarda 0,04 MPa gidrostatik bosim hosil qilinadi. Har qaysi minoraning ikkinchi kanalida bu bosim havo yordamida ushlab turiladi. Minoralar kanallarining bir-biri bilan birikkanligi yettinchi va sakkizinchi minoralarda 0,24MPa bosimni hosil qiladi. Bu bosimga bug'ning 125<sup>0</sup>S harorati mos keladi. Oxirgi ikkita minoradan boshqa barcha minoralarga barbotyor orqali bug' yuboriladi va u minoralarda quyidagi haroratlarni ushlab turadi: 60-70-80-90-95-110-120-132-90-70-60-50-40-30-20<sup>0</sup>S-lar.

#### „Xinister“ sterilizatorining texnik tavsifi

Ishlab chiqarish unumdorligi, banka/soat	-8280
Bug' sarfi, l/kg konservalangan mahsulot uchun	-1,5
Tashuvchi transPort uzunligi, mm	-1400
Tashuvchilarning qadami, mm	-150
Harakat tezligi, m/s	-0,017-0,067
Banka tashuvchining tezligi, m/s	-0,04
O'lchamlari, mm	-9700x1680x5800
Og'irligi, kg	-98 000

Avtoklavlarda yuqori bosim va harorat ta'sirida mahsulotni sterilizatsiyalashdan tashqari uni Pishirish yoki quyiltirish mumkin. Mahsulotning turiga qarab avtoklav turli bosim va haroratda ishlatiladi.

Avtoklav zich yoPiladigan Po'lat tsilindr bo'lib, uning ichki sirti emal bilan qoPlangan. TSilindr ichiga doira shaklida yaxlit bug' g'ilof o'rnatilgan. Avtoklav

manometr, termometr va soat bilan ta'minlangan. Avtoklavda harorat va bosim sterilizatsiya formulasi bo'yicha ko'tariladi va avtomatik ravishda boshqariladi.


Pasterilizatsiyalashda xom-ashyo solingan bankalar qo'pqoqsiz yoki temir qo'pqoqlar bilan yuzaki yo'pilib, vannadagi qaynoq ( $50-60^{\circ}\text{S}$ ) suvga qo'yiladi, vannadagi suv hajmi taxminan bankalar hajmiga teng kelishi kerak. Qaynash paytida shisha banka yorilib ketmasligi uchun vanna tubiga latta yoki faner bo'lagi qo'yiladi. Bankalar solingan vannadagi suv qaynatiladi. Suv qaynab chiqqandan so'ng sterilizatsiya vaqti belgilanadi. Turli meva va sabzavotlar uchun sterilizatsiya muddati (ya'ni qaynab turgan suv haroratida ushlab turish) har xil.

Sterilizatsiya paytida suv qattiq qaynab ketmasligi kerak, aks holda banka ichiga suv sachrashi mumkin. Sterilizatsiya vaqti tugagach bankalar mahsus qisqichlar yordamida vannadan olinadi va og'zi zich qilib berkitiladi. Mahkam berkitilgan bankalar og'zini pastga qilib sovitish uchun stolga qo'yiladi.

Termosterilizatsiya turlaridan biri qaynoq sharbatni tayyorlangan steril bankalarga solishdir.

#### AVTOKLAV B6-KAV-2

Vertikal avtoklav - zich yo'piladigan qalin qo'pqoqli ikkita qozondan iborat bo'lib, sirdan metall g'ilof bilan qoplangan (74-rasm).



74-rasm. Avtoklav B6-KAV-2.

1- tenglashtiruvchi moslama; 2 – qisqich; 3 – korpus; 4 – qopqoq; 5 – himoya klapani; 6 – namuna tushiruvchi jo'mrak; 7 – termometr; 8 – manometr; 9 – PRP-2 tipdagi dasturli rostlagich; 10 – korzina; 11 – bug'li barbotyor.

Tashqi qozonga suv, ichki qozonga esa sterillanadigan material qo'yiladi. Isigan suv bug'i ichki qozonning teshigi orqali tashqi qozonga o'tadi. Ichki qozonning tubidagi teshiklardan bug' o'tkazuvchi naycha boshlanadi. U bug' chiqarish jo'mragi bilan tugaydi. Avtoklavning yon devoriga manometr va kontakt manometr mahkamlangan. Kontakt manometr esa belgilangan bosimni saqlab turadi. Bulardan tashqari, yon devorda ehtiyot jo'mragi va suv o'lchaydigan nay ham bor. Avtoklavda bosim belgilangan miqdordan oshib ketsa, ehtiyot jo'mragi o'z-o'zidan ochiladi. Suv o'lchaydigan nay avtoklavdagi suv satxini aniqlashga yordam beradi.

### Ishlash tartibi

Avtoklavda sterillash quyidagicha o'tkaziladi: avvalo tashqi qozonga voronka orqali suv quyiladi, ichki qozonga esa sterillanadigan material (idishlar, oziq muhitlar, byukslarda bog'lov materiali va hokazo) joylanadi. So'ngra qopqoqni yopadigan vintlar bilan burab mahkamlanadi va avtoklav Primus alangasi, gaz gorelkasi yoki elektr yordamida qizdira boshlanadi. Suv qaytib chiqadigan jo'mrak shu paytda ochiq bo'lishi kerak. Qaynab chiqqan suv bug' holatida avtoklav devorlari orasidan ko'tarilib ichki qozonga o'tadi va undagi havoni siqib chiqaradi. Bu havo jo'mrak orqali tashqariga chiqa boshlaydi, bug' holatidagi havo avtoklavning ichki bo'shliqlarini to'ldiradi va kuchli bug' oqimi zarb bilan jo'mrakka urilib jo'mrakni yopadi. Jo'mrak yopilishi bilan avtoklavning ichki qismida bosim hosil bo'la boshlaydi va manometr strelkasiga qarab turiladi.

Avtoklavdagi bug' bosimi 0,5 atm dan oshganda harorat 110,8<sup>0</sup>S ga, 1 atm dan oshganda -120,6<sup>0</sup>S ga, 2 atm dan oshganda 132,9<sup>0</sup>S ga yetadi.

120<sup>0</sup>S vegetativ va spora hosil qiluvchi mikroblarga ta'sir etib nobud qiladi.

Sterillash protsessi tamom bo'lgach, issiqlik manbalari o'chiriladi va manometr strelkasi 0 raqamiga tushmaguncha avtoklavdagi havo chiqaradigan jo'mrak ochilmaydi. Avtoklav ichidagi bosim 0 ni ko'rsatganda havo chiqarish jo'mragi ochilib bug' asta-sekin chiqa boshlaydi va bug' butunlay chiqqandan so'ng avtoklavning qopqog'i ochilib, sterillangan material ichidan olinadi.

Avtoklavni ishlatganda material sterillanayotganiga to'la ishonch hosil qilmoq uchun vaqt-vaqti bilan uni tekshirib turish kerak. Buni har-xil usullarda tekshiriladi.

Masalan, manometr 1atm bosimni ko'rsatsa, avtoklav ichidagi temperatura 120,6<sup>0</sup>S ga teng bo'lishi kerak. Bunga ishonmoq uchun avtoklavga sterillangan materiallar bilan birga, ikki tomondan payvand qilingan (kavsharlangan) shisha naycha yoki probirka joylashtiriladi. Uning ichiga oltingugurt poroshogi bilan birga bir necha fuksin kristallari va ikkinchisiga esa antiPirin bilan metilen ko'kning aralashmasi quyiladi. Oltingugurtning suyuqlanish temperaturasi 115<sup>0</sup>S, antiPirinniki esa 120<sup>0</sup>S.

Agarda avtoklav to'g'ri ishlasa, oltingugurt va antiPirin ham erib suyuqlanishi kerak. Avtoklavning ichidagi temperatura 1 atm bosimida  $120,6^{\circ}\text{S}$  ga yetgan bo'lsa, oltinguguri va antiPirin suyuqlanib bo'yoqlar bilan aralashib muayyan tusga kiradi.

Gorizontal avtoklavning vertikal avtoklavdan farqi shuki, bunda bug' hosil qiladigan qozon sterillaydigan qozonning Pastida joylashgan bo'ladi. Sterillash kamerasi va yuqoridagi qozonlar gorizontal holatda joylashgan.

Ikkala avtoklavda ham materialni harakatdagi bug' bilan sterillash mumkin. Buning uchun chiqarish jo'mragi berkitilmaydi va qoPqoq vintlar bilan jiPs yoPilmaydi.

## MATNLARNI O'ZLASHTIRISHDAGI MUHIM TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

Avtoklav; sterilizator; baraban; qoPqoq; diametr; korPus; jo'mrak; qozon; temometr; manometr; qobiq.


### MATNLARNI YORITISH SAVOLLARI:

1. Sterilizatorlar, ularning vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
2. Sterilizatsiya qilish aPParatlarini sinflanishi.
3. Avtoklavlarning konstruksiyasiga ko'ra turlarini ayting.
4. B6-KAV-2 markali vertikal avtoklavning vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibini ayting.
5. Korzinalarning soniga ko'ra avtoklav nechta markasi mavjud.

## QURITISH APPARATLARI

### XOM ASHYOGA BIRLAMCHI ISHLOV BERUVCHI QURITISH QURILMASI

Poliz ekinlarini quritish uchun birlamchi ishlov beruvchi quritish qurilmalaridan foydalaniladi (75-rasm).






76-rasm. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini uzluksiz ravishda quritish uchun issiq havoni uzluksiz ravishda uzatish uchun quritish qurilmasi.

1-kamera; 2-Poddon; 3-IK-lamPalar; 4-Psixrometr; 5-tsirkulyatsion truba; 6-ventilyator; 7-ventilyator elektrodvigateli; 8-qurilmani qo'shish uchun o'it; 9-IK lamPalarni qo'shish va o'chirish (ajratish) uchun o'it; 10-manometr; 11-shiber; 12-havoni isitkich.

## IQ-KONVEKTIV QURITISH QURILMASI

Birlamchi ishlov berilgandan so'ng xom ashyo IQ-konvektiv quritish qurilmasiga uzatiladi (77-rasm).



77-rasm. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini quritish uchun IQ-konvektiv quritish qurilmasi.

1-tePlogenerator; 2-quritish kamerasi; 3-tsirkulyatsion kommunikatsiya; 4-gaz gorelkasi; 5-havoni uzatish uchun ventilyator; 6-havoni qaytarish uchun ventilyator; 7-gaz-havo aralashmalarini yo'qotish uchun quvur; 8-shiber; 9-reo'etka; 10-ustunlar; 11-tutun chiqaruvchi moslama; 12-xom ashyoga birlamchi ishlov beruvchi quritish qurilmasi.

#### Ishlash tartibi

Qurilma tePlogenerator (1), ikki avtonom sektsiyaga ega quritish kamerasi (2) hamda bug'-gaz aralashmalarini chiqarish yoki tsirkulyatsiya qilish uchun kommunikatsiyadan (3) iborat. TePlogenerator tabiiy gazni yoqish uchun gaz gorelkasi (4) bilan jihozlangan. Ishchi agentning harakatlanish tizimi ikkita ventilyator: havoni uzatish (5) va gaz-havo aralashmalarini qaytarish uchun (6) yoki quvur (7) orqali shiber (8) vositasida yo'qotish, tutun chiqarish moslamalari (11) bilan jihozlangan. TePlogeneratorida gaz-havo aralashmalarini tozalash ham inobatga olingan.

Quritish kamerasining (2) ishchi sektsiyalari ishchi shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun reo'etkalar (9) bilan jihozlangan. Sektsiyalar bir-biri bilan germetik chegaralangan va izolyatsiyalangan qobiq (kojux) bilan berkitilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyot



1. Choriev A.J. Dodaev K.O. Konservlash korxonalari jihozlari. Toshkent. O'zbekiston NMIU -2011. – 200 b.
2. Q.O.Dodayev. I.Mamatov. Oziq-ovqat mahsulotlarini konservalash korxonalarining loyihalash asoslari va texnologik hisoblari. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2006.- 208 b.
3. Q.Dodayev, H.Nurmuhamedov, A.Choriyev. Quritish texnikasi va texnologiyasi. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2010. – 160 b.
4. Dodayev Q.O., Choriev A.J., Ibragimov A.G. Konserva ishlab chiqarishda sterilizatsiya va Pasterizatsiya jarayonlari. Toshkent. “Davriy nashriyoti”. 2012. -150 b.
5. Dodayev Q.O., Choriev A.J., Ibragimov A.G. Xomashyoga dastlabki va issiqlik ishlovi berish texnologiyasi. Toshkent. “Davriy nashriyoti”. 2012. -156 b.
6. Dikis M.YA., Malskiy A.N. Texnologicheskoe oborudovanie konservnyx zavodov. M.: AgroPromizdat. 1973. -319 s.
7. E.D. Sitnikov. DiPlomnoe Proektirovanie zavodov Po Pererabotke Plodov i ovoo'ey. M.:1977.
8. E.S. Gorenkov, V.L. Bibergal. Oborudovanie konservnogo zavoda. M.: VO «AgroPromizdat», 1989.
9. E.D. Sitnikov. Praktikum Po texnologicheskomu oborudovaniyu konservnyx zavodov. M.: VO «AgroPromizdat», 1989.
10. Dikis M.YA. Oborudovanie konservnyx zavodov. M.: 1962
11. Q.O.Dodaev. Oziq-ovqat mahsulotlarini konservalashdagi texnologik hisoblar. Toshkent. Fan. 2003. – 144 b.
12. Q.O.Dodaev. Konservlangan oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi. Toshkent. Noshir. 2009. - 387 b.
13. Choriev A.J., Q.O.Dodaev, Icmoilov T.A., D.T.Qoraboyev. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini konservalash va saqlash texnologiyasi. Toshkent. “Davriy”, 2012. -382 b.

#### Qo'shimcha adabiyotlar

14. Spravochnik. Proizvodstvo konservov. (Pod red. Rogacheva V.I.). M.: Legkaya i Pio'evaya Promqshlennost. 1983. -408s.
15. Soloveva Ye.I. Laboratornyy kontrol konservnogo ovoo'esushilnogo i Pio'ekontsentratnogo Proizvodstva. M.:1974
16. Aminov M.S. APParatq dlya sterilizatsii konservov. M.:1966

## II BO'LIM. GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARI JIHOZLARI


## TRANSPORT-TEKNOLOGIK USKUNALAR

### HAYVONLARNI TASHISH, QABUL QILISH VA SO'YISH OLDIDAN USHLAB TURISH UCHUN QURILMALAR

6-rasmda 2000 kg yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan, harakatlanish tezligi 4-5 m/s ni tashkil etgan EK-2 elektrokarasi aks ettirilgan.

Elektrokara quvvati 4 kVt bo'lgan MT-4 elektrodvigateli bilan ta'minlangan, akkumulyator batareyasining markasi 28 elementli 28 TJN-250. YUk Platformasining o'lchamlari 1140×2093 mm, yerdan 600 mm balandlikda joylashgan, g'ildiraklar oralig'i kengligi 720 mm –ni tashkil etadi, g'ildiraklar diametri 400 mm.

6-rasmdan ko'rinib turibdiki, elektrokarada oldingi g'ildiraklar 1 va 2-orqaga tayangan Payvandlab tayyorlangan Po'lat ramadan 5 iborat. Oldingi qismida elektrodvigatel 9 o'rnatilgan, uning vali harakatni orqa g'ildiraklar o'qiga shesterniyali quti orqali uzatuvchi kardan valining 5 shlitsa tutashtiruvchisiga ega. Orqa oyoq o'qiga korobka 11 orqali harakat uzatiladi.




6-rasm. Ek-2 rusumli elektrokarada.

SHuningdek oldingi qismida akkumulyator batareyali nazoratlovi 6, boshqarish ushlagichlari 4 va 8, qo'shish Pedali 7 joylashtirilgan.

Elektrokara sxemasi 6 *b* rasmda ko'rsatilgan. Bunda 9 – nazoratlagich kontaktlari, 10- yoqish qarshiligi. Harakat vaqtida ogohlantirish uchun signal (sirena) mavjud. Akkumulyator batareyasi 14 elektrodvigatel 19 va boshqa qurilmalarni yuritish uchun xizmat qiladi. Fara 15 knoPka 17 yordamida yoqiladi.

**Avtoyuklagich.** Avtoyuklagich yoki shtabeltaxlagich sovutgich, albumin tsexlarida, texnik mahsulotlar zavodlarida va omborxonalarda keng ishlatiladi. Uning vazifasi yukni tashish va shtabel ko'rinishida taxlash.

Avtoyuklagich yurish qismi, telejka 1, elektrodvigatel 2, akkumulyator 5, yuk olish shoxlari 4, uni harakatlantiruvchi teleskoPik ko'targich 5, nazoratchi 7 bilan burish moslamasi 6 iborat.



7-rasm. 404-A rusumli avtoyuklagich. 1-yurish telejkasi; 2-elektrodvigatel; 3- akkumulyator batareyasi; 4- yuk olish shoxlari; 5- teleskoPik ko'tarish mksanizmi ; 6- burish moslamasi ; 7- nazoratchi;

## OSMA YO' LDA CHORVA MOLLARNI QAYTA ISHLASH JIHOZLARI

CHorva mollarni mexanizatsiyalashgan yoki konveyersiz osma yo'llarda qayta ishlashda go'shtni harakatlantirish qurilmalaridan tashqari texnologik oPeratsiyalarni (chorva mollar haydab keltirish, hushsizlantirish, osma yo'lga ko'tarish, ozuqaviy va texnik qonni yig'ish, osma yo'ldan tushirish, terini ochish) bajarish uchun go'sht kombinatlarida turli mashina va mexanizmlardan foydalaniladi.

### CHorva mollarni so'yishga tayyorlash jihozlari

CHorva mollarni qayta ishlash joyiga korPus dyuralyuminli, uchida latun kontaktli Plastmassa cho'Pdan iborat elektr haydagich yordamida haydab keltiriladi. Haydagich korPusida akkumulyator batareyasi, yuqori chastotali kichik quvvatli generator (tok uzgich) va bir Polyusli o'chirgich joylashtirilgan. Hayvonga elektr haydagich kontakti tegiziladi va akkumulyatordan kuchlanish berish tugmasi bosib ulanadi. Bu vaqtda induksion katushkada yuqori kuchlanishli tok (1500-3000 V) hosil bo'ladi. Hayvon zararsiz, ammo uni yurgizuvchi kichik quvvatli elektr razryadi oladi.

Elektr haydagich vazni (og'irligi) 1 kg, uzunligi 700 mm, tokning boshlang'ich kuchlanishi 6 V.

SHoxli yirik mol va cho'chqa hushsizlantirish uchun elektr haydagich yordamida boksqa haydab boriladi.

**Boks.** Boks yoki hayvonni hushsizlantirish vaqtida bog'lash moslamasi hayvonni joylashtirish kamerasi va yuritma mexanizmidan iborat.

Kamera - yog'och yoki sanitar ishlab berish oson bo'lishi uchun metalldan tayyorlangan, to'g'ri burchakli yao'ik, tePasi ochiq. Hayvonlar kamera boksning yon tomondagi ochiladigan eshik orqali haydalab kiritiladi, hushsizlantirish esa boks devori yuqorisiga teng balandlikda qurilgan Platformadan turib bajariladi. Hushsizlantirilgan hayvonni boksdan tushirish uchun boksning old tomonidagi devor mexanizmlar yordamida ko'tariladi, Pol esa molni tushirishni osonlashtirish uchun o'qi atrofida qiyshayadi.

Hushsizlantirish oPeratsiyasini bajarayotgan oPerator turgan maydonchada hushsizlantirish Pribori va boksni boshqarish mexanizmi o'rnatiladi.


CHorva molni so'yib qayta ishlashda uni hushsizlantirish uchun eng yaxshi yo'l elektr razryadidan foydalanish hisoblanadi. Hushsizlantirishdan maqsad hayvon va Parrandani so'yish va qonsizlantirish oPeratsiyalarini bajarishni osonlashtirish va xavfsizlantirish.

Hushsizlantirishda hayvonni o'ldirib quymaslik kerak, aks holda uni qonsizlantirish va bo'laklash oPeratsiyalari keskin qiyinlashadi.

SHoxli yirik mol kuchlanishi 60-90 V, tok kuchi 0,5-1,0 A –ga teng o'zgaruvchan elektr toki bilan 20-50 s davomida ta'sir etib hushsizlantiriladi.

Rossiya go'sht sanoati ilmiy tekshirish institutida tavsiya etilgan usulga ko'ra cho'chqani elektr bilan hushsizlantirish uchun kuchlanishi 230-250 V, chastotasi 2300-2350 Gts elektr toki bilan 8-10 s davomida ta'sir etish orqali hayvon anesteziyasi ta'minlanadi. Bunda travmatizm oldi olinadi. Cho'chqani hushsizlantirish gorizontal yoki U shaklidagi metall transPortyorda amalga oshirish mumkin.

FEOR rusumli shoxli yirik molni hushsizlantirish aPParati (21-rasm) boshqarish stantsiyasi va unga ulangan sim quvur-stekdan 2 iborat. Boshqarish stantsiyasida o'chirib-yoqadigan, kuchlanishni bosqichli o'zgartirish (70, 90, 110, 130, 155, va 180 V) imkoniyatini beruvchi moslama, voltmetr va signal lamPasi montaj qilingan. Stek-quvur uzunligi 1700 mm quvurcha bo'lib, izolyatsiya materialidan tayyorlangan, zanglamas Po'latdan yasalgan sanchig'i mavjud. Hushsizlantirish davomiyligi 25 sek, tok chastotasi 50 Gts, quvvat 0,5 kVt, unumdorlik soatiga 50 bosh.



21-rasm. Elektr toki yordamida hushsizlantirish aPParati.

FEOS rusumli (21-rasm, *b*) elektr toki yordamida hushsizlantirish aPParati boshqarish va signal berish Priborlari bilan jihozlangan boshqarish stantsiyasi 1, 96-GIM-1 rusumli chastota o'zgartirgichi (generatori) 2 va simli 4 hushsizlantirish vilkalari 5 –dan iborat.

CHastota o'zgartirgichi asinxron dvigatel 220/380 V va korPusga o'rnatilgan yuqori chastotali generatordan iborat. Vilka uzunligi 900 mm trubka shaklida tayyorlanadi, uchida sim keltirilgan ikki qutbli kontakt o'rnatilgan. Hushsizlantirish tokli nayzachani (kontaktlarni) hayvon bo'yin tomiri yoki kalla suyagining ikki shox oralig'idagi joylariga tegdirish orqali 15 soniyagacha davomiyylikda amalga oshiriladi. Hushsizlantirish tokining kuchlanishi 200-250 V-ni, chastotasi 2000-2400 Gts-ni, quvvat 2 kVt-ni tashkil etadi. Elektr hushsizlantirish qurilmalari ushbu oPeratsiyada ishchi xavfsizligini ta'minlaydi, ish sharoitini yaxshilaydi.

Texnik tomondan ta'minlanmagan go'sht kombinatlarida boksdan PnevmoPistolet yordamida yoki molning Peshanasiga bolg'a bilan urib hushsizlantiriladi. Ammo bu usulda bosh suyagi va miyani zararlantirish xavfi mavjud, shuningdek, ishchilar xavfsizligi kafolatlanmagan bo'ladi.

Konstruktsiyasi bo'yicha boks avtomatik bo'ladi, agar Polni yoniga burish va boks old devorini ko'tarish mexanizmlari harakati boks Polida yotgan hayvonning og'irlik kuchi hisobiga kelsa, agar bu harakatlar maxsus lebyodka hisobiga amalga oshirilsa yarim avtomat tarzda ishlovchi bo'ladi. 22-rasmda AB50M rusumli smenasiga 400 bosh shoxli yirik mol yoki 1000 bosh cho'chqa hushsizlantiruvchi avtomatik boks tasvirlangan. Agar kattaroq unumdorlik talab

etilsa, u holda bir korxonada ikki yoki uch boks o'rnatiladi. Konstruktsiya oddiyligi va nisbatan murakkab emasligi tufayli bunday turdagi boks go'sht kombinatlarida keng tarqalgan. Avtomatik boks burchakli va tasmasimon Po'latdan yasalgan korpusdan iborat. Hayvonlar boksga tor yo'lak orqali haydab kelinadi, kamerada 2 yon eshik 3 ochiladi, bittadan hayvon kiritiladi va eshik yopiladi. Agar hayvon gavdasi (jussasi) kichik bo'lsa, u holda boksga birdaniga ikkitasi kiritiladi. Maydonchada 4 turgan ishchi tokli nayza (stek) yordamida hayvonlarni hushsizlantiradi, keyin Pedalni bosadi, boshqaruv mexanizmining 6 richagli mexanizmini harakatga keltiradi. Boks 7 tagida yotgan hushsizlangan hayvon og'irligi ta'siri ostida Pol o'z o'qi atrofida aylanadi, Pastga engashgan holatga keladi va richaglar tizimi yordamida old devorni 5 ko'taradi.


Hayvon boksdan tushuriladi, Pedal ikkinchi marotaba bosiladi, Pol gorizontol holatni oladi va boks keyingi hayvonni qabul qilishga tayyor bo'ladi. Bokssiz go'sht kombinati ishi unumsiz, noqulay va xavfsiz bo'ladi. Boks unumdorligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Q = T \frac{60}{\sum t} n \quad \text{bosh/smenada}$$

bunda  $T$  – smenadagi ishlash soatining miqdori;  $n$  – bir vaqtda boksga joylashtiriluvchi hayvon soni;  $\sum t$  - barcha texnologik o'peratsiyalarga sarflangan vaqt miqdori yig'indisi, *min*

$$\sum t = t_1 + t_2 + t_3 + t_4 + t_5 + t_6$$

bunda  $t_1$  – yon eshik ochilishiga sarflangan vaqt;  $t_2$  – hayvonni kamerga haydashga sarflangan vaqt;  $t_3$  – yon eshikni berkitishga sarflangan vaqt miqdori;  $t_4$  – hayvonni hushsizlantirishga sarflangan vaqt miqdori;  $t_5$  – boksnig old devorini ko'tarish va hayvonni boksdan tushurishga sarflangan vaqt miqdori;  $t_6$  – boksnig old devori va Polni o'z o'rniga tushurishga sarflangan vaqt.



22-rasm. Hayvonlarni hushsizlantirish avtomatik boksi:

1 - karkas; 2 - boks kamerasi; 3 – yon eshigi; 4 – ishchi ishlaydigan maydoncha; 5 - Pedal; 6 - richagli mexanizm; 7 – boks Poli; 8 – boksning olddevori; 9- narvon.

Hushsizlantirishning boshqa turlaridan ko'Proq cho'chqa uchun qo'llaniladigan karbonat angidridi bilan anesteziyalash usulini ham gaPirib o'tish mumkin.

Hayvonning nafas olish organlariga konsentratsiyasi 80-82 % bo'lgan karbonat angidrid gazi ta'sir etiladi va u tez orada uxlaydi.

Ushbu qurilmalar Daniya, GFR va boshqa YevroPa mamlakatlarida qo'llaniladi.


Hushsizlantirilgach, hayvon so'yiladi va qonsizlantiriladi. Buning uchun tana orqa oyoqlaridan bog'lanib, tik holda osma yo'lga ko'tariladi va natijada kerakli oPeratsiyalarni bajarish osonlashtiriladi.

**Naychali Pichoq.** So'yish va ozuqaviy qonni yig'ish naychali Pichoq yordamida amalga oshiriladi (23-rasm, a). Pichoq zanglamas Po'lat trubka bo'lib uchi yassi sanchiq shaklda yasalgan. Qon oqishi uchun tuynuklar ochilgan, ikkinchi uchida ushlagich o'rnatilgan, naycha yon tomonga ketgan, unga qonni to'Plash uchun shlang ulangan.

Oziq-ovqatda ishlatish uchun mo'ljallangan qon bidon idishlarga yig'iladi, har bir bidonga 2-3 bosh mol qoni solinadi, mexanik usulda defibrinlanadi, ya'ni aralashtirish yo'li bilan qondan fibrin iPlari va qon zardobi ajratiladi.

Bu maqsadda ishlatiladigan defibrinlovchi Poltava go'sht sanoati uskunalari zavodida ishlab chiqariladi. Uning umumiy ko'rinishi 23-rasm, b- da keltirilgan, unumdorligi 100 l/soat, bakning ishchi hajmi 25 l, aralashtirgich aylanish tezligi 90-178 ayl/min va elektrodvigatel quvvati 0,27 kVt. Defibrinlashning har bir tsiklidan so'ng bak tozalab yuviladi va bug' yordamida sterilizatsiyalanadi.

Oziq-ovqat uchun qon yig'ilgandan so'ng qolgan qonlar texnik maqsadda yig'iladi. Buning uchun hayvon tanasi harakatlanishi liniyasi bo'ylab metall va temir beton ariq (jelob) o'rnatiladi.



23 -rasm. Qonniyig'ish va qayta ishlash ihozlari:

*a* –qon yig'ish uchun naychali Pichoq; *b* – qon uchun mexanik defibrinator.

### **SHoxli yirik molni hushsizlantirish uchun G6-FBA boksi**

Yirik shoxli molni so'yishdan ilgari hushsizlantirish uchun ishlatiladi. Go'sht kombinatlarida hayvonga dastlab ishlov berish uchun ishlatiladi (24-rasm). Boks rama 1, old eshik 2, yon eshik 9, Pol, 8, ishchi ishlash maydoni 5, narvon 4, yon devor 7, elektr jihoz 6, kontryuk 11, lebyodka 10 va sklizdan 12 iborat. Ramaning asosiy ko'taruvchi elementlari shvellerdan Payvandlab tayyorlangan. SirPanish PodshiPniklarida Payvandlab tayyorlangan egiluvchan kanat 3 yordamida old eshik bilan ulangan Pol o'rnatilgan.

Eshik ramasi 4 vertikal shveller bilan kuchaytirilgan. Eshikning yuqori qismiga kanatni o'rnatish uchun ikki osma Payvandlangan, uni vertikal yo'nalishda shveller bo'ylab harakatlanishini ta'minlash uchun burchaklar bo'yicha 4 dona rezina bilan qoPlangan rolik o'rnashtirilgan. Eshik va Pol zarbasini yumshatish hamda shovqunni kamaytirish uchun rezina amortizator qo'llangan. Ramaning o'ng tomonida yon eshikni vertikal yo'nalishda harakatlanishini ta'minlash uchun yo'naltirilgichlar o'rnatilgan. CHorva molni hushsizlantirish uchun shu eshikdan haydab kirg'iziladi. Eshikning ko'tarilish va berkitilishi kontryuk lebyodkasi yordamida amalga oshiriladi.


CHorva mol tushirilganda ularga tushadigan zarbani yumshatish uchun foydalaniladigan list shaklidagi rezinani o'rnatish uchun moslama mavjud.

CHorva molni haydash sxemasiga qarab bokslar o'ng va chaP ko'rinishda tayyorlanadi. Bir ishchi ishlaydi.

#### Texnik tavsifi

Unumdorligi, <i>bosh chorva /soat</i>	95
Old eshikni ochish uchun yukning minimal massasi, <i>kg</i>	120
YOn eshikni ochish va yoPishda lebyodka ushlagichini aylantirish uchun kerakli kuch, <i>N</i>	60 dan ko'P
Egallagan maydon, <i>m<sup>2</sup></i>	emas
Kameraning ichki o'lchamlari ( dan ko'P emas), <i>mm</i>	11,6
Uzunligi	3000
Eni	850
Gabarit o'lchamlari (dan ko'P emas), <i>mm</i>	
Uzunligi	4590
Eni (sklizning egik maydonisiz)	2520
Balandligi	3765
Massasi, <i>kg</i>	2645 dan ko'P emas





24-rasm. G6-FBA rusumli shoxli yirik molni hushsizlantirish boksi.


1- rama, 2-old eshik, 3-kanat, 4-narvon, 5-ishchi ishlash maydoni, 6-elektir jihoz, 7- yon devor, 8-Pol, 9-yon eshik, 10- lebyodka, 11-kontryuk, 12-skliz.

Komplektida maydoncha, yonida ushlagichli narvon, ushlagich, skliz, kontryuk va uning qobig'i, butlovchi qismlar, ekspluatatsiya bo'yicha hujjatlar majmuasi mavjud.

### LMB-1-1000 rusumli elektr lebyodka

Shoxli yirik chorva mol tanasini hushsizlantirgandan so'ng qonsizlantirish osma yo'liga ko'tarib borish uchun xizmat qiladi (25-rasm). Asosiy bo'limlari – ko'tarish va o'rnatish mexanizmlari, yuk-tayanish tormozli saqlash-to'xtatish muftasi, Payvandlangan rama, knoPkalar stantsiyasi va yuritma. Ko'tarish mexanizmi yuritmal zanjirli barabandan 6 iborat bo'lib, u ham o'z ichiga elektrodvigatel 2, reduktor 4, umumiy Payvandlab tayyorlangan ramani 1 oladi. Baraban – cho'yandan quyma tayyorlangan, yuzasida Payvandlab tayyorlangan zanjir o'ralishi uchun vintli ariqcha mavjud. Baraban valining bir uchi reduktorning ergashuvchi valiga oraliq vkladish 5 orqali ulangan. Ikkinchi uchi esa rama ustuniga o'rnatilgan sferik sharikli PodshiPnikda 7 aylanadi. Val dumchasi 9 ga rezba yo'nilgan bo'lib, unda val aylanganda konus yuzali gayka 10 harakat qiladi. Gayka aylanishdan vtulka yordamida ushlanib qolinadi, konussimon yuza bilan u ikki o'chirgichlar roliklarining itargichlariga tayanadi. O'chirgichlar

lebyodkaning ilgagi eng Pastki yoki balanddagi nuqtalarga yetganda o'chirib qo'yadi. YUk o'tqazish mexanizmi 13 ramaning oldingi qismida o'rnatiladi, unda lebyolka elektrodvigatelinu o'chirish va uni tushirishga qayta yoqish uchun o'chirgich 12 o'rnatilgan. O'chirgich ilgak eng so'nggi balandlik nuqtasiga yetganda va o'rnatish mexanizmi oboymani ag'darganda ishlaydi.



25-rasm. LMB -1-1000 rusumli elektrlebyodka sxemasi.

T y e x n i k t a v s i f i

YUk ko'tarish qobiliyati, <i>kg</i>	1000 dan ko'P emas
Ko'tarish tezligi, <i>m/s</i>	0,34
Ko'tarish balanligi, <i>m</i>	5,5
Elektrodvigatel:	
tiP	A 02-52-6
quvvati, <i>kVt</i>	7,5
aylanish tezligi, <i>s<sup>-1</sup></i>	16,7
Reduktor	RCHP-180-51
Iste'mol qiladigan elektroenergiya, <i>kVt*s</i>	6,8
Gabarit o'lchamlari, <i>mm</i>	2125x1100x1385
Massasi, <i>kg</i>	840 dan ko'P

emas

Elektrodvigatel va cheryakli reduktor vallari saqlash-to'xtatish muftassi 3 yordamida ulanadi. Elektrodvigatelga og'ir yuk to'g'ri kelganda, masalan 1000 *kg* dan ko'Proq yuk kelganda, mufta uni reduktordan ajratadi, lebyodkani esa turgan joyida to'xtatadi. Avtomatik to'xtash tormoz halqasida tiqilgan to'rtta rolik yordamida amalga oshadi. Ular lebyodka ramasiga barmoq yordamida qotiriladi. Mol tanasi tushurilganda halqa roliklar bilan tiqiladi va g'ildirak bilan kulachok oralig'idagi ishqalanish hisobiga tananing Pastga tekis tushishi ta'minlanadi.

Lebyodka tom ostiga osma yo'l to'siniga o'rnatiladi, to'rtta M16 boltlari bilan qotiriladi, uning ikki tomoniga ishchi ishlashi uchun maydonchalar o'rnatiladi.


Buyurtma berishda lebyodkaning o'ng yoki chaP variantda tayyorlanishini ko'rsatish kerak. Agar tayyorlash varianti ko'rsatilmagan bo'lsa u holda o'ng varianti yetkazib beriladi.

### RZ-FKP rusumli og'ma konveyer

YArimta mol tanalarini dastlabki ishlov berish tsexlarida osma yo'ldan tushirish uchun mo'ljallangan. Osma yo'ning 50 m uzunligda 10-40 gradus burchakda ko'tarilib borayotgan joyida o'rnatiladi. Aniq sharoitlarga bog'liq holda bir komPlkt detaldan to'rt xil sxemada yig'ilishi mumkin.

Konveyer tarkibida (26-rasm) yuritmalar (1,2), aylanma stantsiya (3), qo'shimcha qo'shiladigan sektsiyalar (4,5,6), zanjir sektsiyasi (7), trollerlar qo'shilishi donalab sinxronizatsiya mexanizmi yordamida amalga oshiriladi.

Konveyerning ishchi yo'li uzunligi og'ish burchagiga bog'liq ravishda jadvalda keltirilgan.



26-rasm. RZ-FKP rusumli og'ma konveyer sxemasi

#### Texnik tavsif

Unumdorlik, yarim tana/soat  
Og'ish burchagi, grad


900  
10-40

Harakat tezligi, $m/min$	18
Tortish organi tseP PRL-44, 45-13000 GOST 13568-75	
Tortish organining yetakchi tirgaklar qadami, $mm$	900
Elektrodvigatel:	
tiP	4AP2MA 4A80V
GOST 19523-74 GOST 19523-74	
quvvati, $kVt$	3
aylanish tezligi, $s^{-1}$	15,9
Iste'mol elektroenergiyasi, $kVt*ch$	2,4
Reduktor 4-160-50-4-1; 4-100-50-4-1 TU-2-056-120-74 TU 2-056-120-74	
Massasi, $kg$	1600...5000

### V2-FVU-100 va V2-FVU-50 rusumli shoxli yirik chorva mol tanasidan qon yig'ish qurilmalari

SHoxli yirik chorva molni so'yish va qonini oziq-ovqat sifatida foydalanish maqsadida yig'io' uchun ishlatiladi. Go'sht kombinatlarining dastlabki ishlov berish tsexlarida o'rnatiladi.

U ishchi ishlash maydonchasi 1, ushlagich 4, qon yig'ish tarmog'i 5, ushlash uchun ikki blok 7, eritma bo'limi 6, filtr 10, Pnevmoshkaf 3, vakuum-nasos 9 (VVSH-0,75, TU-26-06-1017-76), elektronasos 8 (36-1SH-8-12, GOST 3347-75), ikki naychali Pichoq 2, ejektorlar 12 va 13, yorug'lik datchiklari va boshqarish Pulti 11 iborat (27-rasm).



27-rasm. V2-FVU-100 rusumli shoxli yirik chorva mol tanalaridan qon yig'ish qurilmasi.

Avtomatik rejimda zamonaviy avtomatik Priborlarni qo'llash hisobiga mikroelektronika elementlarida ishlaydi.

T y e x i k t a v s i f i

Unumdorlik, <i>soatiga</i> (texnikaviy), <i>tana</i>	100
Qonsizlantirish vaqti, <i>s</i>	25-30
Talab etadi, $m^3/ch$ : suv	4,7
havo	5
bosim, <i>MPa</i> :	
suvda	0,2
havoda	0,45
Iste'mol etiladigan elektroenergiya, $kVt*ch$	1,98
Quruq moddaga o'g'irganda iste'mol etadi, $kg/ch$ : stabilizatorni (trinatriy fosfata)	1,5
yuvuvchi va dezinfektsiyalovchi vositani (kristallik o'yuvchi natriy)	4,3
Egallaydigan maydoni, $m^2$	16
Gabarit o'lchamlari, <i>mm</i> :	
ushlash bloklari qismi	3400x2380x2100
qon yig'uvchi idishlar qismi	1510x1215x900
ishlash maydonchasi	2500x1300x1060
Eritma joyi	987x1000x1425
Massasi, <i>kg</i>	1924

Hayvonlar qonsizlantirish konveyeriga kelganda oPerator ushlagichdan birinchi qon yig'uvchiga ulangan naychali Pichoqni chiqaradi. Pichoqqa stabilizator kira boshlaydi. OPerator Pichoqni hayvonning qonli tomiriga kiritadi. Qon Pichoq va egiluvchan shlang orqali birinchi qon yig'gichga boradi. 2:-30 s dan so'ng oPerator Pichoqni chiqaradi va keyingi hayvonning qonli tomiriga kiritadi. Konveyer bo'ylab harakatlanayotgan tana hisobga olish datchigi orqali o'tadi, har o'ninchi tana o'tgandan so'ng ovozli signal beriladi va tablodan "Pichoq almashtirilsin" degan yozuv Paydo bo'ladi. OPerator Pichoqni Pichoq ushlagichga o'rnatadi va undan ikkinchisini chiqarib oladi. Bunda birinchi Pichoqqa stabilizator berilishi to'xtaydi, ikkinchisiga esa berila boshlaydi. Pichoq o'rnatilgandan keyin 3-4 sek o'tib birinchi Pichoq ushlagichi qon yig'uvchisiga havo kira boshlaydi. Havo bosimi ta'sirida qon naychalar va klaPanlar sistemasi orqali ushlash blokining birinchi rezervuariga oqib tushadi. Bundan so'ng Pichoq, qon yig'gich va qon Puflangan trassalar, berilgan dastur bo'yicha yuviladi. Qon Puflangan va birinchi qon yig'gich yuvilgan Paytda qon ikkinchi yig'gichga yig'iladi. Unga qon yig'ish navbatdagi o'nta mol tanasi o'tgach va ovoz hamda yorug'lik signallari berilgach, to'xtaydi. OPerator keyingi Pichoqni o'rnatadi, avvalgisini esa chiqarib oladi. Birinchi qon yig'gichda bajarilgan oPeratsiyalar yana bajariladi.

Yig'ilgan qon rezervuarlarda uning ishlatishga tayyorligi haqida signal kelguncha ushlab turiladi. Bundan so'ng u keyingi bosqich ishlovlariga uzatiladi. Ushlash blokining bo'shagan rezervuarlari berilgan dastur bo'yicha yuviladi.

Konveyerda qonni oziq-ovqat sifatida ishlatishga yaroqsiz, kasal mol ko'rinsa, vetsaneksPert Pultdagi knoPkani bosish orqali ifloslanish borligi to'g'risida signal beradi va ushbu guruh qoni texnik maqsadga yo'naltiriladi.

V2-FVU-50 qurilmasining ishlash Printsipi o'xshash.

V2-FVU-100 da ikki odam ishlaydi, V2-FVU-50 da bir odam. Ishlanma muallifi Minskning “Myasomolmash” mashinasozlik zavodi, Pyarnusk “Prodmash”zavodida ishlab chiqariladi.

## **2-ma’ruza. GO’SHT VA GO’SHT MAHSULOTLARIGA MEXANIK ISHLOV BERISH JIHOZLARI**

### **TERINI SHILISH VA UNGA ISHLOV BERISH JIHOZLARI**

Go’sht kombinatlarida hayvonni qayta ishlash texnologik jarayonlarida teri shilish asosiy va murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Teri shilishni bajarish sifatiga go’sht tanasining tovar ko’rinishi va uning chiqish miqdori, yog’ chiqish miqdori va terining sifati ham bog’liq.

Hozirgi vaqtda go’sht kombinatlarida barcha hayvonlar terisini mexanik usulda tanadan shilishning mexanik jihozlaridan foydalaniladi, natijada ish unumdorligi oshadi, ishlov berish sifati yaxshilanadi.

Teri osti qatlamini buzish va terini mexanik usulda shilish keng tarqalgan. Teri osti qatlamini Pichoq yordamida, qo’l yoki biror moslamadan foydalanib, terini tanadan kesib ajratish unumdorlikni kamayishiga va teri zaralanishiga olib keladi.

Teri shilishning boshqa usullari (gidromexanik, Pnevmatik, kimyoviy, issiqlik yordamida) uskunalar nisbatan murakkab bo’lganligi uchun keng tarqalmagan.

Terini tanadan kuch bilan ajratib olish usuli terini teri osti muskullari qarshiligidan kattaroq, o’zgarmas kuch bilan tortib turish hisobiga ajratib olinadi.

Tana qismlarining teri osti qatlami mustahkamligi bir xil bo’lgan joyida terini hohlagan yo’nalishda shilish mumkin, teri ostidagi go’sht bilan mustahkam birikkan joyda esa terini mexanik usulda shilish, to’qimalarga PerPendikulyar yo’nalishda olib borish tavsiya etiladi.

Terini tanadan shilib olish qarshiligi hayvonning turi, jinsi, semizligi, yoshi hamda teri shilishinishi yo’nalishiga bog’liq.

A.I.Pelev terini tortish usulida shilish vaqtida shilishga bo’lgan qarshilikni hisoblash uchun quyidagi ifodani taklif etgan:

$$P = \frac{\ln v + 8,294}{a \cos^2 \frac{a}{2}} S_0, \quad N \quad (2-1)$$

bunda  $v$  - terini tanadan ajratish tezligi,  $m/min$ ,  $a$  – terini ajratish burchagi,  $grad$ ,  $S_0$  – tana yalang’ochlanish Perimetri,  $m$ .

Terini tanadan ajratish burchagi ortishi bilan shilishning ruxsat etilgan tezligi kamayadi va aksincha.


Terini mexanik usulda shilish tananing katta qismida (75-80%) amalga oshiriladi, ammo oldingi va orqa oyoklarda, bo’yinda, qorinning o’rta qismida va biqinlarda terini qo’lda shilishga to’g’ri keladi, ya’ni teri yalang’ochlash (zabelovka) deyiladi. Bu oPeratsiya elektr Pichoq yordamida ham bajariladi.

Elektr Pichoqning asosiy ishchi organi bir o'qqa o'rnatilgan o'tkir tishli ikki disk bo'lib, ular bir-biriga zich siqiladi, bir-biriga muqobil (qarama-qarshi) tebranma harakat qiladi. Natijada ular tishlar orasiga to'g'ri kelgan tolani kesadi (teri osti qatlamini). Disklar quvvati 0,25 kVt, va aylanish tezligi 2850 ayl/min ga teng bo'lgan elektrodvigateldan egiluvchan val va uning uchidagi tirsakli val orqali harakatga keltiriladi. Elektr Pichoq ni qo'llash tana va terini kesishni keskin kamaytiradi, ishchi xavfsizligini ta'minlaydi va mehnat sharoitini yaxshilaydi. Pichoqning shoxli yirik mol tanasini zabelovkalashdagi unumdorligi soatiga 50-60 tanani, cho'chqani esa 150 tanani tashkil etadi.

### **SHoxli yirik mol tanasidan terini mexanik usulda shilish qurilmalari**

Go'sht kombinatlarida shoxli yirik mol tanasidan terini mexanik usulda shilish uchun bmr necha tur uskunalar ishlatiladi. Ular yuritma turi, tortish organi, terini shilish yo'nalishi va konstruksiyasi bilan farq qiladi.

**FUA qurilmasi** – bu davriy ishlovchi 75 bosh mol terisini bir soatda shilish quvvatiga ega, keng tarqalgan qurilma. U VNIIMP, Poltava, Omsk go'sht kombinatlarida yaratilgan va Biysk mashinasozlik zavodida tayyorlangan.



29-rasm. FUA shoxli yirik mol tanasidan terini mexanik usulda shilish davriy uskunalari:

1 - rama-stanina; 2 - Plastina-sharnirli zanjir; 3 – yuritish yulduzchasi; 4 – taranglash yulduzchasi; 5 - elektrodvigatel; 6 - reduktor; 7 - buriluvchi qotirgich (fiksator); 8 - elektrodvigatel fiksatori; 9 - reduktor.

FUA qurilmasi 29-rasmda aks ettirilgan. Hayvon terisini avval tanaga nisbatan PerPendikulyar yo'nalishda, so'ngra esa tana bo'yicha shilish qobiliyatiga ega bukilgan Profilli universal rama-stanina 1 dan iborat. Yo'naltiruvchi ramada

uzluksiz ravishda Plastina-sharnirli zanjir 2 harakat qiladi. Zanjirga ilgaklar osilgan bo'lib, yulduzcha 3 va reduktor 6 orqali elektrodvigateldan 5 harakatga keltiriladi. Zanjir rama ostida o'rnatilgan yulduzchalar 4 yordamida taranglanadi. Tanani teri shilish vaqtida fiksatsiyalash uchun individual elektrodvigateldan 5 reduktor 6 orqali harakatga keltiriladigan buriluvchan fiksatoridan 7 foydalaniladi.

Qurilma quyidagicha ishlaydi. Zabelovka qilingan tana relsli osma yo'ldan kelib, avtomatik tarzda osiluvchi fiksatorga beriladi, u tanani to'rt richagidan biri bilan ushlab oladi va aylanma yo'lga  $90^\circ$  ga yurg'izadi, so'ngra o'chadi. Oldingi oyoqqa ilgak ilib qotiriladi. Zanjircha halqasi ilgakka kiydiriladi. Keyin elektrodvigatel fiksatori ikkinchi marotaba yurgiziladi, u tanani teri shilingan joydan olib ketadi va birdaniga keyingi tanani olib keladi va h.k. Teri shilish tezligi hayvon jinsi, yoshi, semizligiga bog'liq. Bu tezlik AO-72 elektrodvigatelinii Paketli yoqqich yordamida qayta yoqib rostlanadi. Rostlash oralig'i 3,01; 4,6; 6,03 va 9,21 *m/min*.

Ozroq o'zgartirish kiritish bilan ushbu konstruktsiyani cho'chqa terisini shilish uchun qo'llash mumkin.

Teri shilish vaqtida unda go'sht o'yilgan joylari Paydo bo'lishiga qaraladi, va ular bo'lmasligi chorasi ko'riladi.

Statsionar ishlaydigan boshqa shoxli yirik mol terisini shilish konstruktsiyalari (GiProgo'sht, T.T.SkriPnik sistemasi, Avetikov, Novosibirsk go'sht kombinati konstruktsiyalar va h.k) faqat tortish organi va detallari bilan farq qiladi, mexanik usulda teri shilish jarayonini o'zgartirmagan.


**VNIIMP-3 qurilmasi.** Bu qurilma Kiev, Omsk va boshqa go'sht kombinatlarida amalda joriy etilgan. Po'lat Payvandlangan rama va ilgaklar ilingan harakatlanuvchi tortish zanjiri mavjud. YUqorida keltirilgan uskunadan buriluvchan fiksator o'rniga statsionar rama qo'llanilganligi bilan farq qiladi. Uning barmoqlariga ilgaklar yordamida ikkitadan rolikda osilib turgan hatsyvon tanalari oldingi oyoq bilan mahkamlanadi.

Uskuna unumdorligi soatiga 60 tanani, teri shilish davomiyligi 30-90 sek, elektrodvigatel quvvati 4-5 kVt –ni tashkil etadi.

**Uzluksiz teri shilish mexanizmi.** Katta quvvatli go'sht kombinat-larida ishlatiladigan bu qurilmalar statsionarlaridan teri shilish jarayoni uzluksiz rejimda yurayotgan konveyerda amalga oshirilishi bilan farq qiladi.

Ushbu qurilmaning ishlash sxemasi 30-rasmda aks ettirilgan. Qurilma tana old oyoqlarini fiksatsiyalash konveyeri 1, terini fiksatsiyalash konveyeri 2, terini qabul qilish lentali transPortyor 3, ikki konveyersiz relsli yo'lak shaklidagi yo'l 4, ishchilar uchun og'ma maydoncha 5 va yuritish stantsiyasidan 6 iborat. Old oyoqlarni va terini fiksatsiyalash konveyerlarida ikkitadan Plastina-sharnirli, qadami 150 *mm* -ga teng zanjiri mavjud. Ular tanadan teri shilinishini kerakli burchagini ta'minlovchi burama yo'naltirgichda harakat qilishadi. Old oyoqlarni qotiruvchi (fiksatsiyalash) Parallel zanjirlari o'zaro ko'ndalang Po'lat temirlar bilan har 3900 *mm* da ulangan. Fiksatsiyalash konveyeri zanjirlariga har 300 *mm* da ilgaklar Payvandlangan.





30-rasm. SHoxli yirik mol tanasidan terini mexanik usulda shilish uzluksiz uskunasi (Moskva go'sht kombinati konstruksiyasi):

1 - old oyoqlarni fiksatsiyalash konveyeri; 2 - terini fiksatsiyalash konveyeri; 3 – teri uchun lentali transPorter; 4 – konveyersiz osma yo'llar; 5 – ishchilar uchun stand; 6 – yuritish stantsiyasi.

Konveyersiz Parallel osma yo'llar qurilma ustida 500 mm balandlikda o'rnatilgan (yo'llar oralig'ida) va tana harakati tomonga 4%-li og'dirilgan. Osma yo'lining kirish va chiqish joylarida tana osilgan roliklarni bir yo'ldan ikkinchisiga o'tkazuvchi (va aksincha) avtomatik strelkalar o'rnatilgan (rasmda ko'rsatilmagan).

Har ikkala konveyer AO-71-6-4 rusumli elektrodvitateldan harakatga keltiriladi. Uning quvvati 5; 6,5; 7 kVt –ni tashkil etadi, uchta tezlikka ega: 700, 940 va 1400 ayl/min, shularga muvofiq ravishda tananing old oyog'i 5,2; 6,97 va 10,6 m/min tezlik bilan harakat qiladi. Terini fiksatsiyalash konveyerining tezligi old oyoqlarni fiksatsiyalash konveyerini tezligidan kam. Ushbu konveyerlar tezligi sinxron ravishda o'zgaradi. Teri qabul qilish lentali transPortyori, quvvati 0,6 kVt – ga teng bo'lgan mustaqil elektrodvitateldan harakatga keltiriladi.

Qurilma quyidagicha ishlaydi. Orqa oyoqlaridan ikki rolikda osilgan shoxli yirik molning zabelovka qilingan jussasi avtomatik strelka yordamida bir osma yo'ldan ikkinchisiga, qorin tomoni oldinga qaragan holda o'tkaziladi.

Tananing oldingi oyoqlar Paylariga ilgaklar o'rnatiladi, ularning ikkinchi uchi old oyoqlar konveyeri ilmoqlariga kiydiriladi. Terining zabelovka qilingan chekkalariga zanjirchalar bog'lanadi, ular halqa qilib tortiladi, va zanjirchalar halqasi teri fiksatsiya konveyerining ilgaklariga ikkala tomondan simmetrik osiladi.

Ikkala konveyer harakati tezliklarining farqi hisobiga teri shilinadi. Bunda teri shilishning kerakli yo'nalishi saqlanadi.

Jarayon oxirida teri tanadan butkul ajraladi, fiksatsiyadan chiqariladi va lentali transPortyorga tushadi, go'sht tanasi esa keyingi oPeratsiyalarga jo'natiladi. 30-rasmdan ko'rinib turibdiki teri barcha jarayonlar bajarilishi davrida tana ostida turadi. Bu ishning tozalik (sanitar) sharoitini ta'minlaydi.

Old oyoqlarni fiksatsiyalash konveyeri tezligiga bog'liq holda yoritilgan qurilma unumdorligi, muvofiq ravishda smenasiga 560, 750 va 1150 boshni tashkil etadi.

Teri shirish jarayonini nazorat qilish va kerak bo'lganda terini to'g'rilab turish uchun qurilma yonlarida ishchilar uchun maydonchalar 5 mavjud.

Sankt-Peterburg go'sht kombinatida shoxli yirik mol terisini shilish uchun konstruktsiyasi boshqacharoq mexanik qurilmasi ishlatiladi. Farqi, jussa oddiy osma konveyerda bir relsli osma yo'lda keltiriladi. Teri shilish joyida hayvon oyog'ini fiksatsiyalovchi konveyer, yonida esa teri shilish uchun tortish zanjirli maxsus Profilli og'ma konveyer o'rnatiladi. Bu qurilma boshqa go'sht kombinatlarida ham o'z tatbiqini topgan.

### **SHoxli kichik mol terisini shilish uchun mexanik qurilmalar**

SHoxli kichik mol terisini mexanik usulda shilish ham teri osti qatlamini uzish usuli bilan amalga oshiriladi. Teri shilish yo'nalishini, uning alohida joylarida o'zgartirish (terini tanadan ajratish burchagini o'zgartirish) shart emas. SHuning uchun ushbu qurilmalarning konstruktsiyasi ancha oddiy.


Ish bajarishiga ko'ra, qurilmalar davriy ishlovchi (tananing statsionar holatda o'rnatilishi) va uzluksiz ishlovchiga ajraladi (tananing konveyer bo'ylab uzluksiz harakat qilishi).

Davriy teri shilish usuli unumdorligi soatiga 250 bosh molni tashkil etuvchi kichik va o'rta go'sht kombinatlarida ishlatiladi, uzluksizi esa yirik go'sht kombinatlarida unumdorlik 800-1000 bosh molni tashkil etuvchi kombinatlarda ishlatiladi.

Go'sht kombinatlarida ko'Plab teri shilish qurilmalari ishlab chiqilgan va ishlatilgan. Ularning umumiy elementi ilgakli tortish zanjiri, lekin tana nisbatan turli burchak ostida (gorizontal, vertikal, burchak ostida). Amaliyot shuni ko'rsatdiki, terini shilishning eng ratsional yo'nalishi orqa oyoqdan bo'yin tomonga 7-8 *m/min* tezlikda amalga oshiriladi.

Bu qurilmada old oyoqlarni fiksatsiyalash shart emas.

**FSB qurilmasi.** Go'sht kombinatlarida keng qo'llangan bu qurilma (31-rasm) universal, chunki terini ham dum qismidan bo'ynigacha, ham bo'yindan orqa oyoqqacha shilish imkoniyati mavjud. U terini tananing turg'un holatida yoki uning konveyerda uzluksiz harakat qilib turgan vaqtida shilish qobiliyatiga ega.



31-rasm. SHoxli kichik mol terisini shilish uchun FSB mexanik qurilma:  
1- baraban; 2 - elektrodvigatel; 3 - reduktor; 4 - baraban barmog'i.

Qurilma gorizontal o'rnatilgan diametri 1000 mm va uzunligi 850 mm - ga teng bo'lgan baraban1, AO 42-6 rusumli quvvati 1,7 kVt-ga teng elektrodvigatel 2, RCHP-120 rusumdagi reduktordan 3 iborat. Ikki rolikda osilib turgan tana orqa teri tomoni bilan barabanga beriladi. Teri zanjir sirtmoq bilan ushlab olinadi. Sirtmoqning ikkinchi tomoni barmoq 4 -ga ilinadi. Baraban Pastga (Pol tomonga) aylanish vaqtida barmoq zanjirchani tortadi, tana barabanga yoPishadi va teri orqa Pastki tomonidan bo'yin tomonga tortiladi. Bunda old oyoqlar yoki bo'yinni fiksatsiyalash shart emas. Baraban Pastdan yuqoriga aylanganda teri bo'yindan orqa oyoq tomonga qarab shilinadi. Bu holda tananing old oyoqlari fiksatsiyalanishi kerak. Tana harakatsiz holatda bo'lishi mumkin yoki konveyer bilan 3,75 m/min tezlikda harakat qilishi mumkin. Konveyerdagi tanalar orasidagi masofa 900 mm - tashkil etadi.

Qurilmaning tana harakatsiz osilib turgandagi unumdorligi soatiga 125 bosh, konveyerlar harakatlanayotganda esa soatiga 360 boshni tashkil etadi.


Barabanning aylanish chastotasi  $4,83 \text{ min}^{-1}$ , teri shilish vaqtidagi maksimal kuchlanishi 140 kg. Qurilma juda ixcham. Uning uzunligi 1080 mm, eni 1200 mm va balandligi 2200 mm.

SHoxli kichik molni qayta ishlaydigan yirik korxonalarda uzluksiz ishlaydigan konveyerli qurilmalar ishlatiladi.

**FSN rusumli uzluksiz ishlovchi qurilma.** Qurilmaning (32-rasm) unumdorligi soatiga 375 bosh shoxli kichik molni tashkil etadi. Asosiy shoxli kichik mol tanasini harakatlantiruvchi osma konveyerdan 1 tashkil topgan bo'lib, uzunasi bo'ylab hayvon old oyoqlarini fiksatsiyalash konveyeri 2 mavjud, quvvati 1,7 kVt-ga teng elektrodvigateldan 3 reduktor va tortish yulduzchasi 4 orqali harakatga keltiriladi. Zanjirni taranglash yulduzcha 5 yordamida amalga oshiriladi.

Asosiy yuk tashuvchi konveyerning ikkinchi tomonidan terini shilish uchun konveyer 6 o'rnatilgan. Uning oxirgi qismi bukilgan va qiya qilib o'rnatilgan. Bu terini 0 – 8° burchak ostida shilishni ta'minlaydi. Teri shilish konveyeri harakatga quvvati 4,5 kVt -ga teng elektrodvigatel 7 orqali keltiriladi. YUK tashuvchi konveyer va old oyoqlar konveyerning harakatlanish tezligi 5 m/min, teri shilish qiya konveyerining tezligi 10 m/min.

Terini mexanik ravishda shilish uchun tana zabelovkasi amalga oshiriladi (teri yuzasining 25% -gacha ochiladi), teri transPortyorga qo'yiladi, old oyoqlaridan fiksatsiyalanadi, teriga zanjirchadan sirtmoq kiydiriladi, zanjircha halqasi teri shilish konveyerining ilgakiga tashlanadi va bo'yindan orqa oyoq tomoni yo'nalishida teri shilish jarayoni amalga oshiriladi. Teri shilish jarayonini nazorat qiladigan ishchi maxsus maydoncha 5 mavjud. Konveyerlarni ishlatish Pultdan 9 boshqariladi. Teri shilish jarayoni tugagandan so'ng, old oyoqlarni fiksatsiyalash konveyerining oxirida, oyoqlarni kesish uchun diskli arra 10 o'rnatilgan.



32-rasm. SHoxli kichik mol tanasidan mexanik usulda teri shilish FSN rusumli uzluksiz qurilmasi:

1 - gorizontall konveyer; 2 – old oyoqlar konveyeri; 3 - elektrodvigatel; 4 - yetakchi yulduzcha; 5 – taranglash yulduzchasi; 6 – teri shilish konveyeri; 7 - elektrodvigatel; 8 – ishchilar uchun maydoncha; 9 – boshqaruv Puliti; 10 – diskli arra.

Terini orqa oyoqdan bo'yin tomon shilgan vaqtda old oyoqlarni fiksatsiyalash talab etilmaydi, shuning uchun qurilma faqat ikki – tashuvchi va terini shilib oluvchi konveyerlaridan iborat bo'lishi mumkin. Qurilma unumdorligi smenada 3000 bosh.

### **Cho'chqa tanasidan mexanik usulda teri shilish mexanizmi**

Cho'chqa tanasidan teri to'liq yoki qisman (kruPonlash usulda) shilinadi. Buning uchun kichik va o'rta quvvatdagi go'sht kombinatlarida elektr telferlar yoki lebyodkalar qo'llaniladi. Ular osma yo'llar ustida o'rnatiladi.

Teri shilish vertikal yo'nalishda cho'chqa bo'ynidan orqa qismiga qarab amalga oshiriladi, tana bo'ynidan fiksatsiyalanadi va biroz tortiladi. Teri shilish kuchi 500-600 kg-ni tashkil etadi, shilish tezligi 10-12 m/min-dan oshmasligi tavsiya etiladi, semirtirilgan cho'chqa uchun 6 m/min.

Teri shilinishidan oldin tana yaxshilab yuviladi, chunki teri uzilsa tana kirlanishi mumkin. Telferli qurilmaning unumdorligi soatiga 90-100 tanani tashkil

etadi. Yirik go'sht kombinatlarida cho'chqa terisini shilish uchun shoxli yirik va kichik mol terisini shilish qurilmalariga o'xshash konveyerli qurilmalardan foydalaniladi. Masalan, Kiev go'sht kombinatida uzluksiz ishlovchi cho'chqa terisini shilish qurilmasi ishlab chiqilgan va joriy etilgan. U asosiy yuk tashish konveyeri, fiksator va qiya elevatordan iborat. Zabelovkalangan tana teri shilish joyiga beriladi, arava bilan ulangan ilgak yordamida boshi fiksatsiyalanadi. Buning uchun cho'chqa boshi fiksator yo'naltiruvchisiga kiritiladi, teri bo'yin qismidan zanjir yordamida ushlanadi, zanjir halqasi Pazli monorelsga joylashtiriladi. Teri shilish elevatori vertikal tekislikda Polga nisbatan  $70^\circ$  burchak ostida asosiy harakatlanuvchi transPortyorga Parallel o'rnatiladi. Elevatorning ilgaklar taqilgan zanjiri terini tortadi va yuqoriga harakatlanib terini to'la (yoki kruPon bilan) shilib oladi. Bunda tana to'xtamaydi, transPortyorda harakatlanishni davom etadi. Qurilma unumdorligi soatiga 250-300 bosh, teri shilish tezligi  $10 \text{ m/min}$ , elektrodvigatel quvvati  $2,8 \text{ kVt}$ .

SHunday qurilma Moskva go'sht kombinatida qo'llaniladi. Bu yerda ham asosiy harakatlanuvchi organdan tashqari tanalarni fiksatsiyalash uchun ham cho'chqa boshini ildirish uchun ilgakli konveyer, terini sidirish uchun zanjirli og'ma elevator mavjud.

Qurilma unumdorligi smenada 3000 boshni tashkil etadi.

### **Terini mexanik usulda shilish qurilmasi texnologik hisobi**

Terini shilish qurilmalarining unumdorligi quyidagi ifodalar yordamida hisoblanadi:

a) davriy ishlovchi qurilmalar uchun:

$$Q = \frac{60}{T} \text{ teri soatiga,} \quad (2-2)$$

bunda  $T$  – bitta teri shilishning to'liq tsikli davomiyligi,  $\text{min}$  (terini koveyerga berish vaqti, tana va terini fiksatsiyalash vaqtlari, terini tanadan sidirib olish vaqti hisobga olingan);

b) uzluksiz ishlovchi qurilmalar uchun

$$Q = \frac{v}{a} \text{ teri soatiga,} \quad (2-3)$$

bunda  $v$  - tananing konveyer bo'ylab harakatlanish tezligi,  $\text{m/min}$ ,  $a$  – tanalar oralig'i masofasi,  $\text{m}$ .

Terini mexanik shilish qurilmasi elektrodvigateling quvvati quyidagi ifoda orqali hisoblanadi

$$N = \frac{Pv}{60 \cdot 1000 \eta}, \text{ kVt} \quad (2-4)$$

bunda  $R$ - terini tanadan ajratish uchun maksimal kuch. SHoxli yirik mol terisi shilinishi uchun  $9800 \text{ N}$  deb qabul qilish mumkin, shoxli kichik mol terisini shilish uchun -  $2000 \text{ N}$  va cho'chqa uchun -  $4900 \text{ N}$ ;  $v$  - terining shilinish tezligi,  $\text{m/min}$ ;  $\eta$  - qurilmaning elektrodvigateldan yetaklovchi yulduzchaga kelguncha va mexanizmning



Tozalash vaqtida yuqoridan, aylana shaklidagi quvish yo'lidan uzluksiz ravishda issiq suv berib turiladi. Bu yuvib tushirilgan Patni Pat yig'ish voronkasiga 7 disk va korPus orasidagi halqasimon teshikdan tushiriladi.

Tovuq , jo'ja va kurka turkumini tozalash davomiyligi 30 sek, o'rdak va o'rdakchalar uchun 60 sek, g'ozlar uchun 80 sek.

Eshikchanning 2 ochilishi avtomatik tarzda qulf tilini elektromagnit 10 yordamida tortishi natijasida amalga oshadi, yoPish esa elektromagnit 11 yordamida amalga oshadi.

Mashinani yuklash va yukini tushirish vaqtida ishchi disk to'xtamaydi, shuning bilan mashinani uzluksiz ishlashini ta'minlaydi.

Mashinaning unumdorligi: tovuq va cho'ja Patini tozalash bo'yicha soatiga 1200, kurkani tozalash bo'yicha 300, o'rdak va o'rdak bolalari Patini tozalash bo'yicha 520, g'ozlarni tozalash bo'yicha 170 donani tashkil etadi.

Nazorat savollari:

1. CHorva mol terisini shilishda ishlatiladigan qaysi qurilmalarni bilasiz?
2. Mol terisini shilishda FUA qurilmasini vazifasi, tuzilishi va ishlash Printsipi tushuntiring.
3. Mol terisini shilishda VNIIMP-3 qurilmasini vazifasi, tuzilishi va ishlash Printsipi tushuntiring.
4. Terini shilish qurilmasining unumdorligini aniqlash ifodasini keltiring.
5. Terini shilish qurilmasi elektrodvigatelining quvvatini aniqlash ifodalarini keltiring

### **3-ma'ruza. ICHAKLARGA ISHLOV BERISH JIHOZLARI**

Ichaklar qayta ishlashga yo'g'on va ingichka ichak, qizil o'ngach, siydik Pufagi, cho'chqada esa oshqozondan tashkil topgan komplektda keladi. Ichak komplekslari stol ustida qo'lda qismlarga ajratiladi.

Ichaklarga keyingi bosqichda mexanik ishlov berish oPeratsiyasi ularni ichidagi ozuqa qoldiqlaridan bo'shatish, tashqi qismini yog'sizlantirish (Penzelovkalash) va ichki shilimshiq moddani yo'qotishdan (shlyamovka) iborat. Oraliqdagi yordamchi oPeratsiyalar (ivitish, suv yordamida ichakni ag'darish, sovutish, navlash, to'qish va bog'lash) qo'lda amalga oshiriladi.

Ichakka ishlov berish mashinalari, oPeratsiyalar bo'yicha texnologik ketma-ketlikka rioya qilgan holda o'rnatiladi. Texnologik ketma-ketlik ishlov berilayotgan ichak turiga bog'liq. SHoxli yirik mol ichaklarining ichidagilari bo'shatilgach, avval tashqi yuzasiga ishlov beriladi, so'ngra esa ag'dariladi. CHo'chqa va shoxli kichik mol ichaklari ag'darilmaydi, har ikkala tomoniga birdaniga ishlov beriladi.


Buning uchun turli konstruktsiyali mashinalar ishlatiladi. Ular o'zaro transPort qurilmalari, sig'imlar va stollar ishtirokida birlashtiriladi. Natijada hozirgi vaqtda keng tarqalgan mexanizatsiyalashgan oqim liniyalari hosil qilinadi.

Kichik va o'rta go'sht kombinatlarida ichakka ishlov berish uchun alohida mashinalar yoki mashinalar guruhi o'rnatiladi.

Barcha turdagi hayvonlarni ichak komplektini qismlarga bo'lgach birinchi operatsiya - ular ichidagisini bo'shatish va siqish – siqish valetlarida amalga oshiriladi.

### Ichakka ishlov berish mashinalari

**VO-150 tipdagi siqish valetlari.** Valetlar (34-rasm) ichak ichidagilarni va shilimshiq qavatini ichak qobig'idan valetlar juftligi yordamida siqish yo'li bilan chiqarish uchun xizmat qiladi.



34-rasm. VO-150 tipdagi siqish valetlari:

1-stanina ustunlari, 2-ishchi vallar; 3-harakatlanuvchi Podshipniklar; 4-o'zgartirish vintlari; 5-elektrovigatel; 6-reduktor; 7-zanjirli uzatgich; 8 - qobiq-to'siq; 9- suv berish quvuri.

Siqish valetlari ikki ustunli cho'yan staninadan 1 iborat bo'lib, unga ikki gorizontal quvursimon rezina bilan qoplangan val 2 o'rnatilgan. Yuqoridagi val rezina va belting qatlami bilan qoplangan, ostidagi esa ichakni yaxshi tutish va ichidagini siqish uchun chiziqlarga (qirralarga) ega.

Pastki val turg'un Podshipniklarda o'rnatilgan, yuqoridagi esa vertikal bo'yicha o'zgartirish vintlari 4 yordamida harakatlanuvchi Podshipniklarda 3 siquvchi Prujina o'rnatilgan. Ushbu konstruktsiya valetlar oralig'ining kerakli oralig'i ta'minlanadi. Valetlar quvvati 0,8 kVt –li elektrovigateldan 5 reduktor 6 va qobiq 8 bilan berkitilgan zanjirli uzatma 7 orqali harakatga keltiriladi.

Valetlar oralig'i masofasini moslash va yetakchi yulduzchalar oralig'i masofasini o'zgaririshi zanjirning rolikli taranglash qurilmasi yordamida bajariladi. Ichaklarni yaxshi yumshatish uchun quvur 9 orqali uzluksiz 35-40°S haroratda suv berib turiladi. Suv sarfi 200 l/s-ni tashkil qiladi. Valetlar diametri 150 mm, uzunligi 750 mm. Staninaning o'ng ustunida (yuritma o'rnatilgan tomonning qarama-qarshisida) ishlov berilishi kerak bo'lgan ichakni valetlar oralig'iga kirgizish uchun kesma yo'l mavjud. Mashina oldi va orqasida ishlov berilishi



kerak bo'lgan ichakni joylash uchun issiq suv solingan metall yoki temir-beton chanlar o'rnatiladi.

Hozirgi vaqtda ichak, siqish valetslariga lentali transPortyor yordamida beriladi. Valetsdan chiqqani esa maxsus shnekli transPortyor yordamida qabul qilinadi. Siqish valetslarining aylanish tezligini boshqarish uchun tezlik variatori o'rnatiladi.


Siqish vallaridan ichaklarni o'tkazish tezligi  $0,3-0,4 \text{ m/sek}$  - dan oshmasligi kerak. Ushbu tezlikdan oshgan holda ichak qobig'ining devorlari yorilishi mumkin. Mashinaga bir vaqtda to'rt-besh qator ichak solinishi mumkin.


Ichakka keyingi ishlovlar, beriladigan mashinalarning ishchi organi: silliq, tirnoqli (riflli), Plastinali, yoki cho'tkali valetslar juftligi bo'lishi mumkin.

**Penzilovkalash-shlyamovkalash mashinalari.** Mashinada (35-rasm) shoxli yirik mol ichagiga ishlov berib, yog'ning yuPqa qatlami va shilliq qismini ketkazish uchun foydalaniladi.

Mashina oyoqlarga 4 o'rnatilgan cho'yan staninadan 1 iborat. Mashinaning asosiy ishchi organi valga 3 gorizontol o'rnatilgan ikki juft cho'tkalar 2. Ichaklarni yog'dan tozalash uchun sholi somonidan tayyorlangan cho'tkalar ishlatiladi, shilimshiq qismdan tozalash uchun esa – cho'chqaning umurtqa usti Po'stagi qilidan (sochdan) tayyorlangan qattiq cho'tka ishlatiladi. O'ng val turg'un PodshiPniklarda 4 o'rnatilgan, chaP val - vintlar 6 yordamida siljiriladigan PodshiPniklarda 5 o'rnatilgan. CHaP val maxovik 7 yordamida rostlanadi.

SHunday konstruktsiya ichakka yaxshi ishlov berish uchun cho'tkalar oralig'ida kerakli masofani qo'yish imkoniyatini beradi. O'ng valga PerPendikulyar valni 9 harakatga keltiruvchi chervyakli reduktor 8 o'rnatilgan. Ikkinchi reduktor 10 orqali tozalangan ichakni o'ragichi 12 o'rnatilgan val 11 harakatga keltiriladi. O'ragich shamirli o'rnatilgan va ichak yig'imini barabandan chiqarib olganda yig'iladigan Plankalardan iborat.





35-rasm. SHoxli yirik mol ichaklarini Penzelovkash-shlyamovkash mashinasi


CHO'tkali ishchi vallar 4,5 kVt quvvatli elektrodvigateldan 13, tasmali uzatgich 14 orqali harakatga keltiriladi. Ishchi cho'tkalarining aylanish tezligi 1450 *ayl/min*, ichak o'ragich barabani tezligi esa 3,5 *ayl/min*. CHO'tkalar ichak aylanishiga muqobil ravishda aylanadi.

CHO'tkalar qobiq 15 bilan berkitilgan, uning ust qismida ichak o'tishi uchun tor tirqish mavjud. Ichakka ishlov berish vaqtida cho'tkalarga teshiklari bor (Perforatsiyalangan) quvur orqali uzluksiz ravishda 35-40oS haroratli suv berib turiladi.

Ichak Pastki qismdan, uzluksiz aylanib turuvchi cho'tkalar oralig'idan o'tkaziladi. Buning uchun ichak uchidan ushlab, cho'tkalarining baraban aylanishiga qarama-qarshi chekkasidan o'tkaziladi, cho'tkalar ustidan yo'naltirish roliklariga joylashtiriladi. Bir uchi barabanga mahkamlanadi. Baraban aylanib, ichakni cho'tkalar orasidan tortadi. Ichakka yaxshi ishlov berish uchun u mashinadan 2 yoki 3 marotaba o'tkaziladi.

Mashinaning unumdorligi ichakni yog'sizlantirish va Penzilovka qilishda 170 dona ichak yoki 225 aylana, shlyamovka qilishda esa 225 ichak yoki soatiga 230 aylana.

**SHM-3 rusumli shlyamovka qilish mashinasi.** Bu mashina (36-rasm) cho'chqa ichagiga ishlov berish va qo'y ichagini shilimshiq, to'qima va seroz Pardasidan tozalash uchun ishlatiladi.



36-rasm. SHoxli kichik mol va cho'chqa ichagiga ishlov berish uchun SHM-3 shlyamlovchi mashinasi.

1-stanina; 2-stanina oyoqlari; 3-silliq ishchi baraban; 4-metall Parrakli valik; 5-ventilyatorli valik; 6-elektrodvigatel; 7-rezinali qirralangan (rifllangan) valiklar; 8- suv uchun quvur; 9- chervyakli reduktor; 10- tasmali uzatma; 11- maxovik; 12 – zanjirli uzatma.

U cho'yan staninadan 1 iborat bo'lib, to'rtta oyoqda 2 o'rnatilgan. Staninada valga mahkamlangan silliq cho'yan baraban 3 o'rnatilgan. U elektrodvigateldan 6 tasmali uzatgich 10 va chervyakli reduktor 9 vositasida harakatga keltiriladi. Baraban  $8,3 \text{ ayl/min}$  tezlik bilan harakatlanadi. Baraban ustida ikkita valik o'rnatilgan, metall Parrak 4 ishchi valik va ishchi valikni shlyam va shilimshiq Pardadan tozalovchi ventilyatorli 5 valik. Ishchi valik  $878 \text{ ayl/min}$  tezlik bilan aylanadi, ventilyatorli esa  $2135 \text{ ayl/min}$  bilan aylanadi. Valiklar ham elektrodvigateldan 6 tasmali uzatgich yordamida harakatga keltiriladi.

Ishchi valikning valida inertsiya kuchlarini tekislash uchun maxovik 11 o'rnatilgan. Staninada 1 barabanning 3 oldida yana ikki rezina materialli qirralangan (rifllangan) siqish valiklar 7 o'rnatilgan. Ular ichki shilimshiq Pardani yumshatish, uni siqish va ichaklarni mashinadan tortish uchun xizmat qiladi. Rezina valiklar harakatga zanjirli uzatma 12 orqali keltiriladi va  $8,3 \text{ ayl/min}$  tezlikka ega. Rezina valiklardan biri harakat qiluvchi PodshiPnikda o'rnatilgan, shuning uchun valiklar oralig'i masofasi rostlanadi. Ventilyatorli valik 5 ham va ishchi val 4 ning oraliq masofasini rostlash uchun harakat qiluvchi PodshiPnikda o'rnatilgan.

Ichakka ishlov berish vaqtida quvur 8 orqali uzluksiz 38-40°S haroratli iliq suv berib turiladi. Suv sarfi 300 l/s – ni tashkil etadi.

Mashina elektrodvigateling quvvati 1,7 kVt ni tashkil etadi. Yuritish tasma-sining kerakli tarangligini rostlash uchun elektrodvigatel salazkalarida o'rnatiladi.


Mashina quyidagicha ishlaydi. To'rt-besh majmua ichak olinadi va Pastdan, baraban va ishchi valik orasidan o'tkaziladi, ichkariga tortiladi va uchlari rifllangan siqish valiklari orasidan o'tkaziladi, keyin esa ishlov berish boshlanadi. Ichak o'tish tezligi 3,1 m/min. Mashinadan o'tgan sari ichak tashqarisi ishchi valik Parraklari bilan tozalanadi, ichki shilimshiq qobiq rifllangan valikning mexanik ta'sirida bo'shashadi va qobiqdan chiqadi. Ichak esa issiq suv solingan vannaga tushadi. Mashina uzluksiz ishlaydi. Uning unumdorligi soatiga 100 dona cho'chqa yoki 150 dona qo'y ichagiga ishlov berishga teng.


**SHMK-2 rusumli shlyamlash mashinasi** (37-rasm). SHoxli yirik molning ingichka ichagiga ichki tomondan ag'darilib shilimshiq qoldig'idan tozalangandan so'ng ishlov berishda ishlatiladi. Ushbu mashina cho'chqaning ichagiga SHM-3 shlyamlash mashinasida ishlov berishdan ilgari dastlabki ishlov berish uchun hamda uning tashqi (seroz) qobig'ini ketkizish uchun ishlatiladi.

Mashina cho'yan stanina 1, valiklar o'rnatilgan kobiqdan 5 iborat. Mashinaning ishchi organlari 240 ayl/min tezlik bilan harakatlanuvchi xom ashyo solish valigi 6, va 2800 ayl/min tezlik bilan harakatlanuvchi rezina Parrakli ikki shlyamlash valiklaridan 7 iborat. SHlyamlash valiklari bir-biriga nisbatan qat'iy Parallel oraliq masofasi 2-3 mm (Parraklar oralig'i) qilib o'rnatilgan. Valiklar aylanish vaqtida Parraklarning tashqi chekkalari tsilindrik yuza hosil qilishi kerak. Valiklar olinuvchan qoPqoqlar 10 bilan zich yoPilgan maxsus uyalar – stakanlarga 9 o'rnatilgan sharikoPodshiPniklarda 8 aylanadi.

Valiklar quvvati 1,7 kVt ga teng bo'lgan reduktorning 3 yuqori qoPqog'iga o'rnatilgan elektrodvigateldan 10 harakatga keltiriladi. Reduktor balandligi o'zgartiriladigan Plitaning 2 ustiga o'rnatilgan.

Mashinani ishga tushirishdan ilgari ishchi valiklar korobkasi qoPqog'i 17 olinadi va mashina yoqiladi. Bir vaqtda Perforatsiyalangan quvur 11 bo'yicha 35-38°S haroratda issiq suv beriladi.





37-rasm. SHMK-2 rusumli shlyamlash mashinasi (umumiy ko'rinishi va kinematik sxemasi): 1-stanina; 2 – dvigatel mahkamlash uchun Plita; 3-reduktor; 4 - elektrodvigatel; 5 – yuqori qobiq; 6 – xom ashyo yuklash valigi; 7 -shlyamlovchi valik; 8- sharikoPodshiPniklar; 9 - uya-stakanlar; 10 - olinuvchan qoPqoqlar; 11 –suv uchun quvur; 12 -rostlovchi maxovik; 13 – qisish tasmali uzatgich; 14 – ochiluvchan jalyuzlar; 15 – moy quyish teshigi; 16 – moy to'kish Probkasi; 17-qoPqoq.


Ishlov berilgan ichaklar Poddon orqali ichak yig'ib olish vannasiga tushadi. Elektrodvigateldan ishchi valiklarga harakat siqma tasma uzatgich 13 yordamida uzatiladi. Olinuvchan o'itlar va jalyuzlar 14 yuritish mexanizmlarini navbatdagi ko'rikdan o'tkazish va xizmat ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Reduktorga teshik 15 orqali moy quyiladi, qoPqoq bilan berkitiladi. Moy Probkadan 16 to'kiladi.

SHMK-2 rusumli shlyamlash mashinasining unumdorligi soatiga 300 ichakni ( $10000 \text{ m/s}$ ), suv sarfi esa  $330 \text{ l/s}$  –ni tashkil qiladi.

SHMK-2 va SHMK-3 rusumli mashinalari birgina oPeratsiyani bajaradi, shuning uchun korxonada ko'P sonda mashina o'rnatishga va katta ishlab chiqarish maydonini band etishga to'g'ri keladi. Oxirgi yillarda bir necha oPeratsiyani bajarishi va turli ichakka ishlov berishi mumkin bo'lgan mashinalar yaratilgan.

**FOK universal mashinasi.** Mashina mol, cho'chqa va qo'y ichagiga ishlov berish uchun mo'ljallangan (38-rasm). Unda besh valiki mavjud: ikkitasi rifllangan, metalldan yasalgan; rifllangan, rezinadan yasalgan; silliq, metalldan yasalgan va metalldan yasalgan, Parrakli.

Ishchi organlarni joylashtirishning shunday kombinatsiyasi, ushbu mashinada hamma turdagi ichaklarni Penzelovka-shlamovka qilishga imkoniyat beradi va ularga qo'shimcha ishlov berilmaydi.



76-rasm. Ichaklarga ishlov berish uchun FOK universal mashinasi:

1-stanina; 2- ishchi valiklar korobkasi; 3, 4- rifllangan metall valiklar; 5 - siquvchi mexanizm; 6 – rezinali rifllangan valik; 7-metall valik; 8-silliq metall valik; 9-chegara qobig'i (kojux); 10-elektrodvigatel; 11- quvur; 12-yo'naltiruvchi qalqon; 13-rostlovchi ventil; 14-yuklash tuynugi.

Kombinatsiyalangan mashinadan ichak qabul chaniga tushadi. Liniyaning unumdorligi cho'chqa ichagiga ishlov berish bo'yicha soatiga 400 komplektni tashkil etadi, o'rnatilgan elektrodvigatellarning umumiy quvvati 6 kVt, suvning sarfi  $30 \text{ m}^3/\text{s}$ , xizmat ko'rsatish Personalining soni 4 odam. Liniyalarning oxirgi konstruktsiyalarida ikki majmuadan FOK-S-04 mashinalari qo'llanila boshlangan. Bu ish sifatini yaxshilaydi.

**SHoxli kichik mol ichaklariga ishlov berish FOK-B oqim-mexanizatsiyalashgan liniyasi.** Bu liniya FOK-S-O4 ga o'xshash. U to'rt mashina-dan iborat: siqish valetslari (2 dona), shlyamaydalaydigan va kombinatsiyalashtirilgan mashinalar.

Liniyaning unumdorligi soatiga 300 komplekt, o'rnatilgan elektrodvigatellarning jami quvvati 2,8 kVt, suv sarfi  $5,5 \text{ m}^3/\text{s}$ . Mashinaga 4 odam xizmat ko'rsatadi.

### **Ichakka ishlov berish mashinalarida ishlashdagi texnika xavfsizligi**

Ichakka ishlov berish vaqtida nosoz mashinada ishlash ma'n etiladi, harakatlanuvchi va aylanuvchi qismida himoya qobig'i bo'lishi kerak, mashina qismlari korPusi yer bilan ulangan bo'lishi kerak.

Mashina va uning oldidagi ishchi joylar toza tutilishi va smenada kamida bir

marta yuvilishi kerak. Mashinaning ichak bilan bevosita tegib turuvchi (kontaktlovchi) qismlari korroziyaga uchramaydigan materialdan tayyorlanishi kerak, mahsulotni buzib qo'ymaslik uchun o'tkir burchak va chet qirralari bo'lmasligi kerak.

Elektrodvigatel va uning ulash simlari namlikdan himoyalangan bo'lishi kerak, yoqish va o'chirish moslamalari qulay joylarda o'rnatilgan bo'lishi kerak. Ishchi joylar yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak.

### **Ichakka ishlov berish mashinalarining hisobi**

Uzluksiz ishlovchi ichakka ishlov berish mashinalari unumdorligi quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi

$$Q = \alpha \frac{3600\pi \cdot D \cdot n \cdot b}{60 \cdot l} = 188\alpha Dn \frac{b}{l} \text{ komPlekt/soat} \quad (3-1)$$

bunda  $\alpha$  – mashinaga ichak berish koeffitsienti. Bu transport mashinalari ishini, ichak mashinadan sirpanib chiqishi, va h.k.-ni hisobga oluvchi koeffitsient bo'lib, amalda  $\alpha = 0,4-0,6$  qabul qilinadi;  $D$ - ichakka ishlov beruvchi ishchi valiklar diametri,  $m$ ;  $P$  – valiklarning aylanish chastotasi,  $ayl/min$ ;  $b$  – mashinada bir vaqtda ishlov berilayotgan ichak qatori soni;  $l$  - ichak komplektining uzunligi,  $m$ .

Agar ichak mashina orqali 2 yoki 3 marotaba o'tqazilsa, u holda uning unumdorligi muvofiq kamayadi.

Siqish valetslari elektrodvigateli quvvatini quyidagi ifoda yordamida hisoblash mumkin

$$N = \frac{M_{bur} \omega \cdot \eta_a}{1000 \eta_{ym}} \quad kVt, \quad (3-2)$$

bunda  $M_{bur}$ - valetslarni harakatga keltirish uchun kerakli burovchi moment,  $N \cdot m$ ;  $\omega$ - valetslarning burchak tezligi,  $sek^{-1}$ ;  $\eta_a$  –quvvatning zahira koeffitsienti,  $\eta_a = 1,2-1,3$ ;  $\eta_{um}$  -mashinaning barcha uzatkichlarda quvvatni yo'-qotishini hisobga olish koeffitsienti, ya'ni uzatkichlar FIK-i,  $\eta_{um}=0,6-0,75$ .

Ishchi valiklarni harakatga keltirish uchun kerakli burovchi moment  $M_{bur}$  quyidagi tenglama yordamida hisoblanadi

$$M_{kr} = RD/2 + R_0 l \text{ n m}, \quad (3-3)$$

bunda  $R$  – qobiqni siqishga va valetslardan chiqib ketishi kuchi yig'indisiga teng kuch

$$P = P_1 + P_2$$

bunda  $R_1$  – qobiq o'qi yo'nalishida uning ichidagilarni siqib chiqarish uchun ta'sir etuvchi kuch:

$$P_1 = \frac{\pi \cdot D^2}{4} \sigma \quad (3-4)$$

bunda  $D$  – qobiq diametri,  $m$ ;  $\omega$  – qobiq ichidagilarni siqib chiqarish uchun kerakli bo'lgan kuch,  $N/m^2$ . Amalda qabul qilish mumkin:  $\sigma = 40000-100000 \text{ N/m}^2$ ;  $R_2$ - qobiqni valetsdan itaruvchi kuch,  $N$ ;

$$R_2 = 2 f \sigma \sin \alpha, N \quad (3-5)$$

bunda  $f$  – valetslar o'zaro tegish maydoni,  $m^2$ ;  $\sigma$  -qobiq ichidagilarni siqib chiqarish birlik bosimi,  $N/m^2$ ;  $a$  – ichakni valetslar orasidan siqib chiqarish kuchining valetslar o'qi chizig'iga nisbatan ta'sir etish burchagi. Amalda  $15-25^\circ$  oralig'ida o'zgaradi;  $R_o$ - valetslarni bir-biriga siquvchi kuch,  $N$ ;  $D$ -valetslar diametri,  $m$ ;  $l$ -valetslar uzunligi,  $m$ .

Nazorat savollari:

1. Uzluksiz ishlovchi ichakka ishlov berish mashinalari unumdorligi qaysi ifoda yordamida hisoblanadi?
2. Siqish valetslari elektrodvigatelining quvvati qaysi ifoda yordamida hisoblanadi?
3. Ichakka ishlov berish mashinalarida ishlashdagi texnika xavfsizligi.
4. FOK universal mashinasining vazifasi, tuzilishi va ishlash Printsipi.
5. SHMK-2 rusumli shlyamlash mashinasining vazifasi, tuzilishi va ishlash Printsipi.
6. VO-150 tiPdagi siqish valetslari nima maqsadda qo'llaniladi?
7. VO-150 tiPdagi siqish valetslari vazifasi, tuzilishi va ishlash Printsipi.
8. SHM-3 rusumli shlyamovka qilish mashinasi vazifasi, tuzilishi va ishlash Printsipi.

#### **4-ma'ruza. CHORVA QONINI QURITISH VA BOSHQA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH UCHUN JIHOZLAR**

Tashqaridan uzatilayotgan issiqlik yordamida mahsulotdagi namlikni bug'latish jarayoniga quritish deb ataladi.

Go'sht korxonalarida qon, Par va Pat, qanot, tuxum, ichak, tog'ay, soch, teri, qiyma yoki kukun ko'rinishidagi go'sht bo'laklari quritiladi.

Uzoq masofalarga tashish yoki saqlash maqsadida mahsulotlarni konservalashning bir ko'rinishi quritish hisoblanadi.

Mahsulotdagi namlik mexanik, fizik-kimyoviy yoki kimyoviy bog'langan bo'lishi mumkin. Mexanik bog'langan namlikni Presslash, tsentrifugalash yoki cho'ktirish yo'li bilan yo'qotish mumkin. Mahsulot bilan fizik-kimyoviy usulda bog'langan namlikni yo'qotish uchun quritish qo'llaniladi. Issiqlik energiyasini tejash maqsadida ko'Pgina vaziyatlarda quritishdan oldin mahsulotdan namlikni yo'qotishni mexanik usul qo'llaniladi.

Quritishni maqsadi - issiqlik va mexanik energiyalarni kam sarflagan holda quritilayotgan mahsulotni kerakli oxirgi namlikda biologik xossalarini va uning sifatini yaxshilashni ta'minlashdan iborat.



Quritish quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi: uzatilayotgan issiqlik bilan quritilayotgan mahsulotni to'g'ridan-to'g'ri kontaktda bo'lishi; uzatilayotgan issiqlikni ajratuvchi to'siq orqali issiqlik tashuvchi bilan quritilayotgan mahsulot to'g'ridan-to'g'ri kontaktda bo'lmasligi; infraqizil nurlar bilan quritish; chuqur vakuum ostida mahsulotlarni muzlatilgan holatda quritishning sublimatsion usuli.

Quritish usuliga bog'liq holda quritkichlarni tiPi va konstruktsiyasi tanlab olinadi. Go'sht va Parranda go'shtini qayta ishlash korxonalarida infraqizil nurlari yordamida va sublimatsion quritish usullari hozirda keng qo'llanilmagan.

Davriy (shkafli, kamerali) yoki uzluksiz (lentali, tunnelli, valtsli, barabanli, sochuvchan) ravishda ishlaydigan quritkichlar mavjud.

Quritkichlar mahsulotni quritishni amalga oshirish uchun quritish kamerasidan, quritkichga kelayotgan havoni isitish va tozalash moslamasi, havoni uzatish uchun ventilyator, changlarni yoki quritilgan mahsulot qismlarini (bo'lakchalarini) tutuvchi moslama va sochuvchan disk yoki baraban, transPortyor lentasi uzatmasi mexanizmlaridan iborat bo'ladi.

Quritkichlar hisobiga mahsulotdan bug'latilayotgan namlik miqdorini, havoning sarfini, havoning Parametrlarini, ventilyator unumdorligi va quvvatini, kalorifer o'lchamlari va bug'ning sarfini, quritkichning unumdorligini aniqlash kiradi.

Quritkichning issiqlik balansi quritkichni kaloriferiga havo bilan kiritilayotgan, kelish qismini ifodalovchi issiqlikdan; mahsulot tarkibidan bug'latilayotgan namlik bilan quritkichga kiritilayotgan issiqlikdan; quritilayotgan mahsulot bilan quritkichga va kaloriferga olinayotgan havo bilan kiritilayotgan issiqliklar, quritkichdan chiqarilayotgan, havo bilan issiqlikni sarflanishining sarfiy qismini ifodalovchi issiqlikdan; atrof-muhitga yo'qotilayotgan va quritkichdan ketayotgan issiqlikni sarflanishidan iborat.

Quritkichdagi issiqlik va havoning sarfini hisoblash uchun nam havo uchun i – d diagrammasidan yoki shunga mos jadvallardan foydalaniladi.

Nazariy jihatdan quritkichda, mahsulotni issiq havo bilan quritishda uni issiqlik ushlashi doimiy holatda, namlik ushlashi esa mahsulotdan bug'latilayotgan namlik hisobiga ortib borishi e'tiborga olinadi.

Kaloriferga kelayotgan havoning boshlang'ich namlik ushlashini  $d_0$ , issiqlik ushlashini  $I_0$ , nisbiy namligini  $\varphi_0$  va haroratni  $t_0$  belgilab olsak, unda kaloriferda isitishdan keyin havoning harorati  $t_1$  gacha oshadi, nisbiy namligi esa  $\varphi_1$  gacha kamayadi, namlik ushlashi o'zgarmaydi  $d_0 = d_1$ , issiqlik ushlashi  $I_1$  gacha ortadi.

Kaloriferda isitilgan havo quritkichga kelib tushadi va harorati kamayadi, nisbiy namligi esa  $\varphi_2$  gacha ortadi, issiqlik ushlashi o'zgarmaydi  $I_2 = I_1$ , namlik ushlashi mahsulotdan namlikni bug'lanishi hisobiga  $d_2$  gacha ortadi.

Amaliy quritkichni xisoblashda esa issiqlikni turli xildagi yo'qotishlar soni keltirilgan qonuniyatlardan chetga chiqishini inobatga olish kerak.

### **SeParatorlar**

SeParatorlar – go'sht sanoati korxonalarida suyuqliklarni ajratish uchun uzluksiz ravishda ishlaydigan mashinalar sifatida keng qo'llaniladi. Ulardan hayvon yog'larini suvsizlantirish va tozalash uchun, qonni ajratishda, bulonlarni,

rassollarni tindirish va tozalashda, tibbiyot PreParatlarga ishlov berishda foydalaniladi.

SeParatorlar texnologik belgisiga ko'ra, 3 guruhga bo'linadi:

- suyuqliklar aralashmalarini ajratish uchun qo'llaniladigan ajratgichlar (Purifikatorlar);

- suyuqlikdan qattiq cho'kmalarni ajratib olishda ishlatiladigan tindirgichlar (klarifikatorq);

- suyuq aralashmalarga ishlov berishda ikki yoki undan ko'P oPeratsiyalarni bajarish uchun kombinirlashgan seParatorlar.

Qattiq fraktsiyalarni (shlam) barabandan chiqarish usuli bo'yicha cho'kmani markazdan qochma ta'sirida va qo'l bilan chiqaruvchi sePratorlarga ajratiladi.

Zich yoPilgan (germetik), yarim yoPilgan va ochiq seParatorlar bo'lishi mumkin. Masalan, germetik seParatorlarda seParatorga suyuqlikni kelishi va seParatsiyalash jarayoni havoni kiritilmasdan amalga oshiriladi.

Go'sht sanoati korxonalarida iste'mol qilinadigan quvvatiga va unumdorligiga, konstruktiv rasmiylashtirilishiga qarab, ko'P miqdorda turli xil markadagi seParatorlar qo'llaniladi.

Hayvon yog'larini suvsizlantirish va tozalash uchun TSNS; ISA-3; ISJ; RT-OM 4,6; FSV; FSG va boshqa seParatorlar qo'llaniladi.

Xorijiy firmalar «Titan», «De-Laval» (SHvetsiya), «SHarPless» (AQSH) va boshqa seParatorlarni ishlab chiqaradilar. Qonga ishlov berish uchun SK-1, AS-1J, BTSA va boshqa seParatorlar qo'llaniladi.


Barcha turdagi seParatorlar uchun ishning samaradorligini baholashning asosiy kriteriyasi ajratuvchi omil - F deb nomlanadigan ko'rsatkich hisoblanadi.

$$F = 2\text{tg}\alpha z(R_{\text{maks}}^3 - R_{\text{min}}^3) \text{sm}^y/\text{sek}^2, \quad (4-1)$$

Bu yerda  $\omega$  – barabanning burchakli aylanish tezligi,  $\text{s}^{-1}$ ;  $\alpha$  - tarelkani og'ish burchagi, grad;  $z$  – seParator barabani tarelkalarining soni, dona;  $R_{\text{maks}}$  - tarelkaning maksimal radiusi, sm;  $R_{\text{min}}$  - tarelkaning minimal radiusi, sm.

39-rasmda seParator – baraban tarelka bilan asosiy ishchi organining ishlashi va tuzilish sxemasi ko'rsatilgan.

Baraban valga 9 mahkamlangan asosdan 1 va quyida tormozli diskdan 5 iborat.




39-rasm. SeParator barabani:

1-baraban asosi; 2 – tarelka ushlagich; 3 – tarelkalar Paketi; 4 – baraban qoPqog'i; 5 – tormozli disk; 6 – cho'kmani tushirish uchun teshik; 7 – yog' uchun kanal; 8 – suv uchun teshik; 9 – baraban vali; 10 – ajratuvchi tarelka.

Baraban asosiga tarelka Paketi 3 terilgan tarelka ushlagichga 2 mahkamlangan. Paketni yuqorisida baraban qoPqog'i 4 va ajratuvchi tarelka 10 mavjud.

YAxshi seParatsiyalash uchun yog'ga issiq suv qo'shiladi. YOg'-suv aralashmasi issiq suv bilan yuqoridan o'z oqimi bo'yicha kelib, Pastga oqib tushadi, tezda aylanayotgan asos bilan qamrab olinadi, markazdan qochma kuch ta'sirida uloqtiriladi va yuPqa qatlamda tarelkalarga taqsimlanadi. Kichik solishtirma og'irlikka ega yog' tomchilari aylanish o'qiga yaqin joylashadi va kanal 7 bo'yicha, katta solishtirma og'irlikka ega suv va cho'kma esa aylanish o'qidan uzoqroq joylashgan 6 va 5 teshiklar orqali olib ketiladi.

**SeParator TSNS-70.** SeParator (40-rasm) yog'-suv aralashmalarini tozalash va suvsizlantirish uchun xizmat qiladi. U vertikal o'rnatilgan stanina 1, barabanli seParator 2 asosiy ishchi organi, uning likoPlaridan 9 iborat. Baraban konusli ulanma yordamida vertikal val 3-da zich mahkamlangan. Valning ostida o'q yo'nalishidagi kuchlarni qabul qilish uchun tovon 6 mavjud.



**118-rasm. SeParator TSNS-70:**

1 - stanina; 2 - baraban; 3 – seParator vali; 4 – yuritma chervyaki; 5 – chervyak g’ildiragi; 6 - val tovoni; 7- karter; 8 - Probka; 9 – baraban likoPi; 10 – seParator idishi; II – namlik uchun; 12 – yog’ uchun; 13 - amortizator; 14 - yuklash bo’yini; 15 – to’rsimon filtr; 16 -qarash tuynugi; 17 – boltlar.

Valga 3 chervyak g’ildiragi 5 bilan tutashgan chervyak 4 kiydirilgan. CHervyak harakatni quvvati 7  $kVt$ , tezligi 1440  $ayl/min$ . bo’lgan elektrodvigateldan friksion mufta orqali oladi. CHervyak juftligi valning aylanish tezligini (seParator barabani vali) 4500-6000  $ayl/minute$  oshiradi. SeParator ishlashining statsionar ishchi rejimida TSNS-70 seParatori barabanining aylanish tezligi 6120  $ayl/minute$ ni tashkil etadi.

Stanina ostida karter 7 mavjud. Unga chervyak juftligini uzluksiz moylab turish uchun suyuq seParator moyi solinadi. Ishlash muddati tugagan moyni karterdan to’kish uchun ostida Probka 8 bilan berkitilgan teshik mavjud.

Tashqaridan baraban, harakatsiz himoya qobig’i 10 bilan o’ralgan. U seParator idishi deb atalishi qabul qilingan. Idishning Pastki qismida rezinali haqasimon zichlashtirgich mavjud. Uning yordamida idish stanina bilan boltlar 17 yordamida biriktiriladi. Idishning yuqori qismida to’rsimon filtr 15 qo’yilgan ochiq yuklash bo’yini 14 mavjud.

Ishga tushirish, ishlash va to’xtash vaqtida ro’y beradigan radial tebranishlar va vibratsiyalarni bartaraf etish uchun maxsus amortizatsiyalash qurilmasi 13 qo’llangan.

YUqori chastota bilan aylanuvchi seParator barabani yaxshi balanslashtirilishi kerak, aks holda mashina tezda ishdan chiqadi.

TSNS-70 seParatorining xususiyati barabanni yig'masdan va mashinani to'xtatmasdan, to'Plangan cho'kmani chiqarish mumkinligi hisoblanadi. Buning uchun avvalombor, seParatorga aralashma uzatilishi to'xtatiladi, shundan so'ng barabanga suv uzatiladi, bu bilan markazdan qochma kuchlar Porshenga ta'sir etadi va chiqarish teshigi klapani 6 ochiladi.

Cho'kma tashlab yuboriladi, shundan so'ngra yana seParatorga yog' aralashmasi va suv uzatiladi.

TSNS-70 seParatori unumdorligi 1500 l/soat. Baraban sig'imi 13 l, tarelkalar soni 54 yoki 115, tarelkalar o'rtasidagi masofa 2 yoki 0,75 mm. Tozalangan yog'dagi namlik 0,05%. Elektroenergiya sarfi 1 t tozalangan yog' uchun 4,5 kvh.

Quyida ba'zi seParatorlar tavsifi berilgan:

	SeParatorlarni texnik tavsifi			
	ISA-3	ISJ	RT-OM4,6	FSV
Unumdorligi, l/soat	1500 -2000	500	1500	1500
Minutdagi aylanish-lar soni	6500	7250	6120	5700
Tarelkalar soni	80—89	50	54	90
Tarelka radiusi, mm:				
Maksimal	125	91	106	-
Minimal	58	46	58	-
Tarelkani og'ish burchagi, grad	50	50	45	45
Tarelkalar orasidagi masofa, mm	0,8	0,7	0,75-2	1
Baraban diametri, m	430	320	460	500
Dvigatel quvvati, kvh	4,5	2,8	7,0	14,0


**Qon uchun seParatorlar.** Bu seParatorlar shakliy elementlarni va zardobni (Plazmalar) ajratish uchun foydalaniladi. Zamonaviy seParatorlarda umumiy qon massasiga nisbatan qonning suyuq fraktsiyasini chiqishi 65% ga yetadi.

SeParator barabaniga qon 25—30° S haroratda uzluksiz oqimda uzatiladi. Qalqovuchli rostlagich yuklash voronkasida qon sathini doimiy va barabanga bir tekisda kelishini ta'minlaydi. Markazdan qochma kuch ta'sirida qon 2 ta fraktsiyaga ajraladi. Yengil fraktsiya (Plazma) baraban markaziga harakat qiladi, tarelka ushlagichni tashqi kanali bo'yicha ko'tariladi va ajratuvchi tarelka teshiklari orqali qabul qilgichga (Priyomnik) yo'naltiriladi. Og'ir fraktsiya (shakliy elementlar konsentratlari) baraban qoPqog'i va ajratuvchi tarelka orasidagi kanal bo'yicha baraban chetiga kelib tushadi va qabul qilgichga (Priyomnik) chiqariladi.

Katta va kichik go'sht korxonalarida SK-1 seParatorlari qo'llaniladi (120 - rasm). Unumdorligi 250 kg/soat, barabanning aylanishlar soni minutiga 3500-4650, tarelkalar soni 57-97, elektrodvigatel quvvati 1,7 kvh.

SeParator asosga 1 mahkamlangan qoPqoqdan 2 iborat. Baraban ichida tarelkali Paket bilan 4 tarelka ushlagich 3 bor. YUqorida ajratuvchi tarelka 5 bor. Tarelkalar o'rtasidagi masofa 0,4 mm, tarelkaning maksimal va minimal radiuslari 108,5 va 30,5 mm, tarelkaning og'ish burchagi 55°.

Baraban qoPqog'i asosga halqa 6 yordamida mahkamlanadi. Qondan ajraladigan shakliy elementlar yig'gichga (sbornik) 7 kelib tushadi, zardob esa qabul qilgichga 8 yo'naltiriladi. Qonning seParatorga kelishini rostlash qalqovuch 10 bilan qalqovuch kamerasi 9 xizmat qiladi.



120-rasm. Qon uchun SK-1seParatori:

1 -asos; 2-qoPqoq; 3-tarelka ushlagich; 4-tarelka Paketi; 5- ajratuvchi tarelka; 5-biriktiruvchi xalqa; 7-yig'ich (sbornik); 8-qabul qilgich (Priemnik); 9- qalqovuchli kamera; 10 -qalqovuch; 11- stanina; 12- val; 13 – yuqorigi tayanch; 14- Pastki tayanch; 15 – vintli juftlik.

APParatning hamma detallari staninaga 11 mahkamlangan. YUqorigi va Pastki tayanchlarga 13, 14 ega vertikal valga 12 baraban mahkamlangan. Val vintli juftlik 15 va friksion markazdan qochma mufta orqali flanetsli elektrodvigatel yordamida harakatga keltiriladi. Baraban tarelkasi zanglamaydigan Po'latdan tayyorlanadi.

Kichik korxonalarda qonni seParatsiyalash uchun AS-1J i AS-2J seParatorlaridan foydalanish mumkin. Ularning unumdorligi 40-100 l/soat -ni tashkil etadi. SeParatorlar oqova suvlardan yog'ni va oqsilli aralashmalarni ushlashda, yelimli bulonlarni tindirish va tozalash uchun ham qo'llaniladi.

SeParatorni ishga tushirishda dastlab, barabanni aylanishini 3-10 min davomida tezlantirib olinadi. Bu vaqt davomida seParatsiyalanadigan mahsulot seParator barabaniga uzatilmaydi. So'ngra mahsulot uzatilishi boshlanadi va fraksiya sifatini nazorat qilish uchun davriy ravishda namunalar olinadi.

SeParatsiyalash tugagandan keyin to'xtatish tugmasi bosiladi va elektrodvigatel o'chiriladi. Agar seParator to'xtagandan keyin barabanda suyuqlik yoki cho'kma qolsa, unda ulardan tozalash kerak. Buning uchun baraban ochilib, qismlarga ajratiladi, tarelkalar yuviladilar va shu tartibda u yig'iladi. Go'sht korxonalarida seParatorlar kichik ta'mirdan o'tkaziladi. KaPital ta'mirlashda esa seParatorlar maxsus korxonalariga yo'nalitiriladi. EksPluatatsiya jarayonida ishqalanib ishlaydigan seParator detallari o'z vaqtida va to'g'ri moylash kerak. Bu maqsadda ishlatiladigan moylar tarkibida mexanik aralashmalar yoki suv

bo'lmasligi kerak. Moyni to'liq almashtirish seParator har 300-350 soat ishlagandan keyin amalga oshiriladi.

SeParator unumdorligi quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$Q = 4,8 \beta n^2 z \operatorname{tg} \alpha (R_{\text{maks}}^3 - R_{\text{min}}^3) d^2 t \text{ l/soat}, \quad (4-2)$$

Bu yerda  $\beta$  - barabanning F.I.K. (0,5-0,7);  $P$  - barabanning minutdagi aylanishlar soni;  $z$  - barabandagi tarelkalar soni;  $\alpha$  - baraban tarelkasining og'ish burchagi, *grad*;  $R_{\text{maks}}$  - baraban tarelkasining maksimal radiusi, *sm*;  $R_{\text{min}}$  - baraban tarelkasining minimal radiusi, *sm*;  $d$  - zarrachalar diametri, *sm*;  $t$  - mahsulotning harorati, °S.

SeParator elektrodvigateli quvvatini quyidagi tenglama orqali aniqlash mumkin:

$$N = \frac{\beta \cdot \varphi \cdot (R + H) R^3 n^3}{1,36 \cdot 10^{11}} \text{ kVt}, \quad (4-3)$$

bunda  $\beta$  - ishqalanishda quvvat sarfini inobatga oluvchi koeffitsient (1,1-1,5);  $\varphi$  - koeffitsient,  $\varphi=1,5-1,6$ ;  $R$  - barabanning tashqi radiusi, *sm*;  $P$  - barabanning sekunddagi aylanishlar soni;  $N$  — konus qobig'ining yarmigacha baraban balandligi, *sm*.

Qon uchun ishlatiladigan seParatorlar unumdorligi quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$Q = 0,04 \frac{100}{64} \beta \cdot r z P V n^2 \text{ l/soat}, \quad (4-4)$$

Bunda  $\beta$  - seParatorning texnologik F.I.K. ( $\beta = 0,6$ );  $r$  - qonning ajraluvchanligi ( $r = 2,2 \cdot 10^{-8} \text{ sek}$ );  $z$  - tarelkalar soni;  $V$  - hisobiy hajm, *sm<sup>3</sup>*, u quyidagi tenglama bo'yicha aniqlanadi:

$$V = \pi (R_{\text{maks}}^2 - R_{\text{min}}^2) h \text{ sm}^3, \quad (4-5)$$


$R_{\text{maks}}$  - tarelkani maksimal radiusi, *sm*;  $R_{\text{min}}$  - tarelkani minimal radiusi, *sm*;  $N$  - tarelkalar o'rtasidagi masofa, *sm*;  $P$  - barabanning minutdagi aylanishlar soni;  $R$  - barabanning to'lishi:

$$R = \varphi \frac{H}{h}; \quad (4-6).$$

$N$  - baraban balandligi, *sm*.

### **Ikki valetsli barabanli quritkich**

Bu quritkich (41-rasm) quritilayotgan mahsulot-qon, sut, bulon va boshqa suyuq mahsulotlar bilan isituvchi agent to'g'ridan-to'g'ri kontaktda bo'lmaydigan, uzluksiz ravishda ishlaydi.



41-rasm. Ikki valtsli barabanli quritkich.

1-tayanchlar; 2-quritish valtslari; 3-elektrdvigatel; 4,5-reduktorlar; 6-shesternyalar; 7-val salnigi; 8-quvur; 9-vannalar; 10-Pichoqlar; 11-shnek; 12-tsiklon; 13,14-ventilyatorlar.

Quritkich quyidagi tartibda ishlaydi. Bug' uzatiladi va aylanayotgan valets 110°S haroratgacha isitiladi, shundan keyin ventilyator ishlatiladi va sochuvchan moslamaga havoni uzatiladi. So'ngra kran ochiladi va vannalarga quvur bo'yicha qon (yoki boshqa suyuq mahsulot) uzatila boshlanadi. Bunda mahsulotning vannalarga bir tekisda kelishini, sochuvchan mexanizmni normal ishlashini, bug' va quritilayotgan mahsulotning haroratini kuzatish kerak. Agar bug' harorati Past bo'lsa, valetsning aylanishlar soni bir necha bor kamayadi. Mashinaning ishqalanuvchan qismlari yaxshilab moylanadi, baraban yuzasi bo'ylab Pichoqlar qattiq zichlashtiriladi. Valetsning yuzasi toza bo'lishi kerak.

Normal sharoitda ishlaydigan quritkich unumdorligi soatiga 120 kg bug'latilgan namlikni tashkil etadi. 1 kg bug'latilayotgan namlikka 1,25 kg bug', 120 m<sup>3</sup>/soat havo sarflanadi. Valetslarning ishchi yuzasi 4,4 m<sup>2</sup>.

### Purkovchi quritkichlar

Purkovchi quritkichlarda eritmalar 20-60 mikron o'lchamdagi tomchilarni Purkaladi va qisqa vaqt mobaynida kukunsimon quruq mahsulotga aylantiriladi. Bunda atrof-muhit haroratiga qaraganda tomchilar (zarrachalar) erta quritiladi, bu yuqori haroratga sezgir oqsilli eritmalar uchun muhimdir. Bu esa mahsulot sifatini Pasaytirmasdan quritkichda haroratni 180—200° S ga yetkazish imkonini beradi.

Ular yuqori unumdorlikka ega, quritilayotgan mahsulot bilan isitilgan havo bilan to'g'ridan-to'g'ri kontaktda ishlashi bo'yicha taqqoslaganda tejamkoridir.

Purkovchi quritkichlarni kamchiligiga o'lchamining kattaligi, yuqori bosimli bug' miqdorining kerakligi, qimmatliligini ko'rsatish mumkin.



Purkovchi quritkichlar havoni isitish moslamasidan, quritish kamerasidan, mahsulotni Purkash uchun mexanizmdan, havoni yo'qotish va uzatish moslamasidan, quritkichdan chiqariladigan havoni tozalash uchun filtrdan va quritilgan mahsulotni chiqarish mexanizmidan iborat.

Ularning konstruksiyasi va unumdorligi turlicha, birinchidan ular eritmani Purkash usuliga (mexanik forsunka, Pnevmatik forsunka va diskli Purkagichlar) bog'liq..

Mexanik forsunkalarga eritma nasosda 50-60 at bosim ostida uzatiladi va 0,5-1,5 mm diametrdagi teshiklar orqali Purkaladi. Bunda suyuqliklar aylanuvchan harakatga keltiriladi. Natijada mahsulotning bug'lanish yuzasi birmuncha ortadi. Forsunkada Purkalgan 1 l qon 5000 sm<sup>2</sup> yuzaga ega. 1 ta mexanik forsunka soatiga 4 t eritma Purkashni ta'minlashi mumkin.

Mexanik forsunkalarni kamchiligi:

- quritish jarayonida ko'Pincha ular ifloslanadi;
- chiqish teshiklari kengayadi va ularni unumdorligini rostdash mumkin emas.

Pnevmatik forsunkalarda nasos tiPiga qarab, quritilayotgan mahsulot bilan bir vaqtda forsunkaga eritma, siqilgan havo oqimi yordamida Purkaladi.

Bu forsunkalar kam ifloslanadi va yemiriladi, Purkalayotgan mahsulotning disPers darajasi yuqori.

Diskni aylanishidan (10 000 ayl/min gacha) hosil bo'ladigan markazdan qochma kuchlar yordamida Purkash zamonaviy va tejamkor usul hisoblanadi.

Maxsus elektrdvigatel yoki bug' turbinalari yordamida Purkovchi disk aylantiriladi. Zamonaviy Purkovchi quritkichlarda diskni aylanish tezligi 120-130 m/sek –ga yetadi. Diskni aylanish tezligi va diametri qancha katta bo'lsa, eritmani tomchi (Purkalayotgan zarrachalar) o'lchami shuncha kichik bo'ladi. Disk bilan qovushqoq suyuqliklarni ham Purkash mumkin. Disk kamdan-kam ifloslanadi.

Quritish kamerasiga isitilgan havoning uzatilish usuliga qarab, quritkichlar to'g'ridan-to'g'ri, qarama-qarshi va aralash bo'lishi mumkin.

Ko'Pgina hollarda quritish kameralari vertikal minora ko'rinishida konstruktiv bajariladi, unga isitilgan havo va eritma uzatiladi. Mexanik forsunkalar qo'zg'almas yoki aylanuvchan bo'lishi mumkin.

Ko'Pgina xorijiy firmalar - «Gering» (GFR), «Tag» (GFR), «Krauze» (GFR), «Svenson» (SHvetsiya), «Niro-Atomayzer» (Daniya), «ImPerial» (GFR), «Nema» (GDR) Purkovchi quritkichlarni ishlab chiqaradi.

### **Mexanik aylanadigan forsunkali «Gering» Purkovchi quritkich**

Uzluksiz ravishda ishlaydigan quritkich unumdorligi soatiga 300-500 kg gacha bug'latilgan namlikka ega (42-rasm). Bu quritkich qon, sut, yelimli eritmalar, tuxum kukuni ishlab chiqarish uchun xizmat qiladi.

Quritkich quyidagi tartibda ishlaydi. Qon bakdan 21 so'ruvchi quvur 17 bo'yicha katta bosimli nasosga 18, so'ngra 50 at bosim ostida nazorat qiluvchi manometrli resiverga 19 keladi. Resiverdan haydash quvuri bo'yicha qon forsunkali 7 aylanuvchi kolonkaga 8 uzatiladi.

Tashqi havo, markazdan qochma kuch ta'sirida ishlaydigan ventilyator 1 orqali olinadi, Plastinali kalorifer 2 orqali harakatlanadi, u yerda bug' yordamida isitiladi va havoni tashuvchi quvurga 4 kelib tushadi. Bunda kelayotgan havoning mikdori drosselli zaslonka 3 yordamida rostlanadi. Isitilgan havo minoraga uzatiladi va tarelkali ajratgich 5 yordamida minoraning 6 butun kesimi bo'yicha bir tekisda taqsimlanadi.

Qon zarralari kichik tomchilar ko'rinishida forsunka orqali Pastdan yuqoriga chiqariladi va issiq havo oqimi bilan uchrashadi, minora tagiga quruq kukun holatida qisqa muddat ichida tushadi.

Aylanuvchi cho'tka quruq kukunni Pol teshiklaridan 5 artib oladi va ular shnek ariqchasiga (jelob) 11 kelib tushadi va chiqarish teshigiga tashiladi. Qayta ishlangan havo minoradan Pastki teshik orqali chiqariladi va havoni tashuvchi quvur 10 bo'yicha matoli yeng tizimi mavjud 13 filtrga 12 yo'naltiriladi. Havo zich to'qimali yeng orqali o'tib, quritilgan mahsulot zarralari ushlab qolinadi. Yeng 13 maxsus mexanizm 14 yordamida davriy ravishda silkitiladi, mahsulot zarralari filtrga 16 tushadi, undan yana shnekda 11 olinadi. Tozalangan havo filtdan kanal 15 bo'yicha yo'qotiladi.


Minoraga kelayotgan havoning harorati 130-135<sup>0</sup> S-ni tashkil etadi. Bug'latilayotgan namlik bo'yicha quritkichni unumdorligi quyidagi tenglama bo'yicha aniqlanadi:

$$P = V \cdot A \quad \text{kg/soat}, \quad (4-7)$$

Bu yerda  $V$  — quritish minorasining ichki hajmi,  $m^3$ ;

$A$  — quritkich hajmining kuchlanishi,  $m^3/\text{soat}$  birlikdagi  
kg bug'latilayotgan namlik ( $A = 2,5 - 4 \text{ kg}/m^3 \cdot \text{soat}$ ).

1 soat ichida quritish kamerasining 1  $m^3$  hajmiga to'g'ri kelgan bug'latilayotgan namlik miqdoriga quritkichni kuchlanishi deb ataladi.



#### 42-rasm. Purkovchi quritkich:

1- ventilyator; 2- Plastinali kalorifer; 3- drosselli zaslonka; 4, 10- havoni tashuvchi yo'l; 5- tarelkasimon taqsimlagich; 6-minora; 7-forsunkalar; 8- aylanuvchan kolonka; 9-chiqarish teshigi; 11- mahsulot uchun shnek; 12,16- filtrlar; 13-engli mato; 14- silkitgich; 15- havo uchun kanal; 17-katta bosim ostida ishlaydigan nasos; 18- nasos uzatmasi; 19- resiver; 20-haydash quvuri; 21- qon uchun bak.

Quritilayotgan eritma zarrachalariga issiq havo orqali berilayotgan va namlikni bug'lanishi, zarrachalarni isitish uchun sarflanadigan issiqlik miqdori quyidagi tenglama orqali topiladi:

$$Q = P (595 + 0,47t_p - t_0) + s_2 G_2 (t_2 - t_0) \text{ kkal/soat}, \quad (4-8)$$

Bu yerda  $P$  — eritmadan bug'latilayotgan namlik miqdori,  $\text{kg/soat}$ ;

$G_2$  — quruq mahsulot bo'yicha quritkichning unumdorligi,  $\text{kg/soat}$ ;

$s_2$  — quruq mahsulotning issiqlik sig'imi,  $\text{kkal}/(\text{kg} \cdot \text{grad})$ ;

$t_p$  — quritish oxiridagi havoning harorati,  $^{\circ}\text{S}$ ;

$t_0$  — eritmaning quritishgacha bo'lgan harorati,  $^{\circ}\text{S}$ ;

$t_2$  — mahsulotning quritishdan keyingi harorati,  $^{\circ}\text{S}$ .

Forsunkaning Purkashdagi iste'mol qilinadigan quvvati quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$$N = \frac{MH}{3600 \cdot 102 \cdot \eta} \text{ kVt}, \quad (4-9)$$

Bu yerda  $M$  — boshlang'ich mahsulot bo'yicha quritkich unumdorligi,  $\text{kg/soat}$ ;

$N$  — Plunjerli nasos yordamida hosil qilingan bosim (naPor),  $m$ ;

$\eta$  — nasosning F.I.K. ( $\eta = 0,6-0,8$ ).

Diskda Purkaladigan dvigatel quvvati quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$$N = \frac{2,55 \cdot v^2 \cdot M}{1000 \cdot 2 \cdot 3600} \text{ kVt}, \quad (4-10)$$


Bu yerda  $v$  — diskni aylanish tezligi,  $m/\text{sek}$ ;

$M$  — nam mahsulot bo'yicha diskni unumdorligi,  $\text{kg/soat}$ .

#### **KVM-4,6 vakuum-gorizontal qozoni (kotel)**

Bu qozon (43-rasm) go'sht va Parranda go'shtini qayta ishlaydigan korxonalarini texnik fabrikatlar va yog' tsexlarida o'rnatilgan, universal va keng tarqalgan apparat hisoblanadi.

KVM-4,6 qozoni zamonaviy konstruksiyali, avval ishlab chiqarilgan qozonlarga solishtirganda esa mukamallashtirilgan bo'lib, go'sht korxonalarini loyihalash instituti tomonidan ishlab chiqilgan. KVM-4,6 qozoni hayvon yog'larini eritish, go'sht-suyak xomashyolarini va liver-Pashtet ishlab chiqarishda jigarni Pishirish, oziq-ovqat mahsuloti bo'lmagan chiqitlarni ishlab chiqarishda Pishirish, setrilizatsiya va suvsizlanitirish hamda ulardan texnik yog', quruq yem olishda, oziq-ovqat konsentratlari ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan.



43-rasm. KVM-4,6 vakuum-gorizontaal qozoni (kotel):

1- qozon korPusi; 2- korPus qobig'i; 3- aralash tirgich (meshalka); 4- aralash tirgich Parragi; 5- yuklash bo'yni (gorlovina); 6- bo'yin qoPqog'i; 7- bosimli bugel; 8- tayanch oyoqlar; 9- rama; 10- Patrubok; 11- tayanch PodshiPniklar; 12- elektrodvigatel; 13- tasmali uzatma; 14- reduktor; 15- mufta.

Qozonning geometrik sig'imi  $4,6 \text{ m}^3$ , isitish yuzasi  $17,2 \text{ m}^2$ . Qozon xomashyoga ishlov berishda issiqlik usullari, ularni atmosfera bosimi, vakuum yoki yuqori atmosfera bosimi ostida amalga oshirishda kombinatsiya qilish imkoniyatini beradi. Oldingi modellariga qaraganda KVM-4,6 qozoni aralash tirgichni aylanishlar sonini minutiga 50 marta oshirilishi, xomashyoni qayta ishlash tsiklini 30-35%-ga kamaytiradi; yuklash bo'yni, ramaning tayanch PodshiPniklari, aralash tirgich Parraklari konstruksiyasi yaxshilangan. Bu qozonlardagi yog' suv qo'shmasdan quruq usul bilan eritiladi. Mahsulotni sifatini yaxshilash va eritishni tezlashtirish uchun xomashyoni saralash, yuvish va maydalash tavsiya etiladi.

Qozon korPusi 1 qalinligi 18 mm bo'lgan listli Po'latdan choklangan, tashqaridan 12 mm li Po'lat listli qobiq 2 o'rnatilgan. Bug'ni kiritish va kondensatni chiqarish uchun qobiqda o'tutser, yana o'lchov-nazorat asboblari o'rnatish uchun o'tutser mavjud.

Mustahkamlangan ramada 9 qozon uchun oyoq 8 va uzatma mexanizmi o'rnatilgan. Qozon korPusining yuqori qismida, uning o'rtasida qoPqog 6 diametri 410 mm bo'lgan yuklash bo'yni 5 va bosimli bugel 7 choklangan. Oldingi qismda esa to'g'ri burchakli Patrubka 10 kesilgan. Yuklash bo'yining 5 balandligi shunday qilinganki, u keyingi qavatni yoPish orqali chiqishi kerak.

Qozonning ichida bir-biriga  $120^\circ$  burchak ostida, vintli chizig'i bo'yicha joylashgan Parragi 4 bo'lgan aralash tirgich 3 mavjud. Parrakning oxirida qozon devoridan 4-5 mm masofada maxsus shakldagi qisqichlar o'rnatilgan. Aralash tirgichning soat strelkasi bo'yicha aylanishida xomashyoning jadal aralashishi, teskari tomonga aylanishida esa skosni og'ishi tufayli qozondagi Parrak oxiridan xomashyoni chiqarish sodir bo'ladi.

Olti qirrali shaklga ega aralastirgich vali Parraklarni boltlarda mahkamlash uchun qulay bo'lib, qozondan valni yemirilmasdan tez almashtirish imkonini beradi. Zichlashtiriladigan salnikli ikkita tayanch PodshiPnikda 11 val aylanadi.

Aralastirgichni val harakati 23,34 uzatish soniga ega tsilindrik ikki Pog'onali reduktor 14 va aylanish soni minutiga 1470 ga teng bo'lgan tasmali uzatma 13 orqali quvvati 40 kvvati elektrodvigateldan 12 amalga oshadi.

Reduktor, val bilan mufta 15 yordamida birlashtirilgan.

Qozonda vakuum alohida o'rnatilgan VVN-3 (elektrodvigatel quvvati 7 kvv) nasos va barometrik kondensator yordamida hosil qilinadi. Vakuum tizimi quvurlar bilan qozonga ulangan.

Qozonda yog'ni eritish odatda 3 fazada olib boriladi:

700 mm.rt.st. gach vakuum ostida xomashyoni dastlabki suvsizlantirish;

Qozonda xomashyodan namlikni bug'latish natijasida hosil qilinadigan bosim ostida Pishirish;

650 mm.rt.st. vakuum ostida quritish yoki oxirgi suvsizlantirish.

Agar xomashyodagi namlik 25-30% dan oshmasa, issiqlik bilan ishlov berishni ikki fazada, dastlabki suvsizlantirishsiz, olib borish mumkin.

YOg'ni eritish jarayonining tugatgandan keyin qozonda qolganlari o'tutser orqali quyiladi, so'ngra lyuk ochiladi va jizza chiqariladi.

YOg'ni eritish jarayonining davomiyligi odatda chuqur vakuum ostida 3-4 soatni tashkil etadi. CHO'chqa va mol go'shti yog'larini eritishda 1 kg yog' xomashyosiga mos ravishda o'rtacha 0,3 va 0,65 kg bug' sarf qilinadi.

Vakuum-gorizontaal qozonning issiqlik hisobi quyidagi ifodalar asosida aniqlanadi:

1. Qozonning devorini, bo'ynini, tagini (dnio'a) va boshqa metalli qismlarini isitishdagi issiqlik sarfi -Q:

$$Q_1 = sG (t_2 - t_1) \text{ kdj}, \quad (4-11)$$

Bu yerda  $s$  – qozon metall qismining issiqlik sig'imi,  $s = 0,48 \text{ kdj/kg}$ ;

$G$  - qozon metall qismining massasi,  $kg$ ;

$t_2$  – qozon devorining oxirgi harorati,  $^{\circ}S$ ;

$t_1$  — qozon devori va boshqa qismining boshlang'ich harorati,  $^{\circ}S$ .

Qozon izolyatsiyasini isitish uchun issiqlik sarfi hisobi shu tartibda amalga oshiriladi.

2. Xomashyoni va yog'ni erish haroratigacha ketgan issiqlik sarfi-  $Q_2$ . Qozonga  $G$  og'irlikda mahsulot solinganda, jaryon tugaganda yoPiq qozonda jizzalar  $G_1$  va yog'  $G_2$  olinadi va mahsulotdan bug'latilgan namlik  $G_3$  yoki

$$G = G_1 + G_2 + G_3 \text{ kg}. \quad (4-12)$$

SHunda

$$Q_2 = c_1 G_1 (t_k - t_0) + G_2 [c_2 (t_n - t_0) + r_j + c_2'' (t_k - t_n)] \text{ kdj} - \text{ga teng bo'ladi.}$$

bunda  $s_1$  – jizzani issiqlik sig'imi (odatda 20—22  $kdj/kg$ );  $t_K$  -shkvarlar va yog'ning oxirgi harorati,  $^{\circ}S$ ;  $t_0$  - shkvarlar va yog'ning boshlang'ich harorati,  $^{\circ}S$ ;  $s_2$ '-erishgacha bo'lgan yog'ning issiqlik sig'imi (1,7  $kdj/kg$ );  $s_2''$  -

erishdan keyingi yog'ning issiqlik sig'imi ( $2,1 \text{ kDj/kg}$ );  $r_j$  - yog'ning erishdagi yashirin issiqligi ( $165 \text{ kDj/kg}$ );  $t_p$  - yog'ning erish harorati,  $^{\circ}\text{S}$ .

3. Mahsulotdan namlikni bug'latish uchun sarflangan issiqlikni sarfi  $Q_3$ :

$$Q_3 = G_3(t_{sr} - t_0 + g_v) \text{ kDj}, \quad (4-13)$$

Bu yerda  $G_3$  - bug'latilgan suv massasi,  $\text{kg}$ ;  $t_{sr}$  - bug'latilgan suvning o'rtacha harorati,  $^{\circ}\text{S}$ ;  $t_0$  - mahsulotdagi suvning boshlang'ich harorati,  $^{\circ}\text{S}$ ;  $g_v$  -  $t_{sr}$  da suvning bug'lanishdagi yashirin issiqligi.

1. Atrof-muhitga yo'qotiladigan issiqlik sarfi  $Q_4$ .

$$Q_4 = kF\tau(t_p - t_v) \text{ kdj} \quad (4-14)$$

Bu yerda  $k$  - issiqlikni uzatishning umumiy koeffitsienti,  $\text{kDj}/(\text{m}^2 \cdot \text{soat} \cdot \text{grad})$ ;  $F$  - issiqlik uzatish yuzasi,  $\text{m}^2$ ;  $\tau$  - issiqlik uzatishning davomiyligi, soat;  $t_p$  - qozon qobig'idagi bug'ning harorati,  $^{\circ}\text{S}$ ;  $t_v$  - tsex atrofidagi havoning harorati,  $^{\circ}\text{S}$ .

5. Issiqlik sarfining umumiy yig'indisi

$$\sum Q = Q_1 + Q_2 + Q_3 + Q_4 \text{ kDj}. \quad (4-15)$$

Nazorat savollari:

1. Quritish usuliga bog'liq holda, qanday tiPda va konstruktsiyasidagi quritkichlar mavjud?
2. SeParatorlarning vazifasi, tuzilishi va ishlash Printsipi.
3. SeParatorlar texnologik belgisiga ko'ra, necha guruhga bo'linadi?
3. SeParator unumdorligi qaysi tenglama orqali aniqlanadi?
4. Ikki valetsli barabanli quritkichni vazifasi, tuzilishi va ishlash Printsipi.
5. Purkovchi quritkichning vazifasi, tuzilishi va ishlash Printsipi.
6. Diskda Purkaladigan dvigatel quvvati qaysi ifoda bo'yicha aniqlanadi?
7. KVM-4,6 vakuum-gorizontal qozonining (kotel) vazifasi, tuzilishi va ishlash Printsipi.
8. Vakuum-gorizontal qozonning issiqlik hisobi nechta ifoda asosida aniqlanadi?

## 5-ma'ruza. GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI MEXANIK MAYDALASH UCHUN JIHOZLAR

Turli xildagi go'sht mahsulotlari (kolbasa mahsulotlari, go'sht konservalari, kotletlar, chuchvaralar, qadoqlangan go'sht, go'sht yarim tayyor mahsulotlari va boshqalar) ishlab chiqarishda va suyak yelimi, jelatina, eritilgan yog', quruq oqsilga boy yemlar, albumin va boshqa go'sht mahsulotlari, submahsulotlari, yog'li xomashyo, texnik chiqindilar har xil mashinalar yordamida maydalanadi.

Maydalash mahsulot (qadoqlangan go'sht, yarim tayyor mahsulotlar, sho'rva masalliqlari (supovoy nabor) ishlab chiqarishda) o'lchamlarini kichraytirish, qattiq mahsulotga o'zgacha konsistentsiya berish (go'sht qiymasi, go'sht-suyak uni ishlab chiqarishda) yoki texnologik jarayonlarni (yog'ni eritish, yelim ishlab chiqarish va boshqalar) tezlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Go'sht va go'sht mahsulotlarini mexanik maydalash mahsulotlarni arralash, kesish, yumshatish, ezish, maydalash yo'li bilan amalga oshiriladi. SHunga asosan maydalash mashinasining ishchi organlari bolg'achalar, tish, Pichoqlar, disklar va boshqa ko'rinishda bajariladi.

Maydalanishgacha mahsulot egallagan yuzaga ( $F$ ) maydalashdan keyingi yuzaga mahsulot birlik ( $1 \text{ kg}$ ,  $1 \text{ t}$ ) yuzani ( $F_1$ ) nisbati maydalanish darajasi deb ataladi.

$$K = \frac{F_1}{F}, \quad (5-1)$$

Bu yerda  $K$ —maydalanish darajasi;

$F$  —maydalanishgacha bo'lgan mahsulot yuzasi,  $m^2$ ;

$F_1$  — maydalashdan keyingi mahsulot yuzasi,  $m^2$ .

Agar shartli ravishda mahsulot kubli to'g'ri shakldan iborat deb tasavvur qilsak, uning maydalanish darajasi  $K$  –ga teng, shunda maydalanish yuzasi

$$F = 0,5F(K-1) m^2 \quad \text{–ga teng.} \quad (5-2)$$

Bu yerda  $F$  — maydalanishgacha bo'lgan mahsulot birlik yuzasi,  $m^2$ ;

$K$  — maydalanish darajasi.

U yoki bu mahsulotni maydalashda sarflanadigan ish, mahsulot turiga va maydalanish darajasiga bog'liq. U quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$R = AF \quad n \text{ m}, \quad (5-3)$$

Bu yerda  $A$  — maydalanishgacha bo'lgan solishtirma energiya sarfi,  $n$ ;

$F$ —maydalanish yuzasi,  $m^2$ .

Go'sht va go'sht mahsulotlarini mexanik maydalash uchun mashina dvigatelining quvvati quyidagi ifoda bo'yicha topiladi:

$$N = N_m + \frac{R_u}{1000} \quad \text{kVt}, \quad (5-4)$$


Bu yerda  $N_t$  — mashina detalarining ishqalanishi oldini olish uchun sarflanadigan quvvat,  $kvt$ ;

$R_i$  — mahsulotni maydalash uchun sarflanadigan quvvat.

Quyida go'sht korxonalarida go'sht va go'sht mahsulotlarini mexanik maydalash uchun ko'p qo'llaniladigan mashinalar keltirilgan.

**Maydalagichlar va maydalab-kesish mashinalari.** Texnik chiqtlarni, quruq va nam suyaklarni va jizzalarni katta o'lchamda maydalash uchun valtsli yoki bolg'achali maydalagichlar va maydalab-kesish mashinalari ishlatiladi.

**Valetsli maydalagichlar.** Valetsli maydalagichlarda (44-rasm) maydalovchi organ sifatida aylanuvchan Po'lat qadagichlar, Pichoqlar va qo'zg'almas qirg'ichlar ishlatiladi.



78-rasm. Valetsli maydalagichlar:

a- DK-10 bir valetsli:

1-stanina; 2-quti-kojux; 3-shiPlar-Pichoqlar; 4-qo'zg'almas qirg'ich; 5- elektrodvigatel;

b — DK-0,5 ikki valtsli:



1-stanina; 2-yuklash bo'yni; 3-elektrodvigatel; 4-tasmali uzatma; 5-shesternya; 6-uzatuvchi val; 7,8,9- shesternyalar; 10-ishchi val (Pastki); 11, 13-joylashtiruvchi shiPlar; 12- ishchi val (yuqorigi); 14,15-qirg'ichlar; 16,17-boltlar; 18-shiber; 19-qarshi yuk (Protivoves).

Suyak uchun DK-10 bir valtsli maydalagich (44-rasm, a) ishlatiladi. Bu mashina choklangan konstruksiyali staninadan 1, unga o'rnatilgan massivli Po'lat quti-qobiqni (kojux) 2 ichidan o'tadigan aylanuvchan Po'lat qadagichli (shiP) 3 Pichoqli val va qo'zg'almas qilib mahkamlangan qirg'ichdan 4 iborat. Val aylanishlar soni minutiga 1000 -ga teng va 75 kvv vatga ega elektrodvigateldan harakatga keltiriladi. Suyak yuqoridan 1030x650 mm o'lchamga teng bo'yin orqali yuklanib, aylanuvchan val Pichoqlari va qirg'ichlari orasiga kelib tushadi, natijada kerakli o'lchamgacha (30 mm) maydalanadi.

Maydalagichning unumdorligi 10 t/soat, Pichoqli rotorning diametri 800 mm, rotorning ishchi uzunligi 918 mm. Maydalagichning ishlash vaqtida hosil bo'ladigan tebranishini yumshatish uchun staninaga Prujinalar o'rnatiladi.

**Bolg'achali maydalagichlar.** Valetsli maydalagichlardan farqli bo'lgan bolg'achali maydalagichlarda, ishchi organi sifatida aylanuvchi val yoki sharnirli diskka mahkamlangan Po'lat bolg'achalar xizmat qiladi. Bunday rotorning aylanishida markazdan qochma kuch ta'sirida bolg'achalar rotorga PerPendikulyar ravishda joy egallaydi va rotorning butun uzunligi joylashgan vintli liniya bo'yicha joylashgan, staninaga mahkamlangan qirg'ich va bolg'achalar orasidagi bo'shliqqa suyak yoki boshqa mahsulot kelib tushib maydalanadi.


Maydalangan mahsulot (suyak, jizza) tushadi va mahsulotning talab etilgan maydalanish darajasigacha tegishli o'lchamda teshikli to'r orqali elaklanadi.

**DM-300-4 bolg'achali maydalagich.** Bu maydalagich (45-rasm) go'sht korxonalarida suyak va jizzalarni maydalash uchun ko'P qo'llaniladi. U bolt 4 bilan yoPiladigan yon eshikli 3 yuklash bo'yniga 2 ega staninadan 1 iborat. Staninaning ichida ikki PodshiPnikka 5 o'ng tomoni oxiriga kiydirilgan shkiqli 7 val o'rnatilgan. Valga 6 Po'lat disklar 5 mahkamlangan, ularga boltlar 10 bilan Po'lat bolg'achalar 9 sharnirli biriktirilgan.

Maydalagich tasmali uzatma orqali alohida turgan dvigateldan harakatga keltiriladi. Suyak (yoki boshqa maydalanadigan mahsulot) bo'yin 2 orqali yuqoridan yuklanadi. Bunda suyakni kelib tushishi zaslonkada 14 rostlanadi. YUklangan suyak aylanuvchi bolg'achalar bilan tezlikda ushlab olinadi va Pastdan Prujina 12 bilan ushlab turiladigan va yuqorigi qismga sharnirli ravishda mahkamalangan, qirrali (rifli) yuzaga ega Po'lat qaytargichga 11 kelib tushadi va kerakli o'lchamdagi bo'laklarga maydalanadi. KorPusning quyi qismiga maydalangan mahsulotni elash uchun to'r 13 o'rnatilgan.

Maydalagichning unumdorligi soatiga 300 kg, rotorning ichki diametri (bolg'achalar aylanasi bo'yicha) 300 mm. Keltirilgan konstruksiyadagi maydalagich yana suyakdan sovuq usulda yog'ni ajartish uchun imPuls aPParat sifatida qo'llash mumkin. Bu usul valtsli maydalagichda dastlabki maydalangan suyak DM-300-4 maydalagichga suv yetti karrali miqdorda solinishidan iborat. Bolg'achalarning suv bo'yicha urilishi gidravlik imPulsli urilishilarni keltirib

chiqaradi, ularning ta'sirida suyak sinadi, to'qimalaridan yog' ajraladi va maydalagichdan suv bilan birgalikda chiqariladi.



45-rasm. DM-300-4 bolg'achali maydalagich:

1- stanina; 2- yuklash bo'yni; 3-yon eshiklar; 4-uloqtiruvchi boltlar, 5-val PodshiPniklari; 6- val; 7-uzatmali shkiv; 8-disklar; 9-bolg'achalar; 10-boltlar; 11-qaytargich; 12-Prujina; 13-mahsulotni elash uchun to'r; 14- rostlovchi zaslonka; 15- qarshi yuk.

Impulsi apparat sifatida DM-300-4 maydalagichni ishlashi uchun rotorda uzunligi 65 mm, eni 45 mm va qalinligi 10-12 mm bo'lgan 36 ta bolg'achalar o'rnatiladi. Disk bilan val 2800—3000  $ayl/min$  tezlikda aylanadi, iste'mol qiladigan quvvati 5 kv. Suyak uchun to'r uzunligi 130 mm va eni 5-25 mm bo'lgan to'g'ri burchakli teshiklardan iborat.

**RDB-3000 bolg'achali maydalagich** (don maydalagich). Ba'zi go'sht korxonalarida qo'llaniladigan bunday maydalagichlar unumdorligi 1 t/soat. Rotorning minutiga aylanishlar soni 2100, bolg'achalar soni 55, bolg'achalar uzunligi 140 mm, eni 60 mm, qalinligi 20 mm, bolg'achalarning aylanma diametri 500 mm -ga teng.

Maydalagichning yuqorigi qismida suyak uchun iste'molchi va metall aralashmalarini ajratish uchun magnitli separator bo'lishidan tashqari, yuqorida ta'kidlab o'tilgan maydalagichlar konstruktsiyasiga mos.


Bolg'achali maydalagichlar unumdorligi rotorning uzunligi va uning aylanishlar soniga, bolg'achali rotor diametriga, hamda mahsulotning maydalanish darajasiga bog'liq.

Po'lat bolg'achalar yuzasining yemirilishidan maydalagichning unumdorligi kamayadi, shuning uchun bolg'achalarni almashtirish talab etiladi.

## Maydalash-keshish mashinalari.

Go'sht korxonalarida qo'llaniladigan maydalash-kesish mashinalariga kuch bilan ishlaydigan maydalagichlar va ishchi organi maxsus shakldagi Pichoqlar ko'rinishidagi maydalagichlar taalluqlidir.

**Kuch bilan ishlaydigan SI-20 maydalagichi.** Bu mashina (46-rasm) quruq oqsilga boy yem ishlab chiqarishga va texnik yog'ni eritishga keladigan texnik chiqindilar yoki suyaklar va konfiskatlar, go'sht tanasining suyak qismini dag'al maydalash uchun mo'ljallangan.



46-rasm. Kuch bilan ishlaydigan SI-20 maydalagichi:

1-stanina; 2-yuklash bo'yni; 3-Pichoqli val; 4-shnekli Pichoqlar; 5-qo'zg'almas Pichoqlar; 6- elektrodvigatel; 7-tasmali uzatma; 8-reduktor; 9-ramastanina; 10-chiqarish teshigi.

Mashina maksimal 600x750 mm o'lchamli xomashyo bo'lakchalarini yuklanadigan yuklash bo'yniga 2 ega va shvellerdan 9 iborat ramaga o'rnatilgan massivli Po'lat staninadan 1 iborat.

Korpusning ichida rotor-valga 3 mahkamlangan shahobchali shnek-Pichoqlar 4 joylashgan. Pichoqli val 3, 39 ayl/min ega reduktor 8 va tasmali uzatma 7 orqali 30 kvvattli elektrodvigateldan 6 harakatga keltiriladi. Elektrodvigatel tasmalarni kerakli taranglashishini ta'minlash uchun surilib, taranglatuvchiga (salazkaga) o'rnatiladi.

SHneklar 4 shahobchalari orasida qo'zg'almas Po'lat Pichoqlar 5 mahkamlangan. Xomashyo aylanayotgan shneklar va qo'zg'almas Pichoqlar orasiga tushayotib, 50x50 mm o'lchamgacha maydalanadi va tushirish teshigiga 10 shneklar yordamida korpus bo'ylab bir vaqtda siljiydi.

Kuch bilan ishlaydigan SI-20 maydalagichi unumdorligi soatiga 8-9 tonnani tashki etadi.

Kuch bilan ishlaydigan maydalagich quvvati quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$N = \frac{AQ}{1000} \text{ kVt} \quad (5-5)$$

Bu yerda A — amaliy yo'l bilan topiladigan, go'sht tanasining suyak qismini

maydalashdagi solishtirma energiya sarfi  $A = 3,2-3,5 \text{ kvt} \cdot \text{soat}/t$ ,  
suyakni maydalash uchun  $A = 3,6-3,9 \text{ kvt} \cdot \text{soat}/t$ ;  
 $Q$  — maydalagich unumdorligi,  $kg/\text{soat}$ .

**Misol.** Agar maydalagich unumdorligi soatiga 9 tonnani tashkil etsa, SI-20 maydalagich elektrdvigatelining quvvatini aniqlang.

(5-5) ifoda bo'yicha dvigatel quvvati quyidagicha to'piladi:

$$N = \frac{3,2 \cdot 9000}{1000} = 28,8 \text{ kVt}$$

Nazorat savollari:

1. Maydalanish darajasi deb nimaga aytiladi?
2. Valetsli maydalagichlarni vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
3. Bolg'achali maydalagichlarni asosiy ishchi organi nima?
4. DM-300-4 bolg'achali maydalagichni vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
5. RDB-3000 bolg'achali maydalagichni vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
6. Kuch bilan ishlaydigan SI-20 maydalagichini vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
7. Kuch bilan ishlaydigan maydalagich quvvati qaysi ifoda bilan aniqlanadi?

**6-MA'RUZA. GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI TEZ  
SOVUTISH VA MUZLATISH UCHUN JIHOZLAR**

Sovutish – bu issiqlik jarayonidir. Bunda mahsulotga nisbatan harorati Past bo'lgan sovuqni tashuvchi agent, ajratuvchi devor orqali yoki to'g'ridan-to'g'riga mahsulot o'zining issiqligini atrof-muhitga beradi.

Sovutish jarayoni oddiy issiqlik jarayoni bo'lib, issiqlik o'tkazuvchanlik, konvektsiya va nur o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Mahsulotdan atrof-muhitga berilayotgan issiqlik miqdori issiqlik berish yo'li bilan yo'qotiladigan issiqlikka  $Q_1$  va mahsulotdan namlikni bug'latish uchun sarflanadigan issiqliklarga  $Q_2$  teng.

Demak,

$$Q=Q_1+Q_2 \quad (6-1)$$

Bu tashkil etuvchilarning sonli qiymati quyidagi berilgan tenglama bilan tavsiflanadi:

$$Q_1 = \frac{F}{G} \alpha T (t_1 - t_2) \text{ kdj/kg, (6-2)}$$

Bu yerda  $F$  — mahsulot yuzasi,  $m^2$ ;  $G$  - mahsulot massasi,  $kg$ ;  $\alpha$  - atrof-muhitga berilayotgan issiqlik uzatish koeffitsienti,  $kJ/(m^2 \cdot soat \cdot grad)$ ;  $T$  - issiqlik almashinishning davomiyligi, soat;  $t_1$  - sovutilayotgan mahsulot yuzasidagi harorat,  $^{\circ}S$ ;  $t_2$  - sovutayotgan muhitning harorati,  $^{\circ}S$ .

Mahsulotdan bug'latilayotgan namlikka sarflanayotgan issiqlik miqdori  $Q_2$ , formula bo'yicha topiladi.

$$Q_2 = \sigma \frac{F}{G} (i_1 - i_2) \text{ , (6-3)}$$

Bu yerda  $\sigma$  — bug'lanish koeffitsienti,  $kg/(m^2 \cdot soat \cdot grad)$ ;  $i_1$  - to'yinish holatidagi havoning issiqlik ushlashiga teng bo'lgan o'rtacha haroratdagi mahsulot yuzasidagi issiqlik ushlashi,  $kJ/kg$ ;  $i_2$  - nisbiy namlikni hisobga oluvchi sovutilayotgan havoning issiqlik ushlashi,  $kJ/kg$ .

Sovutishning jadal borishi mahsulotning fizik xossalariga, material yuzasining o'lchamlariga, issiqlik uzatish koeffitsienti va usuliga, material va atrof-muhitdagi harorat farqiga bog'liq.

Sovutilayotgan muhit bo'lib, sovuq havo, rassol, muz, gaz xizmat qilishi mumkin. Mahsulot bilan atrof-muhit o'rtasidagi issiqlik almashinishi ko'pgina sabablarga bog'liq.

Hisoblash uchun quyidagi issiqlik berish koeffitsienti  $\alpha$  qiymatlarini qabul qilish mumkin.

Muhit	$\alpha$ , $kJ/(m^2 \cdot soat \cdot grad)$
Tinch turgan havo	14—40
Harakatdagi havo (bu yerda $v$ havoning harakat tezligi, m/sek)	$8,4-42 \sqrt{v}$
Tinch turgan suyuqlik	1250—2090
Harakatdagi suyuqlik	8370—16700

Mahsulotni suyuq muhitda sovutishda jarayon bir necha marta tezlashadi, biroq bunda mahsulotni namligini rostlash imkoniyati bo'lmaydi.

Mahsulotni havoda sovutishda mahsulotni qayta ishlashga tegishlilikini ta'minlaydi, oxirida namlanishi, quritilishi kerakli haroratgacha yetkaziladi.

Sovutish jarayonining davomiyligi ham katta ahamiyatga ega. Issiqlikni tezda tushirish va havoning tegishli namligi go'sht tanasining yuzasini sifatli termik ishlov berishni ta'minlash imkoniyatini yaratiladi.

SHoxli yirik mol go'shti, cho'chqa, ham qo'y tanalari, submahsulotlar va qush tanasi sovutiladi.

Go'sht va go'sht mahsulotlarini muzlatishda aniq chegaraviy haroratgacha sovutilganda mahsulot namligi kristall moddaga aylanadi.

Haroratni Pasaytirish bilan go'shtdagi namlik muzlatiladi, jumladan har bir haroratning qiymati aniq muzlatilayotgan suv miqdoriga mos keladi.

Plank hisobi bo'yicha  $62-65^{\circ}$  S haroratda go'sht to'qimalaridagi hamma suv muzlaydi, biroq muzlatish jarayoni nafaqat namlikni muzlatishdan iborat emas, go'shtdagi boshqa fizik va kimyoviy o'zgarishlariga ham bog'liq.

Muzlatilgan namlikning miqdorini oshirish darajasi bo'yicha mahsulotning issiqlik o'tkazuvchanligi oshadi va muzlatish hamda sovutish jarayonlari mahsulot va atrof – muhit harorati farqlari kamaygunicha tezlashadi.

Muzlatish tezligi mahsulotning shakli va o'lchamiga, go'sht qatlamining kattaligiga, issiqlik o'tkazuvchanligiga, harorat farqiga bog'liq. Muzlatish bir va ikki fazali bo'lishi mumkin.

Ikki fazali muzlatish – oldin sovutish kamerasida mahsulot  $4^{\circ}$  S haroratgacha sovutiladi, keyin esa muzlatish kamerasiga joylashtiriladi va  $-8^{\circ}$ S gacha muzlatiladi. Bunda havoning harorati muzlatkichda  $-18$  do  $-25^{\circ}$  S bo'ladi.

Bir fazali muzlatish – bu jarayonda go'sht oyog'i va submahsulotlari dastlabki sovutishga uchragan holda muzlatkichga yuboriladi.

Go'sht va go'sht mahsulotlarini sovutish va muzlatishda muhit mahsulotga teskari ta'sir qilmasligi kerak, mahsulotdagi issiqlik iloji boricha tez va har tomondan bir tekisda, mahsulot sifatiga, jarayon tezligi ta'sir qilmasligi, sovutish apparatlari eksPluatatsiya uchun oddiy va qulay bo'lishi kerak.

Muzlatish havoda, rassolda yoki sovuq tashuvchi agentlar (ammiak, freon, rassol), metall Plitkada tsirkulyatsiya yordamida ham amalga oshirilishi mumkin. Eng ko'P tarqalgani esa tunnellarda, kameralarda, shkaflarda havoni majburiy tsirkulyatsiyalashni qo'llash hisoblanadi.

Sun'iy sovuq olish uchun unumdorligi har xil sovutish qurilmali armaturalar va kommunikatsiyalar bilan hosil bo'ladigan turli xildagi sovutish qurilmalari – komPressorlar, kondensatorlar, bug'latkichlar, havo sovutkichlar, konditsionerlar va boshqa apparatlar qo'llaniladi.

Sovutish qurilmalarini moslamalari, ularning ishalsh PrintsipLari va eksPluatatsiyasi maxsus kursda o'rganiladi va beriladi. Bu bo'limda faqat go'sht sanoati korxonalarida qo'llaniladigan, go'sht va go'sht mahsulotlariga sovuq texnologik ishlov berish uchun ba'zi mashina va apparatlar ko'rib chiqiladi.


## Tangasimon muz (cheshuychatqy led) tayyorlash uchun AIL-200 aPParati.

Bu aPParat (47-rasm) bug'lanayotgan ammiak bilan ichidan sovutiladigan aylanma barabanda uzluksiz ravishda suvni muzlatish yo'li bilan qor yoki tangasimon ko'rinishidagi muzni tayyorlash uchun xizmat qiladi.

Tayyorlanayotgan muz kolbasa mahsulotlari ishlab chiqarishda, qiymani kutterlashda sovutish uchun qo'llaniladi, shuning uchun aPParat go'sht korxonalarining kolbasa tsexlarida o'rnatiladi.

APParatning asosiy ishchi organi ikki PodshiPnikda 3 aylanuvchi valga 2 mahkamlangan 700 mm diametrga va uzunligi 800 mm –ga ega baraban 1 hisoblanadi, tashqarisi tekislangan.

Baraban tsilindrik shesternyalar juftligi va 950 ayl/min ga ega chervyakli reduktor 5 orqali quvvati 2,8 kvT bo'lgan elektrodvigateldan 4 harakatga keltiriladi.



47-rasm. Tangasimon muz (cheshuychatqy led) tayyorlash uchun AIL-200 aPParati:

1- baraban; 2- baraban vali; 3-val PodshiPnigi; 4-elektrodvigatel; 5- chervyakli reduktor; 6-suv uchun vanna; 7-ammiak bug'leri uchun quvur; 8-ammiak quvuri; 9-Plastinali Pichoq; 10- o'rnatuvchi bolt; 11-issiq suv uchun quvur; 12- tog'ora.

Baraban 8,5 ayl/min –ga ega. Sovituvchi qurilmasidan suyuq ammiak quvur 8 orqali baraban ichiga kelib tushadi. Baraban ichida - 23° S haroratda ammiak bug'lanadi va baraban yuzasini sovutadi. Vanna baraban tagida joylashgan bo'lib, unga 10° S haroratda suv kelib tushadi. Barabanning uzluksiz aylanishidan suv devorni ho'llaydi va bu suv tezda muzlaydi. Barabanning boshqa tomonida, mahkamlanadigan boltlar 10 yordamida yuzasiga zichlashtirilgan Plastinali Pichoq 9 o'rnatilgan va tangalik muzni (qor) qiradi (suPuradi), qaysiki tog'oraga 12 kelib tushadi.


Bug'latilgan ammiak barabandan quvur 7 bo'yicha so'rib olinadi. APParatdagi muzni eritish uchun, uni yuvishda va tozalashda ammiak berilayotgan quvurga 8 bosimli ventilga ega issiq suv quvuri 11 ulangan. Barabandan olinayotgan muzning harorati -5 dan -8° S -gacha.

APParat unumdorligi ammiakni bug'latish haroratiga bog'liq. Kelayotgan suv  $10^{\circ}$  S va ammiakni bug'lanishi  $-33^{\circ}$  S haroratda aPParat unumdorligi 330 kg/soatga;  $-23^{\circ}$  S haroratda esa 225 kg/soat-ga yetadi. APParatdagi o'rtacha sovuq sarfi 40 000 kkal/soatni tashkil etadi.

Go'sht sanoati korxonalarida ko'P miqdorda go'shtni, submahsulotlarni, go'sht to'Plamlarini va bo'laklarini muzlatish uchun turli xildagi tez muzlatuvchan aPParatlar qo'llaniladi.

**Tez muzlatuvchan konveyerli GKA-2 aPParati** (48-rasm) va **MA-10 rotorli blok-muzlatgichli agregat** (49-rasm). Bu aPParat sovuq havo oqimida go'sht mahsulotlarini uzluksiz ravishda muzlatish uchun mo'ljallangan. U izolyatsiya qilingan muzlatish kamerasidan 2 iborat. Kameraning yuqori qismida muzlatilayotgan mahsulotlar uchun tagliklar o'rnatilgan karetkali 7 tokchalar qatoridan 14 iborat bo'lgan mahsulotni muzlatilishi amalga oshiriladigan yuklash tuynugi joylashgan.


Uning tagida umumiy sovutish yuzasi  $1025 m^2$  ga teng sovutish batareyalari o'rnatilgan. APParatda havoni tsirkulyatsiya qilish uchun 970 ayl/min –ga ega va 10 kvvattli elektrodvigateldan 1 harakatga keltiriladigan,  $7,7 m^3/sek$  unumdorlikka ega ventilyator 3 o'rnatilgan. APParatdagi havoning harorati  $-35^{\circ}$  S-ni, mahsulot tePasidagi havoning harakat tezligi  $7 m/sek$  –ni tashkil etadi.



48-rasm. Tez muzlatuvchan GKA-2 aPParati:

1- elektrodvigatel; 2- muzlatish kamerasi; 3- ventilyator; 4 –sovituvchi batareyalar; 5-qirg'ichlar; 6- tokchalar; 7 -aravachalar; 8-yuklash oynasi; 9- ko'taruvchi vint; 10- chiqarish oynasi.





49-rasm. MA-10 rotorli blok-muzlatgichli agregat:

1-rotor; 2-xraPli mexanizm; 3- egiluvchan shlang; 4, 6, 9-gidrotsilindrlar; 5-yuklash moslamasi; 7- val; 8-qog'ozni uzatish mexanizmi; 10- mushtli val; 11 — itargich (tolkatel).

Mahsulotlar mavjud bo'lgan tagliklar kameraning o'ng tomonining yuqorigi burchagida joylashgan oyna 8 orqali yuklanadi, ko'taruvchi vintlar yordamida tagliklar kameraga kelib tushadi. YUqori holatdagi taglikli aravacha majburan aPParatga kiritiladi. Aravachalarning keyingi joylashishi tishli maxsus qirg'ichlar 5 yordamida avtomatik ravishda zigzag ko'rinishdagi yo'nalish bo'icha yuqoridan Pastga tushadi.

Qirg'ichlar 5 yuklash tuynugini yon tomonida joylashgan va maxsus mexanizm yordamida gorizont va vertikal yo'nalishda harakatga keladi, bunga asosan taglikli aravachalar har bir ketma-ket qatorga vertikal Pastga tushadi va gorizont bo'icha suriladi. Qirg'ichlar 5 sinxron harakatlanadi. Bu vaqtda chaP qirg'ich keyingi aravachani qabul qiladi, u bilan chetga chiqadi, bir qator Pastga tushiradi va karetkani keyingi qatorga suradi, o'ng qirg'ich o'z o'rnida turadi va o'zining tishlari bilan aravachani qabul qiladi. So'ngra harakat teskari tartibda takrorlanadi. Eng Pastki qatorda aravacha oyna 10 orqali chiqariladi va ish shunday tartibda uzluksiz sodir bo'ladi.

APParatning unumdorligi ammiakning qaynash harorati —40° Sda sutkasiga 20 t (50—70 mm bo'lakchalarda) go'sht yoki baliqni tashkil etadi.

Bir vaqtda aPParatga umumiy yuzasi 86 m<sup>2</sup> ega 216 ta taglik joylashadi. APParatning o'lchamlari 2400 x 7300 x 3100 mm.

## ARRALASH DASTGOHLARI ARRALAR

Mahsulotni maydalashni yana suyakni yoki go'sht to'qimalarini arralar yordamida arralash yo'li bilan amalga oshirish mumkin.

Go'sht sanoatida tasmali, tsirkul yoki diskli arralarni qo'llaniladi. Arralash arraning yuzasi qalinligidan bir oz katta bo'lgan, eniga yoyilgan tishlari yordamida amalga oshiriladi. Statsionar va ko'tarib yuriladigan arralar bo'lishi mumkin.

**Tasmali arra.** Kichik modeldagi bu arralar (50-rasm, a) go'sht korxonalarining xomashyo va qadoqlash tsexlarida suyakli go'shtni 0,25; 0,5 i 1 kg

massadagi qadoqlab o'rash uchun arralashda keng qo'llaniladi. Ular mol, qo'y yoki cho'chqa yarim tanasini bo'laklash va ajratishda qadoqlangan go'sht, ragu, sho'rvaning quruq masalliqlar to'Plami yoki go'shtli yarim tayyor fabrikatlar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Bunday arralarning katta modeli o'lchamlari bo'yicha farq qiladi va ularni suyakdan ajratish va qadoqlashda, tanani katta bo'lakchalarga ajratish uchun kolbasa-konservalar ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Arra cho'yan staninadan 1 iborat bo'lib, uning ichiga bir-biriga Pastga uzatmali 2 va yuqoriga taranglovchi 3 ikki shkiv mahkamlangan. SHkivlarga mashinaning asosiy ishchi organi hisoblangan cheksiz arra yuzasi (Polotno) 4 kiydirilgan.

SHkiv 2 quvvati 1 kvv bo'lgan elektrodvigatelda 7 harakatga keltiriladi va 750 ayl/min, shkiv diametri 355 mm, arra yuzasining harakat tezligi 14 m/sek –ni tashkil etadi.

Arralash yuzasining kerakli taranglashini ta'minlovchi va o'rnatilgan vintlar 6 yordamida vertikal bo'yicha harakatlanadigan qo'zg'aluvchan PodshiPniklarga 5 yuqoriga taranglaydigan shkiv mahkamlangan.

Stanina quyilishga 8 ega, unga araralash uchun go'shtni joylashtirishda xizmat qiladigan va sharikli PodshiPniklarda erkin harakatlanadigan, zanglamaydigan Po'latli stolcha 9 o'rnatiladi.

Arralashda arra yuzasining egilishini oldini olish uchun tayanch-yo'naltiradigan rolik 10 o'rnatiladi.

Bo'laklarni arralash uchun go'sht stolchaga joylashtiriladi, qo'l bilan ushlab turiladi va arralash yuzasiga stolcha bilan birgalikda siljiriladi, u yuqoridan Pastga harakatlanadi va shu tartibda go'shtni stolchaga siqadi. Stolchani uzatish tezligi (suyakli go'shtni arralashda) taxminan 0,07—0,1 m/sek-ni tashkil etadi.


Tasmali arra yuqori unumdorlikka ega, ixcham, qulay, turli yo'nalishda arralash, go'shtni qismlarga ajratish jarayonida kuch sarflanishini mexanizatsiyalash imkoniyatini beradi.

Bir-biriga biriktirilgan gorizontali tasmali va Plastinali transPortyorlardan bir nechta arralarni o'rnatishdan go'sht yarim tayyor mahsulotlari ishlab chiqarishda va go'shtni qadoqlash uchun oqimli mexnizatsiyalashgan liniya hosil qilish mumkin. Bunday liniyalar nafaqat go'sht korxonalarida, umumiy ovqatlanish korxonalarida ham o'rnatish mumkin.

Tasmali arralarning kamchiligiga xizmat ko'rsatuvchi shaxsga katta xavf tug'dirishi jumladan, ishchi uchastkalarini to'liq yo'Pish imkoniyati ega emasligini aytish mumkin.

Arraning unumdorligi arralashdan oldingi va keyingi go'sht bo'lakchalari o'lchamiga va arraluvchi shaxsning malakasiga bog'liq.

Kichik modeldagi arra unumdorligi 1000-1200 kg/soat -ni, tanani arralashda yoki yirik qadoqlashda (10-15 kg) katta modeldagi arralar uchun 5 t/soatni tashkil etadi. Arraning unumdorligi hisoblash yo'li bilan ham to'Pish mumkin.



50- rasm. Arralar:

*a*- go'shtni arralash uchun tasmali kichik model: 1-stanina; 2-Pastga uzatmadigan shkiv; 3- yuqoriga taranlaydigan shkiv; 4-arralash yuzasi (Polotno); 5- qo'zg'aluvchan PodshiPniklar; 6- o'rnatuvchi vintlar; 7- elektrodvigatel; 8-stanina quyilishi; 9-qo'zg'aluvchan stolcha; 10-tayanch – yo'naltiruvchi;

*b*- tsirkulli arra: 1-stanina; 2-stol; 3-val; 4-val PodshiPniklari; 5-diskli (tsirkulli) arra; 6-chegara; 7- elektrodvigatel; 8-uzatmali tasma; 9- qobiq (kojux); 10 –suyakni siqish uchun moslama; 11- zadviykalar; 12-qo'zg'aluvchan qobiq.

Misol. Agar arralashgacha mol go'shti chorak o'lchamlari 20 x 30 x 50 *sm* (o'rtacha) va chorak massasi 30 kg tashkil etsa, choraklarni 0,5 kg massali bo'lak qilib arralashdagi tasmali arra unumdorligini aniqlang.

Bitta chorakdan olinadigan go'sht Portsiyasi miqdori, 60 Portsiyaga (30/0,5) teng, bu esa maydalanish darajasiga mos  $K = 4$ .

Arralashgacha go'sht choragining yuzasi

$$G' = 2 [(20 \cdot 30) + (20 \cdot 50) + (30 \cdot 50)] = 6200 \text{ sm}^2 \text{ ga teng.}$$

CHorakni arralash yuzasi (II—20) formula bo'yicha

$$G'_i = 0,5G'(K-1) = 0,5 \cdot 6200(4-1) = 9300 \text{ sm}^2 \text{ teng.}$$

CHorak balandligi  $N = 20 \text{ sm}$  bo'lganda arralashning umumiy uzunligi

$$\frac{9300}{20} = 465 \text{ sm} = 4,65 \text{ m} \text{ -ga teng bo'ladi.}$$

Arralashga uzatilayotgan go'shtning o'rtacha tezligi  $v = 0,1 \text{ m/sek}$  -ga teng bo'lsa, bitta chorakni arralash uchun kerakli vaqt quyidagiga teng:

$$t = \frac{4,65}{0,1} \approx 50, \text{ sek.}$$

Stolchanning teskari qaytishiga sarflanadigan, chorakni joylashtirish uchun ketgan vaqtni hisobga olganda va arralashda ularni aylantirish (ag'darish) uchun bitta chorakni arralashning umumiy vaqti

$$T = 50 + 50 \cdot 0,4 \cdot 2 = 90 \text{ sek, yoki } 1,5 \text{ min -ni tashkil etadi.}$$

Bu yerdan olingan ma'lumotlarni o'rniga qo'yib, arra unumdorligi topiladi:

$$Q = \frac{60}{1,5} \cdot 30 = 1200, \text{ kg/soat.}$$

Arra elektrodvigatelining quvvati quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$$N = \frac{\varphi \cdot a \cdot b \cdot v_n}{1000\eta}, \text{ kVt}$$

Bu yerda  $\varphi$  — arralashdagi qarshilik,  $n/m^2$ ; sovutilgan suyakli go'sht uchun  $\varphi = 100-250 \text{ Mn}/m^2$  va muzlatilgan go'sht uchun  $\varphi = 150-350 \text{ Mn}/m^2$ ;  $a$  - arralash eni,  $m$ ;  $b$  - arralanayotgan mahsulot qalinligi (balandligi),  $m$ ;  $v_p$  - arralash yuzasiga uzatish tezligi,  $m/sek$ ;  $\eta$  - arra uzatmasining umumiy F.I.K. ( $\eta = 0,85-0,88$ ).

**Misol.** Muzlatilgan go'shtni arralash uchun tasmali arra elektrodvigatelining quvvatini aniqlang. Bunda arralash eni 4 mm -ni, chorak qalinligi 0,2 m -ni, uzatish tezligi  $v_p = 0,04 \text{ m/sek}$ -ni va uzatmaning F.I.K.  $\eta = 0,85$ -ni tashkil etadi.

Quvvat quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$N = \frac{200000000 \cdot 0,004 \cdot 0,2 \cdot 0,04}{1000 \cdot 0,85} = 7,5 \text{ kVt-ni tashkil etadi.}$$

### PK tsirkulli arra

Bu arra (50-rasm, b) shoxlarni yoki suyaklarni arralash uchun ishlatiladi va kolbasa yoki yog', submahsulotlari, tanani qayta ishlash va chorvani so'yish tsexlarida o'rnatiladi. Uning ishchi organi bo'lib, tishli arralash diski xizmat qiladi.

Arra Podshipniklarda 4 aylanuvchan val 3 mahkamlangan, yuqoridan stoli mavjud choklangan staninadan 1 iborat. Valga tsirkul (disk) 5 kiydirilgan va mahkamlangan, val esa 2,2 kvt quvvatga ega elektrodvigateldan 7 harakatga keltiriladi.

Elektrodvigatel tebranuvchan Plita-maydonga o'rnatilgan, bu uzatmali tasmaning 8 doimiy taranglashishini ta'minlaydi. Elektrodvigatel qobiq 9 bilan yo'pilgan.

Diametri 450 mm bo'lgan arralaydigan diskni aylanish tezligi 34 m/sek-ga teng bo'lib, minutiga 1450 marta aylanadi. Disk Pastdan mayda qiPiq'larni (oPilka) chiqarish uchun zadviykali 11 qo'zg'almas qilib mahkamlangan to'siqlar, yuqoridan esa sharnirda burilib oladigan qo'zg'aluvchan qobiq 12 bilan mahkamlangan.

Arralashda suyak ushlagichli maxss qo'zg'aluvchan moslama 10 yordamida siqib olinadi. Disk stolga arralanayotgan mahsulotni siqishni ta'minlovchi

yo'nalish bo'yicha aylanadi. Suyak yog'ni ajratishni yengillatish yoki keyingi sanoatda qayta ishlash; texnik mahsulotlar ishlab chiqarish uchun shoxlarni ajratish uchun arralanadi. TSirkul arraning unumdorligi 300-400 arralash/soat. Arrani ishlash vaqtida arralash diskida singan tishlarni yo'qligini va hamma to'siqlarni tuzatilganligini, valga diskni mahkamlashga chidamliligini kuzatish kerak.

Arraning kamchiligiga ishlash vaqtida yuqori shovqin bo'lishini ta'kidlash mumkin.

### **Tanani arralash uchun «Minsk-59» arrasi**

Arra (51-rasm) yirik shoxli mol va cho'chqa tanalarini vertikal holatda arralash uchun mo'ljallangan. U so'yish tsexida o'rnatiladi. Arralash konveyer bo'yicha uzluksiz harakatda yoki osma yo'llarda tanani qo'zg'almas holatida amalga oshiriladi. Arrani bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish mumkin.

Arra unumdorligi 500 tana/smena –ni tashkil etadi. Agar konveyer unumdorligi 500 bosh/smena-dan ko'P bo'lsa, liniyaga bir nechta arra o'rnatish mumkin.

Arra dvigatel korPusiga mahkamlangan, arralash yuzasi uchun yo'naltiruvchi ramkasi 4 mavjud va vertikal holatda o'rnatilgan, 1,7 kvt quvvatga ega flanetsli elektrodvigateldan 1 iborat. Val dvigateliga tirsakli val, shatun va shtokdan tuzilgan krivoshiP-shatun mexanizmi 2 joylashtirilgan.

Arraning ikkita yurish soni 1420, yurish uzunligi 60 mm, qalinligi 1 mm, og'irligi 45 kg.

Arra halqasidan trosga 5 osiladi va qarshi yukda tenglashtiriladi, bu esa uni tanani arralashda vertikal yo'nalishda yengil joylashish imkonini beradi. Oldindagisi ramkada, orqasidagi dvigatel korPusida joylashgan 2 ta ushlagich 6 yordamida arra yo'naltiriladi va ushlab turiladi.


Ishlash vaqtida arra tekis, qattiq siqmay ushlanadi. Arralash oxirida orqadagi ushlagichning o'ng tomonida joylashgan tugmacha (knoPka ) yordamida elektrodvigatel o'chiriladi. Arra ag'darilishining oldini olish uchun fiksator mavjud.

Arraning krivoshiP-shatun mexanizmi korPusga 7 joylashgan, uning yuqori qismida atmosfera bilan korPusning ichki qismini tutashtirish uchun klaPan joylashgan.

KorPusda moy sathining nazorati moy sathini ko'rsatuvchi oyna yordamida amalga oshiriladi.

Moyni chiqarish uchun korPusning Pastki qismida tiqin (Probka) bilan yoPiladigan teshik mavjud.

Shtokning arra korPusi orqali o'tar joyida arra ishlagan vaqtda moyning Purkalib ketishiga qarshilik ko'rsaturvi salnik o'rnatilgan. Arrada kesuvchi oPerator, mexanik yoki gidravlik yuritma orqali vertikal yo'nalishda harakatlanuvchi maydonchada bo'ladi.



51-rasm. Tanani arralash uchun «Minsk-59M» arrasi:

1- elektrodvigatel; 2-krivoshiP-shatun mexanizmi; 3-arralash yuzasi (Polotno); 4-yo'naltiruvchi ramka; 5- arralarni osish uchun halqa; 6-ushlagich (rukoyatka); 7- arra korPusi.

Go'sht kombinatlarida shoxli yirik mol tanasining ko'krak qafasini kesish uchun mo'ljallangan olib yuriladigan diskli arra ham mavjud. Uning ishchi organi tishli disk bo'lib flansli elektrodvigateldan konussimon tishli shesterniyalar orqali harakatga keltiriladi. Ushbu araning unumdorligi smenada 1200 *tana* -ni tashkil etadi, diskning tezligi 1400 *ayl/min*, elektrodvigatel quvvati 0,4 *kVt*.

Pnevmatik yuritmal arralar FIK –i nisbatan kichik, siqilgan havo manbai kerak va yuqori darajadagi shovqin bilan ishlaganligi uchun go'sht kombinatlarida keng qullanmaydi.

### Qadoqlash-shakl berish mashinalari

Ushbu mashinalar yarim tayyor mahsulotni og'irligi yoki hajmi bo'yicha qadoqlab shakl berish uchun qo'llaniladi (kotlet, chuchvara, sosiska, go'shtli qiyma solinlan gummalar).

Odatda bu mashinalarning unumdorligi juda katta, ko'Pincha oqim-texnologik liniyalarda o'rnatiladi. Qadoqlash-shakl berish mashinalarini qo'llash, ko'P mehnat talab etadigan oPeratsiyalarni mexanizatsiyalash, mahsulot ishlab chiqarishni ko'Paytirish, uni sifatini yaxshilash imkoniyatini beradi.

**Kotlet ishlab chiqarish avtomati.** Avtomat go'sht kombinatlari va umumiy ovqatlanish korxonalarida keng ko'lamda qo'llaniladi. U tayyor go'sht

va baliq qiymasini ma'lum og'irlikda o'lchab (dozalab), kotlet shakllantirish uchun ishlatiladi.

52-rasmida AK 2M-40 rusumli kotlet avtomati ko'rsatilgan. Uning yuklash bunker 20 l, unumdorligi soatiga 4000 kotletni tashkil etadi.

Avtomat uzluksiz rejimda ishlaydi, turi rotatsion, cho'yan quyma korpus 2-dan iborat. Korpusda avtomatning barcha qismlari mujassamlashtirilgan: AOL 22-4 tipidagi 0,4 kVt –ga teng quvvatli elektrovigatel 1, qiyma uchun listli zanglamas Po'latdan tayyorlangan bunker 35, besh uya va ulardagi Porshen 31-li asosiy shakl berish stoli 29, diskli Pichoq 28, qirg'ichi 27 bilan va kotlet massasini 100 g atrofida o'zgartiruvchi rostlagich.

Yuritmaning barcha detallari korpus ichkarisida o'rnatilgan. Bu mashinaning kompaktligi va kerakli sanitar holatini ta'minlaydi.

Avtomatni harakatga keltirish elektrovigateldan 1 chervyakli juftlik 3 orqali amalga oshiriladi. SHuningdek harakat tsilindrik shesternyalar 19, 22 hamda 35 yordamida uchta vertikal vallarga beriladi - bu Parrakli vint 18, shakllantirish stoli 20 va diskli Pichoq 24. Avtomat bunday ishlaydi. Tayyor go'sht yoki baliq qiymasi bunker 35-ga yuklanadi, undan vint 34 yordamida yuklash bunker ostidagi tuynukka beriladi.

Tuynukka taqash shakl berish stol 32-ning navbatdagi teshigi (Porshen tuynigi) keladi. Unda Porshen 31 Pastga tushgan holda bo'ladi.

Parrakli vint hosil qilgan bosim ostida farsh stol yacheykasi hajmini to'ldiradi. Porshenlar 31 ostki qismida shariklar 30-ga o'rnatilgan. SHariklar Porshenli stol aylanganda harakatsiz yo'naltiruvchi 11 bo'ylab sirpanadi. Yo'naltiruvchi Profili shunday bajarilganki, stolning aylanishi davomida (to'latilgan uyacha bunker ostidan chiqqach) Porshen yuqoriga, stolning ustki tekisligiga barobar sathga kotlet bilan birgalikda chiqib ketadi.


Kotletlar stoldan chekkasi haqasimon chaxlangan diskli Pichoq 28 yordamida olinadi. Diskli Pichoq valik 24 -da uning ostki yuzasi va qadoqlash stolining ustki yuzasi bilan minimal zazor (0,2 mm) hosil qilib o'rnatilgan.

Olinadigan kotlet diskli Pichoqdandagi markazdan qochma kuch hisobiga quyilgan lotokka otiladi.

Diskli Pichoqning yuzasi yo'pishgan qiyma Parchalaridan qirg'ich 27 yordamida tozalanadi, uning diskga zich turishini Prujina 26 ta'minlaydi.

Kotlet hajmini rostlash uchun maxsus rostlagich 7 qo'llanilgan, u ushlagichli 17 ko'rsatkich diskdan 16 tashkil topgan, rostlagich valigiga 8 mahkamlangan. Valikda richag 5 va sterjenga 4 tayangan shtok 6 mavjud.

Ko'rsatkich diskni 16 aylantirilganda valik 5 shtokni 6 suradi, richag 5 esa sterjenni ko'taradi, natijada Porshenlar tayangan shayba 13 ko'tariladi va kotlet hajmi o'zgaradi.



52-rasm. Kotlet shakllantirish avtomati:

Ko'rsatkich disk bir bo'limga burilganda kotlet massasi 10 g -ga o'zgaradi, 0,5 bo'limga o'zgarganda – 5 g-ni tashkil etadi. SHunday usulda kotlet massasini 100 g atrofida o'zgartirish mumkin. Bir jinsli qiyma bilan o'rnatilgan rejimda ishlaganda kotlet massasining berilgandan og'ishi  $\pm 5\%$ -dan oshmaydi. Kotletning eng katta o'lchami: uning diametri bo'lib 75 mm-ga teng, balandligi esa 22 mm -ni tashkil etadi.

Avtomatni ishlatish oson, qismlari oson yechiladi, sanitar ishlov berish qulay, xizmat ko'rsatuvchi ishchi xavfsizligi ta'minlangan.

#### **Rotatsion kotlet avtomati.**

Avtomat (53-rasm) TSKB "Myasomolmash", ya'ni "Go'shtsutmashinacozlik" Markaziy konstruktorlik byuro tomonidan uzluksiz rejimda kotlet ishlab chiqarish uchun ishlab chiqilgan. Unumdorligi soatiga 20000 kotlet.


Mashina zanglamas Po'latdan tayyorlangan qabul qilish bunkeri 1 bilan ta'minlangan, ostida farsh uzatish uchun lentasimon sPiral ko'rinishidagi shnek 2 joylashtirilgan.

SHnek ostida shakl berish barabani 3 mavjud. YAxlit shakl berish barabanida to'rta tuynuk mavjud bo'lib ulardan Polzun 4 o'ta oladi. Baraban ikki yo'naltirgichda 5 harakat qiladi, Polzunlarning 4 o'qi 6 tayanch disklarda 7 bo'ladi.

O'q 6 baraban o'qi va yuritish valiga nisbatan ekstsentrik bilan joylashtirilgan.

Baraban aylanganda o'qning 6 ekstsentrikligi natijasida Polzunlar 4 baraban bilan birgalikda aylanib Pazlarda ilgariylanma-qaytma harakat qiladi. Polzunli baraban shnek bo'lim (zona) masofasini bosib o'tganda Polzun Pastroqqa o'tadigan va uya shakllantiradigan qilib o'rnatiladi.





53-rasm. Rotatsion kotlet avtomati:

1- qabul bunker; 2 – qiyma berish shneki; 3 - shakllantirish barabani; 4- Polzun; 5- baraban yo'naltirgichi; 6-o'q; 7-tayanch disk; 8- val; 9- kotletli lotok uchun transPorter; 10- bunker; 11- valik; 12- lentali Pichoq; 13- vint; 14- elektrodvigatel.

Barabanning keyingi  $90^\circ$ -ga burilishida Polzunlar kolletlarni uyalardan itarib chiqaradi. SHunday qilib bir aylanishda har bir Polzun ikkitadan kotlet shakllantiradi.

Baraban ostida transPortyor 9 o'rnashgan. Unga kotlet taxlash uchun yog'och yoki alyuminiydan yasalgan lotoklar o'rnatilgan. Barabangacha yoki barabandan keyin kotlet yuzasi va lotokka qotgan non kukuni sePish uchun (Panirovka) transPortyorda ikkita nondon o'rnatilgan. Non kukuni idishi bunker 10 va uning ostiga o'rnatilgan rifllangan valik 11,  $45 \text{ ayl/min}$  tezlik bilan aylanuvchi shuning bilan kotlet ustiga barobar qotgan non kukuni solishni ta'minlovchi aylanuvchan o'q bilan jihozlangan.

Baraban yuzasini unga yoPishgan qiyma bo'laklari, un qoldiqlari va boshqa materiallardan tozalash uchun lentali Pichoq 12 o'rnatilgan. Lentali Pichoq baraban tashkilotiruvchisi bo'ylab ilgariylanma-qaytma harakat qiladi. Pichoqning barabanka taqqashlik darajasi vintlar 13 yordamida rostlanadi. Mashinaning barcha mexanizmlari quvvati  $1 \text{ kVt}$ , va tezligi  $1410 \text{ ayl/min}$ -li elektrodvigatel 14 –dan harakatga keltiriladi.

Kotlet avtomatining unumdorligi quyidagi formula orqali toPiladi:


$$Q = 60 a n \text{ dona/soat}, \quad (6-4)$$

bunda  $a$  – stoldagi kotlet shakllantirish uyalari soni (yoki barabanda);  $P$  – stolning aylanish tezligi,  $ayl/min$ .

Alohida mashinarni kombinatsiyalash yo'li bilan Moskva go'sht kombinatida kotlet ishlab chiqarish uchun oqim-mexanizatsiyalashgan liniya vujudga keltirilgan. U go'shtni suyakdan shilish va Paylarni ajratib olish uchun konveyer stoli 4, go'sht maydalash uchun volchoklar 2, kotlet qiymasi tayyorlash uchun shnekli aralastirgichlar, noni maydalash va uyutish mashinalari, kotlet avtomatlari shnekli nasos-ta'minlovchisi va 2 kotlet avtomatidan iborat.

Liniya unumdorligi soatiga 200 ming kotletni tashkil qiladi. Liniya ikki qavatda joylashgan.

**SUB-ZM ko'tarish avtomati.** Avtomat (54-rasm) – uzluksiz ishlovchi mashina, mexanizatsiyalashgan usulda xamirdan go'sht qiymasi solingan chuchvara ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan. Mashina SkrqPnik, Usik va Bogachev taklif etgan Printsipial sxema asosida ishlab chiqilgan. Hozir uning modifikatsiyalari seriyalab ishlab chiqariladi.



54-rasm. SUB-ZM chuchvara tugish avtomati:

a-umumiy ko'rinish: 1- stanina; 2- yuritish barabani; 3- yulduzcha; 4- taranglash stantsiyasi; 5 -transPorter; 6-tayanch baraban; 7- xamir uchun bunker; 8- farsh uchun bunker; 9- xamir uzatish shneki; 10-tsilindr-yig'uvchi; 11- kollektor-tarqatuvchi; 12-qiyma uzatish shneki; 13- kollektor; 14-shakllantirish uskunasi; 15, 16-un sePish qurilmasi; 17-shtamlovchi baraban; 18-barabanni ko'tarish mexanizmi; 19-rostlovchi maxovkcha;

b-chuchvara shtamPlash sxemasi: 1-tayanch baraban; 2- transPorter lentasi; 3- chuchvara; 4-shtamP; 5-xamir o'rami.

Avtomat ko'P mehnat talab etuvchi chuchvara tugish jarayonini mexanizatsiyalash imkonini berdi (bir avtomat 40 ishchini o'rnini bosadi), ayni vaqtda chuchvara sifati yaxshilandi.

Avtomat Payvandlab tayyorlangan karkas tiPidagi staninadan iborat bo'lib quvur va burchakli Po'latdan tayyorlangan. Uning ustida lentali transPortyor o'rnatilgan. TransPortyor yulduzchali 3 tortish barabani 2 va vint tiPidagi taranglash stantsiyasidan 4 iborat.

Barabanlarga transPortyorning 5 rezinalashtirilgan lentasi o'ralgan, u tayanch vazifasini bajaruvchi roliklar, chuchvarani shtamPlash joyida esa tayanch baraban 6 bilan ta'minlangan. Tayanch barabanni majbur etuvchi yurutuvchisi yo'q, shuning uchun sharikPodshiPnikda erkin aylanadi. TransPortyorning umumiy uzunligi 5400 mm.

TransPortyor yonida zangamas Po'latdan tayyorlangan ikki bunker o'rnatilgan: xamir yuklash uchun 7, qiyma yuklash uchun 8. Xamir bunker 7-ga yuklanadi, undan shnek 9 yordamida tsilindr yig'uvchiga 10 beriladi. Keyin shnek hosil qiladigan bosim ta'sirida xamir kollektor-tarqatuvchiga 11 va shakllantirish qurilmasiga 14 boradi.

Qiyma bunkerdan 8 shnek 12 yordamida kollektorga 13 keyinchalik shakllantirish qurilmasiga 14 boradi.

SHakllantirish qurilmasi - chuchvara aPParatining asosiy ishchi organi hisoblanadi. U ikki quvurchadan iborat bo'lib, ulardan bittasiga xamir, ikkinchisiga esa qiyma beriladi. Oxirida haqasimon teshik hosil qilingan, undan bosim ostida xamir uzluksiz quvur ko'rinishida chiqadi. Trubka ichiga qiyma beriladi. SHakllantirish qurilmasining chiqish joyida xamirdan hosil bo'lgan quvurcha ichiga bosim ostida qiyma joylashgan holda o'z gurligi ta'siri ostida uzluksiz lenta ko'rinishida Pachaqlashadi va transPortyorga o'rnashadi. TransPorning harakat tezligi soPlodan qiymali xamir chiqishi tezligiga teng bo'ladi, tezlik rostlanishi mumkin.

SUB-3M chuchvara tugish avtomati ishlash tuzilish va Printsipi keltirilgan matnda uchta shtaPmlash mashinasi mavjud. SHuning uchun uning ishlashida uchta Parallel qiymali trubka hosil bo'ladi.

### **Go'sht kesish mashinalari**

Go'sht va go'sht mahsulotlarini kesish yordamida maydalash turli konstruktsiya mashinalarida amalga oshiriladi. Ulardan eng keng tarqalgani volchok (go'sht kesgich), kutter va shPik (qalin yog') kesuvchi mashinalar hisoblanadi. Bu mashinalar yordamida go'sht va shPik maydalanadi va kolbasa, kotlet, chuchvara va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun qiymaga aylantiriladi.

### **Volchoklar (go'sht keskichlar)**

Bu mashina uzluksiz ishlaydi, go'shtni, yumshoq submahsulotlar, yog' xom ashyosi, konfiskat, endokrin-fermentli xom ashyo va boshqalarni maydalash uchun xizmat qiladi. Volchoklar turli o'lchamli bo'ladi. o'lchami ularning unumdorligini belgilaydi. Unumdorlik maydalangan go'sht chiqish reshlyotkasining diametri bilan aniqlanadi, diametr qancha kata bo'lsa unumdorlik shuncha ko'P. Reshlyotkadagi teshikchalar diametri turli o'lchamda bo'ladi, ular qiymaning maydalanish darajasini ta'minlaydi. Volchoklar yuritish, go'shtni mexanizmga berish va kesish mexanizmlaridan iborat.

YUritish odatda dvigatel, tishli yoki tasmali uzatgich orqali asosiy valga burash momenti va aylanishni uzatish vositalaridan iborat. Asosiy val turli konstruksiyali volchoklarda 80-350 *ayl/min* tezlik bilan harakat qiladi.

Go'shtni keskich qismga berish mexanizmi odatda bir yoki bir necha shnek (vint) lardan iborat. Ular tsilindr yoki konus shaklida bo'ladi, qadami doimiy yoki o'zgaruvchan bo'ladi, gorizontaal yoki burchak ostida o'rnatiladi. Bu shneklar yordamida mahsulot majburan maydalagichga uzatiladi.

Ayrim volchoklarda asosiy go'sht uzatuvchi shnekdan tashqari qo'shimcha shnek bo'lishi mumkin. U go'shtni kesish mexanizmiga bir tekisda yetkazib turish uchun xizmat qiladi.

Kesish mexanizmi asosiy ishchi organ bo'lib, u bir necha konstruksiyali Pichoqlar yordamida xomashyoni kesadi. Pichoqlar bir yoki bir necha juft bo'ladi. Kesuvchi Pichoqlar krest shaklida va reshetka shaklida bo'ladi. Qiyma komponentlarining maydalanish darajasi reshyotka shaklidagi Pichoq teshiklarining diametriga bog'liq. Asosiy keskir Pichoq – bu krest shaklidagi Pichoqlar. Mayin kesilgan qiyma tayyorlash uchun krest shaklidagi va reshetkali Pichoqlarning bir necha juftligi ishlatiladi. Maydalash mahsulotni aylanadigan Pichoqda kesib, uni dumaloq yoki oval shaklidagi setka teshiklarida bosib o'tkazish hisobiga amalga oshiriladi.

Volchokka odatda oldindan 50-100 *mm* uzunlikda tilchalangan go'sht solinadi. Dag'al holda maydalash uchun bir dona Pichoq va teshiklari diametri 16-25 *mm*-li ishlatiladi, mayin maydalash uchun so'nggi reshetka teshiklari 2-3 *mm*-ni tashkil etishi kerak. Kesish Pichoqlari juftliklarining soni ikki yoki uchta bo'ladi.

Pichoq va reshetkalar yaxshi chaxlangan bo'lishi kerak, ularni ishchi valga o'rnatganda bir-biriga zich joylashishini ta'minlash zarur, aks holda kesish sifati Past bo'ladi, to'qimalar kesilish o'rniga eziladi, go'sht seli oqib ketadi.

Kesish mexanizmi volchokning eng so'ngiga, go'shtni chiqarish joyiga o'rnatiladi, asosiy val, ya'ni go'sht berish vali aylangan vaqtda u bilan birgalikda krest shaklidagi Pichoqlar ham aylanadi, reshetkalar turg'un turadi.

Volchok yaxshi ishlayotganligidan, uning hisobiy unumdorligi ta'minlanganligi dalolat beradi. Agar kesish mexanizmi unga berilayotgan go'shtni kesishga ulgurmasa go'sht orqaga qaytib chiqadi, tsilindr ichida aylanadi, ishqalanadi va qizib ketadi. Agar kesish mexanizmi to'la yuklanmasa, u holda kesish mexanizmi bo'sh ishlaydi va kesish organlari tezda ishdan chiqadi.

Go'sht tsilindrdan orqaga qaytishini kamaytirish uchun tsilindr ichida vint yo'nalishida ariqcha (shlitsa) qilinadi.

Quyidagi konstruksiyadagi go'sht keskichlar seriyada ishlab chiqilgan: MP-82 reshetka diametri 82 *mm*; MP-1-160 - 160 *mm*; MP-2-220 - 220 *mm*.

**Volchok MP-82.** Ushbu volchok kichik va o'rta kolbasa tsexlari, umumiy ovqatlanish korxonalarida ishlatiladi. Mashinaning unumdorligi 3 *mm*-li setkadan o'tkazishda 600-700 *kg/soat*-ni tashkil etadi.

Volchokning asosiy qismlarini to'rt burchakli ustida yuklash qurilmasi mavjud quyma stanina, AOL 42-4 markali elektrodvigateL, tsilindrik egri tishli uch zinali uzatish soni  $i = 28$  bo'lgan reduktor, bir valda o'rnatilgan ikki shnekdan iborat xom

ashyoni qabul qilish va uzatish mexanizmi va kesish mexanizmi tashkil etadi. Elektrovigatelning quvvati 2,8 *kVt*, aylanish tezligi 1420 *ayl/min*.

Kesish mexanizmining diametri 82 *mm*. Kesish mexanizmi qabul qilish setkasi, Pichoq, 12 *mm* teshikli setka, ikkinchi Pichoq va teshiklari diametri 3 *mm*-li chiqish setkalaridan iborat.

Elektrovigatel va yuritish mexanizmi staninaning ichiga joylashtirilgan.

**Volchok MP-1-160.** Mashina (55-rasm, *a*) go'sht va yog'ni kolbasa, go'shtli non, kotlet, chuchvara va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish uchun qiyma tayyorlayotganda kesish uchun ishlatiladi. Mashinaning unumdorligi 0,4-0,5 *kg* – kattalikdagi go'sht bo'laklarini teshiklari 3-4 *mm* diametrli reshetka yordamida maydalaganda 3000-3700 *kg*-ni tashkil etadi. Reshyotka teshiklari diametri 25 *mm* bo'lganda 20000 *kg/soat*-ni tashkil etadi.


Volchokni ham alohida ham kolbasa ishlab chiqarish oqim-texnologik liniya tarkibida ishlatish mumkin. Liniya tarkibida ishlatilganda chiqish reshyotkasi uchiga zanglamas Po'latdan tayyorlangan maxsus quvur ulanadi va qiyma to'g'ridan-to'g'ri boshqa mashinaga uzatiladi. Natijada uzluksiz liniya hosil bo'ladi. Maydalangan go'shtni quvursiz qurilmadan tushirish balandligi 700 *mm*, quvurli qurilmadan esa 1200 *mm*-ni tashkil etadi.

Volchok MP -1-160 cho'yan quyma staninadan 1 iborat, ustida alyuminiydan tayyorlangan 100 *kg* sig'imli go'sht bo'laklarini yuklash tog'orachasi 2 o'rnatilgan. Undan go'shtni uzatish shnekining 6 o'ramlari olib ketadi va bir tekisda ishchi shnekka 7 beradi va qotirish gaykasiga 9 ega kesish mexanizmiga 8 siqib beradi.

Diametri 160 *mm*-ga teng bo'lgan kesish mexanizmi qabul qilish setkasi, krest shaklidagi Pichoqlar va teshiklari diametri 25, 16, 12, 8, 6 va 3 *mm* bo'lgan reshetkalardan iborat. Kesish mexanizmi AO 63-4 tiPdagi quvvati 14 *kVt*, aylanish tezligi 1460 *ayl/min* bo'lgan elektrovigateldan 3 harakatga keltiriladi. Xarakatni uzatish uchun tasmali uzatgich 4 va egri tish shesterniyali reduktordan 5 foydalanilgan.

MP-1-160 volchogining kinematik sxemasi 88, *b* rasmda ko'rsatilgan. Go'sht berish shnekining aylanish tezligi 131 *ayl/min*, ishchi shnekniki esa 276 *ayl/min*.

Volchokning shakli silliq, qismlari oson ochiladi, sanitar ishlov berish oson. Yuklash balandligi Poldan 1100 *mm*. Elektrovigatel va yuritish mexanizmi stanina ichida o'rnatiladi.



88-rasm. Volchok MP-1-160:


*a* - umumiy ko'rinish: 1-stanina; 2-yuklash tog'orachasi; 3-elektrodvigatel; 4-tasmali uzatgich; 5-reduktor; 6-go'sht berish shneki; 7-ishchi shnek; 8 - kesish mexanizmi; 9- gayka;

*b* - kinematik sxema.

**Volchok MP-2-220.** Volchok (56-rasm) cho'yan staninadan 1 iborat bo'lib, unga yuklash bo'yni 2 o'rnatilgan. Go'sht bo'laklari yuklash bo'ynidan 1-1,5 kg o'lchamda solinadi. Bo'yin tegida volchok tsilindri joylashgan va unda go'sht berib turuvchi Po'lat shnek 3 aylanadi. SHnek go'shtni olib kesish mexanizmiga yetkazib beradi. SHnek qadamining o'zgaruvchanligi tufayli uning oxirida go'shtga ma'lum bosim hosil qilinadi. Kesish mexanizmi 9 qabul qilish setkasi katta eliPssimon uchta teshikka ega. Teshiklar chekkasi o'tkir bo'lib, ular go'shtni dastlab bo'lib olish uchun xizmat qiladi. Keyin ikki tomonli krest shaklidagi Pichoq va teshiklari 16-25 mm-li birinchi setka o'rnatilgan, ikkinchi krest shaklidagi Pichoq va teshiklari diametrlari 2-3 mm-li so'nggi setka.

Kesish mexanizmining barcha komplekti tsilindrning oxirida yig'ilgan va joylashtirilgan va gayka 10 yordamida mahkam tortilgan. Rezbasining tortilishi juda qattiq bo'lishi kerak emas, aks holda kesish mexanizmining qizib ketishi ro'y beradi. Stanina ichida shnek ostida quvvati 20 kVt -li elektrodvigatel 4 o'rnatilgan, mufta 5

orqali oraliq val va unga o'rnatilgan shesternya 6 bilan tutashirilgan, harakat go'sht beruvchi shnekning vali 8-ga shesternya 7 orqali o'tkaziladi.



56-rasm. MP-2-220 volchogi:

1-stanina; 2-yuklash bo'yini; 3-go'sht uzatish shneki; 4-elektro-dvigatel; 5-tutashtirish muftasi; 6-shesternya; 7-etakchi shesternya; 8- shnek vali; 9- kesish mexanizmi; 10-tortish gaykasi; 11- siqish mexanizmi.

Ish tugagandan keyin gayka 10 burab chiqariladi va go'sht uzatish shneki va kesish mexanizmi unda qolgan Presslangan go'shtlar bilan birgalikda mexanizm 11 yordamida itarib chiqariladi. Mexanizm 11 tishli reyka va shturval g'ildirigidan iborat. Mashina detallari go'sht qoldiqlaridan tozalanadi, yuviladi, keyin esa mexanizm iste'mol yog'i bilan moylab yig'iladi. Mashinani yuksiz uzoq vaqt ishlatish tavsiya etilmaydi, chungu buning oqibatida Pichoq va setkalar ishdan chiqadi. Volchok bir tekisda, tinch zarbalarsiz ishlashi kerak. Pichoqlarni noto'g'ri yig'ish va gaykani 10 haddan tashqari qattiq tortish natijasidagi go'sht qizib ketishi 4-6°S-dan oshmasligi kerak. Go'sht volchokning yuklash bo'yniga yuklanadi, u bilan birgalikda suyak, metall qismlar va begona Predmetlar tushmasligi kerak.

Mashina qulay shaklga ega. MP-2-220 volchogining unumdorligi teshiklari diametri 3 mm, tashqi dimetri 220 mm-li reshlyotka ishlatilganda 5 t/s-ni tashkil etadi.

Volchok unumdorligi go'sht uzatish shnekining qobiliyati va go'sht kesish mexanizmining unumdorligi orqali aniqlanadi.

$$Q = 60 \alpha \frac{\pi}{4} (D^2 - d^2) n t \rho \text{ kg/soat}, \quad (6-5)$$

bunda  $\alpha$  - shnekning go'sht berish yoki shnekdan foydalanish koeffitsien-ti. U shnek uzunligi, shnek va volchok tsilindri devori orasidagi zazor va h.k.; amalda  $\alpha =$

0,25-0,35 qabul qilinadi;  $D$  – shnekning tashqi diametri,  $m$ ;  $d$  - shnek valining diametri,  $m$ ;  $P$  – shnekning aylanish tezligi;  $t$  – shnekning qadami kattaligi,  $m$ ;  $\rho$  - mahsulot zichligi,  $kg/m^3$  (go'sht uchun  $1100 kg/m^3$ ).

Volchokning unumdorligi uning go'sht kesish kobilyati bo'yicha quyidagi formula yordamida hisoblanadi :

$$Q = \alpha \frac{60n \frac{\pi D^2}{4} (\varphi_1 K_1 + \varphi_2 K_2 + \dots + \varphi_n K_n)}{F} \text{ kg/soat}, \quad (6-6)$$

bunda  $\alpha$  - kesish mexanizmidan foydalanish koeffitsienti (odatda  $\alpha = 0,7- 0,8$  qabul qilinadi);  $P$  – shnekning aylanish tezligi;  $\varphi_1, \varphi_2, \dots, \varphi_n$  - reshyotka (setka) yuzasidan foydalanish koeffitsienti (jami teshiklar yuzasining reshyotkaning umumiy yuzasiga nisbati bilan aniqlanadi).

Bu koeffitsient quyidagi formula orqali topiladi

$$\varphi = \frac{nd^2}{D^2}, \quad (6-7)$$

bunda  $P$  - reshetka (setka) dagi teshiklar moni;  $d$  – teshik diametri,  $mm$ ;  $D$  - reshetka (setka) diametri,  $mm$ ;  $K_1, K_2, \dots, K_P$  - Pichoqning tig'lari soni;  $F$  – mahsulotning kesishdan keyingi yuzasi,  $m^2/kg$ .

Amalda  $F$ -ning qiymatini so'nggi reshyotka teshiklari diametri 2-3  $mm$  bo'lganda 1,2—0,8  $m^2/kg$ -ga teng deb qabul qilish mumkin, teshiklar diametri 16-25  $mm$  bo'lganda esa 0,9-0,07  $m^2/kg$  – ga teng.

Volchokdagi quvvat go'shtni maydalash, go'sht uzatish mexanizmi ishi va go'shtning volchok ehtiyot qismlari bilan ishqalanishini yengishga sarflangan quvvatlar yig'indisidan iborat. Amalda quvvat quyidagi formula orqali qoniqarli aniqlik bilan hisoblab topiladi.

$$N = \frac{qQ}{1000\eta} \text{ kVt}, \quad (6-8)$$

bunda  $q$  – elektr energiyasining mahsulot birligiga sarfi. Teshiklar diametri 2-3  $mm$  bo'lganda  $q = 3,5-4,5 \text{ kVt} \cdot s/t$  va diametr 16-25  $mm$  bo'lganda  $q = 1,5-2,0 \text{ kVt} \cdot s/t$ ;  $Q$  – volchok unumdorligi,  $kg/ch$ ;  $\eta$  - volchok yuritish mexanizmi FIK.  $\eta = (0,85-0,9)$ .

Volchok hisoblanganda yog'ni maydalashda quyidagi formulalardan foydalaniladi.

Volchok unumdorligi

$$Q = \alpha D^2 t n \rho \text{ kg/soat},$$

bunda  $\alpha$  - koeffitsient (12);  $D$  - diametr vitka shneka,  $m$ ;  $t$ - shnek o'ramining qadami,  $m$ ;  $P$  – shnekning aylanish tezligi,  $min$ ;  $\rho$  - xom ashyo zichligi,  $kg/m^3$ .

Volchok elektrodvigatelining kerakli quvvati



$$N = \frac{0,16QL}{75\eta}$$

bunda L – volchok shnekining uzunligi, *m*; Q – volchok unumdorligi, *kg/ch*;  $\eta$  – shnekning keltirish mexanizmi FIK.

**Misol.** YOg' xom ashyosini maydalash uchun volchok unumdorligi va elektrodvigateli vati to'Pilsin, agar shnek aylanasi diametri 120 *mm*, qadami 60 *mm*, shnek aylanish tezligi 160 *ayl/min*, shnekning uzunligi 95% *mm*, xom ashyo zichligi 1080 *kg/m<sup>3</sup>*, FIK  $\eta = 0,6$  –ga teng bo'lsa.

Volchokning unumdorligi

$$Q = 12 \cdot 0,12^2 \cdot 0,06 \cdot 160 \cdot 1080 = 1800 \text{ kg/soat.}$$

Elektrodvigatelning quvvati

$$N = \frac{0,16 \cdot 1800 \cdot 0,95}{75 \cdot 0,6} = 6,1 \text{ o.k. yoki } 4,5 \text{ kVt}$$


CHet elda «Saksoniya» (GDR), «Aleksander Verke», «Kremer va Grebe» (FRG), «Boss» (AQSH), «Aglas» (Daniya), «KomPleks» (VHR) firmalarining mashinasozlik zavodlarida katta miqdorda turli konstruksiyaga ega volchoklar ishlab chiqariladi. Ularda xom ashyo yuklash moslamasi, turli burchak ostida o'rnatilgan bir yoki bir necha shnek, sovutish qobig'li, turli kesish mexanizmlari mavjud bo'lib, unumdorligi 10-15 *t/s*, elktrodvigatel quvvati 40-50 *kVt* –ni tashkil etadi.

### Kutterlar

Kutter ham go'shtni qayta ishlash korxonalarida keng tarqalgan mashinalardan biri. U qaynatilgan kolbasa, sosiska, sardelkalar hamda liver kolbasalar qiymani yakuniy (mayin xamir ko'rinishda) maydalash uchun ishlatiladi. Go'shtni kutterda mayin maydalash va uni gomogen massaga aylantirish go'shtni vertikal o'q atrofida aylanuvchi cho'yan tog'orada, tez aylanuvchan o'roq shaklli Pichoqlar yordamida kesish orqali amalga oshiriladi.

Kutterlar davriy va uzluksiz ishlovchi bo'ladi. Ular o'zaro go'sht solinadigan tog'ora sig'imi, Pichoq o'rnatilgan vallar soni, Pichoq konstruksiyasi va aylanish tezligi hamda qiymani tog'oradan ag'darish usuli bilan farq qiladi. Kutterda maydalanadigan go'sht dastlab volchokdan o'tkaziladi. Tog'orasining hajmi 120 *l* -ga teng kutterlar ishlab chiqarishda keng tarqalgan.

**FKCH-120 kutteri.** Kutter (57-rasm) quyma cho'yan stanina 1 va uning ichiga o'rnatilgan yuritish mexanizmidan iborat.



57-rasm. FKCH-120 kutteri:

1-stanina; 2-tog'ora; 3 - vertikal val; 4 - elektrodvigatel; 5, 6 – Ponasimon tasmali uzatgich; 7 -shkiv; 8- Pichoq vali; 9 – zanjirli uzatma; 10 - kronshteyn; 11- val sharikli-PodshiPniklari; 12- o'roqsimon Pichoqlar; 13 - qobiq; 14 -o'q; 15- qarshi vazn; 16 -farshni tushurish diski; 17 -tushurish diski vali; 18- elektrodvigatel; 19- reduktor; 20-diskni tozalash uchun qirg'ich; 21 – qiyma uchun lotok.

YUmaloq cho'yan tog'ora 2 vertikal valda 3 o'rnatilgan va quvvati 14-20 *kVt*-li elektrodvigateldan 4 vertikal val atrofida aylantiriladi. Elektrodvigatel tebranuvchi Plitada o'rnatilgan bo'lib, tebranish Ponasimon tasmali uzatgichning 5 doimo tarang turishini ta'minlaydi. Tasma 6 yordamida aylanma harakat Pichoq 8 o'rnatilgan shkivga 7 uzatiladi, valdan esa zanjirli uzatgich 9 va chervyakli reduktor yordamida vertikal valga 3 uzatiladi.

Pichoqlar o'rnatilgan valning aylanish tezligini 1460-2940 *ayl/min*, tog'oraning aylanish birinchi bosqich tezligini 5-10 *ayl/min*, ikkinchi bosqich tezligini esa 5-20 *ayl/min* oralig'ida o'zgartirish mumkin. Tog'ora sig'imi 120 *l*, yuklash koeffitsienti 60%, bir marotaba yuklanadigan mahsulot miqdori 72 *kg*-ni tashkil etadi. Kutterlash tsiklining uzunligi (maydalanadigan mahsulot turiga qarab) 4-7 *min* -ni tashkil etadi. Pichoq o'rnatilgan val o'rtasi qalinlashgan aylana shakldagi kesimga ega. Qalinlashgan joyidagi Pazga qalinligi 5 mm bo'lgan o'roq shaklidagi Pichoq 12 o'rnatiladi. Pichoqlarning soni olti dona.

Ular valda gayka va kontrgayka yordamida mustahkam o'rnatilgan, vintli liniya bo'yicha joylashtirilgan, bir-biriga nisbatan  $60^{\circ}$ -ga siljirilgan.

Val korpuslarda joylashtirilgan kronshteynda 10 o'rnatilgan sharikli-Podshipniklarda 11 aylanadi. O'roqsimon Pichoq o'rnatilgan valning yuqori qismi qobiq 13 bilan berkitilgan. Qobiq ishlash uchun xavfsiz sharoit yaratadi va Pichoqli val aylanish vaqtida farshning kutterdan o'tilib chiqishiga to'sqinlik qiladi. Qobiq 13 qarshi yuk 15 bilan muvozanatlangan o'qda 14 aylanadi. Bu uning ochilishini yengillashtiradi.

Qobiqning ochilishi elektrodvigatelning ishlashi bilan blokirovkalanagan, ya'ni qobiq ko'tarilganda kontakt uziladi va elektroenergiya berilishi to'xtaydi, ham elektrodvigatel ham Pichoqli val aylanishdan to'xtaydi.

Elektrodvigatel faqat qobiq berkitilgan holatda yana yoqilishi mumkin. Bu ishlovchi odamlarning xavfsizligini ta'minlaydi.

Tog'oraning 2 osti yarim doira kesimdagi shaklga ega va Pichoqlar aylanishi traektoriyasining radiusiga teng. Pichoq chetlari va tog'ora orasidagi zazor 1,5-2 mm-ga teng. Pichoqlarni unga yo'pishgan qiyma bo'laklaridan tozalash uchun qobiq 13 ichida Pazli sidirgich o'rnatilgan, uning Pazlari orasidan Pichoqlar o'tadi va farshdan tozalanadi.

Kutter ishlashi uchun go'sht (qiyma) aylanayotgan tog'oraga solinadi va Pichoqli val ishga tushiriladi. Go'shtli tog'ora aylanadi va go'shtni Pichoq ostiga beradi. Bunda xom ashyo nihoyatda qizib ketadi. SHuning uchun unga sovuq suv yax generatorida tayyorlangan tangasimon yax, qor ko'shiladi. Qutterni bil xilda yuklash zarur. Kutterlashda qiymaga ziravorlar qo'shiladi, ular kutterda yaxshi qo'shiladi.

Oxirgi vaqtda go'sht kombinatlarida ayrim turdagi kolbasalar uchun farsh tayrlashda go'sht va ziravorlardan tashqari kutterga shPik qushiladi. U o'roqsimon Pichoqlar yordamida yaxshi maydalanadi va farsh bilan yaxshi aralashadi.

Kutterlash tugagach, qiyma tog'oradan maxsus mexanizm yordamida tushiriladi. Mexanizm alyuminiydan tayyorlangan diskdan 16 iborat sfera shaklida, 0,6 kVt quvvatli individual elektrodvigateldan 18 reduktor 19 orqali harakatlanuvchi valga 17 o'rnatilgan.

Bo'shatish diskining aylanish tezligi 61 *ayl/min*. Disk val bilan birgalikda sharnirli o'rnatmada ko'tarilishi va tushishi mumkin.

Ishlamay turgan holatda bo'shatish vali  $40^{\circ}$ -ga ko'tarilgan va elektrodvigatel o'chirilgan bo'ladi. Qiymani bo'shatish uchun diskli bo'shatuvchi vali aylanib turgan tog'oraga tushiriladi, kontakt ulanadi, elektrodvigatel o'chadi va disk aylana boshlaydi. U tog'oradan qiymani oladi va lotok 21-ga qarab suradi. Bunda disk uzluksiz ravishda qiymadan statsionar o'rnatilgan qirg'ich 20 yordamida tozalanadi. Lekin bo'shatish diski tog'oraning qiymadan to'liq tozalanishini ta'minlamaydi, shuning uchun kutter to'xtatiladi va uning tog'orasi qo'lda tozalanadi.

YUqorida keltirilgan kutter davriy ishlaydigan mashina bo'lib, uning unumdorligi quyidagi formula yordamida hisoblab topiladi:

$$Q = \alpha \frac{60}{t} V \rho \text{ kg/soat} \quad (6-9)$$

bunda  $\alpha$  - tog'orani yuklash koeffitsienti (foydalanish);  $\alpha = 0,6$ ;  $t$  - kutterlash bir tsiklining davomiyligi (yuklash, kutterlash, tushirish), *min*;  $V$  - kutter tog'orasi sig'imi, *l*;  $\rho$  - qiymanig zichligi, *kg/l*,  $\rho = 1 \text{ kg/l}$  qabul qilish mumkin.

Davriy ishlovchi kutter elektrodvigateling quvvati quyidagi formula yordamida hisoblanishi mumkin:

$$N = \frac{AFzn\eta_a}{60 \cdot 1000\eta_{o\delta u}} \text{ kVt}, \quad (6-10)$$

bunda  $A$  – Pichoq bilan qiyma qatlamini 1 aylanishda kesish uchun sarflanadigan energiyaning birlik charfi,  $Dj/m^2$ ; (Pichoq tig'larining aylana tezligi  $30 \text{ m/sek}$  gacha bo'lganda qiymaga suv qo'shmasdan  $A = 2,7-3,1 \text{ kdj/m}^2$ ; qiymaga suv qo'shganda  $A = 2,0 - 2,4 \text{ kdj/m}^2$ );  $F$  – kutter tog'orasida qiyma qatlamining kesilish yuzasi. Quyidagi formula yordamida hisoblab topiladi

$$F = \frac{V}{2\pi r} \text{ m}^2 \quad (6-11)$$

bunda  $V$ - qiyma yuklash hajmi,  $m^3$ ;  $R$ -aylanish o'qidan qiyma qatlami og'irlik markazigacha bo'lgan masofa,  $m$ ;  $z$ - kutter Pichoqlari soni;  $P$ - valning aylanish chastotasi, *ayl/min*;  $\eta_a$  – quvvat zaxirasi koeffitsienti;  $\eta_{um}$  – energiyaning barcha yo'qotishlarini hisobga oluvchi yuritmaning umumiy FIK, obatta  $\eta_{um} = 0,7-0,8$  qabul qilinadi.

**Misol.** FKCH-120 rusumli kutter unumdorligi va elektrodvigateli quvvati topilsin, agar kutterlashning bir tsikli  $6 \text{ min}$ , tog'ora sig'imi  $120 \text{ l}$ , Pichoqlar soni  $6$ -ta, Pichoqli valning aylanish tezligi  $2000 \text{ ayl/min}$ , kutterlash suv qo'shish usulida amalga oshiriladi ( $A=2,2 \text{ kdj/m}^2$ ), aylanish radiusi (kutter tog'orasida qiyma qatlamining o'qdan og'irlik markazigacha)  $R=45\% \text{ mm}$ , quvvat zaxirasi koeffitsienti  $\eta_a=1,2$  va yuritma FIK  $0,75$ . Kutterning unumdorligi quyidagiga teng

$$Q = 0,6 \frac{60}{6} 120 = 720 \text{ kg/soat}$$

Kutter tog'orasidagi qiyma qatlamining yuzasi quyidagi ifodaga teng:

$$F = \frac{0,120 \cdot 0,6}{2 \cdot 3,14 \cdot 0,45} = 0,025 \text{ m}^2$$

Kutter elektrodvigateling quvvati quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$N = \frac{2200 \cdot 0,025 \cdot 6 \cdot 2000 \cdot 1,2}{60 \cdot 1000 \cdot 0,75} = 17,6 \text{ kVt},$$

Yirik quvvatli kolbasa tsexlarida tog'orasining hajmi  $270 \text{ l}$ -ga teng kutterlar ishlatiladi. Bunday FKD kutterlar elektrodvigateling quvvati  $29 \text{ kVt}$ , tog'orasining aylanish tezligi  $12$  va Pichoqlar o'rnatilgan valning aylanish tezligi  $970 \text{ ayl/min}$ , o'roqsimon Pichoqlar soni  $9$ -tani tashkil etadi. FKD kutterining


konstruksiyasi yuqorida keltirilganga o'xshash, faqat yuritmasi alohida fundamentga o'rnatilgan.

CHet el kutterlari tog'orasining sig'imi 600 l, xom ashyo yuklashni mexanizatsiyalash uchun turli moslamalar, kutterlash jarayonini nazorat va rostdash uchun turli Priborlar bilan ta'minlangan. Ushbu kutterlar Pichoq o'rnatilgan vallarni harakatlantirish uchun ikki tomonlama elektrodvigatellar bilan ta'minlangan, qiymaning harorati elektrik distantsion Priborlar yordamida nazorat qilinadi, maxsus hisoblash mexanizmi tog'oraning aylanish tezligini ro'yxatga oladi va berilgan kutterlar rejimiga binoan to'xtatadi.

Ammo, bu kutterlar davriy rejimda ishlaydi va qiyma tayyorlash jarayonini to'liq oqimli rejimga o'tkazish imkonini bermaydi.

**FIL kutteri.** Kutter konstruksiyasi (58-rasm) VNIIEKIP –da ishlab chiqilgan. Bu kutter uzluksiz rejimda ishlaydi, unumdorligi 2 t/s, elektrodvigatel quvvati 28 kVt.

U quyma cho'yan stanina 1, uning ichida o'rnatilgan Pichoqlar yig'indisi bilan bevosita tutashgan elektrodvigateldan 2 (aylanish tezligi 2940 ayl/min) iborat. Maydalanishi kerak bo'lgan xom ashyo shnek-aralashtirgich 7 vositasida kesish mexanizmiga beriladi (A strelkasi bo'yicha). U ayni vaqtda xom ashyoni suv va ziravorlar bilan aralashtiradi. Xom ashyo bo'yinga 8 tushadi va dastlab vtulkada 4 mahkamlangan o'roqsimon Pichoqlar 3 bilan maydalanadi. Keyin xom ashyo ikki disk orasiga tushadi: harakatsiz 5 va aylanuvchan 6. Disklar bo'rtib chiqqan kesiklarga 9 ega, kesish tig'lari o'zaro ta'sir etib, xomashyoni yaxshi maydalaydi. Xarakatchan diskning 6 loPatkalari 10 bor. Ularning yordamida maydalangan xom ashyo (B strelkasi bo'yicha) tushirish bunkeriga beriladi. Disklar oraliq zazori (mahsulot maydalanish darajasi) harakatsiz diskga Payvandlangan gayka-shturval 11 yordamida rostlanadi. O'roqsimon Pichoqlar soni – 6-ta, juftlangani esa uchta.



58-rasm. FIL kutteri:

1-stanina; 2- elektrodvigatel; 3-Pichoqlar; 4- vtulka; 5-qo'zg'almas disk; 6- qo'zg'aluvchan disk; 7- shnek-aralashtrigich; 8-bo'yin; 9-bo'rtib chiqqan keskiqlar; 10- loPatkalar; 11- gayka-shturval.

Uzluksiz ishlovchi kutterning unumdorligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi


$$Q = \alpha \frac{F}{F_1} \text{ kg/soat}, \quad (6-12)$$

bunda  $\alpha$ -mexanizmning kesish qobiliyatidan foydalanish koeffitsien-ti;  $F$ - Pichoqli mexanizmning kesish qobiliyati,  $m^2/soat$ ;  $F_1$  – 1 kg mahsulotni maydalash maydoni,  $m^2/kg$ .

Kolbasa va kulinar tsexlarida turli navdagi go'shtlar tuzlash komponentlari bilan, kolbasa, chuchvara, kotlet qiymalari: go'sht noni hamda gumma va chuchvara xamiri ishlab chiqarishda bu oPreatsiyalar Parrakli qiyma aralashtrigichlarda amalga oshiriladi.

**FM-140 qiyma aralashtrigichi.** Mashina (59-rasm) ikki qiyma cho'yan ustunlar 1-dan iborat. Ular o'zaro ko'ndalang detal bilan ulangan. Stoykada ikki yelkada (saPfada) zanglamas Po'latdan yasalgan tog'ora (deja) 2 o'rnatilgan. Deja o'q atrofida yuklash vaqtida ushlagich 7 yordamida aylantirilishi mumkin. 140 kg sig'imli dejani aylantirish osonlashtirilishini osonlashtirish uchun deja bilan birlashtirilgan rolik orqali o'tgan trossda o'rnatilgan qarshi og'irlikdan foydalaniladi.

Deja ichida iki **Z**- shaklidagi qalay bilan qoPlangan Parraklar o'rnatilgan. Yetakchi Parrakni harakatga keltirish elektrodvigateldan 4 amalga oshiriladi. Uning quvvati 2,8 *kVt*, aylanish tezligi 1420 *ayl/min*. Harakat uzatilishida uzatish soni  $i = 15$  bo'lgan chervyakli reduktor 5 ishlatiladi. Ikkinchi Parrak ularning valiga kiydirilgan tsilindrik shesternyalar 6 yordamida harakatga keltiriladi. Yetakchi Parrakning harakat tezligi 95 *ayl/min*, yetaklanuvchisidiki esa 44-ga teng. O'qlarning oraliq masofasi 264 *mm*. Rasmda yuritmaning kinematik sxemasi keltirilgan.




59-rasm. FM-140 qiyma aralashtirgichi:

1-ustunlar; 2- tog'ora; 3- Parraklar; 4- elektrodvigatel; 5 -chervyakli reduktor; 6 – yuritma shesternyasi; 7 –tog'orani ag'darish ushlagichi.

Parraklar vallari o'tgan joylarda tog'ora yon devorlari orqali maxsus germetiklash salniklari o'tkazilgan. Bu PodshiPnik moyini mahsulot ichiga tushishiga yo'l qo'ymaydi. Salniklar maxsus flanetslar yordamida tortiladi.

Mashinaning barcha aylanuvchi detallari (Parraklardan tashqari) g'ovlar bilan to'silgan. Mahsulot dejaga uning egilgan hoida solinadi, so'ngra u vertikal holatgacha to'g'rilanadi va elektrodvigatel ishga tushiriladi. Aralashtirish tugagach, deja qiya holatga keltiriladi va mahsulot tushiriladi. Bu vaqt elektrodvigatel o'chirilmaydi, uni Parraklarining aylantirilishi mahsulotni tushirish uchun ishlatiladi. So'ngra mashina yana yuklanadi va yangi tsikl boshlanadi.

**FMM-300 qiyma aralashtirgichi.** Mashina (60-rasm, a) dejasining sig'imi 300 *l*, katta va o'rta quvvatli go'sht kombinatlarida ishlatiladi. U Payvandlangan stanina 1, uning chap tomoniga o'rnatilgan loPastni aylantirish mexanizmi 2, o'ng tomonida esa – dejani ag'darish mexanizmi.



60-rasm. FMM-300 qiyma aralashtirgichi. (umumiy ko'rinish va kinematik sxema): 1-stanina; 2 – Parraklarni harakatlantirish mexanizmi; 3-elektrodvigatel; 4 –Parraklarni qotirish konuslari; 5- aralashtirgich Parraklari; 6 -tog'ora (deja) qoPqog'i; 7-deja; 8- dejani isitish qobig'i; 9-chervyakli uzatgich; 10- reduktor; 11- elektrodvigatel; 12-so'nggi o'chirgich; 13 - tokning umumiy o'chirgichi; 14-elektur qurilma; 15-elektur blokirovka kontakti.

Parraklar 5 quvvati 5 *kVt*, aylanish tezligi esa 735 ayl/min-ga teng elektrodvigateldan 3 iborat. Yetakchi Parrak 67 ayl/min, yetaklanuvchisi esa 57 ayl/min tezlik bilan aylanadi. Tezliklarning bu nisbati tsilindrik uzatuvchi hisobiga erishiladi. Parraklar dejada 7 aylanadi, uning usti qoPqog 6 bilan yoPiladi, ostki qismida esa mahsulotni isitish uchun bug' yoki issiq suv berish uchun qobiq 8 mavjud. Zarurat bo'lganda, Parraklarni osonlikcha chiqarib olish mumkin, buning uchun konus 4 bo'shatiladi va aylantirib chiqariladi. Vallar dejaning yon devoridan o'tgan joylarda salnikli germetiklash vositalari o'rnatilgan. Buning bilan qiymaga PodshiPnik moyi tushishining oldi olingan.

Dejaning 6 qoPqog'i elektrodvigatel 3 bilan shunday blokirovka-langanki, Parraklar ishlab turganda qoPqog ochilsa, kontakt 15 uziladi va elektr energiyasi berilishi to'xtaydi va dvigatel o'chadi. Dejani ag'darish uchun mexanizm mavjud, u alohida elektrodvigateldan 11 iborat bo'lib, quvvati 1 *kVt*, aylanish



tezligi bo'lsa 1410 *ayl/min*. Undan harakat chervyakli reduktor 10 va chervyakli juftlik 9 yordamida uzatiladi.

Dejaning ag'darilish vaqti 0,5 *min*, Poldan ag'darilgan deja chekkasiga qadar balandlik 585 *mm*-ni tashkil etadi. Oddiy ishchi holatda esa 1205 *mm*. Deja ag'darilishini cheklash uchun so'nggi o'chirgich 12 mavjud. U deja eng Pastki va eng so'nggi yuqoridagi holatlarni egallaganda ishga tushadi. Magnitli ishga tushirgichlar yordamida yoqilgan elektrodvigatellar ikki tomonga aylanishi mumkin (reversli aylanish). Tokning umumiy o'chirgichi 13 staninaning tashqarisiga o'rnatilgan va elektr ishga tushuruvchi uskuna 14 bilan ulangan. 97 *b*-rasmda qiyma aralashtirgich kinematik sxemasi keltirilgan.

**MM-1-100 aralashtirgichi.** Qiyma va xamir aralashtirish uchun xizmat qiladi. Unumdorligi 2 *t/s*, tog'orasi sig'imi 155 *l*, bir vaqtda yuklanadigan mahsulot massasi 100 *kg*, elektrodvigatel quvvati 2,8 *kVt*.


Ushbu qiyma aralashtirgichning asosiy jihati uning tayyor mahsulotni yon devoridan maxsus lyuk orqali avtomatik tarzda aylanuvchi Parraklar yordamida ag'darishidir. Parraklar aylanish yo'nalishini o'zgartirishi mumkin. Tog'orada organik shishadan ishlangan qoPqog'i mavjud bo'lib u aralashtirish jarayonini ko'rish imkoniyatini beradi. QoPqog' ochilishi ishlash xavfsizligini ta'minlash uchun elektrodvigatel ishi bilan blokirovkalanagan.

**Vakuumli aralashtirgichlar.** Oxirgi yillarda chet elda (CHexiya, Slovakiya, GFR, GDR, VHR) vakuum aralashtirgichlar keng tarqalgan. Ularda aralashtirish jarayoni vakuum ostida olib boriladi. Buning uchun deja qoPqog'i germetik berkiladigan yasalgan hamda mashina kerakli vakuumni ta'minlash uchun vaumm-nasos bilan ta'minlangan. Go'sht qiymasini aralashtirishda vakuum qo'llanishi kolbasa mahsulotlarining sifatini keskin yaxshilaydi, chunki qiymadan kolbasa batonlarida bo'shliqlar hosil qiluvchi havo chiqariladi. Aralashtirishda vakuum 85-90 %-ga yekqaziladi.

**Xamir qorish mashinasi.** CHuchvara va Pishiriqlar ishab chiqarishda xamir qorish uchun go'sht kombinatlarida «Standart» turidagi 330 *l* hajmga ega dejali aralashtirgichlar ishlatiladi (61-rasm).

U cho'yan ichi bo'sh staninadan 1 iborat. Uning ichida elektrodvigatel 2 o'rnatilgan (quvvati 4,5 *kVt*, aylanish tezligi 1440 *ayl/min*). Elektrodvigateldan harakat tasmali uzatgich yordamida shkivga 3 beriladi. SHkiv va chervyak 4 bir valda o'rnatilgan, bu val aralashtirgich valini 5 shuningdek, unda o'rnatilgan Parrakni 6 harakatga keltiradi.

Xamir dejasi 7 telejkada 10 o'rnatiladi, telejka g'ildiraklar 11 yordamida harakatlanish imkoniyatiga ega. Deja 15 o'z o'qi atrofida chervyakli mexanizm yordamida aylanadi, u chervyakdan 13 harakatga keltiriladi.



61-rasm. Xamir qorish mashinasi:

1- stanina; 2 - elektrodvigatel; 3 - uzatgich shkivi; 4 - reduktor chervyaki; 5 – aralashtirgich vali; 6-loPast; 7- xamir uchun deja; 8 – deja qoPqog’i; 9- qoPqoP burilish o’qi; 10-telejka; 11-telejka g’ildiraklari; 12-avtomatik zashyolka; 13- chervyak; 14-g’ov; 15-dejaning aylanish o’qi; 16-aralashtirgichni ko’tarish maxovikchasi.

### **SHPIk keskichlar**


SHPIk keskich – bu mahsulotni ma’lum o’lcham va shakldagi bo’laklarga bo’lish usuli bilan maydalash mashinasi hisoblanadi. Masalan, kolbasa yoki go’sht noni ishlab chiqarish uchun shPIg keskichlarda 4x4x4 –dan 12x12x12 mm o’lchamgacha bo’lgan qalin yog’i (shPIk) kesiladi. SHPIk kesish mashinasining asosiy ishchi organi kesish mexanizmi bo’lib, uni yordamida maydalangan mahsulot (shPIg, qaynatilgan suyaksiz go’sht) avval Parraklarga kesiladi, so’ngra bruslarga, oxirida esa kubiklarga kesiladi. Demak, kesish jarayoni uch koordinatada amalga oshiriladi.

Kesish mexanizmining konstruksiyasi bo’yicha shPIk keskichlar disk va Plastinasimon Pichoqli bo’ladi. Birinchisida mahsulot Parraklar va brusoklarga aylanuvchan Pichoqlarda bo’linadi, ikkinchisida – lentali (Plastinkali) ramkaga tortilgan ilgarilanma-qaytuvchi harakatli Pichoqlar yordamida kesiladi. Kubiklarning tamomila hosil qilinishi har ikkala konstruksiyadagi shPIk kesish mashinalarida o’roqsimon Pichoqlar yordamida kesib, amalga oshiriladi.

Disk Pichoqli shPIk kesish mashinalari kichikroq unumdorlikka ega. SHPIk kesilishi sifati yomon. Ishlab chiqarishda ular kam uchraydi. Mahsulot yuklash usuli bo’yicha shPIk keskichlar gorizontal va vertikal turlarga ajraladi.

**FSHM-2 gorizontal shPIk kesish mashinasi.** Mashinaning (62-rasm) asosi cho’yan Plitadan 1n iborat. Plita ustida chaP tomondan tumba 2, o’ng tomonda esa ikki cho’yan ustunlari 3 bo’lib, unda mahsulot uzatuvchi, yuritma va kesuvchi mexanizmlar o’rnatilgan. Mahsulot uzatuvchi mexanizm ikki sektsiyali ta’minlash korobkalari 10 va turtkichdan 9 iborat. Maydalanishi kerak bo’lgan shPIk bruschalari ta’minlash korobkasiga joylashtiriladi, qoPqog’i berkitiladi, va mahsulot uzatish mexanizmi 180° –ga shunday buriladiki, korobkaning shPIk solingan sektsiyasi kesish mexanizmining qarshisida bo’lsin. Bu vaqtda ta’minlash korobkasining kesish

mexanizmi oldida bo'lmagan ikkinchi sektsiyasi shPik bilan to'ldiriladi. SHPik brusokini maydalash oPeratsiyasi tugatilgach ta'minlash korobkasi yana 180°-ga aylantiriladi va ikkinchi sektsiyadagi shPik maydalana boshlaydi, birinchi sektsiyaga esa yana brusok solish davom etadi va h.k.



62-rasm. FSHM-2 gorizontaal shPik kesish mashinasi:

*a* – umumiy ko'rinish: 1-Plita; 2 - tumba; 3-ustunlar; 4 - val; 5 – o'roqsimon Pichoq; 6-Pichoq vali; 7 – Pichoqli ramka; 8 - vertikal ramka; 9-turtkich; 10 –ikki sektsiyali korobka; 11-elektrodvigatel; 12 - chervyakli reduktor; 13 - ekstsentrik, 14-Polzun; 15 - burchakli richag; 16 - shesternya; 17 – g'ov qobig'i; 18 – zichlagich (germetik); 19- fiksator; 20- rostlagich; 21- tog'ora (deja);

*b* - reykani berish mexanizmi: 1 - flanets; 2 - shatun; 3 - sheka; 4 - yetakchi ekstsentrik; 5-disk; 6- ekstsentrik; 7 -turg'un sheka; 8 – shatun o'qi; 9- bolt; 10 –ko'rsatkich strelka; 11- shkala;

*v* – shPik kesish mashinasining kinematik sxemasi: 1- yetakchi val shesternyasi; 2,3- oraliq shesternyalari; 4 –val shesternyasi; 5 –reyka shesternyasi; 6 - konussimon shesternya; 7- mufta; 8 – ishga tushurish mexanizmi; 9 - Podshipnik; 10 - ekstsentrik; 11 - burchag richagi; 12-Pichoqli ramkalar; 13 –buriluvchi qurilma.

Mahsulot uzatish va kesish mexanizmlarini yuritish elektrodvigatel 11-dan (quvvati 1,7 kVt, aylanish tezligi 1420 ayl/min) chervyakli reduktor 12, so'ngra turtkich vali 16 va ekstsentrikli kesish mexanizmining vali 13 harakatga keltiriladi. Ta'minlash korobining o'zi aylanib ketmasligi uchun shPikni maydalash vaqtida fiksator 19 o'rnatilgan. Uchida yog'och Porshenli turtgich 9 tishli reyka bilan

tutashgan. Reyka shesternya 16 yordamida harakatga keltiriladi. Shesternya maxsus mexanizm yordamida turtkich valining har bir aylanishi natijasida ma'lum burchakga buriladi va reykaning turtkich bilan birgalikda shPik qalinligiga teng masofaga suradi.

Reykaning mahsulot berish mexanizmi (62-rasm, b) o'q yordamida shatunga 2 ulangan va soat strelkasiga qarshi uzluksiz aylanuvchi flanetsdan 1 tashkil topgan. SHatun o'z navbatida ikki shcheklar 3 bilan ulangan. SHcheklarda muvofiq ikki yetakchi ekstsentrik 4 o'rnatilgan. SHcheklar tebranma aynanuvchi harakatni amalga oshiradi va ekstsentriklar yordamida diskni 5 ma'lum burchakka, u bilan birgalikda shesternyani reykasiga bilan buradi.

Quzg'almas shchekaga 7 o'rnatilgan ekstsentrik 6 harakatli shchekalar 3 soat strelkasiga qarshi yo'nalishda qo'zg'algan vaqtida diskni 5 burilishdan tutib qoladi. Turtkich tishli reykasiga uzatadigan silijishning qiymatini o'zgartirish uchun shatun gaykasi bo'shatiladi va bolt 9 aylantiriladi, natijada shatun o'qi flanetsdagi 1 yo'nilgan joyda siljiydi va ekstsentrik o'zgaradi. Kerakli o'lcham shkala 11 bo'yicha aniqlanadi, unga qarab esa strelka 10 o'rnatiladi. SHPik keskichning kesish mexanizmining tuzilishi 62, a-rasmda aks ettirilgan. Kesish mexanizmining etaklovchi valining so'ngida ekstsentrik 13 va Polzun 14 mavjud bo'lib aylanish vaqtida gorizont tekislikda to'g'ri chiziqli ilgari qaytuvchi harakat qiladi. Polzunga Plastina Pichoqli ramka 7 ulangan. Pichoqlar shPik brusokini gorizont Parraklarga kesadi. Ramka 7 burchakli richagi 15 orqali vertikal Pichoq ramkasi bilan shunday tutashganki, ramka 7 gorizont tekislikda harakatlanganda ramka 8 Pichoqlari bilan vertikal tekislikda harakat qiladi va shPik Parraklarini kvadrat kesimli brusoklarga bo'ladi. Oxirida brusokni kubiklarga kesish o'roqsimon Pichoq 5 yordamida amalga oshiriladi. Bu Pichoq ergashuvchi valning uchiga ulangan va aylana harakat bajaradi. SHPik kubiklar tog'oraga 21 beriladi.

Kesish mexanizmi qobiq 17 bilan berkitilgan. Unda bloklashtiruvchi kontakt o'rnatilgan bo'lib, qobiq ochilganda elektrodvigatelni o'chiradi. Bunday konstruksiya kerakli texnika xavfsizligini ta'minlaydi.


62 v -rasmda shPik keskichning kinematik sxemasi ko'rsatilgan. Elektrodvigatel vali mufta 7 yordamida uzatuvchi val va unga kiygizilgan shesternya 1 bilan ulangan. Shesternya 1 shesternya 2 bilan tishli birikkan holatda bo'ladi. Mufta 7 oraliq val orqali shesternya 3 va 4 bilan ham birikkan. Kesish mexanizmining yurutuvchi vali konussimon juftlik 6 orqali, turtkichning uzatish mexanizmi ma'lum burchakka burish qurilmasi orqali va ishga tushirish mexanizmi 8 reykaning 5 shesternyasi orqali harakatga keltiriladi.

Kesish mexanizmining yuritish valining uchida ekstsentrik 10 kiydirilgan. U burchakli richag 11 bilan ulangan Pichoqli ramkalar 12-ni harakatga keltiradi. SHPik keskichning sifatli ish darajasini ta'minlash uchun maydalanadigan mahsulotni sovutish tavsiya etiladi.

FSHM-2 shPik keskichining unumdorligi mahsulot maydalanish darajasiga bog'liq. Kubiklarning o'lchami  $4 \times 4 \times 4 \text{ mm}$  bo'lganda unumdorlik  $200 \text{ kg/s}$ ;  $6 \times 6 \times 6 \text{ mm}$  o'lchamda –  $350$ ;  $8 \times 8 \times 8 \text{ mm}$  o'lchamda –  $500$  va  $12 \times 12 \times 12 \text{ mm}$  o'lchamda -  $750 \text{ kg/s}$ .

Hozirgi vaqtda GGSHM gorizontal shPik kesish mashinalarining konstruktsiyalari yaratilgan va seriya qilib ishlab chiqariladi. Ularda kesish mexanizmiga shPik dastlabki holatga avtomatik qaytuvchi uzatish gidravlik harakatlanuvchi tsilindri amalga oshiriladi. Bu mashinalar shPikni 4,6,8,12 mm o'lchamdagi kubiklarga bo'ladi. Mashina unumdorligi 4x4x4 mm o'lchamli kubiklar bo'yicha 300 kg/s-ni tashkil etadi, energiya sarfi 5,6 kVt\*s/t.

**Gidravlik vertikal shPik kesish mashinasi** (63-rasm). Bu mashinada ta'minlovchi ikki sektsiyali quti vertikal o'rnatilgan, bu shPikni kesish mexanizmiga uzatishni osonlashtiradi. Plastina (lenta) va o'roqsimon Pichoqli ikki Pichoq ramkalaridan iborat kesish mexanizmi yaxshiroq sharoitda ishlaydi. Bundan tashqari, uzatish mexanizmi, kesish mexanizmining va maydalanadigan mahsulotning yonida o'rnashgan. Bu moylovchi materialning mahsulot ichiga tushish xavfini yo'q qiladi.



63-rasm. Vertikal shPik kesish mashinasi kesish mexanizmining tuzilish sxemasi

1- ta'minlash qutisi; 2-vertikal o'q; 3- turtkich vali; 4-Porshen; 5- shPik brusogi; 6-birinchi ramka; 7-Plastinasimon Pichoqlar; 8-Pichoqli ramka; 9-Pichoqlar; 10- o'roqsimon Pichoq; 11- o'roqsimon Pichoq vali.

Mandrik mashinasozlik zavodi ishlab chiqargan gidravlik shPik kesish mashinalarining unumdorligi 1000 kg/s, ta'minlovchi sektsiyasining hajmi 5,5  $dm^3$ , Pichoqli ramkalarining siljish uzunligi 40 mm, dvigatel quvvati 4,5 kVt, ishchi bosim 13 atm. 63-rasmda vertikal shPik kesish mashinasi kesish mexanizmining tuzilish sxemasi keltirilgan. Ikki sektsiyadan iborat ta'minlash quti 1

vertikal o'q 2 atrofida aylanishi mumkin va sektsiyalardan biriga shPik brusogi yuklangandan so'ng turtkich vali ostiga turadi. Qutida Porshen 4 o'rnatilgan bo'lib, uning yordamida shPik brusogi 5 kesish mexanizmiga uzatiladi. Avval brusok Plastinka Pichoqli 7 vertikal qovurg'aga o'rnatilgan birinchi ramkaga 6 tushadi.

Brusok ilgari lanma-qaytuvchi harakatlanuvchi Pichoqlar yordamida qisiladi. Kesish qalinligi ramkadagi Pichoqlar oraliq masofasiga bog'liq. So'ngra mahsulot Parraklari shunday Pichoqlar joylashgan ikkinchi ramkaga tushadi. Faqat bu Pichoqlar birinchi guruh Pichoqlarga PerPendikulyar yo'nalishda harakatlanadi. Pichoqlar 9 o'rnatilgan ramka 8 mahsulot Parraklarini kvadrat kesimli brusochkalarga kesadi. Ular keyinchalik aylanuvchi vertikal val 11 uchiga ulangan o'roqsimon Pichoqlar 10 yordamida gorizonta tekislikda kubiklarga kesiladi.

SHPik kubiklari qabul qilish idishiga beriladi. Vertikal shPik keskichlarning unumdorligi gorizontalgaga qaraganda yuqorirok, kesish sifati ham yaxshiroq.

Davriy ishlovchi shPik kesish mashinalarining unumdorligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Q = 60 \frac{G}{t} \quad \text{kg/s}, \quad (6-13)$$

bunda  $G$  – ta'minlash qutisiga yuklangan shPik (brusok) massasi,  $kg$ ;  $t$  – bir bo'lak shPikni maydalash jarayonida yuklash, qoPqoqni yoPishqutini burish, maydalash, qutini teskari tomonga burish, qoPqoqni ochishga sarflangan vaqt,  $min$ .

SHPik kesish mashinasining quvvati A.P.Peelev taklif etgan quyidagi formula yordamida toPiladi:

$$N = \frac{a\varphi bzn(2dz_0 + b)\eta_a}{60 \cdot 1000\eta_1\eta_2} \text{ kVt}, \quad (6-14)$$

bunda  $a$  -shPik kesish uchun sarflangan energiya,  $Dj/m^2$ ;  $\varphi$  -maksimal mumkin bo'lgan unumdorlikdan foydalanish koeffitsienti;  $z$  – ta'minlash qutisi kesimining o'lchami,  $m$ ;  $b$  -o'roqsimon Pichoqlar soni;  $P$  – o'roqsimon Pichoq harakatlanish tezligi;  $d$  – Pichoqning bir aylanishida beriladigan shPik miqdori,  $m$ ;  $z_0$  – ramkadagi Plastinkali Pichoqlar soni;  $\eta_a$  – quvvat zaxirasi koeffitsienti;  $\eta_1$  – ta'minlagichdagi quvvatni yo'qotish koeffitsienti;  $\eta_2$  – kesish mexanizmiga harakat uzatgichlar FIK-i.

**Misol.** SHPik kesish mashinasining unumdorligi va elektrodvigateli quvvatini aniqlang, agar mahsulot bilan ta'minlovchi sektsiyaga yuklanuvchi shPik brusokining massasi  $12 \text{ kg}$ , maydalash tsiklining davomiyligi  $110 \text{ sek}$  bo'lsa.

Mahsulot bilan ta'minlash qutisining o'lchamlari  $120 \times 120 \text{ mm}$ , kesish mexanizmi ikki Pichoq ramkalaridan iborat, har bir ramkada 16 –tadan Pichoq va  $90 \text{ ayl/min}$  tezlikka ega bir o'roqsimon Pichoq o'rnatilgan. SHPik uzatib berish valning 1 aylanishida  $6 \text{ mm}$ -ni tashkil etadi.

SHPikni kesishga sarflanadigan energiya sarfi  $16 \text{ kDj/m}^2$  -ni tashkil etadi, quvvat zaxirasi koeffitsientini 1,2 –ga teng qabul qilamiz, unumdorlikdan foydalanish

koefitsienti 0,9, mahsulot bilan ta'minlovchida quvvatni yo'qotish koefitsienti 0,95 va kesish mexanizmi uzatkichlarida 0,85.

SHPik kesish mashinasi unumdorligini quyidagi ifoda yordamida to'Pamiz:

$$Q = 60 \frac{12}{\frac{110}{60}} = 395 \quad \text{kg/s}$$

Elektrodivigatel quvvati quyidagi ifoda yordamida to'Pamiz:

$$N = \frac{15000 \cdot 0,9 \cdot 0,12 \cdot 1 \cdot 90 \cdot (2 \cdot 0,006 \cdot 16 + 0,12) \cdot 1,2}{60 \cdot 1000 \cdot 0,95 \cdot 0,85} = 1,1 \text{ kVt.}$$

SHPik kesish mashinalari guruhiga terini shPikdan tozalash va shPikni qalinligi 2 mm bo'lgan qatlamlarga ajratish mashinalari kiradi. Ushbu mashinalarning asosiy kesish organi ilgari lanma-qaytuvchi harakat bajaruvchi uzluksiz lentali yoki Plastinali Pichoq.

### **Go'sht va go'sht mahsulotlarini kesish mashinalarini eksPluatatsiya qilishdagi texnika xavfsizligi**

YUqorida keltirilgan go'shtga mexanik ishlov berish mashinalari odatda tez harakatli, ishlovchilar uchun xavfsiz emas. SHuning uchun ular bilan ishlashga bu mashinalarni yaxshi bilgan ishchilar, ishga tushirish, eksPluatatsiya qilish va to'xtatish qoidalarini biladigan, texnika xavfsizligi bo'yicha kerakli instruktaj o'tgan ishchilarga ruxsat beriladi.

Mashinalar to'liq soz holatda bo'lishi kerak. Harakatlanuvchi qismlarga qo'yilgan g'ovlar bo'lmasa, elektr qismlarni yer bilan tutashtirgan vositalar bo'lmasa, tsex yomon yoritilgan vaqtda ishlashga ruxsat berilmaydi.

Barcha harakatlanuvchi qismlar moylanishi kerak. Ular tovushsiz ishlashi, detallari qizimasligi kerak. Elektrodivigatel, elektroblok-lovchi kontaktlar, Provodka, ishga tushirish va rostlovchi Priborlarni namlik tegishi va iexanik ta'sirlardan saqlash, doimiy tekshirishlardan o'tkazish kerak.

Har bir mashina yonida ko'rinar joyda mashinani ishga tekshirish, xizmat ko'rsatish va to'xtatish qoidalari osiladi.

Nazorat savollari:

1. Tangasimon muz (cheshuychatqy led) tayyorlash uchun AIL-200 aPParatining vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
2. Tez muzlatuvchan konveyerli GKA-2 aPParatini tuzilishi va ishlash tartibi.
3. Arralar, ularning turlari, vazifasi, tuzilishi va ishlash tartiblari.
4. Qadoqlash-shakl berish mashinalari, ularning turlari, vazifasi, tuzilishi va ishlash tartiblari.
5. Volchokning vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
6. Kutterlarning vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.

7. SHPiK keskichlarning vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
8. Go'sht va go'sht mahsulotlarini kesish mashinalarini eksPluatatsiya qilishdagi texnika xavfsizligi.

### **7-ma'ruza. TO'LDIRISH, DOZALASH, SHAKL BERISH VA QADOQLASH MASHINALARI**

Kolbasa mahsulotlari, go'sht konservalari, chuchvara, kotlet va boshqa go'sht mahsulotlari ishlab chiqarishda qiymani kolbasa qobiqlariga to'ldirish, konserva bankalarini go'sht bilan to'ldirish, donali mahsulotlarni tayyorlashda go'sht va xamir Portsiyalarini og'irlik yoki hajmi bo'yicha bo'lish oPeratsiyalari bajariladi. Ularga ma'lum shakl beriladi, qadoqlanadi va o'rab qo'yiladi.

Bu oPeratsiyalar jarayon unumdorligini oshiruvchi va mahsulot sifatini yaxshilovchi turli mashinalar yordamida oqim-texnologik liniya tashkil etib amalga oshiriladi.

#### **Dozalash-to'latish mashinalari**

To'latish va dozalash mashinalari go'sht va Parranda kombinatlarining kolbasa va konservalash tsexlarida keng ko'lamda ishlatiladi. Bu guruh mashinalarga birinchi navbatda shPrits, yoki kolbasa qobiqlariga mexanik usulda qiyma to'ldirish mashinalari kiradi.



## **SHPritslar**

Ishlash Printsipi bo'yicha shPritslar davriy va uzluksiz ishlovchi bo'ladi.

Davriy ishlovchi shPritslar nisbatan kichik unumdorligi bilan tavsiflanadi. Uning farsh solish rezervuari qiymani rezervuardan qobiqqa siqib chiqarish Porshen shaklidagi moslamasi bilan birga qurilgan. U qo'l kuchi, mexanik va gidravlik yuritmalaridan harakatga keltiriladi.

Uzluksiz ishlovchi shPritslar umumli va kolbasa ishlab chiqarish oqim-texnologik liniyalarini vujudga keltirish uchun juda qulay. Bu mashinalar uzluksiz ravishda shPrits orqali kolbasa qobig'iga qiyma berishni ta'minlaydi. Qiymani rezervuardan bosim bilan berish uchun uzluksiz ishlovchi ekstsentrik loPastli konstruktsiyali, vintli yoki shnekli, shesterniyali va rotatsion ishchi organli mexanizmlar qo'llanadi. YUritma turi bo'yicha mexanik va gidravlik mashinalarga ajraladi.

Uzluksiz ishlovchi qiyma chiqargichlarning kamchiligi qiymaga nisbatan bosim teng tarqalmasligidan iborat. Qiyma uzatish ayrim hollarda siltashlar ko'rinishida amalga oshiriladi, agar qiyma sarfi kamaysa, uning ko'P marta aylantirilishi (retsirkulyatsiyasi) ro'y beradi, natijada qiyma seli chiqib ketadi, qiyma korPusga ko'P ishqalanib, sifati yomonlashadi.

Porshenli qiyma siqib chiqaruvchi shPritslarda tsilindr kesimining barcha nuqtalari bo'yicha qiyma bir tekisda siqiladi, buning natijasida go'sht seli deyarli chiqmaydi, qiyma berish doimiy bosim ostida amalga oshiriladi, qiymada havo to'lib qolgan bo'shliqlar hosil bo'lish ehtimoli deyarli qolmaydi.

SHPritslar bir yoki bir necha tsilindrli, gorizontaal yoki vertikal bo'lishi mumkin. SHPritslarning ayrim konstruktsiyalarida maxsus dozalovchi yoki burovchi qurilmalari bo'lishi mumkin.

SHPritslarga quyidagi talablar qo'yiladi: yuqori unumdorlik, mahsulot birligiga sarflanadigan quvvatning minimalligi, qiyma chiqishi bosim va tezligini rostlash imkoniyati, qiymaning tarkib va strukturasi saqlash, qobiqqa tiqish zichligi, qiyma yuklash qulayligi, mashina konstruktsiyasining ishonchliligi, konstruktsiyani yechish osonligi va sanitar ishlov berish osonligi, xizmat ko'rsatishda xavfsizlik ta'minlanishi.

Qobiqni qiyma bilan to'ldirish vaqtida uning ichiga havo kirmasligi eng asosiy omil hisoblanadi. SHuning uchun shPritslarning oxirgi konstruktsiyalarida tsilindridan vakuum-nasos yordamida havoni so'rish qurilmasi qo'llanilgan.

64-rasmda go'sht kombinatlarida ko'P ishlatiladigan ayrim shPritslarning Printsipi sxemalari keltirilgan.

**Davriy ishlovchi gidravlik shPrits.** SHPritsda (64-rasm,a) ikki tsilindri bor: ishchi 5 va gidravlik (moyli) 8. TSilindrlarda umumiy shtok bilan ulangan Porshenlar 6 va 9 harakat qiladi. SHesterniyali nasos 3 yordamida suyuqlik (moy) yig'uvchidan 10 Porshen 9 ostiga beriladi, u o'z navbatida ko'tariladi va qiymani ishchi tsilindrdan 5 tsevka 1 orqali siqib chiqaradi. TSilindr 5 yuqori qismi qo'Pqoq 7 bilan berkitilgan.

Qiymani ishchi tsilindrdan siqib chiqarish jarayoni bajarilgach, kran 2 qayta ochiladi va moy Porshen usti bo'shlig'iga 5 kira boshlaydi, natijada Porshen 9 va

u bilan bog'liq Porshen 6 Pastga tusha boshlaydi. Ishchi tsilindr 5 qoPqog'i 7 ishchi tomonidan ochiladi va unga qiymaning keyingi qismi solinadi, keyin yana shPritslash jarayoni boshlanadi. Bir tomoni bog'langan qobiq og'zi ochiq holda shPrits tsevkasi (naychasi)-ga kiydiriladi va farsh to'ldirish vaqtida qo'l bilan mahkam ushlab turiladi.


CHet el firmalari «KomPleks» (VHR), «Saksoniya» (GDR), «Vemag» va «Aleksander Verke» (GFR), «Gloub» va «Boss» (AQSH) va h.k. tomonidan qiyma solish tsilindri 30 dan 350 litrgacha bo'lgan gidravlik shPritslar ko'P miqdorda ishlab chiqariladi. Ular tashqi ko'rinishi, ishlovi, og'irligi, dozalash qurilmasining borligi, qiyma yuklash moslamalarining konstruktsiyasi bilan farq qiladi.

**Pnevmatik shPrits.** Bu shPrits (64, b -rasm) ham davriy ishlaydi, ishchi tsilindr 3, siqilgan havo ta'sirida unda harakatlanuvchi Porshen 4, ventil 2 yordamida Porshenga havo berish nasosidan 5 tashkil toPgan. TSilindrning yuqori qismida qoPqoq 6 va tsevka 1 mavjud.

Oxirgi yillarda bunday shPritslar tobora kam ishlatilmoqda. Ular ishlashda xavfli, gidravlik shPritslardan ko'ra afzallikka ega emas.

**Parrakli rotatsion shPrits.** SHPrits (64, v - rasm) uzluksiz ishlovchi bo'lib, korPusdan 5 iborat. Unda Parraklar 2 rotor 3 ekstsentrik bilan o'rnatilgan va Parraklari harakat qiladi. Rotor aylanganda, korPusida rotorning kesmalarida Parrak harakatlanadi, bunkerdan 1 qiyma oladi va uni bosim ostida tsevka orqali chiqaradi. Parraklar Prujinaga mahkamlangan.

**Vintli shPrits.** Bu shPrits (64, g - rasm) uzluksiz ishlaydi. KorPus 3, uning ichida shnek 1 aylanadi, bunkerdan 4 qiyma oladi va naychaga (tsevka) 2 beradi.



64-rasm. SHPritslar tuzilishi sxemalari:

*a* – davriy ishlovchi gidravlik shPrits: 1-naycha (tsevka); 2-ochib-yoPuvchi kran; 3-shesternyali nasos; 4-manometr; 5-ishchi tsilindr; 6-qiyma uzatish Porsheni; 7-qoPqoq; 8 -moy tsilindri; 9-Porshen; 10 – moy yig’uvchi;

*b* - Pnevmatik ishlovchi shPrits: 1- shPrits tsevkasi; 2-ventil; 3-ishchi tsilindr; 4- Porshen; 5- nasos; 6-qoPqoq;

*v*- rotatsion Parrak harakatli shPrits: 1-yuklash bunkeri; 2-Parraklar; 3-rotor; 4 - tsevka; 5 – shPrits korPusi;


*g* -vint ta’sirli: 1-shneklar; 2-shPrits tsevkasi; 3- shPrits korPusi; 4-yuklash bunkeri.

SHPritslarning yuqorida yoritilgan Printsipial sxemalarini konstruksiyalari turlicha shakllantirilishi mumkin. Ayrim shPritslarning konstruksiyalari qiymani mexanik yuklash moslamalari hamda qiyma o’lchamlarini ajratish qurilmalari bilan ta’minlangan. Bu donali mahsulotlar: sosiska, sardelka ishlab chiqarish imkoniyatini beradi.

SHPritslarning alohida konstruksiyalari tuzilishini to’liqroq ko’rib chiqamiz.

**GSHU-65 rusumli gidravlik shPrits.** SHPrits (65, *a*, *b* -rasm)go’sht kombinatlarida keng tarqalgan. U qiyma uchun hajmi 65 l bo’lgan ishchi

tsilindrdan 1 iborat. TSilindr cho'yandan quyish yo'li bilan tayyorlangan, ichida Porshen va zichlash halqalari mavjud. Halqalar qiymaning Porshen osti bo'shlig'iga tutishdan asraydi.



65-rasm. GSHU-65 rusumli gidravlik shPrits:

*a* – umumiy ko'rinish; *b*- kinematik sxema: 1- ishchi tsilindr; 2- tsilindr qoPqog'i; 3-bosgich (traverza); 4-shturval; 5-juftlangan tsevka; 6-qiyma tsilindri Porsheni; 7-shtok; 8-moy tsilindri Porsheni; 9-elektrodvigatel; 10-shesterniyali nasos; 11- saqlanish klaPani; 12- taqsimlash krani; 13-tsevka krani.

Qiyma tsilindri Porsheni 6 shtok 7 orqali Porshen 8 bilan qattiq ulangan. SHuning bilan ikkala Porshenlar birga harakat qilishadi. Qiyma tsilindri 1 yuqori qismidan qoPqoq 2 va zichlashtirish halqasi bilan berkitilgan. QoPqoq traverza 3 bilan shturval 4 yordamida zich siqiladi. Qiyma chiqishi uchun tsilindrning ikkala tomonidan ikkita juftlangan naycha (tsevka) 5 o'rnatilgan. Ular kran 13 bilan berkitiladi. TSevkalar bittalik bo'lishi ham mumkin. Juftlangan tsevkalar shPrits unumdorligini oshirish imkoniyatini beradi.

SHPrits elektrodvigavteldan 9 (quvvati 2,2 *kVt*, aylanish tezligi 1500 *ayl/min*) yuritiladi. Elektrodvigatel shesterniyali nasosni 10-ni harakatga keltiradi. Nasos rezervuadan moyni so'radi va bosim ostida quvurlar va taqsimlash krani 12 orqali moy tsilindrining Porshen bo'shlig'iga beriladi. Porshen 8, u bilan birgalikda Porshen 6 ko'tariladi, qiymani ishchi tsilindrdan siqib-chiqarib tsevkaga 5 beradi. SHPritslash vaqtidagi moy tsilindridagi maksimal bosim 13 *atm*-ni tashkil etadi; qiyma tsilindridagi maksimal bosim 8 *atm*.

Qiyma tsilindri Porshenining siljishi (xod) 440 *mm*-ni tashkil etadi. SHPritslash tugagach Porshen qiyma tsilindrida eng yuqori nuqtani egallaganda tarqatish krani 12 I holatga o'giriladi, moy nasosdan Porshen usti bo'shlig'iga tusha boshlaydi, Porshen Pastga harakat qiladi, Porshen ostidagi moy bo'lsa rezervuarga qarab siqiladi.

Porshen Pastga tushgach tsilindr qoPqog'i ochiladi va tsilindrga kerakli miqdorda qiyma solinadi. Keyin qoPqoq zich berkitiladi, tarqatish kranining II holati o'rnatiladi va yana shPritslash jarayoni boshlanadi.

Saqlash klaPani 11 bosim ruxsat etilgandan ortishiga yo'l qo'ymaydi va bosim 13-15 *atm* –dan ortganda ochiladi. Bunda nasos moy rezervuari bilan tutashadi va moy tsilindrga boshqa kirmaydi. Bosimni nazorat qilish uchun manometr o'rnatilgan.

GSHU-65 shPritsi unumdorligi 500 *kg/s*-ni tashkil etadi. Rossiya mashinasozlik zavodlarida FGS-30 rusumli tsilindr hajmi 30 *l* bo'lgan gidravlik shPritslar ishlab chiqariladi.

Bu shPrits quvvati uncha katta bo'lmagan kolbasa tsexlarida o'rnatiladi.

FGS-30 shPritsining unumdorligi 150 *kg/s*-ni tashkil etadi. Farsh tsilindrining diametri 310 *mm*, Porshen siljish masofasi 400 *mm*, elektrovigatel quvvati 1,1 *kVt*. Ishchi tsilindrda bitta tsevka o'rnatilgan, u buralib, qiymaning qobiqqa kirish yo'lini ochishi yoki yoPishi mumkin. SHPritslashning ishchi bosimi kolbasa naviga bog'liq va saqlanish klaPani yordamida o'rnatiladi.


**FLN-1 rusumli shPrits.** Vakuum elektrogidravlik shPrits-dozalagich FLN-1 ning konstruksiyasi VNIIEKIProd mash-da ishlab chiqilgan. SHPrits (66-rasm) donali va og'irligi bo'yicha hisob olib boruvchi kolbasalar va sosiskalar ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan. U yakka tartibda va oqim-mexanizatsiyalashgan liniya tarkibida ishlatilishi mumkin.

SHPritsning boshqalardan asosiy farqi uning tsilindrga qiyma yuklash oPeratsiyasini mexanizatsiyalashtirilganligi va farshdan havoni chiqarish uchun vakuumdan foydalanganligidir..

SHPrits vertikal qiyma ishchi tsilindri 4 va moy tsilindridan 5 iborat. Ularda shtok yordamida o'zaro qattiq tutashtirilgan Porshenlar harakatlanadi. Qiyma tsilindrda oddiy shPritslash uchun ikkita tsevka mavjud, yon tomonlarida esa ikkita dozalash bo'limi 3 mavjud. Dozalagichlarda tegishli o'lchagich va aylantirib-burash mexanizmlari o'rnatilgan. Qiyma vakuum bo'yinli 2 bunkerda solinadi, bunkerda qiyma uzatish shneklari o'rnatiladi.

Mashina ishlashining avtomatik davri Porshenning eng yuqori dagi holatidan boshlanadi. Bu onda qiyma yuklash mexanizmi 1 avtomatik tarzda ishga tushadi, vakuum-nasos ishga tushadi va Porshen Pastga tushadi. Qiyma bunkerdan uzatish shneki yordamida olinadi, ishchi tsilindr bo'yniga tushiriladi va Porshen eng Pastgi holatni egallaguncha to'ldiriladi.

Pastki holatda Porshen 2 *sek* bo'ladi, so'ngra vakuum-nasos o'chadi, qiyma beruvchi shneklar to'xtaydi, Porshenning yuqoriga harakati ishga tushadi va qiyma tsilindrdan chiqarila boshlaydi. Dozalashsiz shPritslashda odatdagi zaslonkali tsevkalardan foydalaniladi. Ular oyoq Pedali yordamida yoqiladi va o'chiriladi.




66-rasm. FLN-1 rusumli shPrits:

1- qiyma yuklash mexanizmi; 2-vakuum golovka; 3-dozalash golovkasi; 4-qiyma solish tsilindri; 5-moy tsilindri; 6-elektrodivigatel; 7-moy nasosi.

SHPrits va moyli nasosga 7 qiyma uzatish mexanizmlari elektrodivigateldan 6 harakatga keltiriladi. Uning quvvati 6 *kVt*, aylanish tezligi 960 *ayl/min*. Vakumm-nasos va dozalash bo'yinlari esa quvvati 1,7 *kVt* va aylanish tezligi 1450 *ayl/min* –li elektrodivigateldan harakatga keltiriladi.

Dozalash bo'yinlari bilan ishlash vaqtida, ishlash sxemasi 67-rasmda aks ettirilgan qurilma qo'shiladi.

Dozalash qurilmasi (67-rasm) asos 1 va unda ekstsentrik mexanizm yordamida harakatlanadigan ikkala tsilindrga tutashtirilgan reykanidan 2 iborat. Reyka ilgari qaytma harakat qiladi va shesternyaga 3 harakatni uzatadi. SHesternya valda 5 erkin o'rnatilgan, yarimmufta 4 bilan tishlari orqali tutashgan. Reyka yuqoriga harakatlanganda shesternya 3, tishli yarimmufta 4 va tsilindrda 7 joylashgan dozalash Porsheni 8 180°-ga buriladi. Reyka teskari yo'nalishda Pastga harakatlanganda burilish bo'lmaydi. Bu bo'sh yurish bo'ladi. Qiyma tsilindrdan dozalash tsilindriga shtutser orqali K yo'nalishida kiradi va dozalash golovkasining A bo'shlig'ini to'ldiradi. Bunda qiyma bosimi ostida Porshen 8 o'ng tomonga N yo'nalishda tayanish bo'ynigacha 9 N kattalikka harakat qiladi.



67-rasm. Dozalash qurilmasi:

1-dozator asosi; 2- reyka; 3, 6- shesterenkalar; 4- yarimmufta; 5- val; 7- dozator tsilindri; 8-dozalash Porsheni; 9- tayanish golovkasi (vint); 10- burash mexanizmi valiki.

A bo'shlig'i to'ldirilgach dozalash Porsheni 180°-ga buriladi va qiymaning keyingi kelishida V bo'shdiq to'ldiriladi. Bir vaqtning o'zida Porshen chaPga M yo'nalishda harakatlana boshlaydi va A bo'shliqdan qiyma dozasini L yo'nalishda tsevka tomonga siqib boradi. Tsevka shesternyalar 6 vositasida aylanadi va qobiqni buraydi. Keyin dozalovchi Porshen yana yarim aylanaga aylanadi va tsikl davom etadi.

Berilayotgan qiyma dozasi vint 9 yordamida Porshen va vint golovkasi oralig'idagi masofa YA-ni o'zgartirib, rostlanadi.


FLN-1 shPritsi unumdorligi 360 *doza/min*-ni tashkil etadi, qiyma tsilindrining sig'imi 70 l, yuklash bunkerining sig'imi 250 l.

#### **FDN-1 rusumli qiyma dozatori.**

Dozator (68-rasm) go'sht kombinatlarida sosiska ishlab chiqarishda qo'llaniladi va ko'chma mashina hisoblanadi. Uni osonlik bilan dozalash mexanizmi bo'lmagan odatdagi gidravlik va Pnevmatik shPritslarga ulash mumkin.

FDN-1 dozatori donali va og'irligi bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulotlar: sosiska va sardelkalar uchun odatdagi shPritslari mavjud bo'lgan go'sht kombinatlarida qo'llanishi mumkin.

FDN-1 dozatori stanina 1, uning ichiga joylashtirilgan yuritma 2, uning Plita 18-ga o'rnatilgan AOL 32-4 markali quvvati 1 *kVt* va aylanish tezligi 1410 *ayl/min* bo'lgan edektrovigateli 17-dan iborat. Harakat Ponasimon tasmali uzatkich 16 – dan RCHN 80 A-4-P tiPdagi uzatish soni 10,25-ga teng bo'lchan chervyakli reduktorga orqali uzatiladi.



68-rasm. FDN-1 rusumli qiyma dozatori:

1-stanina; 2-yuritma; 3- ekstsentikli mexanizm; 4- ekstsentrik; 5-tortgich (tyaga); 6-tishli reyka; 7-dozalash bo'yni; 8-tsevka; 9-yulduzcha; 10-o'ng yarimmufta; 11-etaklovchi val; 12- richagli qurilma; 13-chaP yarim mufta; 14-zanjirli uzatma; 15-reduktor; 16-tasmali uzatma; 17-elektrodvigatel; 18- Plita; 19- Pedal; 20- quvurcha.

Harakat reduktor yulduzchasidan zanjirli uzatma 14 orqali yulduzcha 9-ga va val 11-da erkin aylanayotgan tishli o'ng yarim mufta 10-ga uzatiladi.

Qiyma bo'lagini dozalash va qobiqni burash dozalash bo'yni 7 va ekstsentrikli mexanizm 3 yordamida amalga oshiriladi.

Ekstsentrikli mexanizm yetaklavchi val 11, unda aylanuvchi tishli yarimmuftali 10 yulduzcha 9, ekstsentrik 4, tortgich (tyaga) 5 va chaP tishli yarimmufta 13 dan iborat.

Dozalash mexanizmi 7 ning qo'shilishidan ilgari ichak qobig'i tsevka 8- ga kiydiriladi, Pedal 19 bosiladi. U richaggi qurilma 12 orqali yarimmuftalar 10 va 13 ni biriktiradi, natijada val 11 harakatlantiriladi. Val o'z navbatida harakatni ekstsentrik 4, tyaga 5 va tishli reyka 6 ga uzatadi. Bunda dozalash qurilmasi 180° ga buriladi va farsh Portsiyasini berish bilan birgalikda qobiqni buraydi. Reyka teskari yo'nalishda harakatlanganda tsikl tarorlanadi. Bu oPerator oyog'ini Pedaldan olgunicha davom etadi.


FDN-1 dozatorining unumdorligi 180 *doza/min* –ni tashkil etadi. Qobiq diametriga bog'liq ravishda tsevkani almashtirish mumkin. Buning uchun maxsus shtutserdan foydalaniladi. SHPritsga dozator quvurcha 20 yordamida biriktiriladi.

Gidrosistemadagi maksimal bosim 50  $kg/sm^2$ . Dozalash qurilmasining tasvir etilgan Printsipi FDN-1 rusumli qiyma ko'chma dozatorida ham qo'llanilgan.

**Ekstsentrik-Parrakli rotatsion shPrits.** Bu shPrits (69-rasm) uzluksiz ishlaydi. Nevedomskiy va SkriPnik tomonidan yaratilgan shPritslar asosida ishlab chiqilgan.



SHPrts korPus 1, uning yon devorlari 2 va 3-dan tashkil toPgan. Devorlardan biri rezina Prokladkali bo'lib oson olinadi. Devor 2 gayka barashkalar 9 yordamida o'rnatiladi, devor 3 boltlar bilan mahkamlangan. KorPus devorlarida suriladigan PodshiPniklar o'rnatilgan, ularda val 4 va ularga shlitsalarda rotorning disklari 5 va 6 o'rnatiladigan. Rotor disklarining uzunasi bo'yicha ariqcha ochilgan bo'lib, rotor aylanganda ularda nasosning 7 Parraklari harakatlanadi. Rotor korPusga nisbatan ekstsentrik bilan o'rnatilgan. Parraklar yuklash bunkeridan 10 qiyma oladi va chiqish tuynugi 12 tomonga suradi. Rotorning ekstsentriki tufayli qiyma Portsiyalari Parraklar orasida hajm kamayishi hisobiga sekin asta siqiladi va qiyma chiqish tuynugiga bosim bilan beriladi.



69-rasm. Ekstsentrik-Parrakli rotatsion shPrts:

1-shPrts korPusi; 2-olinuvchan yon devor; 3-korPusning yon devori; 4-shPrts vali; 5, 6-rotor disklari; 7- nasos Parraklari; 8-korPusdagi yo'l (kanavka); 9-gayka-barashkalar; 10-yuklash bunker; 11-biriktiruvchi mufta; 12-chiqish tuynugi; 13-qiyma uzatgich (farsheProvod); 14- tsevka;

Qiyma uzatish vaqtidagi turtish va nasosning Pulsatsiya bilan ishlashini yumshatish uchun shPrts korPusining ostida ariqcha 8 yo'l o'yilgan, uning yordamida qiymaning bir qismini bir otsekdan ikkinchisiga chiqarish imkoniyati mavjud. Bu ayni vaqtda qiyma strukturasi saqlash imkoniyati beradi va uni keraksiz ishqalanishini bartaraf etadi. Rotor aylanishi vaqtida farsh uzluksiz qiyma o'tkazgich 13 orqali tsevka 14 ga beriladi. SHPrts dozalash qurilmasi bilan ta'minlanishi mumkin.

Rotor 2.8 kVt quvvatli, 1500 ayl/min tezlikka ega elektrodviga-teldan reduktor va yarim qattiq mufta 11 orqali harakatga keltiriladi.

Rotorda 18 ta Parrak mavjud. Uning aylanish tezligini tezlik variatori yordamida o'zgartirish mumkin. Bunday shPrtsning unumdorligi soatiga 4-5 tonnani tashkil etadi, yuklash bunkerining sig'imi 200 kg.

SHPrits odatda konveyer stolining oldida o'rnatiladi, uning yonida esa baton bog'lovchi ayollar brigadasi ishlaydi. Ishga tushirishdan ilgari shPrits avvalo bo'sh ishga tushiriladi, bar necha marotaba aylanishiga imkoniyat beriladi, va uning ishga tayyorligiga ishonch hosil qilgach qiyma yuklash va shPritslash jarayoni boshlanadi.

Ish tugaganda gayka-barashkalar 9 yechiladi, devor 2 olinadi, rotorli val chiqarib olinadi, qiymadan tozalanadi, rotor, korPus va qiyma o'tkazgich yuviladi, so'ngra esa barcha detallar yana korPusga yig'iladi.

Nevedomskiy va SkriPniklarning shPritslari konstruktsiyasi asosida GiProgo'sht loyihalash institutida Yelenich sistemasining SHND-1 va boshqa konstruktsiyali shPritslari ishlab chiqilgan. Biroq ular sanoatda keng tarqala olmadi.

«Gloub» (AQSH), «Stouk va Dalton» (Angliya) va «Bekker» (GFR) firmalari yuqori unumli gorizontaal qiyma siqib chiqargichli, vakuum qo'llanilgan ekstsentrik-Parrakli shPritslar ishlab chiqarishgan. «Kontiflou» firmasining shPritsi 8 t/soat unumdorlikka ega. Unga qiyma yuklash mashinani to'xtatmay amalga oshiriladi va qiyma lentali transPortyor yoki maxsus yuklash qurilmasi yordamida beriladi.

Ekstsentrik-Parrakli shPritslar kamchiligiga qiymaning birmuncha qizishi va ishqalanishi kiradi. SHuning uchun bu shPritslar asosan strukturasisiz kolbasalar ishlab chiqarishda qo'llanadi.


**SHnekli shPrits (vintli siqib chiqaruvchi bilan).** SHPrits (70-rasm) uzluksiz ishlaydi. Zanglamas Po'latdan tayyorlangan yuklash bunker 1, gorizontaal tsilindr 2, unda aylanuvchi shnekdan 3 iborat.

SHnek harakatga elektrodvigateldan (quvvati 1,5 kVt) 10 zanjirli uzatma 8 va mufta 4 yordamida keltiriladi.

Qiyma bo'yin 5 orqali tsevkaga 6 beriladi. Naychaga ichak qobig'i kiydiriladi. Ostida vakuum-nasos 11 ni ishlatish uchun ikkinchi elektrodvi-gatel 12 o'rnatilgan, uning quvvati 0,55 kVt. Mexanizmlarni ishga solish uchun oyoq Pedali 15 va Puskatellar 13 hamda 14 mavjud. SHPritsdagi havosizlantirish darajasi vakummetr 16 yordamida nazorat qilinadi.

SHPrits ikki shnekli bo'lishi ham mumkin. YUklash bunkerining hajmi 90 l. SHnekning aylanish tezligi 610 ayl/min. SHPrits unumdorligi 1600-1800 kg/smena.

SHPritslash tugagach, mufta 4 o'chiriladi va shnek yuritmadan ajratiladi, tozalash va yuvish uchun o'q 9 da 90° ga buriladi, bunker 1 olinadi.



70-rasm. Uzluksiz ishlovchi shneqli shPrits:

1-yuklash bunkeri; 2-tsilindr; 3-shnek; 4-mufta; 5-bo'yin; 6-tsevka; 7-shnek vali; 8-zanjirli uzatma; 9-o'q; 10, 12- elektrodvigatellar; 11-vakuum-nasos; 13, 14- Puskatellar; 15- oyoq Pedali; 16- vakuummetr.

SHPritslar unumdorligi quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi.

a) Davriy ishlovchi Porshenli shPritslar

$$Q = 60\alpha \frac{\pi D^2}{4T} H\rho \quad \text{kg/soat}, \quad (7-1)$$

bunda  $\alpha$ - shPrits tsilindrining qiyma bilan to'ldirish koeffitsienti, farsh siqilishi va yuklash usulini hisobga oladi ( $\alpha=0,8-0,95$  qabul qilinadi);  $D$  – tsilindrning ichki diametri,  $m$ ;  $N$  – tsilindr balandligi,  $m$ ;  $\rho$  - qiyma zichligi,  $kg/m^3$ ;  $T$ - shPritslash jarayonining to'liq davri, (yordamchi oPeratsiyalarni ham qo'shganda),  $min$ .

b) Ekstsentrik-Parrakli shPritslar.

Rotatsion shPritslar unumdorligi qiymaning aylanuvchi rotor va korPus orasidagi ochiq joyda egallagan hajmiga va rotorning aylanish tezligiga qarab hisoblanadi.

Rotor Parraklari qalinligini hisobga olmasak u holda rotatsion-Parrakli shPrits unumdorligi quyidagiga teng bo'ladi

$$Q = 60\alpha \frac{\pi(D^2 - D_1^2)}{4} Ln\rho \quad \text{kg/soat}, \quad (7-2)$$

bunda  $\alpha$  - shPritsga qiyma berish koeffitsienti (qiyma qovushqoqligi va qiymani shPritsga berish usuli: erkin yoki majburiy berishga bog'liq),  $\alpha = 0,5-0,8$  qabul qilish mumkin;  $D$  – shPrits korPusining ichki diametri,  $m$ ;  $D_1$  – rotorning tashqi diametri,  $m$ ;  $L$  – rotor eni (uzunligi),  $m$ ;  $P$  – rotorning minutdagi aylanishlar soni;  $\rho$  - mahsulot zichligi,  $kg/m^3$ .

A. I. Peleev ekstsentrik-Parrakli shPrits unumdorligini hisoblash uchun quyidagi ifodani taklif etgan:

$$M_0 = 60\varphi\varphi_0\varepsilon (\pi D + \pi d - 2sz) bP \quad m^3/soat, \quad (7-3)$$

bunda  $M_0$  – ekstsentrik-Parrakli shPritsning maksimal mumkin bo'lgan unumdorligi,  $m^3/s$ ;  $\varphi$ - qiyma berish koeffitsient;  $\varphi_0$  – qiyma siqilish hisobiga hajmi kamayishi koeffitsienti;  $\varepsilon$  - baraban o'rnatilishi ekstsentriklik kattaligi,  $m$ ;  $D$  – korPusdagi ariqcha diametri,  $m$ ;  $d$  – baraban diametri,  $m$ ;  $s$  – Parrak qalinligi,  $m$ ;  $z$  – Parraklar soni;  $b$  – Parrak kengligi,  $m$ ;  $n$  – barabanning aylanish tezligi.

v) vintli (ikki shnekli) shPrits.

Unumdorlik quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Q = \lambda \frac{15\pi}{\cos\alpha} (D^2 - d^2) \cdot S \cdot K \cdot n \cdot \rho \quad kg/s, \quad (7-4)$$

bunda  $\lambda$  - qiyma berish koeffitsienti (0,5-0,65);  $\alpha$  - shnek vint liniyasining ko'tarilish burchagi, *grad*;  $D$  – shPrits ishchi qismining tashqi diametri,  $m$ ;  $d$  - shPrits ishchi qismining ichki diametri,  $m$ ;  $S$  - vint qadami (shnek qadami),  $m$ ;  $K$  – vintning tushish joyi kengligining kattalashish koeffitsienti ( $K = 1,075$ );  $P$  – shnekning aylanish tezligi;  $\rho$  - mahsulot zichligi,  $t/m^2$  ( $\rho = 1,05$ ).

Vint yoki shnekli mahsulot bergichning unumdorligi SHenkel usuli bilan toPiladi.

$$M_0 = \pi Dhz\varphi_0 [0,5KK_1 (t-n_0l)\cos^2 \varphi \frac{K_2 h^2 p \sin^2 \varphi}{12L\eta}] \quad m^3/sek, \quad (7-5)$$

bunda  $D$  - vint yoki shnekning tashqi diametri,  $m$ ;  $h$  – ariqcha chuqurligi,  $m$ ;  $z$ - vint yoki shneklar soni;  $\varphi_0$  – shnek va vint kontakti hisobiga unumdorlik kamayishini hisobga olish koeffitsienti;  $K$  - koeffitsient ( $K = 0,5 - 0,7$ );  $K_1$  - koeffitsient ( $K_2 = 0,6 - 0,8$ );  $t$  – vint liniyasi kesilishi qadamining o'rtacha qiymati,  $m$ ;  $n_0$  – vint kirishlar soni;  $l$  - vint lentasining o'rtacha qalinligi,  $m$ ;  $\varphi$  - vint o'rta chizig'i kesimining buralish burchagi;  $K_2$  – mahsulotning orqaga qaytishiga bog'liq koeffitsient (0,6-0,8);  $\rho$ - mahsulot chiqishida vint orqali hosil qilinadigan bosim,  $n/m^2$ ;  $L$  – shnek yoki vint uzunligi,  $m$ ;  $\eta$ - harakatlanuvchi mahsulot qovushqoqligi,  $m \cdot sek/m^2$ .

Davriy ravishda ishlaydigan Porshenli shPrits dvigatelining quvvati quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$$N = \frac{p \cdot F \cdot v}{1000\eta}, \quad kVt, \quad (7-6)$$

bunda  $P$  - shPrits ishchi tsilindridagi bosim,  $n/sm^2$ ;  $F$  - Porshen maydoni,  $sm^2$ ;  $v$  – Porshen harakat tezligi,  $m/sek$ ;  $\eta$  - elektrodvigateldan Porshenga uzatish FIK-i.

Nazorat savollari:

1. SHPritslar, ularning turlari, tuzilishi va ishlash tartibi.
2. Davriy ishlovchi gidravlik shPritsning tuzilishi va ishlash tartibi.
3. Ekstsentrik-Parrakli rotatsion shPritsning tuzilishi va ishlash tartibi.
4. SHnekli shPritsning tuzilishi va ishlash tartibi.
5. A.I.Pelev etgan ekstsentrik-Parrakli shPrits unumdor-ligini hisoblash ifodasini keltiring.
6. Davriy ravishda ishlaydigan Porshenli shPrits dvigatelining quvvati qaysi ifoda bo'yicha aniqlanadi?

**8-ma'ruza. GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARIGA ISSIQLIK  
BILAN ISHLOV BERISH JIHOZLARI**

**ISITISH JIHOZLARI**


Issiqlik bilan ishlov berish deganda go'sht va go'sht mahsulotlariga qisqa yoki uzoq vaqt issiqlik energiyasining bevosita kontakt yoki ajratib turuvchi devor orqali ta'siri tushuniladi. Issiqlik ta'siri yonayotgan gaz orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Go'sht va Parranda korxonalarida mahsulot ko'rinishi va holatiga qarab, turli issiqlik ishlovlari amalga oshiriladi. Mahsulot ochiq aPParatlarda, atmosfera bosimi ostida isitiladi yoki yoPiq aPParatlarda (qozon, avtoklavlar) yuqori bosim ostida isitiladi.

Bevosita kontakt orqali issiqlik bilan ishlov berilganda mahsulot issiq suvga solinadi (cho'chqa yoki Parranda tanasini shParkalash, kolbasa va okorok Pishirish va h.k.) yoki mahsulotga issiq gazlar bilan ta'sir qilinadi (sosiska va kolbasa Pishirish, go'sht nonlarini qovurish, Pirojoklar Pishirish, submahsulotlarni kuydirib olish, Parranda tanalarini kuydirib olish va h.k.).

Ajratuvchi devor orqali issiqlik energiyasi ta'sir etganda mahsulot qozon, chan, cho'ktirgich, avtoklav va boshqa sig'imli aPParatlarga solinib, ulardagi qobig'larga isitish uchun bug' yoki issiq suv beriladi. SHunday jarayonlarga yog'ning eritilishi misol bo'la oladi.

**Rotatsion Pech.** Bu gaz isitgichli go'sht noni, bujenina va boshqa go'sht mahsulotlari Pishirish Pechi (71-rasm).



71-rasm. Rotatsion Pech:

1-Pech tsilindri; 2-stanina; 3-yuklash uchun eshik; 4-gazlar uchun tuynuk; 5-chiqaruvchi zont; 6-rotor; 7-rotor lyulkasi; 8- elektrodvigatel; 9-gaz gorelkasi.

U gorizontal tsilindr shaklidagi korPusdan iborat. KorPus listli Po'latdan tayyorlangan ichki va tashqi yoPqichga ega. YOqich va korPus orasiga issiqlik izolyatsiyasi joylashtirilgan. TSilindr staninada o'rnatilgan. Ichida uchta gaz gorelkalari o'rnatilgan. YOqish elektr yoqqich yordamida amalga oshiriladi. Gaz sarfi Pech ichidagi harorat 169-180 °S bo'lganda 1,8 m<sup>3</sup>/s ni tashkil etadi. TSilindrning oldingi qismida mahsulot yuklash va tushirish uchun eshikcha, yuqori qismida esa ishlatilgan gazlarni chiqarish uchun tuynik mavjud. Eshik ochilishini osonlashtirish uchun qarshi og'irlik osilgan.

Pechdan chiquvchi issiq gazlar va tutun ventilyator bilan tutashgan zont orqali uzoqlashtiriladi.

Pechning asosiy ishchi organi rotor hisoblanadi, unga sharnirli ushlagichlarda lyulkalar osilgan, rotor aylanganda gorizontol holati saqlanadi. Rotor vali Pechning yon devoriga qotirilgan ikkita chiqib turgan PodshiPnikda o'rnatilgan. Rotor 0,6 - *ayl/min* tezlik bilan aylanadi. Harakat elektrodvigateldan 5 (quvvati 0,6 *kVt*) chervyakli reduktor orqali uzatiladi. Issiq gazlar Pechga Pastedagi tuynukdan kiradi, Pech bo'ylab yuqoriga harakat qiladi va uning ust qismidan chiqariladi. Bunda rotor uzluksiz aylanadi, bu esa lyulka va metall shakllarga joylashtirilgan mahsulotga bir xilda ishlov berilishini ta'minlaydi.

Go'sht kombinatida gaz bo'lmagan holda elektr spirallar qo'yilishi mumkin, bu energiya xarajatini oshiradi.

Pech quyidagi tartibda ishlaydi. Eshikcha ochiladi, rotor yuritmasi ishga tushiriladi, gaz qo'yiladi va gorelkalar yoqiladi. Pech 180-200°S haroratgacha isitiladi, so'ngra mahsulotni barcha lyulkaga 8 yuklash boshlanadi. Keyin shiber (eshikcha) yoqiladi va Pishirish jarayoni amalga oshiriladi. Harorat Pechning o'ng tomoniga o'rnatilgan termometr yordamida nazorat qilinadi, uni ushlab esa gazni gorelkalarda yoqish orqali amalga oshiriladi.

Rotorga yuklash farqi 30 *kg* dan oshmasligi kerak. Rotorli Pech unumdorligi 100 *kg/s*.

**Pirojoklar tayyorlash (yasash) va qovurish avtomati.** Avtomat (72-rasm) qovurilgan qiymali xamir Pirojoklar ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan. Uning unumdorligi soatiga 800 dona.


Avtomat ikki qismdan iborat – shakllantiruvchi va issiqlik bilan ishlov beruvchi. Xamir bunker 1 ga solinadi, go'sht qiymasi – bunker 2 ga. Xamir siqilgan havo yordamida 2 *atm* bosim ostida dozator 3 ga beriladi, qiyma esa shnekli nasos yordamida - dozatorga 4 beriladi.

Dozatorlardan xamir va qiyma shakllantiruvchi Patron (golovka) 5 ga boradi. Xamir halqasimon teshikdan siqib chiqarilishi natijasida yaxlit cheksiz nay hosil qiladi, qiyma esa bu nayning ichiga kiradi. Xamir va farshga mutanosib davriy harakat beriladi, lekin xamir harakatlanish davri ko'proq, shuning uchun qiyma qisqa tanaffuslar bilan o'rnatiladi. SHakllantirish Patronidan chiquvchi qiymali xamir nayi davriy Pichoq 6 bilan uzunligi barobar bo'laklarga kesiladi, hosil bo'lgan uzuncha Pirojoklar Po'lat transPortyorga 7 tushadi va otuvchi 5 zanjirli transPortyorning lotogiga 9 tashlaydi.

Pirojka otuvchining har bir harakati natijasida uch dona Pirojka otiladi. Zanjirli transPortyor Pirojkalarni oshirish shkafiga 10 beradi.

Oshirish davomiyligi 15-20 *min*. Oshirish oxirida lotok ag'dariladi va Pirojoklar qovurish vannasi 12 ning rotorli barabani 11 ning muvofiq bo'limiga tushadi. Baraban aylanish vaqtida Pirojoklar yog'ning 180°S gacha isitilgan zonasi bo'ylab harakat qiladi, qovuriladi va o'z og'irligi ta'siri ostida qabul lotogi 13 ga tushiriladi. Qovurish davomiyligi 2 *min*. Qovurish vannasidagi yog' hajmi 22-27 *l*. O'simlik yog'i ishlatiladi, uning ishchi harorati 180°S, elektr isitkichlar yordamida doimiy harorat ushlab turiladi. Avtomatning barcha mexanizmlari

sinxron ravishda ishlaydi va quvvati 1,5 kVt bo'lgan bir elektrodvigateldan harakatga keltiriladi. Qovurish vannasi 12 sarf bakidan, sarf baki 15 orqali nasos 14 yordamida yog' bilan to'ldiriladi, rele 16 qovurish kamerasi yog' vannasidagi yog' sathini bir xil ushlab turadi.



72-rasm. Pirojoklar tayyorlash (yasash) va qovurish avtomati:


1-xamir uchun bunker; 2- qiyma uchun bunker; 3- xamir dozatori; 4- farsh dozatori; 5- shakllantirish uchi; 6-Pichoq; 7-transPorter; 8-otgich; 9-konveyer lotoki; 10-oshirish shkafi; 11-rotorli baraban; 12-qovurish vannasi; 13- qabul lotoki; 14- nasos; 15 - sarf baki; 16- yog' sathi relesi; 17-bachok; 18- komPressor.

Kolbasa mahsulotlari nafaqat qozon va Pishirish xonalarida issiq suvda, balki bug' yordamida statsionar kameralarda ham Pishiriladi.

**Bug'da Pishirish kameralari (xonalari).** Bug'da Pishirish kameralari statsionar ishlab chiqarish xonalari bo'lib, ularda kolbasa mahsulotlariga bug' bilan termik ishlov beriladi.

73, a -rasmda bug' bilan Pishirish kamerasi ko'rsatilgan. Uning asosiy devorlari 1 temir betondan tayyorlangan. Kamera ichi issiqlikni tashqi muhitga chiqib ketishdan saqlavchi termoizolyatsion material 2 qatlam bilan qoPlangan. Uning Polida Payvandlash yo'li bilan tayyorlangan metall Poddon 3 o'rnatilgan. Poddon ostida gidrozatvor bilan berkitiladigan suyuqlik oqizish teshigi mavjud.





73-rasm. Bug' da Pishirish kameralari:

*a* – temir betonli; *b* - metalli:

1-kamera devori; 2-termoizolyatsiya; 3-suv uchun Poddon; 4-to'kish teshigi; 5-eshik; 6-osma yo'l; 7-rama; 8-bug' kelish quvuri; 9-suv kelish quvuri.

Kameraga metall eshik 5 o'rnatilgan, u orqali kamerani yuklash va undan mahsulotni tushirish o'peratsiyalari bajariladi. Eshik Perimetr bo'yicha zich yo'piladi va vintli zatvor yordamida tortiladi. .

Mahsulot ramkalar 7 da yuklanadi. Ramkalar 2,45 m balandlikda joylashgan osma yo'llar 6 orqali kameragi olib kelinadi. Kameralarning sig'imi bir, ikki va uch ramaga moslashtirib quriladi. Uch rama sig'adigan kamera o'lchami 1,45x3,4 m, yuklanadigan mahsulotning maksimal miqdori 600 kg.

Bug' kameraga quvur 8 orqali Poddondagi suv orqali yoki bevosita o'tkir bug' ko'rinishida beriladi. Poddondagi suv orqali beriladigan bug'ni namligini kerakli darajada oshirish mumkin. Poddonga suv quvur 9 orqali keladi, kamera ustida o'rnatilgan dudlash qurilmasi orqali esa ushbu suv Pishirilgan mahsulotni ramkalarda sovutish uchun ishlatiladi.

Bug'ning o'rtacha sarfi 1 t mahsulot uchun 185 kg, suvni esa 55 l ni tashkil etadi. Ishchi bosim 2 atm.

73,b -rasmda metalli bug' bilan Pishirish kamerasi tasvirlangan. U metall karkas 1 dan iborat bo'lib, shlakvata 2 bilan 50 mm qalinlikda izolyatsiyalangan va zanglamas Po'lat listlari bilan qoPlangan. Kamera Poli temirbeton, azbokarton va azbozurit bilan 150 mm qalinlikda izolyatsiyalangan. Polda Poddon 3 o'rnatilgan, unda suyuqlik to'kish teshigi 4 mavjud. Kameraning ust qismida kameraga mahsulotli ramalarni 7 yuklash uchun osma yo'l 6 o'rnatilgan. Kamera metall eshik 5 bilan zich berkitiladi. Bug' quvur 8, suv esa quvur 9 orqali beriladi.

CHexiya va Vengriya bir ramali ko'chma metalli bug' bilan Pishirish kameralarini ishlab chiqaradi. Ular issiqlik jarayonini avtomatik nazorat qilish va rostlash Priborlari bilan ta'minlangan.

Bug' bilan Pishirish kameralarida, issiqlik kamerani metall qismlarini (ramalar, osma yo'llar va h.q.) kamera haroratigacha dastlabki qizdirishga, mahsulotni Pishirish haroratigacha qizdirishgacha, Pishirishga va tashqi muhitga sarflanadi.

Bug' bilan Pishirish kamerasida issiqlikni foydali ishga sarfi va yo'qotishlari summasi issiqlikka ehtiyojni aks ettiradi.

**Kolbasa qovurish kameralari.** Bu kameralar davriy va uzluksiz ishlaydi, kolbasa mahsulotlarini qovurish uchun ishlatiladi.

Davriy ishlovchi kameralar bir qavatli tayyorlanadi (ramali), ularga ramalar bir yarusda o'rnatiladi. Ko'Pincha barcha kameralar sig'imi uch ramaga hisoblanadi.

Kameralar bir necha qavatli ko'P yarusli ham bo'lishi mumkin. Mahsulot osma yoki Pol usti ramalarida yuklanadi.

Isitish o'chog'i kamerali odatda tag qismida o'rnatiladi, undan tutun va havo aralashmasi reshetkali Poldan kameraga o'tadi va ramalarga joylashtirilgan mahsulotni isitadi.


Agar kamerada bitta mahsulot yuklash va chiqarish eshigi bo'lsa unda ularni boshi berk deb ataladi; agar yuklash bir tomonidan, tushirish esa ikkinchi tomonidan amalga oshirilsa unday kameralar o'tuvchi kamera deyiladi.

74-rasmida ko'P qavatli qovurish kamerasi aks ettirilgan. U vertikal g'isht shaxta 1 va uning ostiga o'rnatilgan o'choqdan 2 iborat. O'choqqa Podvaldan eshik 3 boradi. Tutun va havo aralashmasi o'choqdan shaxta bo'ylab reshyotka 5 orqali kamera Polida tarqaladi va rostlanadigan teshiklar 8, tutun mo'risi 10 orqali chiqib ketadi.

Mahsulot har bir qavatning osma yo'llari orqali ramalarda kameralarga yuklanadi va tushiriladi.

Sosiska qovurish tsiklining davomiyligi 25-30 min, kolbasa uchun 45-50 min.

Uzluksiz ishlovchi qovurish kameralarida mahsulotni yuklash, qovurish, dudlash va tushirish oPeratsiyalari uzluksiz amalga oshiriladi. Buning uchun vertikal shaxtada harakatlanuvchi, isitilishi kerak bo'lgan, mahsulotni osish shtangalari bilan ulangan cheksiz zanjir ishlatiladi.




74-рasm. Ko'P qavatli qovurish kamerasi:

1-shaxta; 2-o'choq; 3- o'choq eshigi; 4-osma yo'l; 5-reshetka; 6-tutun kamerasi; 7-temir beton Plita; 8- rostlanuvchi teshiklar; 9- tutun mo'risi; 10-shiber.

Go'sht kombinatlarida bunday kameralar avtokoPtilka deyiladi. Kolbasani qovurish va dudlash uchun ishlatiladi.

**AvtokoPtilka.** AvtokoPtilka (75-rasm) ko'P qavatli g'ishtli yoki temir beton shaxtadan 1, uning ichida esa har vaqt gorizontol holatni saqllovchi, sharnirga osilgan, lyul tiPidagi traverzalar 3 orasiga biriktirilgan, ikkita yon devor vertikal yo'nalishda harakatlanadigan ikkita cheksiz Plastina-sharnirli zanjirlardan 2 iborat. Traverzalar ishlov berilayotgan mahsulotni bir joydan ikkinchi joyga vertikal yo'nalishda joylashishi uchun xizmat qiladi va shtang yoki tokcha ko'rinishida bajarilishi mumkin. Zanjirlar yulduzchalarga 2 kiydirilgan bo'lib, zanjirli uzatma va har bir uzatishlar soni 37-ga teng RCHP 180-1 tiPidagi ikkita chervyakli reduktor, quvvati 4,5 kvт bo'lgan AOL 52-6 tiPidagi elektrodvigateldan iborat yuritma stantsiyasidan 5 aylanadi. Tyagali Plastina-sharnirli zanjir qadami 150 mm, traverzalar orasidagi qadam 900 mm, traverzalar soni – 107, zanjirning aylanma tezligi 1 m/min, zanjirlar orasidagi masofa (shaxta eni bo'yicha) 2300 mm. Pastda yuk tiPidagi tortish stantsiyasi joylashgan.

O'choq 6 shaxtaning tagida joylashgan va tutun-havo aralashmasi harakatlanayotgan zanjirda traverzalarga osilgan mahsulotga bir tekis ta'sir etib, hamma shaxta bo'yicha erkin ko'tariladi.



75-rasm. AvtokoPtilka:

1-shaxta; 2- Plastina-sharnirli zanjir; 3- mahsulotlarni ilish uchun traverzalar; 4-yulduzchalar; 5- yuritma stantsiya; 6-o'choq; 7- so'rish teshigi; 8- shiber.

Mahsulot imoratning mos qavatlarida joylashgan shaxta eshigi orqali yuklanadi va chiqariladi. SHaxtaning yuqori qismida avtokoPtilka yuritma stantsiyasiga xizmat qilish uchun maxsus maydoncha bor. Qayta ishlangan gazlar rostlovchi shiber 8 bo'lgan so'rish teshigi 7 orqali kanal bo'yicha shaxtadan yo'qotiladi.


Havoni isitish uchun shaxtada isitish asboblari (kaloriferlar, batareyalar) o'rnatiladi, isitishni yuzasi va miqdori o'rnatilgan texnologik Parametrlarga bog'liq bo'ladi.

AvtokoPtilkalar ikkita o'lchamda tuziladi: shaxta o'lchami 2,5x3,2 m, zanjir uzunligi 194 m va yuklamasi 14,5 t –li kichik model; shaxta o'lchami 3,85x5,13 m, zanjir uzunligi 372 m va yuklamasi 30 t –li katta model.

**Avtomatik tutun generatorlari.** Tutun tayyorlash uchun, o'choqdan tashqari, kameralarda turli konstruksiyadagi tutun generatorlarini qo'llash mumkin. Bu tutun generatorlari ikki asosiy guruhga bo'lish mumkin: qiPiqlarni yonish Printsipi bo'yicha ishlaydigan yoki aylanadigan yog'ochli brusok va disk o'rtasidagi ishqalanish hisobiga hosil bo'ladigan tutun.

Tutun generatorlarining ikkinchi guruhi texnologik kamchiliklar qatoriga ega emas.

ELRO rusumli avtomatik tutun generatori (76-rasm) kolbasa mahsulotlarini dudlashda tutunni uzluksiz olish uchun xizmat qiladi.



76-rasm. YeLRO rusumli avtomatik tutun generatori:

1-qiPiq uchun generatori; 2-yonish kamerasi; 3-havoni uzatish; 4- elektrovigatel; 5-filtr; 6-filtr-yutgich; 7-qo'zg'atgich; 8-Parrakli aralashtirgich; 9-o't yoqish reshetkasi; 10- klaPan; 11-havo shiberi (zadvijka); 12-ventilyator.

Bunkerga 1 yog'och qiPiqlar yuklanadi. Bunker sig'imi 90 kg, qiPiqlarning o'rtacha sarfi (haroratli rejimga bog'liq holda) 10 kg/soat-dan 20kg/soat-gacha. Bunkerdan 1 qiPiqlar o'z oqimida yonish kamerasiga 2 kelib tushadi. Bunkerdan qiPiqlarni bosilib qolmasligi uchun maxsus qo'zg'atgich 7 bor. Bu qo'zg'atgich reduktor orqali 0,6 kVt quvvatli elektrovigateldan 4 harakatga keladi.

QiPiqlar o't yoqish reshetkasiga 9 to'kiladi, loPastli aralashtirgich 8 bilan qatlam qalinligi bo'yicha bir tekisda tenglashtiriladi. Bunda qiPiqlar aralashtiriladi va yonishning barqaror rejimi hosil bo'ladi, unda tutun harorati 300<sup>0</sup> S-dan oshmaydi.

Havo shiberi (zadvijka) 11 yordamida tutun harorati rostlanadi. YOnish kamerasida 2 hosil bo'lgan tutun ventilyator 12 yordamida filtr kamerasiga so'rib olinadi. Bu yerda uni avval filtr 5 yordamida mexanik aralashmalardan tozalanadi, so'ngra esa filtr-yutgich 6 orqali kontserogen moddalar o'tkaziladi, undan keyin ventilyatorida 12 dudlash kamerasiga uzatiladi.

Tutun generatori unumdorligi 500 m<sup>3</sup> tutun/soat-ni tashkil etadi. Tutunning harorati 30<sup>0</sup>S-dan 120<sup>0</sup> S-gacha. Tutun haroratining yuqori chegarasini chegaralash uchun avtomatik solenoidli ventil o'rnatiladi. Tutun haroratining ruxsat etilgan tebranishi  $\pm 2\%$ .

Nazorat savollari:

1. Rotatsion Pechning vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
2. Pirojoklar tayyorlash va qovurish avtomatining vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
3. Bug'da Pishirish kameralarining vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
4. Kolbasa qovurish kameralarining vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
5. Avtokopitka, uning vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
6. Avtomatik tutun generatorlari, ularning vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.

### **9-ma'ruza. YOG' VA TEXNIK XOM ASHYONI QAYTA ISHLASH UCHUN OQIMLI-MEXANIZATSIYALASHGAN LINIYALARI**

Ozuqaviy va texnik yog'lar ishlab chiqarish va texnik xom ashyolarni quritilgan oqsilli hayvon ozuqasiga aylantirish uchun oqimli-mexanizatsiyalashgan liniyalar ishlab chiqarilgan.

YOg'li oziq-ovqat xom ashyosini qayta ishlaganda ozuqaviy hayvon (mol, cho'chqa, qo'y) yog'i va ayrim kolbasa turlari, chorva ozuqaviy uniga qo'shiladigan ozuqaviy jizza ishlab chiqariladi. Texnik xom ashyo qayta ishlanganda texnik yog' va quritilgan oqsilli hayvon ozuqasi olinadi.

YOg'larning ozuqaviy va texnik yog'larga bo'linishiga muvofiq tarzda uskunalar ham tasniflanadi. Ular yog' ajratib olish usuliga qarab issiqlik, mexanik va kimyoviy uskunalarga ajraladi.

YOg'li chiqindilarni qayta ishlashdan asosiy maqsad –issiqlik va mexanik energiyani imkon qadar kam sarflagan holda yog'ni maksimal darajada ajratib olish va mahsulot sifati yuqori bo'lishini ta'minlashdir. Buning uchun xomashyoni qayta ishlash harorati iloji boricha Past bo'lishi kerak.

Oqim-mexanizatsiyalashgan liniyalar texnologik oqim hosil qilish, yuqori darajadagi ishlab chiqarish madaniyati va mehnatning yuqori unumdorligiga erishish imkoniyatini beradi.

Oqim–mexanizatsiyalashgan liniyalar oPeratsiyalar ketma-ketligi bo'yicha yagona tizimga joylashtirilgan mashina va aPParatlardan iborat. Unda quyidagi oPeratsiyalar bajariladi: yog'li xom ashyoni tayyorlash, maydalash, yog'ni adratib olish, jizzani ajratish, yog' va suvni ajratish, yog'ni sovutish va qadoqlash, jizzani Presslash.

AVJ rusumli turli hayvonlarning yumshoq (suyaksiz) yangi hosil bo'lgan yoki sovutilgan yog'li xom ashyosini qayta ishlash oqim-mexanizatsiyalashgan liniyalari keng tarqalgan.


**AVJ oqim-mexanizatsiyalashgan liniyasi.** Ushbu liniya VNIIMP da ishlab chiqilgan va ko'Plab go'sht kombinatlarida amalda qo'llaniladi (77-rasm).

Liniyaning asosiy aPParati AVJ-245 rusumli markazdan qochma mashina bo'lib, Anufriev, Vechkanov va Zemlyannikovlar tomonidan ishlab chiqilgan. U xom ashyoni maydalaydi va undan yog'ni eritib oladi.

AVJ liniyasi bir necha zavodda ishlab chiqariladigan uskunalardan yig'iladi.

Liniyaning unumdorligi xom ashyo bo'yicha soatiga 500 kg-ni tashkil etadi. Liniya quyidagi tartibda ishlaydi.

Dastlab navlangan va yuvilgan xom ashyo markazdan qochma mashinaning AVJ-245 qabul voronkasiga solinadi. Bir vaqtda bu mashinaga xom ashyoga issiqlik bilan ishlov berish uchun bug' va 85-90°S –li suv beriladi. TSentrifugada jizzani yaxshi ajratib olish uchun suvning miqdori xom ashyo miqdoriga teng bo'lishi kerak.



77-rasm. AVJ rusumli yog'ni eritish oqim-mexanizatsiyalashgan liniyasi:

1- AVJ-245 mashinasi; 2-nasos; 3-nasos bakchasi; 4- TSNS-70 seParatori; 5- yog' seParatori; 6-nasos; 7- NOGSH-325 tsentrifugasi; 8- jizza

uchun telejka, 9- qabul baki; 10-yog' sovutgichi.

YOg', jizza va suv aralashmasi nasos 2 yordamida (yoki o'zi oqiziladi) uzluksiz ishlovchi gorizental cho'ktiruvi tseNtrifugaga 7NOGSH-325 beriladi. TSentrifuga yog'ni jizza va suvdan ajratadi.

Jizza tseNtrifuga ostiga qo'yilgan telejkaga ag'dariladi, yog' va suv arashmasi (emulsiya) nasos 6 yordamida bug' emulsorlari orqali haydaladi. Emulsorda qogan yog'lar batamom eritiladi. Erigan yog' sathi sharli klaPan yordamida doimiy ushlab turiladigan bakka 3 tushadi.

Isitgichdagi uzatish va nasosi sifatida markazdan qochma AVJ-YU7 markazdan qochma mashinasi ishlatiladi. Unda aylanuvchan baraban, o'rtasida turg'un o'rnatilgan qanotcha va ikki Pichog'i mavjud. Pichoqlar baraban devorlariga markazdan qochma kuch ta'sirida kiritilgan yog'larni kesish uchun xizmat qiladi. Bu yerda yog'ni bug' yordamida qushimcha ravishda isitiladi. Kerakli bosim markazdan qochma kuch hisobiga hosil qilinadi. Baraban 2880 *ayl/min* tezlik bilan aylanadi. AVJ-YU7 mashinasining unumdorligi 1500 kg/s –ni tashkil etadi, elektrovigatel quvvati 2,8 *kVt*.

Qabul qilish bakidan yog' emulsiyasi o'z oqimi bilan birinchi seParatorga TSNS-70 (yoki RT-OM-4,6) 4 keladi, so'ngra ikkinchi seParatorga 5 yakuniy tozalash uchun boradi.

SeParatorda suv va yog' ajraladi, yog'ning suvda qolgan qismi 0,05-0,1 % - dan oshmaydi.

YOg' emulsiyasining harorati seParatorga kirish vaqtida 85-90°S –dan kam bo'lmasligi kerak.

YOg' seParatordan 5 nasos 6 vositasida qabul bakiga 9 haydaladi, u yerdan OFI-6 rusumli yog' sovutgichga 10 sovuq suv yoki tuzli eritma yordamida sovutish uchun haydaladi.

Tozalangan, oqartirilgan va sovutilgan yog' idishlarga solinadi yoki qadoqlab o'raladi.

Ajratilgan jizzada qolgan yog'larni chiqarish uchun uni Pressga yuboriladi.

Liniyaga uchinchi seParator qo'shib, uning unumdorligi soatiga 800-1000 *kg*-ga yetkazilgan.

YOg' xom ashyosini qayta ishlash davomiyligi 6-7 minutni tashkil etadi. Bu esa ajratib olingan yog'ning yuqori sifatini ta'minlaydi.


Liniyadagi jarayonlarning alohida bosqichlarida haroratni nazorat qilish uchun u Priborlar bilan ta'minlangan. Liniya juda kompakt o'lchamli bo'lib, 35 *m*<sup>2</sup> maydonni egallaydi, bir yoki ikki qavatda joylashishi mumkin. Bug'ning o'rtacha sarfi 1 *t* qayta ishlanayotgan xom ashyo uchun qariyb 100 *kg*, bug' bosimi 1,5 *ati*. Elektroenergiyaning 1 *t* xom ashyo uchun sarfi 62,8 *kVt•s*.

**AVJ-245 rusumli markazdan qochma mashina** yog'ni maydalash va eritish uchun ishlatiladi va oqim-mexanizatsiyalashgan liniya tarkibiga kiradi(78-rasm).

Mashinaning asosiy ishchi organi yon tomoni Perforatsiyalangan (teshiklar diametri 2-4 *mm*, shaxmat tartibda o'rnatilgan) og'ma Po'lat barabandir 1, baraban og'ma val 2-da o'rnatilgan, val ikki PodshiPnikda aylanadi, yarimdag'al mufta 3



orqali quvvati 10 *kVt* va aylanish tezligi 1460 *ayl/min* bo'lgan elektrodvigatel 4 bilan ulangan. Baraban 1 turg'un himoya qobiq 5 bilan o'ralgan.



78-rasm. AVJ-245 rusumli markazdan qochma mashina:

1- ishchi baraban; 2- og'ma val; 3- yarimdag'al mufta; 4- elektrodvigatel; 5- chegaraviy kojux; 6- yuklash voronkasi; 7- halqasimon bo'shliq; 8- bug' uchun quvur; 9- solenoidli ventily; 10- rotatsion nasos; 11- yog'-suv massasi uchun quvur; 12- elektrodvigatel; 13- reduktor; 14- stanina.

Uning o'rtasida voronkali 6 yuklash teshigi mavjud. Baraban ostida, uning markazida xom ashyoni birlamchi maydalash va baraban devorlariga surish uchun spiral shaklidagi harakatlanuvchi Pichoq o'rnatilgan. Bu Pichoqdan tashqari barabanning ichki tomonida Parallel ravishda ikki turg'un Pichoq 180°S burchak ostida o'rnatilgan. Ular harakatsiz qobiq 5-ning qoPqog'iga maxsus burama boltlar yordamida Pichoqlarning tig'lari va barabanning ichki devori oralig'idagi masofani o'zgartiriladigan imkoniyatini qoldirib o'rnatiladi. Ishchi holatda bu masofa 1-2 *mm* -ni tashkil etadi.

Aylanuvchi baraban1 va turg'un qobiq 5 oralig'iida halqasimon bo'shliq hosil qilinadi. Unga o'tkir bug' quvur 8 orqali beriladi. Bug' miqdori solenoid klapani 9 orqali rostlanadi. Qobiqning ikkinchi tomoni rotatsion-loPastli nasos 10 bilan ulangan, u yog'-suv aralashmasini quvur 11 orqali uzatadi. Nasos elektrodvigateldan 12 reduktor 13 orqali harakatga keltiriladi. Mashinaning barcha qismi Payvandlab yasalgan staninada 14 o'rnatilgan.

AVJ-245 markazdan qochma mashina quyidagi tarzda ishlaydi: yog' xom ashyosi bir maromda aylanayotgan barabanga yuklanadi. U yerda xom ashyo harakatsiz Pichoq yordamida bo'laklarga kesiladi va barabanning ichki devoriga otiladi.

## Nazorat savollari:

1. AVJ-245 rusumli markazdan qochma mashinasining vazifasi, tuzilishi va ishlash tartibi.
2. AVJ liniyasi unumdorligi qancha?
3. YOg'li chiqindilarni qayta ishlashdan asosiy maqsad nima?
4. AVJ liniyasining asosiy apparatini ayting.

## A D A B I Y O T

1. Dodayev Q.O., Choriev A.J., Ibragimov A. Go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarining jihozlari. Toshkent. Sharq. 2007. -192 b.
2. Volferts V. YU., Chernobqlskiy G. I., Faleev G. A. Mexanicheskaya s'emka shkur s tush kruPnogo roगतogo skota. Pio'ePromizdat, 1935.
3. Gorbatov V.M., Lagosha I.A. Spravochnik Po oborudovaniyu PredPriyatiy myasnoy Promqshlennosti. Izd-vo «Pio'evaya Promqshlennost», 1965.
4. Gorbatov V. M., Faleev G. A. Montaj, eksPluatatsiya i remont oborudovaniya myasokombinatov. Pio'ePromizdat, 1959.
5. Gurari N.G. Pod'emno-transPortnoe oborudovanie myasnoy i molochnoy Promqshlennosti. Pio'ePromizdat, 19E6.
6. Gurari N.G. Konveyerizatsiya Pervichnoy Pererabotki skota. TSINTIPio'e-Prom, 1961.
7. Grinberg T. D. Privodq Podvesnqx texnologicheskix konveyerov so stuPenchatqm izmeneniem skorosti. «Myasnaya industriya SSSR», 1962, № 4.
8. Zaxarov A. M. Primenenie universalnogo konveyera dlya Pervichnoy Pererabotki sviney i ovets. Pio'ePromizdat, 1956.
9. Kaledin I. G. Oglushenie kruPnogo roगतogo skota elektricheskim tokom. Pio'ePromizdat, 1935.
10. Lagosha I. A., Solunskiy A. D. Oborudovanie dlya Pervichnoy Pererabotki skota i obrabotki shkur. VNIIMP, 1959.
11. P ye l ye ye v A. I. Texnologicheskoe oborudovanie PredPriyatiy myasnoy Promqshlennosti. Pio'ePromizdat, 1963.
12. Peleev A.I., Gurari N.G. SHPritsq nePrerqvnogo deystviya. TSIN-TIPio'eProm, 1960.
13. Faleev G.A. Oborudovanie PredPriyatiy myasnoy Promqshlennosti. Pio'ePromizdat, 1960.
14. Surkov V.D., LiPatov N.N., Baranovskaya N.V. Texnologicheskoe oborudovaniya PredPriyatiy molochnqy Promqshlennosti. «Pio'evaya Promqshlennost». M.: 1970
15. Staxeev I.V. Posobie Po «Kursovomu Proektirovaniyu Protsessov i apparatov Pio'evqx Proizvodstv» M.: 1961.
16. Rostrossa I. Praktikum Po oborudovaniyu molochnoy Promqshlennosti. 1977

### III – BO'LIM. SUT VA SUT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI

1-ma'ruza

#### **Texnologik qurilmalari strukturasi sinflanishi, asosiy ko'rsatkichlari va ularga qo'yiladigan talabalar**

Sut sanoati korxonalarini qo'l mexanizatsiyasini mexanizatsiyalashtirish va uni boshqarishni avtomatlashtirishga xizmat qiladigan uskunalar bilan jixozlangan. Sut xom ashyosini oziq-ovqat va texnik mahsulotlarga qayta ishlashdagi operatsiyalarni bajarishga mo'ljallangan ishlab chiqarish uskunalari texnologik deb ataladi.

Ishlov berilayotgan mahsulot o'z fizik – mexanik va boshqa xossalari saqlagan holda faqat shaklini, o'lchamlarini va shunga o'xshash jixatlarini o'zgartiradigan texnologik qurilma mashina deb ataladi. Mashinaning konstruktiv jixatdan ajralib turishi – mahsulotga mexanik ta'sir ko'rsatuvchi xarakterlanadigan ishchi organlarining borligi.

Ishlov berilayotgan mahsulot o'z fizik–mexanik, biokimyoviy xossalari yoki agregat xolatini o'zgartiradigan texnologik uskuna – aPParat deb ataladi. APParat konstruktsiyasining o'ziga xosligi – mahsulot xususyatlarini o'zgartirish maqsadida ta'sir ko'rsatish imkonini beradigan reaktsion bo'shliq (xajm) yoki ishchi kameraning (rezervuar) mavjudligi.

Bundan tashqari aPParat faoliyat ko'rsatishi uchun issiqlik va sovuqlik tashuvchi har xil suyuqliklardan (issiq suv, sovuq, yaxna suv, bug' va boshqalar) foydalaniladi.

Ishchi suyuqlik va ishlov berilayotgan mahsulot aPParat ichida bir – biri bilan bevosita kontaktda yoki yoki kontaktsiz holda bo'lishi mumkin. Ikkinchi holda, aksariyat o'zaro ta'sir ajratib turuvchi yuza (qism) orqali (metal devor) amalga oshiriladi.

### **Uskunalar strukturasi (tarkibi)**

Har bir texnologik uskuna birligi qo'yidagi qismlardan iborat: staninalar (korPuslar, ramalar va b.x.k.), mahsulot soladigan (bo'shatiladigan) moslama yoki qism, ximoya (blokirovka), uzatish va ish mexanizmlar, ishchi bajaruvchi organ va nazorat – o'lchov asboblari. Uskuna texnik tasnifini belgilovchi asosiy qismlar uzatish qismi, ish mexanizm va ishchi organlarining o'zaro (bog'liqlikdagi) faoliyatidir.

Stanina uskunaning barcha qismlarini mahkamlash uchun, shu jumladan qushimcha moslamalarni (transPortirovka qiluvchi, ko'taruvchi va x.k.) mo'ljallangan. Ba'zi bir uskuna turlarida (seParatorlar va boshqalar) stanina asosiy vazifadan tashqari ishchi mexanizmni moylash uchun mo'ljallangan moy turadigan moslama (karter) vazifasini ham o'taydi.

**YUklash va bo'shatish** moslamasi mahsulotni uskunaga davriy yoki uzluksiz ravishda solib turish, hamda texnologik jarayon talabidan kelib chiqib uni xajm yoki massasiga qarab dozirovka qilish imkonini beradi.

**Himoya moslamasi** (blokirovka) uskunaning ba'zi qismlarini noto'g'ri yoki bevaqt ishga tushib ketishi oldini olish yoki ularning avariya vaqtida buzilishidan saqlab qolish uchun xizmat qiladi.

**Uzatish** (Privod) xarakatni ishchi mexanizm yoki ishchi organlar orqali uzatish uchun kerak. Uzatuvchi sifatida elektr, gidravlik va Pnevmatik mexanizmlar qo'llaniladi.

Elektr uzatmalar eng keng tarqalgan mexanizmlardir. Uning asosiy qismi elektrodvigatel.

Elektr tokiga qarab elektrodvigatellar uch guruhga bo'linadi:

O'zgarmas tok o'zgarmas yoki boshqariladigan, kuchlanishli. Ularda val aylanish chastotasini keng miqiyosida silliq (Plvnoe) o'zgartirish imkoni bor;

Uch fazali o'zgaruvchan tok (tryoxfaznqy Peremennqy tok) – nisbatan kam qo'llaniladigan sinxron va keng qo'llaniladigan asinxron. Sinxron elektrodvigatellar valning doimiy chastotasi bilan (Perechuliruemoy) nagruzkadan bog'liq bo'lmagan holda ishlaydi. Asinxronlarga qaraganda ular ancha yuqori foydali ish koeffitsientiga ega, yuqori yuklanishlarga chidamli. Asinxron elektrodvigatellar texnologik uskunalarni xarakatga keltirish uchun foydalaniladi, ular konstruktiv va xazmat ko'rsatish bo'yicha sodda, ularni setga bevosita, (Preobrazovatellarsiz) tok o'zgartirgichlarsiz ulash mumkin;

Kam quvvatli bir fazali asinxron. Ularni (aksariyat) ko'Pincha, yordamchi qurilmalarda qo'llaniladi.

Uch fazali asinxron elektrodvigatellar bir va ko'P tezlikka ega bo'lishi mumkin (tezlik soni – maksimal to'rta). Katta tezlikka ega elektrodvigatellarning

qulayligi shundan iboratki, ular o'zgaruvchan tezlik (stupenchato) bilan ishlashi mumkin.

Uch fazali asinxron elektrodvigatellar yoPiq (suyuqlik tomchilari va changdan) holda yoPiq va (shamollatish) yellatiladigan (obduvasmom) holda, yoPiq va yellatiladigan yuqori ishga tushirish momentiga ega holda, yuqori sirPalishli (skoliseniem) yoPiq va boshqa holda ishlab chiqariladi.

Tayanchga (oPora) maxkamlash kontstruksiyasi bo'yicha elektrodvigatellar flanetsli, chiqish qismi Pastda joylashgan vertikal, siljiydigan (sirPaladigan) Plitali va (vstraivaemqe) o'rnatiladiganga ajratadilar. Elektr xarakterga keltiruvchi sifatida tizim elektrodvigatellari (lineynqe elektrodvigatellari) va solenoidlar (elektro magnitq) ham xizmat qilishlari mumkin.

Gidravlik xarakterga keltiruvchi ishchi suyuqlikni gidrosistemaga va undagi bosim va sarf me'yorini ta'minlab turuvchi nasosdan uzatuvchi (mineral va kastor yog'i, glitserin, suv va boshqalar) (xarakterni ishchi mexanizmga uzatuvchi) gidrodvigateldan, nasos va gidrodvigatelni bog'lovchi quvurlardan, ishchi suyuqliklarni saqlovchi idishlardan; ishchi suyuqliklarni tozalash (filtr) va sovitish qurilmalaridan tashkil topgan. Ishchi suyuqlikni uzatish uchun (loPastli) shestrennyali, Porshenli va boshqa turdagi nasoslar qo'llaniladi.

Gidrodvigatellar rotatsion, buriladigan (Povorotnqe) (servomotorq) va Porshenli (gidrotsilindrlar) bo'ladilar. Birinchilari ish mexanizmini aylanma, ikkinchilari—burilish va uchinchilari—oldiga va orqaga (vozvratno-PostuPatelnoe) xarakterga keltiradilar.

Pnevmatik xarakterga keltirishda ishchi vosita sifatida qisilgan havodan foydalaniladi. Uzatgich tarkibiga sistemaga havo Puflaydigan komPressor, havo zahirasini hosil qilish uchun resiver (germetik idish); filtr; quvurlar; Pnevmodvigatellar; nazorat va avtomatika asboblari kiradi. Pnevmodvigatellar rotatsion, Porshenli, membranali va boshqa turli bo'ladi. Porshenli keng tarqalgan.

Ishchi(uzatish) mexanizmi. (IsPolnitelnqy (Peredatochnqy)

Harakatni xarakterlantiruvchidan texnologik uskunaning ishchi organlariga uzatish uchun xizmat qiladi.

Bu mexanizm Privod bilan bog'langan yetaklovchi zvenodan va ishchi organlar bilan bo'langan ergashuvchi zvenodan iborat. Ishchi mexanizm faoliyatini ba'olaydigan asosiy ko'rsatkich – uzatish (soni) nisbati.

U quyidagilar nisbati bilan ifodalanadi; tishli uzatkichlarda yetaklovchi va ergashuvchi tishlar sonining yetaklovchi va ergashuvchi shesternyalar diametriga; tishli va remenli uzatkichlarda ergashuvchi shesternya(shkiv) aylanish chastotasining yetaklovchi shesternya (shkiv) aylanish chastotasiga.

Uzatish mexanizmi ishchi organlar ishlash sharoiti bilan baholanadi.

Quyidagi uzatish mexanizmlari mavjud:

Uzluksiz ishlaydigan – ish organlari ishlov berilayotgan mahsulot bilan mexanizmlarning butun tsikli davrida doimiy kontaktda bo'ladilar;

Davriy ishlaydigan – ish organlari ishlov berilayotgan mahsulot bilan uzatish mexanizmi harakatining bir qismi davomida kontaktda bo'ladilar, qolgan vaqtda ishsiz holatda bo'ladilar.

Uzatish mexanizmlari qattiq va yumshoq bo'lishi mumkin. Tishli, chervyakli, richagli, krivoshiP-shatunli, sharnirli, krest ko'rinishli, Prujinali, Planetar, fraktsion va differentsial turdagilar qattiq uzatish mexanizmlariga kiradi. YUmshoq uzatish mexanizmlari – remenli, zanjirli, tasmali va x.k.lar kichik uzatish nisbatida, hamda qattiq mexanizmlar bilan birga ishlatiladi.

Ishchi organlar ishlov berilayotgan mahsulotga bevosita enargetik (mexanik, issiqlik) ta'sir ko'rsatish yoki ishlov berilayotgan mahsulotning ishchi vosita yoki energetik maydon bilan o'zaro ta'sirda bo'ladigan sharoit yaratish uchun xizmat qiladi. Bu organlart mahsulot hossalari, ularga beriladigan ishlov usuli, rejimi va yo'nalishidan kelib chiqqan holda har-xil konstruksiyada bo'ladilar.

Ishchi organlar konstruksiyasi bo'yicha shnek va vintli, barabanli, valtsovqe, membranali va shlangli, tasmali, to'rli, fraktsion, tsilindr-Porshen juftligida, soPlali, forsunkali va diskli bo'lishi mumkin.

Ko'rsatadiga n ta'sir bo'yicha ishchi organlarni tozalaydigan, maydalaydigan, aralashtiradigan va issiqlik beruvchi, uzatadigan bo'lishi mumkin.

### **Tasnif (klassifikatsiya)**

Sut sanoati korxonalarini texnologik uskunalari tuzilishi, ishlash Printsipi, bajaradigan texnologik oPeratsiyalari va ularni amalga oshirish usullariga qarab ajratiladi. Uskunalar o'zlariga tegishli bo'lgan umumiy xususiyatlariga qarab u yoki bu guruhga birlashtirilib tavsiflanishi mumkin: ish tsikli xarakteri bilan, ishlab chiqarish tizimiga mosligi bilan, mexanizmlanish va avtomatlashtirish darajasi bilan, funktsional vazifasi bilan va boshqalar.

Ish tsikli xarakteriga qarab uskunarlar davriy va uzluksiz bo'ladi. Davriy ishlaydigan uskunada mahsulotga ma'lum vaqt davomida ishlov beriladi, so'ng bo'shatiladi. Uzluksiz ishlaydigan uskunada mahsulotni yuklash(ortish), ishlov berish va bo'shatish bir vaqtda amalga oshiriladi.

Uskunaning mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasi u bajara-digan asosiy va yordamchi oPeratsiyalarning nisbati bilan belgilanadi. Bu nisbatdan yelib chiqqan holda uskunarlar avtomatlashtirilmagan, yarim avtomatlashtirilgan va avtomatlashtirilgan turlarga bo'linadi.

Avtomatlashtirilmagan uskunalarda yordamchi va asosiy oPeratsiyalar-ning bir qismi qo'l mehnati yordamida bajariladi. YArimavtomat uskunalarda asosiy oPeratsiyalarni uskuna, yordamchilarni esa odamlar bajaradi. Avtomatlarda hamma oPeratsiyalar uskunada bajariladi.

Texnologik uskunaning ishlab chiqarish tizimidagi tutgan o'rniga qarab alohida birliklari (bitta oPeratsiyani bajaradi), agregatlar (ketma-ket har-xil oPeratsiyani bajaradi), uskunarlar kombinatsiyasi (yakunlangan oPeratsiyalar tsiklini bajaradi) va Potokli texnologik liniyalar (hamma oPeratsiyalar uzluksiz Potokda bajariladi)

Sut xom ashyosiga ishlov berish usuli va ta'sir ko'rsatish Printsipilariga qarab uskunarlar funktsiyasi belgilanadi. Funktsional belgisiga qarab uskunarlar quyidagi umumiy guruhlarga bo'linadi: sutni qabul qilish, transPortirovka qilish va saqlash uchun; sutga mexanik ishlov berish uchun; sutga issiqlik ishlovini berish

uchun; quyultirish va quritish uchun; sut va sut mahsulotlarini quyish, qadoqlash va uPakovka qilish uchun. Funktsional alomatlariga qarab tasniflash uskuna ish Printsipi mexanika, gidromexanika, issiqlik fizikasi, fizikimyo, biokimyo va mikrobiologiya qonunlari bilan maxkamroq bog'lash imkonini beradi.

Bundan tashqari sut mahsulotlarining konkret turlarini ishlab chiqarish uchun qo'llaniladigan uskunalar (sariyog' tayyorlovchi, sariyog' hosil qiluvchi, frizerlar, sqr uchun Presslar) ham foydalaniladi)

### **Uskunalarining asosiy ko'rsatkichlari**

Texnologik uskunalarining ishi texnik xarakteristikasini tashkil qiluvchi texnologik va texnik ko'rsatkichlari orqali ifodalanadi. Ularga odatda quyidagilar kiradi:

- Quvvati, ya'ni qayta ishlanadigan xom ashyo yoki ishlab chiqariladigan mahsulotning vaqt birligidagi miqdori;
- sarflanadigan energetik quvvat, vaqt birligidagi issiqlik yoki sovuqlik miqdori, elektr energiyasi bilan ifodalanadi;
- elektr energiyasi ko'rsatkichlari (kuchlanish, chastota, fazalar soni) issiqlik tashuvchi ko'rsatkichlari (harorati, bosimi). Sovuqlik tashuvchi ko'rsatkichlari (turi, harorati);
- xom ashyo va ishlab chiqaradigan mahsulot ko'rsatkichlari;
- uskuna va uning ayrim elementlari va qismlari ishlash rejimi ko'rsatkichlari – bosim, harorat, aylanish chastotasi va boshqalar;
- uskuna gabarit o'lchamlari va massasi;
- eksPluatatsiya sharoitlari (ishlab chiqarish binosi xarakteristikasi, harorati va havoning nisbiy namligi)

Uskuna texnik xarakteristikasi uning konkret mahsulot turini ishlab chiqaradigan texnologik oPeratsiyani bajara olishga yaroqli ekanligini aniqlab beradi.

### **Uskunaga qo'yiladigan asosiy talablar**

Sut sanoati korxonalarini texnologik uskunalariga, hamma turdagi oziq-ovqat uskunalariga tegishli umumiy talablar bilan birga mahsus, ya'ni qayta ishlanadigan xom ashyoning hususiyatlariga qarab hamda havfsizlikni ta'minlovchi talablar qo'yiladi.

Sut korxonalarini texnologik uskunalariga qo'yiladigan umumiy talablarga, kerak darajadagi quvvati, material va energiyaning minimal sarflanishi, mehnat hajmi va foydalanish havfsizligi, ishlab chiqariladigan mahsulot sifati, remont qilish imkoni, ishonchliligi, uzoq muddatliliigi, ekologik havfsizligi kiradi.

Sut xom-ashyosini qayta ishlovchi texnologik uskunalarining o'ziga xosligi – bu uning konstruksiyasiga qo'yiladigan yuqori darajadagi sanita-riya talablari.

Texnologik uskunalarning ish organlari konstruksiyasi shunday bajarilgan bo'lishi kerakki, eksPluatatsiya sharoiti buzilgan noqulay sharoitda ham moylovchi yog'lar, zang yoki metall changlari va boshqa yot materiallar va Predmetlar ish zonasiga tushib qolish extimoli bo'lmasin.

Texnologik uskunalar konstruksion materiallari oziq-ovqat mahsulotlari bilan kontaktda bo'lganda, mahsulotni ifloslantirmaydigan va sifatini tushirmaydigan bo'lishi lozim. Ish zonasida qo'rg'oshindan, tsinkdan, misdan, ularning qotishmalaridan yasalgan detallardan foydalanish hamda kadmiy, nikel, xrom, emal, PenoPlastlar, formaldegid asosida tayyorlangan Plastmassalar, takibida oyna tolasi (steklovolokno) bo'lgan materiallar, asbest keramikadan, shishadan yasalgan qismlar qoPlanishlar yordamida qo'llanilishi man etiladi.

Foydalaniladigan materiallar uskunalarni surunkali yuvish, tozalash va dezinfektsiyalar jarayonlaridagi kimyoviy, issiqlik va mexanik ta'sirlarga bardosh bera oladigan bo'lishi lozim. Konstruksion materiallarning ish zonasidagi rangi oziq - ovqat mahsuloti sifatini aniqlashga va tozaligini nazorat qilib turishga halal bermasligi kerak.

Metallokonstruksiyalar (ramalar, stanina, bog'lovchi va boshqalar) yasash uchun qirqim bo'yicha yoPiq shakldagi Profillardan foydalanish lozim.

Uskunalar konstruksiyasi mahsulotni tashqi muhitdan ifloslanishdan himoya qila olishi kerak, mahsulotni yoki yordamchi materiallarni atrofga sochilish ehtimolini oldini olish, uskunaning to'la bo'shatilishi va sifatli tozalanishi, mahsulot qoldiqlari qolib chirishi jarayonini oldini olish imkonlarini berishi kerak. Hamma yog'i sanitar ishlovi berish va uni nazorat qilish uchun qulay bo'lishi shart.

Mahsulotga ishlov berish zonasi konstruksiyasida, agar texnologik talablarga asosan ko'zda tutilmagan bo'lsa, yuvilmaydigan joylar, tor cho'ntaksimon chuqurlar, yoriqlar, to'siqlar, zinachalar ( stuPenka), keskin toraygan kesimli joylar bo'lmasligi kerak. Jumladan vannalar, metall idishlar va qismlar oson yuvib tozalanadigan silliq, tozalashni qiyinlashtiradigan, halaqit beradigan do'nglik, tor oraliqlar, detallarsiz yuzaga ega bo'lishlari lozim.

YOPIq tizimda sanitar ishlovi (bezrazbornaya moyka) berishga mo'ljallangan mahsulot zonasi konstruksiyasi, vaqti – vaqtida yechilib qo'l bilan yuvib tozalash va nazorat qilish imkonini bera oladigan bo'lishi kerak. Yechiladigan va yig'iladigan qismlar va detallar oson bo'linadigan biriktiruvchilar bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

Uskunaning mahsulot zonasida zaklePka, boltlar, nuqtali Payvandlash, bir-biriga kiydirilib mahkamlangan bog'lanishlar qo'llanishi man etiladi. YUzalar ulangan joyi va burchak qirralari 6 mm dan ko'Proq radius bo'yicha, mexanik yuvish qo'llanilganda 50 mm dan kam bo'lmagan radiusda bajarilgan bo'lishi lozim. Uskunadan chiqqan oqava suvlar to'kiladigan quvurlar kanalizatsiya tizimiga sifonlar yordamida yoPIq holda ulangan bo'lishi kerak. Vallarning zichlab mahkamlangan moslamalari xom-ashyo, yuvish vositalarining uzatish mexanizmlariga, moylovchi materiallarning esa, mahsulot zonasiga tushishi xollari oldini olish shart. Uskunaning joylashishi, uning quvurlar bilan ulanishi, kanalizatsiyaga bog'lanishi sanitar ishlov berish va nazorat qilishga to'sqinlik



bermasligi lozim. Armaturalar joylashuvi va quvurlar ulangan yerlari mahsulotga boshqa narsalar (gidravlik yog', sovutish suyuqliklari va x.k) oqib tushib ifloslantirishi va uskunaga sanitar ishlov berishga xalaqit qilishi hollariga yo'l qo'ymaslik kerak.

Uskuna tashqarisi izolyatsiyasi atrof muhitni va mahsulotni ifloslantirmaydigan, haroratni o'tkazmaydigan materiallardan bajarilgan bo'lishi kerak. Jumladan, har qanday yuzani steklovolokno yoki shlakovata tarkibli materiallar qo'llab izolyatsiya qilish mumkin emas.

GOST 12.2.003 "Ishlab chiqarish uskunalari. Havfsizlik umumiy talablari" ishlab chiqarish uskunalariga havfsizlik talablarini belgilaydi, jumladan konstruktsiyalarga, ularni boshqaruv organlariga, himoya vositalariga, hamda montaj va ta'mirlash ishlari, ishlab chiqarish uskunalarini transPortirovka qilish va saqlash hususiyatlari bilan belgilanadigan havfsizlik talablarini. Uskunalar montaj, eksPluatatsiya, ta'mirlash, transPortirovka va saqlashda havfsiz bo'lishlari, tashqi muhitni o'rnatilgan me'yordan ortiq zaharli moddalar chiqarib ifloslantirmasligi kerak. Uskunalar havfsizligi faoliyat Printsipi, konstruktiv sxemalarni, havfsiz konstruktsion elementlarni tanlash va x.k., mexanizatsiyalar, avtomatlashtirish, distantsion boshqarish va himoya vositalarini qo'llash yordamida; ergonomika talablarini bajarish bilan; texnik xujjatlar tarkibiga montaj, eksPluatatsiya, ta'mirlash, transPortirovka qilish va saqlash jarayonlaridagi havfsizlik talablarini kiritish bilan ta'minlanadi. Uskunalar yong'in va Portlashdan havfsiz, yuqori namlikka, harorat va bosim hzgarishiga, agressiv moddalar ta'siriga, shamol kuchiga, muzlashga chidamli bo'lishi kerak.

Uskunaning xarakatlanuvchi qismlari – sidiruvchi, vallarning uchlari va ularning elementlari (vintlar, shPonkalar), valiklar, roliklar, ochiq uzatkichlar, konveyer tasmasi qayrilgan yeridagi baraban yonlari, Payvandlangan joylar, mahsulot solish bunkerlari(voronka) – to'siqlar yordamida o'ralgan bo'lishi lozim. Tishli uzatmalarning butunlay mahkamlab tashlanmagan to'siqlari (boltlar, vintlar va x.k.) mashina to'la to'xtagandan so'ng ochish imkonini beradigan yoki to'la yoPilganda mashina ishga tusha oladigan moslama bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Ishchi xizmatchilar ish zonasi mexanizmlar, xom ashyo va tayyor mahsulotlar xarakterlanish zonasidan tashqarida bo'lishi kerak.

Uskunalar konstruktsiyasida konveksion va nurli issiqlik (luchostogo tePla) ajralib chiqishini chegaralash choralarini ko'rish imkonini berishi lozim (tePloizolyatsiya). Belgilangan joyni sovutadigan mashinalarda, sovutish agenti (xladonositel) yo'q bo'lganda mashinani ishga tushishini blokirovkalovchi moslama o'rnatilgan bo'lishi lozim.

Namlik, gazlar chang va yot xidlarni ajratib chiqaruvchi uskunalar maksimal ravishda germetik yoPilgan bo'lishi kerak.

Germetik yetarlicha bo'lmasa, ventilyatsion tizim yordamida havoni xaydashni ta'minlash lozim.

Uskuna tashqi qismidagi bo'rtiq qismlari 5 mm dan katta radiusda yumaloqlangan bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish uskunasini ishga tushirish knoPkasi korobka korPusidan 3 – 5 mm chuqurlikda o'rnatilgan bo'lishi kerak.

Doimiy ish joyidagi boshqaruv organlari (knopkalar, qo'luslagichlar, maxoviklar va x.k.) quyidagicha chegaralangan ish zonasida joylashgan bo'lishi kerak: uzunasiga 0,7 m gacha, 0,4 m gacha chuqurlikda, 0,6 m gacha balandlikda. Ko'rsatilgan boshqarish organlari Pol yuzasidan (Ploo'adkadan) 0,9-1,5 m tik turib boshqarilganda va 0,6-1,2 o'tirib boshqarilganda balandlikda bo'lishi kerak. Barcha qo'luslagichlar, knopkalar, maxoviklar va boshqa boshqarish organlari ularning funksional vazifalarini bildiradigan belgilar yoki yozuvlarga ega bo'lishlari hamda mos ranglarga bo'yalgan bo'lishlari lozim:

Qizil – to'xtash;

Axromatik (qora, kulrang yoki oq), ba'zida yashil – ishga tushirish;

Sariq – avvriya xolatida ishga tushirish;

Axromatik yoki ko'k – maxsus ulanish.

YUqorida joylashgan mashina va uskunalarga xizmat ko'rsatish maydonlari to'siqlar va zinalar (qo'luslagichlari bilan) bilan jixozlangan bo'lishi kerak, hamda 0,7 m dan kam bo'lmagan o'tish yo'lkachalariga ega bo'lishi lozim.

Maydonchalar yuzasi sirpanchiq bo'lmasligi va chekka qismlari 0,15 m balandlikda bo'lishi kerak. To'siqlar va Perilalar balandligi 1 m dan kam bo'lmasligi, maydonchasi (zina) yuzasidan 0,5–0,6 m balandlikda esa uzunastga qo'shimcha to'siq va har 1,2 m dan uzoq bo'lmagan oraliqda vertikal ustunlar o'rnatilmog'i lozim. Zinalar 3–5 m balandlikda o'tish maydonchalari bilan jixozlangan bo'lishi kerak; zina kengligi – 0,6 m dan kam bo'lmasligi; bosqichlar oralig'i – 0,2 m, bosqich kengligi – 0,12 m dan kam bo'lmasligi kerak. 1,5 m dan baland zinalar  $45^{\circ}$  dan kam bo'lmagan qiyalikka, kam balandlikdagilar–gorizontga nisbatan  $60^{\circ}$  gacha qiyaliqqa ega bo'lishi kerak.

Uskunalarining oyoq yordamida boshqarish (Pedillari) moslamalari to'siqlar bilan jixozlangan yoki uskunaning bexosdan to'xtab qolishi oldini oladigan (bexos Pedal bosilishi, biror narsa tushib ketishi), saqlagichlar (Predoxranitel) bilan jixozlangan bo'lishi kerak.

Pedal to'sig'i mustaxkam bo'lishi, qirralari tekislangan va oyoq xarakatiga xalil qilmaydigan bo'lishi lozim. Pedal yuzasi to'g'ri g'adur– budur yuzali va boshi yumaloqlangan va oyoqni tirash uchun to'siqli bo'lishi kerak. Pedal kengligi 80 mm dan kam bo'lmasligi tirash to'sig'igacha uzunlik esa – 110 – 130 mm kerak.

Pedal maydon (Pol) yuzasidan 120 mm gacha balandlikda (ishga tushmasdan), bosilishi 60 mm (ishga tushgach) ni tashkil qilishi; o'tirib boshqarganda Pedalga tushgan kuchlanish – 24,5 N, tik turganda – 34,5 N ni tashkil qilishi lozim.

Poldan 2 m balandlikda yoki chuqurlikda joylashgan zadvijskalar, ventillar va kranlar ish joyidan turib ochish va yo'pish imkonini beradigan moslamalarga ega bo'lishi kerak.

Ish joylariga o'rnatilgan statsionar nazorat o'lchash apparaturalari Poldan 2 m gacha balandlikda bo'lishi kerak.

Uskunalarining tok o'tkazuvchi qismlari ishonchli qilib elektroizolyatsiyalangan, to'silgan yoki odamlar tega olmaydigan joylarga bo'lishi

kerak.

Texnologik uskunalarga o'rnatilgan elektr apparatlari, hada ularning yerga ulangan simlari elektruskunalari qurilmalari qoidalariga talablariga javob berishi lozim.

Uskunalar yuzasining ish joylaridagi to'siq va quvurlarning qizish darajasi  $45^{\circ}\text{S}$  dan oshmasligi lozim. Vanna, baklar va boshqa ishchi idishlar kanalizatsiya tizimi bilan yo'Piq usulda bog'langan to'kish, toshib quyilish moslamalari va yo'Pib qo'yish moslamalari bilan jixozlangan bo'lishi kerak.

Bosim ostida ishlaydigan uskunalar (avtoklavlar, sterilizatorlar va b.) bosim ostida ishlaydigan idishlarni eksPluatitsiya qilish xavfsizligi va tuzilish qonunlariga asosan loyixalanadi va eksPluatatsiya qilinadi.

Bu qoidalar  $0,07\text{ MPa}$  dan ortiq bosimda ishlaydigan metall idishlarga tegishli.

Idishlar konstruksiyasi ishonchli, eksPluatatsiya qilishda xavfsiz, ko'zdan kechirish, sanitar ishlovchi va ta'mirlash imkonini beradigan bo'lishi lozim. Ich qismini ko'zdan kechirishga xalaqit qiladigan hamma narsa olinadigan bo'lishi kerak. Ichki diametri  $800\text{ mm}$  katta bo'lgan idishlar soni yetarlicha bo'lgan ta'mirlash va ko'zdan kechirish teshiklariga (tuynuk) ega bo'lishlari kerakki, ular xizmat ko'rsatish uchun qulay yerlarda joylashgan bo'lsin. Tuynuklar yumaloq va oval shaklda bo'ladi. aylana shakldagi tuynuklar diametri  $400\text{ mm}$  dan kam bo'lmasligi, oval shakldagilar kichik o'qi kamida  $325\text{ mm}$ , kattasi –  $400\text{ mm}$  bo'lishi kerak. Quvursimon issiqlik almashtirgichlar ko'rinishidagi idishlar lyuk va tuynuklarsiz yasalgan bo'lishi mumkin. To'ntariladigan idishlar o'z-o'zidan to'ntarilib ketish oldini oladigan moslamalarga ega bo'lishi kerak. Idishlar tagi odatda eliPtik shaklda bo'ladi, lekin shar yoki shar segmenti ko'rinishida ham yasalgan bo'lishi mumkin. Idishlarning Payvandlangan yerlari faqat bir – biriga nisbatan bir tekislikda bajarilgan bo'lishi kerak. Har xil qalinlikdagi elementlar Payvandlanganda bir elementdan ikkinchi elementga qirralarsiz, bir maromda o'tishi kerak. O'tish yuzasi qiyaligi  $15^{\circ}$  oshmasligi lozim.

Payvandlanadigan elementlar qalinligi nisbati  $30\%$  dan ko'P bo'lmasa va yuPqa element qalinligi  $5\text{ mm}$  dan ortiq bo'lmasa, qalin elementlarni yuPqalamasdan Payvandlashga ruxsat etiladi.

Pastki qismi ko'zdan kechirish uchun noqulay bo'lgan gorizontallarda bo'yicha Payvandlangan yo'l  $140^{\circ}$  ga teng Pastki qismidagi markaziy burchakka to'g'ri kelmasligi lozim.

Tuynuk va lyuklar teshiklari Payvandlash choklariga to'g'ri kelmaydigan (joylarda) yerlarda qurilishi joylashgan bo'lishi kerak.

Idishlarni (sosudlarni) tayyorlash va ta'mirlash uchun bosim ostida ishlaydigan sosudlar tarkibi va xavfsizlik qonun va qoidalarida keltirilgan materiallardan foydalanish lozim.

### **Kichik korxonalar uskunalariga quyiladigan talablar**

Kichik quvvatli korxonalarda katta quvvatga ega texnologik uskunalaridan foydalanish, maksadga muvofiq emas, chunki ular qimmat narxga ega, ularni to'la

quvvatda eksPluatatsiya qilishga xom ashyo yetishmaydi.

Har tomonlama universal (bajaridigan ishi bo'yicha) va ko'PoPeratsiyali uskuna qo'llash iqtisodiy qulaydir. U oson va tez o'zgartiriladigan, arzon, ishonchli va ko'P muddatli bo'lishi lozim. Bunday uskunani agregatlash PrintsipiPiga asosan, umumiy uzatgichdan foydalanib, har xil oPeratsiyalarni bajaradigan o'zlashtiriladigan ishchi organlariga ega qilib yaratish mumkin. Detallarni va qismlari (unifitsirovannqe) almashtiriladigan va minimal o'lchamda bo'lishi mumkin.

Uskunalarining kichik korxonalarda ishlashi uchun, odatda, bug', siqilgan havo va gaz qo'llanilmaydi. Uskunalar va kichik korxonalar faoliyatining yuqori samaradorligi maxalliy issiqlik, suv, sovuqlik bilan ta'minlovchi manbalarga bog'liq. Ishlab chiqarish korxonalarini loyihalashda mahsulotlarni va xom ashyoni saqlash uchun tabiiy manbalardan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Kichik korxonalaridagi uskunalarini eksPluatatsiya qilish uchun maxsus tayyorlangan mataxassislar – texnologlar, mexaniklar, laborantlar va ishchilar talab qilinadi.

Nazorat savollari:

1. Mashina va aPParat deganda nimani tushunasizq
2. Qurilma strukturasi sinflanishi.
3. Himoya moslamasi deganda nimani tushunasizq
4. Uskunaning ishchi organi nimaq
5. Uskunalarining asosiy Parametrlari.
6. Uskunalar konstruktsiyasiga qo'yiladigan talablar.

## TASHISH USKUNALARI

Sut sanoatida sutni transportirovka qilish uskunalaridan nasoslar – asosiy hisoblanadi. Ular xom ashyo – sutni qabul qilishda, uskunalariga uzatish va ularni bo'shatish uchun hamda bajariladigan texnologik operatsiyalar oralig'ida transportirovka qilish uchun mo'ljallangan. Sutni armaturalar o'rnatilgan sut quvurlari orqali transportirovka qilinadi. Sut sanoatida 2 turdagi nasoslar qo'llaniladi:

Dinamik va xajmli.

Nasoslar ishini baholovchi asosiy ko'rsatkichlar – uzatish va bosim. Uzatish shunday ko'rsatkichki, u vaqt birligida nasos bilan uzatiladigan mahsulot miqdorini ko'rsatadi. Bosim – mahsulotni so'rib olish satxidan uni uzatishning eng yuqori nuqtasigacha bo'lgan balandlik.

**Dinamik nasoslar.** Bu turdagi nasoslarga Parrakli, vixrlm va boshqalar kiradi. Parrakli nasoslar o'z navbatida markazdan qochma va o'qli xillarga bo'linadi. Dinamik nasoslarning ishchi organlari aylanadigan ishchi g'ildirakdir. Energiya mahsulotga ishchi g'ildirakdan Parrak yoki disklarning tegib turgan sutga dinamik ta'siri orqali o'tadi.

Sutni xayday berish uchun markazdan qochma nasoslar keng qo'llaniladi.

**Markazdan qochma nasoslar.** Ular quyidagi asosiy qismlardan iborat: korpus, qopqoq, ishchi g'ildirak, zichlagich va kuch uzatish korpus qopqoq bilan birga kamera hosil qiladi. Korpusga bosim va kirish trubog'lari o'rnatilgan. Kuch bevosita elektrodvigatel validan uzatiladi. Bu nasoslarning ishlash printsipi korpusga o'rnatilgan, qopqoq bilan yo'pilgan ishchi g'ildirakning katta tezlikda aylanishidan hosil bo'lgan markazdan qochma kuchdan foydalanishga asoslangan. Mahsulot markazdan qochma kuch ta'sirida kamera periferiyasiga o'tilib, undan esa bosim trubog'iga kiradi. Buning natijasida kamera markazida bosim pasayishi yuz beradi.

Mahsulotning yangi qismi atmosfera bosimi ostida so'rish truboirovodq orqali kameraning markaziy qismi to'ldiriladi va tsikl takrorlanadi.

Nasoslar ikki guruhga bo'linadi: suyuqlik bilan to'ldirilgan va o'zi so'rib oladigan. Ishchi g'ildirakning konstruksiyasiga asosan markazdan qochma nasoslar Parrakli va diskli bo'ladi.

Parrakli nasoslar odatda suyuqlik bilan to'ldirilib turib ishlaydi va mahsulotni unchalik baland bo'lmagan satxga xayday oladigan (10m gacha).

Diskli nasoslar bir va ikki bosqichli bo'ladi. asosan bir bosqichli nasoslar keng tarqalgan. Bu nasoslarning ishchi g'ildiragi yo'naltiruvchi kanallardan iborat diskdir. Bunday konstruksiya sutga salbiy ta'sir etuvchi olimlarni kamaytiradi (ko'pirish, kuvlanish natijasida sut yog'ining disperslanishi va x.k.). Bunday nasoslar bosimi sutni 30 m dan ham yuqoriroq balandlikka uzatish imkonini beradi.

Ikki bosqichli diskli nasoslar 100m gacha bosim hosil qilishlari mumkin. Ular konstruktiv oddiy, yuvish uchun qulay, oson qismlarga ajraladi va yig'iladi.

**Xajmli nasoslar.** Ularning ishlash Printsipi shundan iboratki, ishchi kameraga kelib tushayotgan mahsulotning ma'lum bir xajmli ish organi orqali bosim Patrubkasiga itarib kirgiziladi. Korpus va qopqoq nasosning bosim beruvchi va so'ruvchi Patrubkalari bilan birga ishchi kamerasini hosil qiladi. Bu nasoslar yo'qoq, Plastik konsistentsiyali sut mahsulotlarini xaydash uchun qo'llaniladi (qaymoq, smetana, muzqaymoq aralashmasi, tvorog va b.).

Xajmli nasoslar rotorli, vintli, shiberli, kulachkovqe, shesterniyali, membranali, Porshenli bo'ladilar. Rotorli, vintli va Plunjerli nasoslar keng tarqalgan.


Rotorli nasos quyidagi asosiy qismlaridan tashkil topgan: rama, Privod, nasosning o'zi va (kopshux) qobiq.

Rama yuqqa materialdan Payvandlab yasalgan konstruktsiya bo'lib, nasos Privodini, nasosning o'zi va boshqa uzellarni montaj qilish uchun mo'ljallangan.

Rotorli nasoslar (V3-ORA-2, V3-ORA-10) sut mahsulotlarini (qaymoq, kontsentrlangan va quyultirilgan(45%) sut, muzqaymoq aralashmasi, gordon sut mahsulotlari) 90 °S haroratgacha quvurlar orqali uzatishga mo'ljallangan.

Xajmli nasoslardan biri K5-ONV. U sut-konserva zavodlarida quyultirilgan sutni Purkab quritadigan uskunaga haydab berish uchun ishlatiladi. Bu nasos uch Plunjerli yuqori bosim hosil qiluvchi nasosdir. U krivoship-shatun mexanizmidan, Privod, gidravlikali blok va qobig'dan iborat. Krivoship-shatun mexanizmi harakatga elektrodvigateldan klinoremenli uzatkich yordamida keltiriladi.


Korpus ichida moy vannasi mavjud. Ishqalanish yuzalari moyni Purkash yo'li bilan moylanib turiladi. Korpusga elektrodvigatel ikkita tayanch orqali sharnirli qilib o'rnatilg



### Markazdan qochma elektronasoslar.

